



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“IQTIDORLI YOSHLAR – INTELLEKTUAL, IJODIY ELITANI
YARATISHNING KAFOLATI: AKADEMIK MOBILLIK VA
XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**



**26-aprel, 2024-yil
Navoiy shahri**



“Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2024.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi 2024-yil 26-aprel kuni o‘tkazilgan “Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, yosh olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrirlar:

B.Sobirov – Texnika fanlari doktori, professor.
D.Narzuqulova – Pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Taqrizchilar:

T. Nurmurodov Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori.

Sh.Toshturov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida dotsenti v/b.,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

A.Xoshimov – Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkilotish bo‘limi boshlig‘i

F.Sayfullayeva – Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi muhandisi

Texnik muharrir:

M.Norqobilov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida dotsenti v/b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ma‘ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma‘lumotlar aniqligi uchun mualliflar ma’suldirlar.

EKOLOGIYA VA IQLIM O'ZGARISHLARI MUAMMOSINING DOLZARBLASHUVI SHAROITIDA "YASHIL IQTISODIYOT" NI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Ismoilov Azizbek
Navoiy davlat pedagogika instituti
Tarix yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Xayitov Zafar
NavDPI Tarix kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola yer yuzida sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari va oqibatlari "Yashil makon" samarsi, ozon qatlami yemirilishiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: azon qatlami, muzliklar, "Yashil makon" samarasi

Annotation. This article is dedicated to climate change and its effects on the earth, "green space" effect, ozone layer depletion.

Key words: azon layer glaciers, "green space" the effect.

Iqlim o'zgarishi. Global iqlim o'zgarishi dunyo miqyosida keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda yer yuzida iqlim o'zgarishlariga yer yuzida iqlim isishi, haroratning ko'tarilishi, qutb muzliklari erishi, turli zararli gazlar orqali ozon qatlamining yemirilishi, suv resurslaridan no'tog'ri foydalanish tufayli cho'llashish jarayoni paydo bo'lmoqda. Bu borada ko'plab tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda. 1980-yildan, ya'ni ma'lumotlar global daraja qayd etilishi boshlangandan beri va 2017-yil holatiga ko'ra, solishtiradigan bo'lsak, Yer sayyorasida harorat 1C ga oshgan. Bu ko'rsatkich sezilarli ko'rinmasa-da, lekin yer yuzidagi ko'rsatkichdan ancha baland. Bu esa Qutb muzliklarining erishi natijasida dengiz darajasining keskin ko'tarilishiga sabab bo'lyapti. 1896-yilda issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi sababli sayyorada haroratning oshishiga sabab bo'layotgan fikrlar ilgari surilgan, ya'ni issiqxonalarda haroratning ushlab turish natijasida yerda harorat ko'tarilib bormoqda. Buning natijasida muzliklar erishiga sabab bo'lmoqda.

Muzliklar – quyoshdan kelayotgan nurlarni qaytarib yerni salqinlatib turadi. Yer sharoitida muzliklar ajralib ular okeanlarga quyilishi sababli erigan suvlar okanlarga quyilib dengiz sathining oshishiga sabab bo'lyapti. Dengiz muzliklari erishi xuddi shisha idishiga o'xshaydi. Ular erib umumiy suv sathi ko'tarilmoqda. Yerdagi quruqlikning taxminan 10% muzliklar bilan qoplangan. Ulardan 90% Antraktidada qolgan 10% Grelandiyada joylashgan hisoblanadi. 2010-2020-yillar oralig'ida Grelandiya 3-5 trillion tonna muz erib ketgan. Bu yilda o'rtacha 357 million tonna muz eriganini anglatadi. Jami 1 million 700 ming kilometr maydon muz bilan qoplangan. Agar ularning barchasi erib ketsa dunyo dengiz sathi 6 metr ko'tariladi. Tadqiqotlar natijasida so'nggi 40 yil ichida 21% tezlashgan. Shu zaylda davom etadigan bo'lsa, 2100-yilga borib dengiz sathi 71 santimetrga ko'tarilishi mumkin. Bu qirg'oq bo'yi davlatlarning yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi.

Buning natijasida shamollar oqimining yo'nalishi o'zgarishiga juda katta ta'sir qiladi. Vaholanki, iqlim mintaqalariga ta'sir qiladi. Muzliklarning ko'p qismi Janubiy Qutb – Antarktidaga va Shimoliy Qutbda Grelandiya muzliklari katta maaydonni egallaydi. Bu muzliklar Yer o'qi aylanishi atrofidagi massalarni o'z ichiga oladi. Agar massalar ortsa, Yer aylanishi sekinlashadi. Ayniqsa, bo'sa ortishiga sabab bo'ladi. Agar muzliklar erib ketsa, okean sathi 7 metrga ko'tarilsa, 1 kun 2 milli sekundga ko'tarilishi mumkin.

Ozon qatlamining yemirilishi va iqlim o'zgarishiga juda katta sabablaridan biri bo'lmoqda. Ozon – Yer sirtidan 10-15 km balandlikda joylashgan atmosfera qatlami. Ozon Quyosh radiatsiyasining kuchini yutadi. Shuning uchun quyosh radiatsiyasi yerga yetib kelmaydi. Bu qatlam yemirilishiga sabab zavodlarning atmosferaga chiqarayotgan zaharli gazlar – freonlar xlarftoruglerodlar ozonning eng xavfli dushmani hisoblanadi. Shuningdek, xlor bilan bromning zahari natijasida ozon qatlamining 10% kamayganini ko'rishimiz mumkin. Ozon qatlamining yemirilishi insoniyat bilan birga tabiiy jarayonlar (vulqonlar uyg'onishiga, yer qa'ridagi

agzalarning ajaralib chiqishiga, bu qatlamdagi tuynuklarning kengayishiga) ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ozon qatlamini saqlash uchun 1987-yil qabul qilingan Monreal davlatnomasi xlorforuglerodlar ro'yxati tuzib chiqilgan va bu moddalarni kamaytirishni zimmasiga oladi. 1995-yil Freon ishlab chiqarishni ikki barobarga qisqartirish. 2000-yilda esa batamom to'xtatish ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda ham ko'plab davlatlar hamkorligida bu borada izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda atrof-muhitni himoya qilish borasida ko'plab qaror va farmonlar, ko'plab ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan doirada O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2021-yil dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlarning muhofazasini yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni tadbir etish belgilangan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturida atrof-muhit obyektlarini inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'siri sifatini ta'minlash, respublika ekotizimini himoya qilish va tiklash ishlari boradi. "Yashil makon" umummilliy loyihasida amalga oshirish muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyihani amalga oshirish doirasida yiliga 200 million tup ko'chat ekish orqali shaharlarda yashil maydon 8% dan 30% foizga oshirish reja qilingan.

Shavkat Mirziyoyevning "Yashil makon" loyihasi va obodonlashtirishni o'z ichiga olgan vazifa qilib qo'ydi. Bahor mavsumida 4952 mahalladan jami 2000 tasida 21000000 ko'chat tup yetishtirish shart etib belgilandi. Lekin respublikadagi 742 ta mahalladagi ko'chat ekilmagan, 2.5 ming ko'p qavatli uylar hududining 30% ga 250000 ko'chat ektirib yashil hudud barpo qilish 38 ta yangi shahar massivlarida 1gektardan yashil xiyobon tashkil etish zarurligi. Bu orqali toza ekologik zona tashkil etish nazarda tutildi, shuningdek, yashil makon ba'zi viloyat kamchiliklari haqida ham aytib o'tdilar.

Darhaqiqat, ekologiya, atrof-muhitni asrash har bir insonning burchi hisoblanadi. Har bir inson o'z oldiga ekologiyani asrash, suv resurslaridan oqilona foydalanishni qo'yishi shart. Chiqindilarni to'plash, ularni qayta ishlash tizimini tubdan takomillashtirish. Bu borada hamma o'z hissasini qo'shmog'i lozim. "Yashil makon" dasturi bo'yicha har bir mahallada ko'chatzor va bog'lar tashkil etishga yordamlashish kerak. Ichimlik resurslari tugab borayotgan zamonda turibmiz, shuning uchun ichimlik suvlaridan tejamkorlik shartlariga rioya qilinmog'i zarur. Yana bir narsani aytib o'tish joiz, avtomobillardan chiqadigan zararni kamaytirish maqsadida."Ekologiyani asrashga o'z hissangizni qo'shing, avtomobilsiz bir kun sayr qiling" dasturini jamoatchilikka keng targ'ib qilish kerak. Asqad Muxtorning shunday so'zlari bor: "Tabiat – yaxshilik va go'zallikning bevosita ifodasidir".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz> muzliklar shiddat bilan eriyapti dunyoni kutayotgan xavflar.
2. <https://uz>. Ozon qatlamining yemirilishi va iqlim.
3. PF –199-son 23.11.2023 Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish yashil makon loyihasi.
4. UZBEK.TV. Prezident Sh. Mirziyoyev. "Yashil makon" loyihasi masalasi bo'yicha videorolik.

QASHQADARYO OKRUGIDAGI NEFT VA GAZ KONLARINING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRI

Fayziyeva Mushtari Abdullo qizi
Termiz davlat universiteti
Texnologik ta'lim kafedrasini o'qituvchisi,
Fayziyev Habibullo Abdullo o'g'li
Termiz muhandislik-texnologiya instituti
Foydali qazilmalar koni geologiyasi va qidiruv razvedkasi
ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada, asosan, neft va neft mahsulotlarining atrof-muhitga salbiy ta'siri, neftning to'kilish oqibatlarining tabiati va davomiyligi, to'kilgan neft miqdori va turi, neft to'kilgan joyda atrof-muhit sharoiti va jismoniy xususiyatlari, vaqt omili, hukmronlik qiladigan ob-havo

sharoiti, ifloslanishdan ta'sirlangan atrof-muhitning biologik tarkibi, uning turlarining ekologik ahamiyati va ularning neft ifloslanishiga moyilligi shu bilan birga konlardan qazib olinayotgan tabiiy resurslarning insoniyat hamda atrof-muhitga geoeologik ta'sirini o'rganish, kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni kamaytirish mexanizmini takomillashtirish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: landshaft, ekologiya, atmosfera, biosfera, nef, gaz, minerallar, tuproq, o'simlik, hayvonot olami, atrof-muhit.

NEGATIVE EFFECTS OF OIL AND GAS MINES IN KASHAKADARYA DISTRICT ON THE ENVIRONMENT

Abstract. The article mainly discusses the negative impact of oil on the environment, the nature and duration of the consequences of oil spills: the amount and type of oil spills, the environmental conditions and physical characteristics where the oil spills, the time factor, the prevailing weather conditions, the biological composition of the environment affected by pollution, the ecological importance of its species and their tendency to.

Keywords: landssape, Esology, atmosphere, biosphere, neft, gas, menials, shadow, flora, fauna, environment.

НЕГАТИВНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье в основном рассматривается негативное воздействие нефти и нефтепродуктов на окружающую среду, характер и продолжительность последствий разлива нефти: количество и тип разлива нефти, условия окружающей среды и физические характеристики в месте разлива нефти, фактор времени, преобладающие погодные условия, биологический состав окружающей среды, подверженной загрязнению, экологическое значение ее видов и их значение для окружающей среды. склонность к загрязнению нефтью в то же время изучение геоэкологического воздействия природных ресурсов, добываемых на месторождениях, на человека и окружающую среду, обсуждается совершенствование механизма снижения возникающих негативных последствий.

Ключевые слова: ландшафт, экология, атмосфера, биосфера, нефть, газ, минералы, почва, растительность, животный мир, окружающая среда.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo okrugining iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslarga va geoeologik omillarga bog'liqdir. Shubhasiz, bu kelajakda ham davom etadi. Ushbu mintaqa iqtisodiy jihatdan rivojlanishida neft va gaz konlarining ahamiyati juda katta, shu sababli bu hudud mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy "lokomotivlaridan" biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, neft va gaz qazib olish atrof-muhit holatiga va Qashqadaryoning tub aholisi yashash muhitiga bevosita ta'sir qiladi.

Qashqadaryo okrugi zaminida davlat balansi hisobidagi 55 dan ziyod gaz va gazli kondensat konlari aniqlangan. Bu konlardan 6 tasi gaz-neftli, ikkitasi neftli, 24 tasidan ziyodrog'i gaz-kondensatli va 3 tasi gaz konlaridir.

Qashqadaryo statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning hajmi Qashqadaryo okrugi hududida so'nggi 10 yillik davr oralig'ida (2010-2020) yuqori ko'rsatkichlar bilan o'sib bormoqda. Xususan, 2010-yilda 127,8 ming tonna zararli moddalar atmosferaga chiqarilgan bo'lsa, 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, 152,2 ming tonna zararli moddalar atmosferaga chiqarilganligi qayd etiladi. Viloyatlar kesimida oladigan bo'lsak, atmosferaga chiqarilgan zararli moddalarning hajmi bo'yicha respublikada Qashqadaryo okrugi Toshkent viloyatidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Bu esa okrug hududida mavjud kimyo va neft kimyo sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar hisobiga yuz bermoqda (www.stat.uz).

O'zbekiston iqtisodiyotida neft va gaz sanoati yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ko'pgina mintaqalarda, xususan, Qashqadaryo viloyatida ushbu sanoat atrof-muhitga ta'sir qilishning asosiy manbai hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli so'nggi yillarda

neft-gaz kompaniyalari faoliyatining ekologik tarkibiy qismiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Qashqadaryo okrugi zaminida davlat balansi hisobidagi 55 dan ziyod gaz va gazli kondensat konlari aniqlangan. Bu konlardan 6 tasi gaz-neftli, ikkitasi neftli, 24 tasidan ziyodrog'i gaz-kondensatli va 3 tasi gaz konlaridir.

Qashqadaryo okrugi hududida, tabiiy sharoitlari noqulay bo'lgan bir qancha konlar majud bularga misol: Jarquduq, Odamtosh va Gumbuloq gaz konlari, Janubiy Qizilbayroq, Ko'chquduq va boshqa konlardir. Konlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish jarayonida atrof-muhitning barcha tarkibiy qismlarining (atmosfera havosi, suv va yer resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi) ekologik holatini doimiy monitoringini o'tkazish ko'zda tutilgan. Shu sababdan bugungi kunda Qashqadaryo okrugi tabiatiga texnogen omillarning ta'siri ilmiy tadqiq etish mavzuning dolzarbligi hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Qashqadaryo okrugining o'simliklarini akademiklar va tadqiqotchilar K.Зокиров E.П.Коровин, С.М.Мустафаев va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Relyefini Н.Д.Далимов Poslavskaya va boshqalar. Iqlim va agroiklimiy resurslarni Л.Н.Бабушкин yerusti suvlarini В.Л.Шульц, Qashqadaryo okrugi tuproqlarini С.Н.Рижов va Я.М. Носиров, М.А.Орлов, Н.Т.Муравева va boshqalar o'rganishgan. Bugungi kunda Qashqadaryo okrugining neft-gaz konlarini ishlatish jarayonida yuzaga keladigan geoekologik vaziyatlarni o'rganish yuzasidan S.I.Abdullaev, B.CH.Murtazaev, M.G.Nazarov, I.X.Jonqobilov, R.Usmonova, N.Eshniyazov kabi ko'plab tadqiqotchilar ish olib borishmoqda. [2]

Maqsadi va vazifalari.

Qashqadaryo okrugi neft va gaz konlarini baholash va ularni qayta ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan chiqindilarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora tadbirlar.

Neft bu – turli xil tuzilishdagi uglevodorodlar aralashmasidan tashkil topgan tabiiy yonuvchan yog'li suyuqlik. Uglevodorodlardan tashqari, neft tarkibida oz miqdordagi kislorod va oltingugurtli birikmalar va juda oz miqdordagi azotli birikmalar mavjud. Gaz va neft konlari yer osti qatlamlarida ham, alohida-alohida ham uchraydi.

Neft tarkibida bir necha ming suyuq uglevodorodlar mavjud. Ularning ulushi 80-90% ga etadi. Shuningdek, neft tarkibiga qatronlar, merkaptanlar, naften kislotalari, asfaltenlar va boshqa moddalar kabi boshqa organik birikmalar kiradi. Bundan tashqari, neft tarkibida 10% gacha suv va 4% gacha gaz mavjud. Oz miqdorda mineral tuzlar va iz elementlari mavjud. Ma'lumki, eng ko'pi, taxminan 57%, neftning kimyoviy tarkibida aromatik uglevodorodlar mavjud. Aromatik uglevodorodlarning miqdori kamroq, taxminan 29%. Asfalten va boshqa birikmalar 14% ni tashkil qiladi.

Neft qazib olish va qayta ishlash natijasida taxminan 48% uglevodorodlar va 44% uglerod oksidi hosil bo'ladi. Ushbu moddalar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular ifloslantiruvchi moddalardir. Shuningdek, neft tarkibida 30% ga yaqin metall mavjud.

Neft va neft mahsulotlarining ifloslanishi hamma joyda uchraydi: xususan, Qashqadaryo okrugi tuproq qatlamida, gidrosferada, atmosferada. Ifloslangan hududda yuzaga keladigan ekologik vaziyatning yomonlashishi munosabati bilan biz o'simlik va hayvonot olamlarining holati sezilarli darajada yomonlashayotganini ko'rmoqdamiz. [3]

Suv muhitiga tushgan neftning katta qismi transport yuqotishlarini anglatadi. Bu taxminan 35% ni tashkil qiladi. Bir oz kamroq, taxminan 32% daryo suvlari bilan ta'minlanadi. Neft mahsulotlarining taxminan 10% qirg'oq chiqindilari bilan birga keladi [4].

Suv yuzasiga tarqalib, neft suv havzalarining katta maydonlarini ifloslantiradi. Ma'lumki, neft hajmining birligi suv hajmini undan ming baravar ko'proq ifloslantirishi mumkin. Shunday qilib, 1 litr neft 1000 m³ suvga zarar yetkazadi. Buning sababi undagi sirt faol moddalar (sirt faol moddalar) tarkibidir. Ular barqaror neft emulsiyalarining shakllanishiga yordam beradi. Neft mahsulotlarining tarqalishi natijasida hosil bo'lgan yupqa neft plyonkasi havo almashinuvini oldini oladi, shu bilan birga o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Neft mahsulotlarining tirik organizmlarga ta'siri fiziologik faollikning buzilishi, organizmga uglevodorodlarning kiritilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar, yashash muhitining biologik

xususiyatlaridagi o'zgarishlar va boshqalarda namoyon bo'ladi [5]. Neft tarkibidagi fraksiyalarning bir qismi zaharli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu fraksiyalarning suvda so'rilishi yoki erishi paytida konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning toksikligi shunchalik yuqori bo'ladi. Yog' zaharli emulsiyalarni hosil qiladi, bu esa tirik organizmlarni halok bo'lishiga olib keladi.

Zamonaviy dunyoda atrof-muhitni neft va neft mahsulotlarining ifloslanishidan samarali himoya qilishni ta'minlaydigan turli xil usullar mavjud. Eng keng tarqalgan usullarga quyidagilar kiradi: mexanik, kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik [6], bundan tashqari, yangi usul va texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Bularga biosorbtsion usul, suvni ozonlash, magnit bilan tozalash, flotatsiya-kavitatsiya usuli bilan tozalash, magnit nanozarrachalar bilan tozalash, biologik tozalash va boshqalar kiradi.

Neft ifloslanishining atrof-muhitga ta'siri juda katta va murakkab. Neft sanoatining rivojlanishi bilan neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan hududlarning maydoni ko'payadi deb taxmin qilish mumkin. Binobarin, hozirgi paytda mavjud bo'lgan ekologik vaziyat yomonlashadi, bu esa inson salomatligiga bevosita salbiy ta'sir qiladi [7].

Sho'rtangazkimyo majmuasi ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan turli xildagi zararli chiqindilar atrof-muhitga o'z salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda, bular:

- atmosferaga chiqadigan zaharli moddalar asosan, uglerod oksidlari, azot oksidlari, oltinugurt oksidlari va uglevododlar;
- atrof-muhitga qattiq va suyuq chiqindilarni chiqishi, asosan, ya'ni alyuminiy oksidi, silikagel, tsiklogeksanni tozalashdan hosil bo'lgan reagentlar va quyi molekulyar polimerlar;
- majmuadan chiqadigan to'liq tozalanmagan oqova suvlar – maishiy oqova suvlar, yog'li oqova suvlar, kimyoviy moddalarni tutgan minerallashtirilgan oqova suvlar;
- majmuadan chiqadigan chiqindilar tarkibidagi turli xildagi zararli moddalar, asosan, oltinugurt oksidlari, azot oksidlari, uglerod oksidlari va boshqalar, biosferadagi barcha komponent va elementlarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun korxonada kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish, ajralib chiqqan zararli chiqindilarni tozalash qurilmalarini takomillashtirish va zaharli moddalarni zararsizlantirish choralarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S.I. Nazarov M.G. Siletib landshaftlarning xususiyatlari//O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 51-jild. – Toshkent, 2017. (Features of Siletib landscapes // information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 51. – Tashkent, 2017).
2. Abdullaev S.I., Janakobilov I.X. Sorkal Landshaftlarning xususiyatlari//O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 51-jild. – Toshkent, 2017. (Features of landscapes // information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 51. – Tashkent, 2017).
3. Abdullaev S.I., Usmonova R. Qashqadaryo havzasi tekislik qismi landshaftlarni tabaqalashuvi//O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 23-jild. – Toshkent, 2003. (Stratification of landscapes of the textual part of the kashkadarya Basin // information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 23. – Tashkent, 2003).
4. Abdurahmonov T., Jabborov Z. Tuproqlarni ifloslanish muammolari va muhofaza qilish tadbirlari: o'quv qo'llanma. – T., 2007. – B.25-26.
5. (Soil pollution problems and conservation measures: a tutorial. – T., 2007. – B.25-26).
6. Akramov B.Sh. Gaz va gaz kondensat konlarini ishlatish. – T., 2016. – B.3-9. (Use of gas and gas condensate fields. - T., 2016. – B.3-9).
7. Zokirov X.X., Qo'ldosheva Sh.A. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish: darslik. – B.306-315. (Conservation and its rational use: a textbook. – B.306-315).
8. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonuni. (7. The Nature Conservation Act of the Republic of Uzbekistan).
9. Dvadenko M. V., Majigatov R. V., Rakityanskiy N. A. Neftning atrof-muhitga

AVTOMOBILLARNI ISHLATISHDA KELIB CHIQUADIGAN ZARARLAR VA UNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI

Kamolova Shahnoza
Jizzax politexnika instituti,
“Ekologiya va atrof muhit muhofazasi” kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: shaxnoza7422@ mail.ru
Jo'raboyev Saidaxmad Marjon o'g'li
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobillar harakatlanishi natijasida tormoz mexanizmi detallari hamda shinalar yeyilishidan hosil bo'ladigan zarralar tarkibida metallarning kontsentratsiyasini aniqlash metodi hamda turli tarkibdagi asfalt-beton qoplamali yo'llarda hosil bo'lgan yo'l changlarini solishtirma tahlili keng yoritilgan. Shaharlarda zarracha moddalarning muhim hissasi yo'l harakati bilan bog'liq manbalar hisoblanadi. Yo'l harakati bilan bog'liq bo'lgan zarralarni quyidagilarga ajratish mumkin: yoqilg'ining to'liq yonmasligi va yonish jarayonida moylash materiallarining uchuvchanligi natijasida chiqariladigan chiqindi tashuvchi zarralar va tormoz mexanizmi detallari, shinalar yeyilishi va yo'l sirtining eskirishi natijasida hosil bo'lib, yo'l harakati sabab bo'lgan turbulentlik tufayli to'planib qoladi. Hosil bo'lgan zarralarning tarkibidagi metall kontsentratsiyasini aniqlash metodi, zarralarning fizik-kimyoviy xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Avtomobil tormoz mexanizmi detallarining yeyilishi natijasida hosil bo'lgan zarrachalarning inson salomatligiga salbiy ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil g'ildiraklari, harakat xavfsizligi, asfalt-beton tarkibi, yo'l changi, metall, yo'l changi, metallar, inson salomatligi.

Abstract. This article describes determining methods of metal emissions in the composition of small particles coming by brake mechanisms details and tire wear as a result of vehicle movement, and dust to be formed by comparative analysis on asphalt-concrete roads of different compositions. A significant contributor to particulate matter in cities is traffic-related sources. Traffic-related particles can be divided into: exhaust particles released by the incomplete combustion of fuel and the volatilization of lubricants during combustion and formed by brake mechanism parts, tire wear and road surface wear, and accumulated due to turbulence caused by road traffic. Information is provided on the negative impact on human health of the particles formed by eating the details of the car brake mechanism.

Keywords: automobile wheels, traffic safety, asphalt-concrete composition, yo'l changi, metallar, road dust, metals, human health.

Аннотация. В данной статье описаны методы определения выбросов металлов в составе мелких частиц, поступающих от деталей тормозных механизмов и шин в результате износа транспортных средств, и пыли, образующейся путем сравнительного анализа на асфальтобетонных дорогах разного состава. Значительную долю твердых частиц в городах составляют источники, связанные с дорожным движением. Частицы, связанные с дорожным движением, можно разделить на: частицы выхлопных газов, выделяющиеся при неполном сгорании топлива и улетучивании смазочных материалов при сгорании и образованные деталями тормозного механизма, износом шин и дорожного покрытия, а также накапливающиеся из-за турбулентности, вызванной дорожным движением. Приведены сведения о негативном влиянии на здоровье человека частиц, образующихся при поедании деталей тормозного механизма автомобиля.

Ключевые слова: автомобильные колеса, безопасность дорожного движения, асфальтобетонная композиция, дорожная пыль, металлы, здоровье человека

Uchinchi ming yillikning boshlanishi ikki muhim tendensiya bilan baholanadi. Birinchidan, hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolarga duch keldi (iqlim o'zgarishi, ozon qatlami buzilishi, chuchuk ichimlik suvining tanqisligi va ifloslanishi, yerlar va o'rmonlar tanazzuli, bioxilma-xillikning yo'q qilinishi, ortiqcha chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni utilizatsiyalash muammosi va hokazo). Ikkinchidan, dunyo jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Inson va atrof muhit himoyalaniishi holati hamda ifloslangan atrof-muhitning xavfli ta'siri qonuniyatlari va o'zaro munosabati haqidagi bilimlar tizimining shakllanishi umumiy muammosi, shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning yagona va kompleks tizimini yaratish muammosi vujudga keldi. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan hozirgi vaziyatni obyektiv baholashning iloji yo'q, kelajak istiqbollari belgilash haqida so'z yuritmasa ham bo'ladi.[1]

Atrof-muhitni ifloslantiradigan manbalardan biri avtomobil transporti hisoblanadi. Atmosferaga chiqariladigan hamma zararli moddalarning yarmidan ko'prog'i avtomobillarga to'g'ri keladi. Toshkent shahri va Respublikamizning yirik shaharlarida bu ulush miqdori yanada ko'proq. Buning sabablari – transport oqimining katta sur'atlar bilan oshishi, transport vositalarining texnik holati ekologiya talablarini qondirmasligi, yo'llarning yomonligidir. Katta magistral yo'llarda atmosferaga chiqariladigan uglerod va azot oksidlari, uglevodorodlar va boshqa zararli moddalar miqdori ruxsat etilgan chegaraviy miqdorlardan 5-10 marta ortib ketadi.

Hozirgi kunda eksplutatsiyadagi avtomobillar ichida tutash va zaharlilik bo'yicha belgilangan me'yorlarni buzadiganlari, o'rta hisobda 25 foizni tashkil etadi, bu ko'rsatkich ba'zi hududlarda 40 foizga yetadi. Bularning sabablari – avtokorxonalar va texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida tutash va zaharlilik bo'yicha me'yorlarga e'tibor bermaslik etilgan benzin ishlab chiqarish, sotilayotgan yonilg'ilar sifatini nazorat qilmaslik, avtomobillarni zaharliligi kamroq yonilg'iga o'tkazishga ahamiyat bermaslik, me'yoriy bazaning yetarli emasligi, nazorat-rostlash punktlarini tashkil etadigan ishlab chiqarish bazasining yetishmasligi.

Hozirgi kunda avtomobil transporti nafaqat atrof-muhitga balki inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Inson organizmiga ta'sir qilishiga qarab chiqindi gazlarni tashkil etuvchi moddalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- zaharli: uglerod, aldegidlar, qo'rg'oshinli birikmalar;
- kantserogenli (xatarli shish, o'sma hosil qiluvchi, benzopirin)
- qo'zg'atuvchi: oltingugurt oksidlari, uglevodorodlar.

Bu moddalarning odam organizmiga ta'siri ularning atmosferadagi miqdori va ta'sir etish davomiyligiga bog'liq.

Uglerod oksidi – rangsiz, hidsiz gaz. Nafas yo'llariga kirgach, qonga so'rilib gemoglobin bilan birikib, karboksigemoglobin hosil qiladi va bu reaksiyada kislorodga qaraganda 210 marta tez birikadi, natijada kislorod yetishmasligiga olib keladi. Buning belgilari markaziy nerv sistemasidagi buzilishlarda, nafas olish tizimining shikastlanishida, ko'rish qobiliyati pasayishida ko'rinadi. Uglerod oksidining sutkalik o'rtacha miqdori oshib borsa, yurak-qon tomir kasalliklariga uchragan odamlar o'limiga sabab bo'ladi. Havodagi miqdoriga qarab, nafas olgan odamni, 1 soat o'tgach yengil zaharlashi (Sq0,05%) yoki bir necha marta nafas olgandayoq hushidan ketkazishi mumkin (Sq1%).

Azot oksidlari – turli oksidlarning aralashmasidir. Bulardan eng xavflisi NO₂. Azot oksidlari o'pka va bronxlarning ishini buzadi. Ko'proq bolalar va yurak-qon tomir kasalligi bor kattalar zarar ko'radilar. Azot oksidlari havodagi miqdoriga qarab burun va ko'z shilliq pardalarini yallig'laydi (Sq0,001%), kislorod tanqisligini boshlab beradi (Sq 0,002%) o'pkani yallig'laydi (shishiradi, Sq 0,008%).

Oltingugurtli angidrid – o'tkir hidli, rangsiz gaz, suvda yaxshi eriydi va sulfat kislotasi hosil qiladi. Kam miqdorda bo'lsa ham uzoq vaqt ta'sir etsa, yurak-qon tomir kasalligini kuchaytirib, o'limga olib keladi, bronxit, astma va boshqa respiratorli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Havo tarkibidagi miqdoriga qarab oltingugurtli angidrid ko'zning shilliq pardasini yallig'laydi, yo'tal qo'zg'aydi (S 0,001%) tomoqning shilliq pardalarini qo'zitadi (Sq 0,002%), 3 minut o'tgach zaharlaydi. (Sq 0,004%), 1 minutdan keyin zaharlaydi (Sq 0,01%).

Uglevodorodlar – C_xH_y turidagi birikmalar guruhidir, qo'lansa hidli, azot oksidlari bilan fotokimyoviy reaksiyaga kirishib, smog hosil qiladi. Benz(o)piren-politsiklik aromatli uglevodorod (PAU) normal atmosfera sharoitlarida suvda yomon eriydigan kristall mahsulot, odam organizmida yig'ilib-yig'ilib ma'lum miqdorga yetgach, xatarli shishlar hosil qiladi.

Qoraqurum – chiqindi gazlarning qattiq tarkibi bo'lib, asosan, uglerod zarralaridan iborat. Odamga bevosita xavfi yo'q, faqat havoni ifloslantirib noxush qiladi, kantserogen moddalarni (PAU, 2% gacha) o'ziga yutadi, shu jihatdan boshqa zaharli moddalar, masalan, oltingugurtli angidrid ta'sirini kuchaytiradi.

Qo'rg'oshin birikmalari – benzina detonatsiyani yo'qotuvchi qo'shilma sifatida tetraetilqo'rg'oshin (TEQ) aralashirilsagina hosil bo'ladi. U odam organizmiga nafas yo'llari, terisi va oziq-ovqat orqali o'tib, asta-sekin yig'ilib boradi, nerv sistemasi, qon hosil qiluvchi a'zolari zararlaniradi.[2]

Chiqindi gazlarning zaharli moddalari, asosan, avtomobil haydovchisiga ta'sir qiladi. Transport vositalari kabinasidagi havo tarkibi analiz qilinganda, ulardagi (ayniqsa, yuk avtomobillari kabinasidagi) uglerod oksidi miqdori ruxsat etilganidan ko'p bo'lar ekan.

Hozirgi kunda atmosferasida uglerod oksidining miqdori ruxsat etilgandan 20-30 marta ortiq. Ma'lomotlarga ko'ra, vrachlar infarkt miokardi xastaligidan o'limning ko'pligi sababi aynan atmosferadagi uglerod oksidining miqdorining me'yoridan ortiqligi deb hisoblaydilar.

Shaharlar atmosferasida azot oksidi miqdori 10-100 marta oshib boryapti, azot oksidi havoda 3-4 kun saqlanib turadi, quyosh nuri ta'sirida fotokimyoviy reaksiyaga kirishib azot dioksidi NO_2 hosil qiladi. U uglevodorodlar bilan birga smog deb ataluvchi zaharli tuman hosil qiladi. Oltingugurtli gazning atmosferada saqlanish muddati 10 soat atrofida. SO_2 gazi kislotali yog'in-sochin keltirib chiqaradi, tuproq, suv va binolarning tashqi qoplamlarini buzadi.

Karbonat angidridning havodagi miqdori me'yorlanmaydi, SO_2 atmosferada 4 yil saqlanib turadi. Uglerod oksidining ko'payishi "issiqxona effekti" deb atalgan noxush holatga sabab bo'ladi, u yer yuzasidagi haroratni ko'tarib yuboradi. Organizmda qo'rg'oshin ko'p miqdorda to'planib qolsa, surunkali zaharlanishni keltirib chiqaradi.[2]

Hozirgi kunda respublikamiz hududida transport vositalarining sonining ortishi atrof muhitga ta'sirining o'sishi kuzatilmoqda.

Qo'yilgan vazifalarni quyidagicha yechish talab qilinadi:

Respublikamiz shaharlarining ko'cha-yo'l tarmoqlarining tasnifiga muvofiq ravishda transport vositalari harakatining tirbandligi hosil bo'lish sabablarini va uning tasniflarini aniqlash;

Respublikamiz shaharlarining ko'chalarida avtomobillardan chiqadigan zararli va zaharli moddalarning ta'sir qilish chegarasini aniqlash;

Respublikamiz shaharlarining avtomobillarini ta'mirlash va yuvish shahobchalarining ishlash jarayonidagi tashqi muhitga chiqadigan chiqindilar miqdorini aniqlash;

Transport oqimlari yuqori bo'lgan magistral yo'llar atrofida manzarali daraxt ko'chatlarini ekish, mevali daraxtlar, ekin maydonlarini yo'ldan uzoqroq hududlarga ekish tavsiya etiladi.

Kutiladigan natijalar:

Respublikamiz shaharlarida transport vositalarining to'xtab turish joylarini tanlashga, ularning tasniflariga qo'yiladigan talablarni yaqin va istiqboldagi avtomobillar sonining o'sishini hisobga olgan holda, avtomatik tarzda boshqarish mezonlari ishlab chiqiladi;

Respublikamiz ko'chalarida avtomobillardan chiqadigan zararli va zaharli moddalarning ta'sir qilish chegarasi aniqlanib, tavsiyalar ishlab chiqiladi;

Respublikamizdagi avtomobillarni ta'mirlash va yuvish shahobchalarining ishlash jarayonidagi tashqi muhitga chiqadigan chiqindilar miqdorini aniqlanib, zararni kamaytirish bo'yicha tashkiliy, texnikaviy va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi;

Transport oqimlari yuqori bo'lgan magistral yo'llar atrofida mevali daraxtlar va ekin maydonlarini yo'ldan uzoqroq hududlarga ekish orqali atmosferadagi zararli va zaharli gazlarning oziq-ovqat va meva mahsulotlari orqali inson organizmiga ko'rsatadigan zararli ta'siri kamayadi.

Transport vositalarining atrof-muhitga va inson organizmiga salbiy ta'sirini kamaytirishda ko'rsatayotgan muammolarni hal qilish borasida Respublika Ichki ishlar boshqarmasi, Yo'l harakati

xavfsizligi boshqarmasi hamda barcha manfaatdor bo'lgan tashkilotlar bilan birgalikda avtotransport korxonalar rahbarlari, haydovchilar va aholining ekologik madaniyatini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda hal etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy manbalardan foydalanish to'g'risidagi Milliy ma'ruza / S.V.Samoyilov, U.B.Abdujalilov, L.A.Aksinova va boshq.; – Toshkent: Chinor ENK, 2009. – 288 b.
2. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi: Oliy o'quv yurtlari bakalavrlari uchun darslik. Q.M.Sidiqzade, E.A.Asatov va boshqalar. –Toshkent.: 2007. – 516 b

РОЛЬ “ЗЕЛеной ЭКОНОМИКИ” В ЭКОЛОГИЧЕСКИХ И КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЯХ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

**Самаркандский институт экономики и сервиса
Кафедра “Информационные технологии”
учитель Каримов. Толмасбек. Холмоминович**

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunga kelib cheklangan resurslardan yanada oqilona va samarali foydalanish zarurligi iqtisodiyotning bosh masalasi va iqtisodiyotning barqarorlashuv jarayonini ta'minlashda kafolat ekanligi bosh masala sifatida asoslangan va etnoekologik madaniyatni tadqiq etishning geografik jihatlariga, uslub va yondoshuvlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida to'plangan ko'nikma, malaka va tajribalar asosida agroturizmni rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqilmoqda. Cheklanmagan ehtiyojlarni ta'minlashda atrof-muhitga bo'layotgan noodil xatti-harakatlar kelajak avlod hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu bois bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” ning o'rnini beqiyos.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, turizm, agroturizm, innovatsiya, sayyoh, madaniy meros, tiklanadigan energiya resurslari, atrof-muhit muhofazasi, populyatsiya, ekologiya, yashil zonalar.

Abstract. The article focuses on the geographical aspects, methods and approaches of ethno-ecological culture research based on the fact that the need for more rational and effective use of limited resources is the main issue of the economy and the guarantee of the stabilization process of the economy. Also, prospects for the development of agro-tourism are being developed based on the skills, qualifications and experience gained during the use of natural resources in agriculture. Unfair behavior towards the environment in the provision of unlimited needs can endanger the life of future generations. Therefore, today the role of "green economy" is incomparable.

Аннотация. В статье акцентируется внимание на географических аспектах, методах и подходах исследования этноэкологической культуры, исходя из того, что необходимость более рационального и эффективного использования ограниченных ресурсов является основным вопросом экономики и залогом процесса стабилизации экономики. Также разрабатываются перспективы развития агротуризма на основе навыков, квалификации и опыта, полученных в ходе использования природных ресурсов в сельском хозяйстве. Несправедливое поведение по отношению к окружающей среде при обеспечении неограниченных потребностей может поставить под угрозу жизнь будущих поколений. Поэтому сегодня роль «зеленой экономики» бесподобна.

Key words: green economy, tourism, agrotourism, innovation, tourist, cultural heritage, renewable energy resources, environmental protection, population, ecology, green zones.

Ключевые слова: зеленая экономика, туризм, агротуризм, инновации, турист, культурное наследие, возобновляемые источники энергии, охрана окружающей среды, население, экология, зеленые зоны.

В последние годы идея «зеленой» экономики широко обсуждается не только экономистами-экологами, но и во всем мире. В этой связи серьезным вниманием к политике «озеленения» расценивается тот факт, что этот вопрос неоднократно обсуждается на различных политических форумах со стороны руководителей государств и политологов. Сегодня, в условиях модернизируемой экономики, потребности человека растут беспрецедентным образом. Отсюда следует, что возрастает и «обращение» к природе в получении ресурсов, необходимых для удовлетворения потребностей. «Зеленая экономика» возникает из необходимости не допустить негативного влияния таких изменений на жизнь будущих поколений и обеспечить им комфортную жизнь.

Обострение экологических проблем в мире, особенно деградация природных ресурсов, загрязнение мирового океана и проточных вод, возникновение кислотных дождей, озоновых дыр, изменение климата требуют необходимости поиска наиболее эффективных путей оптимизации отношения между природой, человеком и обществом. Учитывая тот факт, что экологические проблемы приобретают глобальное значение, в последние годы особое внимание уделяется вопросам охраны окружающей среды, экологической культуры, экологического образования и экологического просвещения, а также важным приоритетным задачам. Поэтому вода рассматривается не как продукт, а как общий ресурс, и управление водоснабжением является обязанностью всего сообщества.

Резкое изменение культуры природопользования, которая использовалась местным населением, передавалась из поколения в поколение и сохранялась как особая ценность, основанная на гармонии с природой, вызвала негативные социально-географические последствия во все исторические периоды. Особенно в регионах с засушливым климатом видно, что отсутствие внимания местного населения к культуре использования земли и воды привело к негативным экологическим последствиям. Вот почему важно продолжать предоставлять такие системы будущим поколениям. В других странах традиционные системы управления водными ресурсами также важны, поскольку они уменьшают зависимость этноса от внешних поставщиков воды. Признание и уважение систем управления водными ресурсами и их ценностей, их расширение и продолжение передачи будущим поколениям — все это важно для разработки устойчивых решений водных проблем.

Экологическое образование. Если не предотвратить негативное влияние экономических отношений на природу, оно окажет серьезное негативное влияние не только на жизнь будущего поколения, но и на нынешнее состояние общества. И наоборот, если отношение человечества к природной среде изменится, если в первую очередь будет развиваться экологическая культура, если отношения с производством, обслуживанием и потреблением продукции адаптируются к усилиям по «озеленению», то мы и будущее поколение обязательно его жизнь изменится к лучшему. То есть «зеленая» экономика важна как для устойчивого развития, так и для экономического роста.

Экологическое образование. Если не предотвратить негативное влияние на экономические отношения и природу, то это окажет серьезное негативное влияние на будущие поколения, и это нынешнее состояние общества. С другой стороны, если изменится отношение человека к природной среде, то на первое место будет развиваться экологическая культура, если отношения с производством, обслуживанием и потреблением продукции адаптируются к усилиям по «озеленению», к моему и будущему. Поколение обязательно его жизнь изменится к лучшему. Появление «зеленой» экономики необходимо как для устойчивого развития, так и для экономического развития.

Вы можете увидеть диаграмму проектов возобновляемой энергетики Великобритании на рисунке 1 ниже. Подобные проекты помогут стране достичь лидирующих позиций в решении экологических проблем страны.





Рисунок 1. Структура проекта по развитию возобновляемых источников энергии Великобритании

На основе данных рисунка можно определить, что вклад биоэнергетических источников в проект развития возобновляемой энергетики Великобритании велик и составляет 66,14% (рисунок 1). Следующие места занимают ветровые (22,08%), солнечные (5,23%), тепловые (4,42%), гидроэнергетические (2,13%) источники. Индекс «зелености» европейских стран показан ниже, а самый высокий индекс среди стран принадлежит Швеции, Дании и Чехии.

Фигура 2. Показатели зеленой экономики европейских стран

Если сравнивать европейские страны, как я уже говорил выше, то Украина имеет самый низкий индекс – 48,32, а самый высокий индекс – 78,72 в Швеции (рис. 2). Можно сделать вывод, что Швеция добилась прогресса с точки зрения зеленых индикаторов и имеет

**ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА СТРАН ЕВРОПЫ
ИНДИКАТОРЫ**



эффективный механизм защиты окружающей среды.

В Республике Узбекистан изучен опыт многих зарубежных стран по вопросам «зеленой экономики», а реализация многих мер в области «Экологизации» является одним из важнейших программных вопросов в рамках экополитики. . В частности, серьезную

обеспокоенность вызывают бассейны основных рек нашего региона и сокращение биологического разнообразия. Испаряющиеся газы и крупномасштабное загрязнение воздуха усугубляют проблему. Сегодня ни у кого не вызывает сомнения, что усилия стран должны быть более активными и эффективными для достижения целей «зеленого развития». Зеленая экономика – экономическая система, основной целью которой является развитие всех сфер экономики при сохранении экологии нашей планеты. Таким образом, под зеленой экономикой понимается экономическая система, основанная на дальнейшем развитии экономики, связанной со сферой производства и услуг, при сохранении ресурсов, необходимых для жизни и здоровья человека, окружающей среды и экологии в целом.

Во-первых, для удовлетворения потребностей населения и повышения его благосостояния, уровня и качества жизни необходимо увеличить создание материальных благ без ущерба для экологии и окружающей среды.

Во-вторых, для производства и экономического развития необходимы энергетические ресурсы, которые следует увеличивать за счет возобновляемых источников энергии, замены общественного транспорта электрическим, строительства энергосберегающих зданий.

В-третьих, необходимо уделить особое внимание производству экологически чистой продукции путем создания экологически чистых технологий, не выделяющих вредных газов в окружающую среду.

В-четвертых, с одной стороны, учет безграничности потребностей человека в условиях, когда все ресурсы в природе ограничены, учет мер по расширению производства благ без сокращения природных ресурсов в целях обеспечения их совместимости является одним из неотложных вопросов.

В-пятых, для удовлетворения постоянно растущих потребностей населения большое значение придается вопросу о том, сколько производить, как производить и кому производить, сохраняя при этом окружающую среду.

Каждая нация и этническая группа создали системы использования и охраны природы, соответствующие изменениям в регионе и окружающей среде, где они живут.

Сегодняшняя экологическая устойчивость зависит от устойчивых систем природопользования, которые помогают повысить продуктивность земель, защитить биологическое и ландшафтное разнообразие, удовлетворить потребности в продовольствии и пропагандировать здоровый образ жизни. Постоянное совершенствование и укрепление таких систем на практике, а также обеспечение их сохранения имеют решающее значение в достижении продовольственной безопасности большинства народов мира, а также в отношениях между природой, человеком и обществом. Поэтому желательно охранять агроландшафты, то есть культурные ландшафты, как часть культурного наследия. При внедрении экологического образования необходимо создать возможность молодому поколению в полной мере использовать столь богатый источник знаний.

Поэтому при реализации экологического образования необходимо признать, что нематериальное культурное наследие является богатым ресурсом, и адаптировать его образовательные возможности. Для этого необходимо интегрировать знания об использовании и охране природы в образовательные программы в соответствующей области, обосновать использование этноэкологической культуры, традиционных методов и форм природопользования в решении экологических проблем. сегодня это необходимость.

Использованная литература:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. T.: Universitet, 2020, 156-bet
2. A. Stainer 2017, “The Green Shoots of the Green Economy”, Environmental Conservation, №2 vol 3 2019.
3. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atruf muhitni muhofaza qilish” konsepsiyasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4354743>.

5. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.

6. Abduganiyev Olimjon Isomiddinovich Comparative analysis of the protected natural territories of the Republic of Uzbekistan and the international Union of nature protection // European science review. 2018. №9-10-1. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/comparative-analysis-of-the-protected-natural-territories-of-the-republic-of-uzbekistan-and-the-international-union-of-nature-protection> (data obraheniya: 05.05.2022).

7. <https://www.project-syndicate.org/commentary/the-green>

8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>

9. www.uznature.uz

YOSHLARDA EKOLOGIYAGA BEFARQLIKNING OLDINI OLISH VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Kenjayev Ulug‘bek Muratovich
O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxs befarqligining barcha davrlarda turfa ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy va madaniy ziddiyatlar oqibati o‘laroq vujudga kelgani hamda turli ekzistensial asoslarga ega bo‘lgani isbotlanadi. Shaxs befarqligining ekologiyaga loqaydlik yo‘nalishining mazmuni va mohiyati, sabablari va oqibatlari bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan hamda umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, Yangi O‘zbekiston, vatanparvarlik, islohotlarga daxldorlik, fuqarolik burchi, ekologiya, madaniyat, ekologik befarqlik

Аннотация. В статье доказывается, что личностное безразличие возникло в результате различных социально-политических, экономических и культурных конфликтов и имело разные экзистенциальные основы. Анализируются и обобщаются вопросы, связанные с содержанием и сущностью, причинами и последствиями экологического индифферентного направления личностного безразличия.

Ключевые слова: образование, Новый Узбекистан, патриотизм, реформаторская деятельность, гражданский долг, экология, культура, экологическое безразличие.

Abstract. The article proves that personal indifference arose as a result of various social and political, economic and cultural conflicts and had different existential foundations. Issues related to the content and essence, causes and consequences of the environmental indifference direction of personal indifference are analyzed and summarized.

Key words: education, New Uzbekistan, patriotism, involvement in reforms, civic duty, ecology, culture, ecological indifference.

Zamonaviy kishilik jamiyatidagi jarayonlar, odamlarning ularga munosabati, kishilar ongi va ruhiyatidagi o‘zgarishlar, shaxslararo aloqalarda bo‘y ko‘rsatayotgan yangi holatlar va tamoyillar atroflicha yoritib borilmoqda. Yangi yuz yillikka kelib, kishilarning befarqligi turli shakllarda namoyon bo‘la boshladi. Masalan, bugungi demokratik jamiyatlarda kishilarning ijtimoiy jarayonlarga befarqligi jiddiy oqibatlariga olib kelmoqda. Hayoti va taqdirini qadrlamay qo‘ygan, unga befarq bo‘lib qolgan inson o‘z umri qay tabiiy shart-sharoitlarda o‘tayotganiga ham e‘tiborsiz bo‘lib bormoqda, shu boisdan u ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga, ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan sa‘y-harakatlarda jonbozlik ko‘rsatayotgani, o‘z faoliyatining ekologik oqibatlari xususida bosh qotirayotgani yo‘q. Jahonning barcha mintaqalarida tuproqning ifloslanishi me‘yori nihoyatda ortib ketdi. “Buning asosiy sababi mamlakatlarda sanoat va tog‘-kon sanoatining jadallik bilan rivojlanib borayotgani, qishloq xo‘jaligini yuritish

xarakterining tubdan o'zgarayotgani, transport infrastrukturasi qurilishining avj olayotgani, maishiy chiqindilarning ortayotgani bilan bog'liq. Sanoat, tog'-kon sanoati rivojlangani sayin ulardagi chiqindilar hajmi ham keskin ortyapti"[3]. Suv va havoning ifloslanishi me'yori ham bundan kam emas. Avtomobil, temiryo'l, havo va dengiz transportining atrof-muhitga chiqarayotgan gazlari, fabrika va zavodlardagi ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'layotgan chiqindilar atmosferani butkul ifloslantirmoqda [3].

Ana shunday bir vaziyatda ekologik faollar ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga, ekologik muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarini faollashtirayaptilar, barcha jamiyat a'zolarini turfa ekologik tadbirlarda ishtirok etishga chorlamoqdalar. Lekin ularning tuproq, suv, havo sofligini ta'minlashga, transportdan oqilona foydalanishga, ishlab chiqarish obyektlaridan chiqayotgan chiqindilarni kamaytirishga, maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilishni optimallashtirishga qaratilgan chaqiriqlari aksariyat hollarda e'tiborsiz qolib ketmoqda. Bu faktlar XXI asrga kelib, shaxs befarqligi ekologik sohada ham namoyon bo'layotganidan, ekologik befarqlik esa zamonaviy jamiyatning eng xavfli illatlaridan biriga aylanayotganidan dalolat beradi. To'g'ri, jamiyat a'zolarining ekologik ongida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, respublikaning turli nuqtalarida ekologik faollarni jamlagan guruhlar paydo bo'lmoqda. Lekin ushbu faktlar jamiyatda ekologik befarq kishilar mavjudligi haqidagi xulosani inkor qilmaydi.

Jamiyatning ayrim a'zolari ruhiyatida ekologik vaziyatga befarqlik alomatlarining yuzaga kelishi ekologik muhitni sog'lomlashtirish imkoniyatlarini pasaytirmoqda. "Ekologik muhit deganda muayyan hududdagi ekologik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, turli subyektlar orasidagi ekologik munosabatlarning xarakteri, mavjud ekologik muammolar tabiati tushuniladi" [3]. Binobarin, ekologik muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning asosiy yo'nalishlari ham, birinchidan, ekologik vaziyatni maqbul holatga keltirish, ekologik munosabatlarni optimallashtirish, ekologik muammolarni tizimli ravishda bartaraf eta borish bilan bog'liqdir. O'zbekistonda bu sa'y-harakatlar yil sayin jadallashib bormoqda. Xususan, "mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmisel shamollari va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmogda. O'tgan davr mobaynida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 588 gektar "yashil bog'lar", 662 gektar "yashil jamoat parklari", Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada "yashil belbog"lar barpo etildi" [1].

Ekologik vaziyatga befarqlik alomatlarining yuzaga kelishi inson turmushining sanitariya-gigiyenik holatini yomonlashtirmoqda. Jamiyat a'zolarining ekologik vaziyatga befarq bo'lgan muayyan qismi o'zi yashayotgan maskanni qaysidir mutasaddi obod qilishiga, oddiy maishiy muammolarini hal qilishiga, sanitariya-gigiyenik holatini yaxshilab berishiga umid qilib yashashga odatlanmogda. Vaholanki, mamlakat Prezidenti ta'kidlaganidek, "biz yashayotgan go'zal zaminni farzand va nabiralарimiz uchun, bugungi va kelgusi avlodlarning baxt-saodati va farovonligi yo'lida yanada obod qilish bizning umumiy ma'naviy burchimiz" [2].

Shaxs befarqligiga barham berishning omili uning ekologik xabardorligi darajasini oshirish bilan bog'liq. Ekologik xabardorlik deganda shaxsning mamlakatda hukm surayotgan ekologik vaziyatga doir ma'lumotlarga egaligi, ekologik munosabatlarning mazmun-mohiyati haqidagi bilimlar va zamonaviy g'oyalarni egallaganligi, ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning mazmunidan voqifligi nazarda tutiladi. Ekologik xabardorlik shaxs ekologik ongining muhim komponentlaridan biridir. Unga qarab, shaxs ekologik madaniyatining shakllanganligi darajasini aniqlash mumkin. Ayni paytda ekologik xabardorlik mazmunli va samarali ekologik faoliyat uchun mustahkam poydevor yaratadi. Iqtisodiy xabardorlik kabi ekologik xabardorlik ham stixiyali tarzda yuzaga kelmaydi: uni shakllantirish uchun mamlakatda mavjud bo'lgan ma'rifiy va tarbiyaviy vositalarni samarali tarzda safarbar qilish, ulardan oqilona foydalanish taqozo qilinadi.

Shaxs befarqligiga barham berishda ekologik xabardorlikning o'ziga xos o'rni bor. Bir tomondan, mamlakatda hukm surayotgan ekologik vaziyatdan, ekologik munosabatlarning turfa jihatlaridan, mavjud ekologik muammolardan voqiflik shaxsni tabiiy muhitdagi o'zgarishlarning befarq kuzatuvchisidan uni asrab-avaylashga ishtiyoqmand fuqaroga aylantiradi. Ikkinchi

tomondan, Vatan tabiatidan, uning tuprog‘i, iqlimi, suvi, o‘simliklari va hayvonot olami ahvolidan xabardor inson pirovardida vatanparvar bo‘lib shakllanadi. Vatanparvar shaxs esa yurtdagi ekologik muhitni sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatdan chetda turmaydi. Ekologik muammolar tobora jiddiylashib borayotgan bir vaziyatda fuqarolar ekologik xabardorligini oshirishning ahamiyati ayniqsa katta. Chunki jamiyat a‘zolarining tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan hamjihatlikdagi faoliyatini ta‘minlamasdan turib, ularning ekologik befarqligiga barham bermasdan turib, mazkur muammolarni bartaraf etib bo‘lmaydi.

Mamlakatda ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmni shakllantirishga katta e‘tibor berib kelinmoqda. Shuni inobatga olgan holda jamiyat a‘zolarining ekologik xabardorligini oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni O‘zbekiston ekologik partiyasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shuningdek, mahalla va qishloqlarda, ta‘lim va madaniyat maskanlarida, tashkilot va korxonalarda ekologik mavzularga bag‘ishlangan o‘quv kurslarining tashkil etilishiga alohida e‘tibor bermoq darkor. Bu kurslar fuqarolarning ekologik vaziyat va ekologik muammolarga doir tasavvurlarini kengaytirishga, ularning ekologik befarqligiga barham berishga va ekologik faoliyatga jalb etishga zamin yaratgan bo‘lardi.

Fakt va argumentlarning sabab va oqibat dialektikasi asosidagi tahlili shaxs ekologik befarqligiga barham berishning ikki yo‘li mavjudligini ko‘rsatmoqda: birinchidan, shaxs befarqligiga barham berish uchun, eng avvalo, uning ekologik jarayonlardan xabardorligi darajasini oshirish, shu maqsadga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur; ikkinchidan, shaxs befarqligiga barham berish uchun undagi vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish, buning uchun esa vatanparvarlik tarbiyasini yangicha mazmun bilan boyitish lozim. Bunda:

- mahalla va qishloqlarda, ta‘lim va madaniyat maskanlarida, tashkilot va korxonalarda ekologik mavzularga bag‘ishlangan o‘quv kurslari tashkil etish;
- jamiyat a‘zolarini fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, tarixiy sanalarni nishonlashga bag‘ishlangan bayramlarda, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, turli milliy an‘analarda ishtirok etishning zamonaviy modellari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Республикада яшиллик даражасини янада ошириш, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳасини изчил амалга ошириш орқали экологик барқарорликни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида.// lex.uz/uz/docs/6673808
2. Мирзиёев Ш.М. Халқларимизнинг бугуни ва келажак тақдири муштарак.// Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Ж. 3. Т.:Ўзбекистон, 2019. – Б.182
3. Омонов Б. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистондаги экологик муҳитга таъсири.- Т.: Ворис-нашриёт, 2021. – Б.53.

O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHINING MUAMMO VA YECHIMLARI

O‘ktamov Madadjon – SHDPI “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” o‘qituvchisi
Musirmonov Shohboz – SHDPI “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” o‘qituvchisi
Toshpo‘lotova Jasmina – Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Аннотация. Ushbu maqolada O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi, kelib chiqadigan muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi.

Аннотация. В данной статье рассказывается о переходе Узбекистана к зеленой

экономике, возникающих проблемах и их решениях.

Annotation. This article talks about the transition of Uzbekistan to a green economy, the problems that arise and their solutions.

Kalit soʻzlar. Yashil innovatsiyalar, biznes modellari, sensibilizatsiya, infrastruktura, energiya resurslari, ekologik texnologiyalar

Ключевые слова. Зеленые инновации, бизнес-модели, осведомленность, инфраструктура, энергетические ресурсы, экологические технологии

Keywords. Green innovations, business models, awareness, infrastructure, energy resources, environmental technologies.

Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishga qaratilgan qadam va strategiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilgi “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha davlat dasturi” toʻgʻrisidagi qaroriga asoslangan. Bu dastur oʻzbek iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot prinsiplarini joriy etish va uning amaliy qoʻllanishini taʼminlash maqsadida bir nechta muhim yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot, yaʼni “yashil ekonomika” deb nomlangan konsepsiya, iqtisodiy faoliyatning ekologik muammolarga eʼtibor berishini anglatadi. Bu iqtisodiyotni iqtisodiy oʻsish, inobatga olib, ekologik muammo va resurslarni samarali foydalanish asosida rivojlantirishga qaratadi. Yashil iqtisodiyot asosan eng sadoqatli resurslarni samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish, oʻsishni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish, alternativ energiya manbalari va boshqa ekologik muammolar ustida ishlash va boshqalar kabi tamoyillar orqali amalga oshiriladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichlari quyidagi yoʻnalishlardan iborat:

1. Energiya va suv samaradorligini oshirish. Yashil iqtisodiyotga oʻtishda energiya va suv samaradorligini oshirishning katta ahamiyati bor. Bu energiya taqsimotini mustahkamlash, energiya samaradorligini oshirish, energiya isteʼmoli sohalari va energiya zaxiralari ishlab chiqarish boʻyicha innovatsiyalar qoʻllanishini taʼminlashni oʻz ichiga oladi.

2. Atrof muhitni saqlash. Yashil iqtisodiyotga oʻtishning muhim qismi atrof-muhitni saqlash va muhafaza qilishdir. Bu muhim vazifalardan biri atrof-muhitga zarar yetkazadigan emissiyalarni pasaytirish, atrof muhitni kasalliklardan himoya qilish, tabiiy resurslarni samarali ishlatish va toza texnologiyalarni oʻrnatishdir. Atrof-muhitni saqlash uchun qonuniy va siyosiy muhofaza masalalari, atrof muhitga zarar yetkazadigan sohalarni cheklash va toza energiya isteʼmoli muammolarini hal qilish kerak.

3. Yashil innovatsiyalar va biznes modellari. Yashil iqtisodiyotga oʻtishda innovatsiyalar va biznes modellari muhim ahamiyatga ega. Yangi yashil innovatsiyalar, energiya taʼminoti, omborlash va transport sohalari va boshqalar kabi sohalarda amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, biznes modellari ham yashil iqtisodiyot prinsiplariga mos kelishi kerak. Masalan qayta ishlash vaqtlarini kamaytirish, texnik texnologiyalarni saqlash va qoʻllash, tabiiy resurslarni samarali ishlatishga qaratilgan biznes strategiyalarni qoʻllash.

4. Maʼlumot va sensibilizatsiya: Yashil iqtisodiyot prinsiplarini amalga oshirish uchun jamiyatning maʼlumotlilik va sensibilizatsiyasi muhimdir. Maʼlumotlilikni oshirish jamiyatga yashil iqtisodiyot prinsiplari va ularning oʻzgarishlarni tushunish imkoniyatini beradi. Sensibilizatsiya esa jamiyatning yashil iqtisodiyotga qiziqish va qoʻshimcha qoʻllanishini taʼminlaydi.

Yashil iqtisodiyotga oʻtish jarayonida hukumat, tadbirkorlar, olimlar, jamiyat tashkilotlari va xalqaro hamkorlar oʻrtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bular oʻzbek iqtisodiyoti va jamiyatining umumiy rivojlanishiga yoʻl qoʻyadigan muhim muammolar va ularning yechimlari boʻlib, yashil iqtisodiyotning oʻziga xos muammolarni bartaraf qilishda muhim rol oʻynaydi. Ushbu yoʻnalishlarga eʼtibor berilishi va ularni amalga oshirish orqali Oʻzbekiston yashil iqtisodiyotga oʻtish yoʻlida oʻz rivojlanishini davom ettirishi mumkin.

Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishi muammolar bilan bogʻliqdir va bu muammolar dunyoda koʻp mamlakatlarga tegishli. Yashil iqtisodiyot oʻzaro aloqalarni, tabiatni saqlashni va isloh qilishni talab etadi. Bu esa oʻzaro hamkorlik, innovatsiyalar, energiya samaradorligi va ekologik himoya prinsiplariga amal qilishni talab qiladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolar:

Infrastruktura. Yashil iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan infratuzilma va tarkibiy qismi yo'q. Bu infrastruktura tarqalishi, energiya ta'minoti, transport tarmoqlari va suv resurslarini o'z ichiga oladi.

Siyosat va qonunlar. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ilg'or siyosat va qonunlar kerak. Bu siyosatlar tabiatni saqlash, energiya samaradorligi, atrof-muhitni saqlash va ekologik texnologiyalar ishlatishga yo'naltirilishi bilan bog'liq.

Energiya resurslari. Yashil iqtisodiyot uchun energiya samaradorligi va alternativ energiya manbalaridan foydalanish kerak. Bu esa yorug'lik, shamol, suv va boshqa energiya manbalaridan foydalanishni talab qiladi.

Ekologik texnologiyalar. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun ekologik texnologiyalar rivojlanishi va ularni qo'llash kerak. Bu esa atrof-muhitni saqlash, texnologik innovatsiyalar va ekologik texnologiyalar sohasida investitsiyalarni oshirishni talab qiladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi yechimlar:

Rivojlantirish. Infrastruktura, ya'ni energiya tarmoqlari, transport tizimlari va suv resurslari o'zgartirilishi va rivojlantirilishi kerak. Energiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va alternativ energiya manbalaridan foydalanishning imkoniyatlarini oshirish muhimdir.

Ta'riflar va siyosatlar. Energiya ta'riflarini va siyosatlarini yaxshilash yoki yangilash yordamida yashil iqtisodiyotga o'tish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu ta'riflarning yorug'lik, suv va boshqa yashil manbalarga alohida taqsimlanishi, energiya samaradorligini rag'batlantirish, toza energiya ishlab chiqarishga yo'naltirilishi talab qilinadi.

Ekologik innovatsiyalar. Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar rivojlanishini rag'batlantirish uchun investitsiyalar kiritish kerak. Bu innovatsiyalar orqali atrof-muhitni saqlash, o'zaro aloqalarni yaxshilash va isloh qilish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Energiya ta'limi va sensibilizatsiya. Yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim qismi hamkorlik va tashkilotlar, xalqaro va mahalliy tashkilotlar, shaxslar va tadbirkorlar orasida energiya ta'limi va sensibilizatsiyani oshirishdir. Energiya samaradorligi, atrof-muhitni saqlash va ekologik texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar to'g'risida xalqaro hamkorlik va sensibilizatsiyani oshirish muhimdir.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun o'zbek hukumati bir qancha qadamdan o'tdi. Misol uchun, "Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030" ni amalga oshirishga qaratildi. Bu strategiya energiya ta'minoti va samaradorligini oshirish, atrof-muhitni saqlash, shaharlar va hududlarni yashil qilish va tabiatni saqlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda Yashil fond yaratildi, bu fond investitsiyalarni yashil sohalar va ekologik texnologiyalar rivojlanishiga yo'naltiradi. Bundan tashqari alternativ energiya manbalarining rivojlanishi uchun dasturlar amalga oshirilmoqda, masalan, yorug'lik energiyasi va shamol energiyasi sohalarida investitsiyalar kiritilmoqda. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun xalqaro hamkorliklarga ham e'tibor berilmoqda. Mamlakat Yashil klimat fondi, Yevropa Ittifoqi, Osiyo Ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorliklar orqali moliyaviy, texnologik va tajribaviy yordam olib, yashil iqtisodiyotning rivojlanishini va muvaffaqiyatini ta'minlashga intilishadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tishning muammo va yechimlari mavjud bo'lsa ham, O'zbekiston hukumati va jamiyatining bu yo'nalishga e'tibor berishi va ilg'or siyosatlar, qonunlar va amaliyotlar orqali muammolar ustidan ishlashga davom etishi muhimdir. Ekologik himoya va energiya samaradorligi asosida innovatsiyalar, investitsiyalar va sensibilizatsiya o'zbek xalqining qo'llab-quvvatlashi va ishtirokchisi bo'lib, yashil iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madadjon O'ktamov. «Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.

2. Uktamov, M. "MODELING THE PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS THROUGH COMPUTER TRAINING." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.

3. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 369-373.

4. Абдувалиева, Зебинисо Абдулхамидовна, and Луиза Комиловна Турсунова. "МАТЕМАТИЧЕСКИЙ АППАРАТ МЕТОДОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ ДОКУМЕНТООБОРОТА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 296-299.

5. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). MECHANISMS FOR OPTIMIZATION OF DETECTION AND CORRECTION OF ERRORS IN COMPUTER TEXT PROCESSING SYSTEMS. Journal of Engineering And Technology Research, 10(1), 1-7.

OROL DENGIZINI EKOLOGIYAGA TASIRI

Sh.S.Botirov R.M.Shodiyev

Termiz muhandislik texnologiya instituti assistenti

Termiz muhandislik texnologiya instituti talabasi

shodiyevramshid@gmail.com Tel:+998 94 654 77 18

Annotatsiya. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'liqligidan, bu ikki daryo suvi sug'orishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan yilga kamaya bordi. Oqibatda, dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi. Orol dengizida suv sathi pasayishining uning suv yuzasi va suv sig'imiga ta'siri Orol dengizi da suv sathining pasayishi suv balans elementlarining qiymatlariga ham keskin ta'sir ko'rsatdi: 1911-1960-yillarda dengiz sathi o'rtacha 53,04 m ni tashkil etib (Boltiqlik, sistemasida), daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km³, dengiz yuzasiga yog'gan atmosfera yog'inlari miqdori esa 9,1 km³ ga teng bo'lgan.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, suv rejimi, ikki daryo, sug'orish, ekin maydonlari, suv sathi, Boltiqlik dengizi.

Orol dengizi – O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km², suvining hajmi 1000 km³, o'rtacha chuq. 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori plitsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Orol dengizi qirg'oklarining morfologik tuzilishi juda murakkab. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Shimoliy qirg'og'i baland, ayrim yerlari past, chuqur qo'ltiqlar bor. Sharqiy qirg'og'i past; qumli, juda ko'p mayda qo'ltiq va orollar bo'lgan. Janubiy qirg'og'i Amudaryo deltasidan hosil bo'lgan. G'arbiy qirg'og'i kam qirg'ilgan va Ustyurt chinkidan iborat. Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo'lgan. 60-yillargacha yiliga Amudaryo Orol dengizi ga 38,6 km³, Sirdaryo esa 14,5 km³ suv olib borgan. Suv balansida yog'inlar ham muhim o'rin egallagan. Dengiz akvatoriyasiga yiliga 82–176 mm yog'in yog'adi. Atrofdan dengizga yiliga 5,5 km³ yer osti suvlari qo'shib turgan. Mutlaq dengiz sathi 2000-yillarning boshlarida 22-yillarning oxiridagi darajadan 1950 m pastroqda 31 m gacha pasayib ketdi. 2001-yilda Buyuk Orol dengizi (Janubiy) G'arbiy va Sharqqa bo'lingan. 2001-yilda. 2003-yilda dastlabki maydonning to'rtidan bir qismi

Orol dengizi va 10% ga yaqinini dengiz suvi qoplagan. Bugungi kunda eski chuqur dengiz o'rniga umumiy maydoni 38000 km² bo'lgan yangi qum va tuzli cho'llar mavjud.

Orol dengizida suv sathining yil davomida o'zgarib turishi Amudaryo va Sirdaryoning bahor-yoz paytlarida toshishi bilan bog'liq. Bahorgi yomg'irdan ham dengiz sathi ko'tariladi. Suvi sathining yil davomida o'zgarish amplitudasi o'rtacha 25 sm ga teng bo'lgan. Suvining sho'rliigi o'rtacha 10-11%. Suvdagi tuzlarning ko'p qismini osh tuzi va sulfatli magniy tuzi tashkil etgan. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, suvi Kaspiy dengizi suviga o'xshash. Orol dengizi suvining tarkibidagi tuz 11 mlrd. t ga yaqin deb baholangan. Bu tuzlar sanoat ahamiyatiga ega. Dengiz suvi, ayniqsa, markaziy qismida juda tiniq. Suvi, xususan, qishda tiniq bo'ladi. Yoz oylarida ham 24 m chuqurlikkacha dengizning tubi ko'rinadi. Suvining rangi ko'pgina qismida ko'k, qirg'oqlariga yaqini ko'kimtir tusda. Amudaryo bilan Sirdaryoning quyilish joyida suvi loyqa. Dengiz dekabr o'rtalaridan mart oxirigacha muzlaydi. Yozda suvning yuqori qismidagi temperaturasi 27° ga yetadi. Chuqurlik ortishi bilan temperatura tez pasayadi. Yozda 1 m chuqurlikda temperatura 8° ga o'zgaradi. Dengiz ustida havoning o'rtacha temperaturasi yozda 24-26°, qishda —7°, — 13,5°. Orol dengizi sazan, cho'rtan, so'vyan, sudak, oqchavoq, laqqa, taran (leshch), pilmay Orol dengizining kosmosdan olingan surati. Dengizda navigatsiya mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari faoliyat ko'rsatgan. Orol dengizi atrofida aholi kam bo'lgan. Aholi, asosan, baliqchilik bilan va qisman chorvachilik, ondatra urchitish va sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. O'tgan asrning 90-yillarigacha dengizdan baliq ovlangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko'p sonli baliq ovlash xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan, Amudaryo deltasida, Avan posyolkasida (Ko'korol o.). Bugun posyolkasida (sharqiy sohil), Uyali va Uzunqir orollarida baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan. Orol dengizi O'rta Osiyoda va butun dunyodagi eng yirik sho'r ko'llardan biri hisoblanadi. Yaqin o'tmishda uning maydoni orollar bilan birga deyarli 68,0 ming kv km ni, suvining hajmi 1000 kub km ni tashkil etgan. O'rtacha chuqurligi 50,5 m atrofida bo'lgan Havzasining kattaligi (690 ming kv km) jihatdan Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin to'rtinchi o'rinda turgan.

Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol, Vozrojenje, Borsakelmas bo'lgan. Orol dengiziga 20-asrning 60-yillarigacha Amudaryodan 38,6 kub km, Sirdaryodan 14,5 kub km, suv kelib turgan. Dengiz akvatoriyasiga yiligi 82–170 mm yog'in yog'adi. Dengizga 5,5 kub km erosti suvlari ham qo'shilib turgan. Suvning sho'rliigi 10-11 % bo'lib, suv tarkibida tuzlar miqdori 11 mlrd tonna ga yaqin deb baholangan. Dengizda kemalar qatnovi mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari bo'lgan. Orol dengizi atrofidagi aholi, asosan, baliqchilik, qisman chorvachilik, mo'ynachilik (ondatra), sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bir qancha orollarda baliq ovlash xo'jaliklari, baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan. Baliq ovlash o'tgan asrning 90-yillarigacha davom etgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda dengiz suvi ko'tarilib, ba'zan Sariqamish va O'zboy o'zanlari orqali Kasbiy dengiziga quyilgan. Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So'ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to'ldirishga va sug'orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo'ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko'p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig'imi 16-17 mld kubkilometrni tashkil etadi.



1-rasm. Orol dengizining hozirgi ko‘rinishi.

Orol dengizi, asosan, Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So‘nggi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to‘ldirishga va sug‘orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo‘ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko‘p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga yetib bormaydigan bo‘lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig‘imi 16-17 mld kubokilometrni tashkil etadi. Suv zaxiralaridan noo‘rin foydalanish – Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko‘tarilib, tuproqdagi namlik bug‘lanishining ko‘chayishi va buning oqibatida tuproqlarning sho‘rlanishining ortishiga olib keldi.

Orol bo‘yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, yer yuzasi sho‘rxok tuproq bilan qoplana boshladi. Orol dengizi suv sathining pasayishi bilan qirg‘oq chizig‘i 100 km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o‘rnida 4 mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho‘li paydo bo‘ldi. Ana shunday qilib, Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo‘rin foydalanish XX asr oxirida 3 mln dan ko‘proq aholi yashaydigan hududda „Orol fojiasi“ deb atalgan global ekologik halokatni paydo qildi. Orol dengizi o‘rnida paydo bo‘lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko‘tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarda 500 kg gacha tuzli chang yog‘iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko‘tarilishi mumkin. Tuzli chang to‘fonlarning kengligi 40 km ga; uzunligi 400 km ga etadi. Tuzli chang Orolqumdan o‘nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o‘tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog‘lar, shaharlar va qishloqlar ustiga yog‘iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog‘lari cho‘qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborgan.

Cho‘llanish va sho‘rlanishning tezlashuvi oqibatida so‘nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari etishtirishning keskin kamayishiga olib keldi. Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta‘sir ko‘rsatdi, Iqlim yanada kontinentallasib, qishki harorat o‘rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko‘tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi.

Orol bo'yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Aholi o'rtasida yurak-qon tomir, oshqozon- ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'paydi. Hududda kamqonlik kasalligi 60-yillarga nisbatan deyarlik 20 marta oshganligi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.P. Baratov "Yer bo'limi va o'lkashunoslik" –Toshkent "O'qituvchi", 1990-yil.
2. R.Rahmatov –Toshkent "O'qituvchi" ,1997-yil.
- 3.K. Hasanjonov "Ximiyalashtirish va atrof muhitni muhofaza qilish"
4. A.To'xtayev "Ekologiya" –Toshkent "O'qituvchi",1998-yil.
5. M.Tenglashev "Orol madad so'raydi" – Toshkent "Mehnat", 1987 yil.

MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QOR VA MUZLIKLAR MONITORINGINI YURITISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH: SO'G'D VILOYATI MISOLIDA

**Otajonov Jasurbek Abdusattor o'g'li – "TIQXMMI" MTU,
"Geodeziya va Geoinformatika kafedrası talabasi.
Teshayev Nozimjon Nusratovich¹ – "TIQXMMI" MTU,
"Geodeziya va Geoinformatika kafedrası assistenti.**

Annotatsiya. Tojikiston hukumati yaqinda global isish tufayli Fedchenko va boshqa Pomir muzliklari chegarasi qisqarib borayotgani hamda haroratning intensiv isib borishi Markaziy Osiyo mamlakatlari suv ta'minotiga xavf tug'dirishi, tabiiy ofatlar, jumladan, suv toshqinlari va ko'chkilar xavfini oshirishi mumkinligidan xavotir bildirgan. Ushbu o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish va xaritaga olish metodologiyasida GAT va Masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tadqiqot hududidagi qor va muzliklarning dinamik o'zgarishini bir necha turdagi indekslar orqali tahlil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Аннотация. Правительство Таджикистана недавно выразило обеспокоенность тем, что из-за глобального потепления площадь ледников Федченко и других Памира сокращается, а интенсивное потепление может поставить под угрозу водоснабжение стран Центральной Азии и увеличить риск стихийных бедствий, в том числе наводнений. и оползней. Важно использовать технологии GAT и дистанционного зондирования в методологии регулярного мониторинга и картирования этих изменений. В данной статье рассмотрены вопросы анализа динамического изменения снега и ледников на территории исследований посредством нескольких видов индексов.

Annotation. The Tajik government has recently expressed concern that due to global warming, the extent of the Fedchenko and other Pamir glaciers is shrinking, and the intensive warming of temperatures may threaten the water supply of Central Asian countries and increase the risk of natural disasters, including floods and landslides. It is important to use GAT and Remote Sensing technologies in the methodology of regular monitoring and mapping of these changes. In this article, the issues of analyzing the dynamic change of snow and glaciers in the research area through several types of indices are considered.

Kalit so'zlar: GAT, Landsat OLI, Normallashtirilgan farq indekslar, Panjikent.

Ключевые слова: GAT, Landsat OLI, Нормализованные разностные индексы,

Пенджикент.

Keywords: GAT, Landsat OLI, Normalized difference indices, Panjikent.


Mutaxassislarning fikricha, muzliklarning erishi tabiiy jarayon, biroq so'nggi o'n yilliklarda bu sanoatdan oldingi davrga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda. Tojikistonda 8000 dan ortiq muzliklar bor, ulardan 19 tasi katta. Ular respublikaning asosiy daryolarini oziqlantirishda ishtirok etadilar va yozning eng issiq kunlarida chuchuk suv beradilar, bu nafaqat Tojikiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa mamlakatlari uchun ham juda zarur. So'nggi o'n yilliklarda

¹ teshaevozim@mail.ru

iqlim o'zgarishi ta'sirida ba'zi yirik muzliklar qisqardi va kilometrlarga chekindi. Olimlarning ta'kidlashicha, muzliklarning erishi deyarli qaytarib bo'lmaydi va sanoat davri bu jarayonni faqat tezlashtirdi.

Tojikiston muzliklari soni bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi hisoblanadi. Muzliklar mamlakat hududining atigi 6-8 foizini (8476,2 kvadrat kilometr) egallagan bo'lsa-da, ular bir necha yuz kub kilometr toza suvni saqlaydi. Muzliklarning asosiy ulushi respublikaning eng baland cho'qqilari – Somoniy va Abu Ali ibn Sino cho'qqilariga tutash hududda to'plangan. Tojikistondagi yirik muzliklar Amudaryo va Zaravshon daryolari tizimlarini oziqlantiradi, ularning suvlari quyi oqim mamlakatlariga – O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istonga quyiladi. Shuning uchun mintaqadagi suvning katta qismi Tojikistonda ishlab chiqariladi, deyish odatiy holdir.

Tojikiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng katta muzliklarga ega. "Tojikiston muzliklarini o'rganish markazi" ma'lumotlariga ko'ra, Somoniy cho'qqisi yonbag'irlarida paydo bo'lgan muzliklar dengiz sathidan 7400 metr balandlikka ko'tariladi, Surxob va Kofirnigon daryolari havzalarida esa kamdan-kam hollarda 4500-5000 metrdan oshadi. Tojikistonning eng yirik muzliklari eng baland tizimlarning tutashgan joyidagi muzlik tugunlari bilan chegaralangan: Akademiya Nauk, Darvaz, Buyuk Pyotr, Vanch va Yazgulem. O'rta Osiyodagi eng katta muzlik – Fedchenko – shu yerdan boshlanadi. Respublikada jami 18 turdagi muzliklar mavjud bo'lib, ularning asosiy ulushi mamlakat Sharqida to'plangan.




1-rasm. Tojikiston Respublikasi hududidagi eng katta muzliklar xaritasi.

Markaziy Osiyoda XXI asr oxiriga kelib o'rtacha yillik harorat ko'tarilishi Selsiy bo'yicha 3,7 dan 5,6 darajagacha bo'lishi mumkinligi allaqachon hisoblab chiqilgan. Shu bilan birga, qishki haroratning oshishi 3,0 dan 5,8 darajagacha, yozda esa 3,8 dan 5,5 darajagacha bo'ladi. Haroratning oshishi butun mintaqada yog'ingarchilikning kamayishi fonida sodir bo'ladi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot hududi

Sug'd viloyati (1939-yildan 2000-yil iyungacha Leninobod viloyati) — Tojikiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning shimolida joylashgan. Maydoni 25,400 km². Aholisi 2,449,000 kishidan ziyod, asosan, tojiklar va o'zbeklar. Sug'd viloyati shimol, shimoli-sharq, shimoli-g'arb va g'arbdan O'zbekiston Respublikasi, sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, janubdan Tojikistonning Respublikaga qarashli tumanlari bilan chegaradosh.



2-rasm. Tadqiqot hududi joylashuvi.

Sug'd viloyati hududi respublikaning shimolida (Tyan-Shan va Hisor-Olay tog'larining g'arbiy qismida, Sirdaryo va Zarafshon daryolari havzasida). Relyefi har xil: tog' tizmalari (Turkiston, Zarafshon, Qurama, Hisor) bilan birga adirlar va ular orasida vodiylar (Sirdaryo vodiysi, Zarafshon vodiysining sharqiy qismi) bor. Shimoliy qismida Kurama tizmasi, Mo'g'ultog', janubida Turkiston tizmasi, Zarafshon tizmasi, shuningdek, Hisor tizmasi joylashgan. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq. Iyulning o'rtacha harorati 9,7 °C dan (Anzob dovoni) 27,5 °C gacha (Asht, Xo'jand), eng yuqori harorat 45 °C (Xo'jand), 46 °C (Zafarobod). Qishi o'rtacha sovuq, yanvarning o'rtacha harorati — 12,7 °C dan (Anzob dovoni) — 6 gacha (Xo'jand). Eng past harorat —30° (Zafarobod). Vegetatsiya davri 230 kun. Yiliga 100 mm (Konibodom), 250 mm (Asht), 400 mm (tog'larda) yog'in yog'adi.

GAT va Masofadan zondlash ma'lumotlari

Maqolada Landsat TM va OLI sun'iy yo'ldoshi ma'lumotlaridan foydalanildi. Kosmik suratlarni qayta ishlash uchun dasturiy ta'minot sifatida ArcGIS 10.8 dasturidan foydalanildi. Masofadan zondlash va geografik axborot tizimlari (GAT) muzliklarni kuzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muzliklarni monitoring qilishda masofadan zondlash va GATdan foydalanishning ba'zi afzalliklari:

1. Keng miqyosli qamrov: Masofadan zondlash muzliklar va ularning atrofidagi muhitlarni har tomonlama qamrab olish imkonini beruvchi katta hududlarda ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Bu muzliklar dinamikasi va o'zgarishlarini yaxlit tushunish imkonini beradi.

2. Vaqt seriyali tahlili: Masofadan zondlash ma'lumotlari, masalan, sun'iy yo'ldosh tasvirlari vaqt o'tishi bilan to'planishi mumkin, bu esa vaqt seriyali ma'lumotlar to'plamini yaratadi.

3. Muzliklarni xaritalash va o'zgarishlarni aniqlash va multi-Sensor ma'lumotlar sintezi: Masofadan zondlash optik, termal va radar sensorlari kabi bir nechta sensorlar va platformalardan ma'lumotlarni birlashtirish imkonini beradi. Masofadan zondlash texnikasi yordamida muzlik darajasi, muz qalinligi va sirt sharoitlaridagi o'zgarishlarni aniq aniqlash va kuzatish mumkin.

5. Muzliklar massasi muvozanatini baholash: Masofadan zondlash ma'lumotlari muzliklar massasi muvozanatini baholash uchun ishlatilishi mumkin, bu muzliklar salomatligi va iqlim o'zgarishiga javob berishning muhim ko'rsatkichidir.

6. Yordamchi ma'lumotlar bilan integratsiya: Masofadan zondlash va GAT iqlim yozuvlari, meteorologik ma'lumotlar va gidrologik ma'lumotlar kabi boshqa ma'lumotlar to'plamlari bilan birlashtirilishi mumkin.

7. Qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari va foydalanish imkoniyati va iqtisodiy samaradorlik: GAT platformalari muzliklar bilan bog'liq ma'lumotlarni tashkil qilish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun fazoviy asosni ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida masofadan zondlashda keng qo'llaniladigan normallashtirilgan indekslar orqali kosmik suratlar tahlil qilindi. Landsat 4 va 8 sun'iy yo'ldoshidan olingan suratlarda qish mavsumida olingan materiallar raqamli qayta ishlash orqali vizuallashtirildi. Qor va muzliklar monitoring uchun masofadan zondlashda qo'llaniladigan indekslar adabiyotlar tahlili davomida samaradorligiga ko'ra tanlab olindi. Quyida barcha foydalanilgan indekslar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Normallashtirilgan farq o'simliklar indeksi (NDVI) yaqin infraqizil (qaysi o'simlik kuchli aks ettiradi) va qizil nur (qaysi o'simlik yutadi) o'rtasidagi farqni o'lchash orqali o'simliklarni aniqlaydi.


$$NDVI = (NIR - Red)/(NIR+Red) \quad (1)$$


Qor qoplaminig normallashtirilgan farq indeksi (NDSI) qor qoplami pikseldagi qor mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan indeks bo'lib, qor qoplaminig fraksiyonel qor qoplami (FSC) nisbatan aniqroq tavsifidir. Qor odatda juda yuqori ko'rinadigan (VIS) aks ettiruvchi va qisqa to'lqinli infraqizil (SWIR) da juda past aks ettiruvchi xususiyatga ega, bu xususiyat qor va ko'pchilik bulut turlarini farqlash orqali qorni aniqlash uchun ishlatiladi.

$$NDSI = (G - SWIR1) / (G + SWIR1) \quad (2)$$

Normallashtirilgan farqli muzliklar indeksi (NDGI) yashil va qizil spektral diapazonlardan foydalangan holda muzliklarni aniqlash va kuzatishga yordam beradigan raqamli ko'rsatkichdir.

$$NDGI = (NIR-Green)/(NIR+Green) \quad (3)$$





Masofaviy zondlash va GIS afzalliklaridan foydalanib, olimlar va manfaatdor tomonlar muzliklar dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lib, iqlim o'zgarishi ta'sirini tushunishimizga va muzlagan hududlarda suv resurslarini boshqarishga hissa qo'shishlari mumkin. Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan va Zarafshon daryosini suv bilan to'yintiradigan muzliklar keskin ravishda erib ketmoqda. Muzlikdan qolgan yerlarda vegetatsiya qoplami hosil bo'lmoqda. Buning natijasi Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham seziladi. Suv resurslarinig taqchilligi va aholi sonining keskin oshib borishi bu muammolarga jiddiy e'tibor qaratishni isbotlaydi. Zarafshon muzliklarining 1980-yildan buyon 6.1 km kvadratga qisqarganini bizning tahlillarimiz ham tasdiqlaydi.

ҚИЗИЛҚУМДА СОДИР БЎЛГАН ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Жалилов Мирсаид Бектош ўғли
Навоий давлат педагогика институти таянч докторанти
mirsaidjalilov70@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада қадим замонлардан буён инсоният томонидан ўзлаштирилиб, ҳаёт кечириб келган Қизилқум чўлининг табиати ва иқлим шароитлари хусусида сўз боради. Маълумки инсоният қадимдан ҳар қандай шароитда ҳам яшаш учун

курашиб келган. Мазкур жараён айниқса ёзи жазирама қиши қахратон бўлган чўл минтақасида янада оғир эканлиги мақола давомида очиб берилган. Иқлим ўзгаришлари хўжалиқнинг хусусиятларига энг кучли таъсир кўрсатадиган омил эканлиги баён этилган. Мақола давомида экологик муаммолар таъсирида рўй берган салбий оқибатлар айниқса чўллашиш даражасининг ошиб кетганлиги ҳақида малумотлар берилган.

Калит сўзлар: Лавлакон, плювиал, Устюрт, Бўкантов, Томдитов Копеттоғ, Окчадарё, Жанадарё, Кувондарё, Қозали бўғози, эчкиликсой, Гужайли, Мохондарё, Тайқир,

Аннотация: В данной статье рассказывается о природе и климатических условиях пустыни Кызылкум, которая была заселена человечеством с древнейших времен. Известно, что с незапамятных времен человечество боролось за выживание в любых условиях. В статье показано, что этот процесс особенно затруднен в пустынном регионе с жарким летом и суровой зимой. Изменение климата считается фактором, оказывающим наиболее сильное влияние на характеристики ферм. В ходе статьи приводятся сведения о негативных последствиях экологических проблем, особенно возросшем уровне опустынивания.

Ключевые слова: Лавлакон, плювиал, Устюрт, Бокантов, Томдитов Копеттоғ, Окчадарья, Джанадарья, Гувондарья, Казали Богози, Эчкиликсой, Гуджайли, Мохондарья, Тайқир,

Annotation: This article talks about the nature and climatic conditions of the Kyzylkum desert, which has been inhabited by mankind since ancient times. It is known that since time immemorial mankind has been struggling to live in any conditions. The article reveals that this process is especially difficult in the desert region with hot summers and harsh winters. Climate change is said to be the factor that has the strongest impact on farm characteristics. During the article, information is given about the negative consequences of environmental problems, especially the increased level of desertification.

Key words: Lavlakon, pluvial, Ustyurt, Bokantov, Tomditov Kopettog, Okchadarya, Janadaryo, Guvondarya, Kazali Bogozi, Echliksoy, Gujayli, Moxondaryo, Tayqir,

Чўл ҳудудларида, жумладан, қуйи Зарафшон, Амударёнинг ўрта ва қуйи оқимлари ҳудудларида, Орол денгизи атрофларида ва Каспий бўйларида сўнгги музлик даври ва эҳтимол, ундан кейинги даврларда ҳам унча илиқ бўлмаган нисбатан нам ярим куруқ табиий шароитлар ҳукмрон бўлган.

Маълумки, сўнгги палеолитнинг (милоддан аввалги 40-12 минг йилликлар) охирига келиб замонавий одамлар деярли барча табиий зоналарни эгаллаганлар. Аксинча, охири уч-тўрт минг йилликларда жиддий континентал иқлим ўзгаришлари туфайли Қизилқумнинг қумли ҳудудларида одамлар гавжум тарзда яшамайдиган бўлди. Ушбу ҳудудларда кейинги даврларда кам сонли аҳолининг доимий ёки мавсумий яшаши чорвачилик, тоғ саноати (мис, феруза ва ҳ.к.лар қазиб олиш), карвон йўлларига хизмат кўрсатиш ва ҳ.к.лар билан боғлиқдир.

Иқлим хўжалиқнинг хусусиятларига энг кучли таъсир кўрсатадиган асосий омиллардан биридир. У бевосита (совуқ, илиқ, куруқ, намгарлик) эмас, балки овчилик ва овчиликнинг асосий омиллари бўлган ўсимликлар олами ва ҳайвонот дунёси орқали таъсир этади. Одамнинг ушбу компонентларга тобелиги тарих қадимийлашган сари кучайиб боради[1]. Иқлимнинг ёки ландшафтлар ўзгаришининг муҳим белгиси ибтидоий маданиятларнинг тарқалиши ареалларининг қисқариши ёки кенгайиши билан белгиланади. Иқлим ўзгаришларининг яна бир белгиси маданиятлар характерининг ўзгариши билан ҳам белгиланади[2].

Зарафшон ҳавзаси табиати тарихи Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларидаги ландшафтлар ҳосил бўлиши билан бевосита боғлиқдир. Музлик даврдан кейин бир мартагина иқлим ўзгариши содир бўлган. Бу даврда иқлим анчайин исийди ва бу исийш 2 минг йил давом этган (милоддан аввалги 5-3 минг йиллик). Ўрта Осиё ҳудуди тахминан 10300 йиллар мукаддам ёгингарчиликнинг кўпайиши сабабли намлик фазаси бошланади.

Аммо, 3800 йиллар бурун яна куруқ давр бошланиб, бу иқлим шароити кичик ўзгаришлар билан ҳозирги кунгача давом этиб келмоқда[3].

Археолог А.Виноградов Қизилқум ҳудудида мезолит (милоддан аввалги 12-7 минг йилликлар) даврига оид ёрқин ёдгорликларнинг учрамаслигига (сўнгги мезолит даври материаллари бундан мустасно) ва аксинча, неолит даври материалларининг кўплигига асосланиб ибтидоий одам учун ноқулай бўлган шароитлардан қулай Лавлаконт плевизиали босқичидаги иқлим шароитларига ўтиш даври хронологиясини милоддан аввалги 8-7 минг йилликлар билан белгиланган.

Совуқдан куруқ ҳамда илиқ иқлим ва нисбатан нам шароитларига ўтиш бундан 8 минг йиллар бурун бошланган. Лавлаконт плевизиалининг ландшафт-иқлимий шароитлари Қизилқум ва Устюртда ибтидоий одамнинг кенг тарқалишига олиб келди. Лавлаконт қўли соҳилларида мезолит ва бронза давларига оид юздан зиёд ҳамда шу ва ундан кейинги давларга оид 300 дан зиёд пунктлар аниқланган[4]. Ўттиздан зиёд топилмажойлар Бўкантов, Томдитов ва Копеттоғ ҳудудларида аниқланган[5]. Ушбу топилма жойларнинг материаллари хронологик жиҳатдан милоддан аввалги 6-5 минг йилдан 2-минг йилликларгача бўлган йирик давларни ўз ичига олади.

Амударёнинг Оқчадарё, Қорақамиш ва Оролбўйи, Сирдарёнинг Жанадарё, Қувондарё, Қозали бўғози, Зарафшоннинг эчкиликсой ва Дарёсой ўзанлари ҳамда жанубда Гужайли, Моҳондарё, Тайқир бўғозлари бўлганлиги аниқланган. Ўрта Осиё ҳудудлари қадимги гидрографик тизимининг ўзгариши асосий сабаби дарёлар суви миқдорининг ўзгаришидир ва бу ўзгаришлар албатта, иқлим шароитлари билан боғлиқдир. Дарёлар кетидан одамлар ҳам кўчиб борганлар[6]. Сўнгги плейстотсеннинг иккинчи ярмида каспийбўйи ҳудудларида совуқ ҳамда куруқ иқлим шароитлари ҳукмрон бўлади. Бу даврда денгиз сатҳининг пасайиши куруқликдан оқиб тушадиган сув оқимларининг камайиши ва парланишнинг кучайиши билан боғлиқ бўлган. Милоддан аввалги 3-2 минг йилликларда замонавий типдаги куруқ ҳамда иссиқ иқлим шароитлари қарор топади. Иқлим шароитларининг ёмонлашуви қўлларнинг йўқолиши ёки шўрлашуви, йирик дарёлар системасининг тушкунликка учраши билан Қизилқум ҳамда Устюрт ҳудудларида аҳоли сонининг камайишига олиб келди. Бу даврнинг иқлими монотон ўта қурғоқ ҳолатида бўлмасдан, у ёки бу даражада қурғоқчиликлар бўлиб турганлиги аниқланган.

Ўрта асрларга келиб XIII асрдан XIX асрнинг биринчи ярми европа ва Шимолий Америкада “кичик музлик даври” номи билан машҳур. Кичик музлик даврида Ўрта Осиё тоғларидаги совиш музликлар узунлиги ва майдонининг катталашувида ўз аксини топди ва бу XIX асрнинг биринчи ярмига келиб ўзининг кулминатсион нуқтасига етди[7]. Ўрта Осиёнинг текисликларида совиш, парланишнинг камайиши ва эҳтимол, атмосфера чўкиндиларининг кўпайиши табиий жараёнлардаги кўплаб ва турли туман ўзгаришларга сабаб бўлди. Дарёларда сув ҳажми кўпайди. Сирдарё Оролга ҳозиргидан кўра икки марта кўп сув оқизиб борган. Амударёнинг сувлари Сарикамишни ва Ассак-Аудан ботиғини босиб кетган (57-58 м), натижада, Узбой бўйлаб яна Каспийга сув оқиб туша бошлади.

Каспий денгизининг сатҳи 6-6,5 м га қўтарилди. XIX асрнинг ўрталарида замонавий типдаги иқлим шароитлари қарор топади. XX асрнинг охирларига келиб иқлим шароитлари кескинлаша борди. Натижада, тоғлардаги музликлар ҳажми кичрайди, кўплаб майда қўллар йўқолиб кетди ва чўллашиш жараёнлари кучайиб борди. XXI – аср бошланишида инсоният олдида турган энг жиддий экологик ва ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири, бу чўлланиш муаммосидир. Чўлланиш, асосан арид минтақа учун хос бўлиб, ер, сув, ўсимлик ва бошқа ресурсларнинг дегератациялашувидир (фр.деградацион – аста-секин ёмонлашуви).

Чўлланиш деганда табиий-географик ва антропоген жараёнларнинг ўзаро таъсири йиғиндиси бўлиб, арид ҳудудлардаги экосистемаларни емирилиши, органик ҳаёт шакллариининг дегератациялашуви ва бу ҳудудларнинг табиий-иқтисодий имкониятларининг пасайиши тушунилади. Чўлланиш жараёни оқибатида экологик

вазиятнинг ёмонлашуви Марказий Осиё мамлакатлари, шу жумладан Ўзбекистон ҳудуди учун ҳам ниҳоятда муҳим ва долзарб муаммодир.

Инсон хўжалик фаолиятининг кучли таъсири натижасида Ўзбекистон ҳудудининг 60%дан кўпроқ майдонида ҳар хил даражада чўлланиш жараёнини кузатиш мумкин. Чўлланиш жараёнининг шиддатли бориши кўпгина ижтимоий-иқтисодий ва экологик оқибатларга олиб келмоқда. Ўзбекистон ҳудудида чўлланиш жараёни чуқурлашиб ва кенгайиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: 1974. -С. 19.
2. Бадер О.Н. Проблема смещения ландшафтных зон в голоцене и археология. – в кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: 1974. -С. 225-229.
3. Орловский Н.С. Механизм опустынивания и его последствия // Опыт борьбы с опустыниванием в СССР. – М.: Наука. 1988.- С. 364.
4. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный льялакан. Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. – М.: Наука. 1975. -С. 234-255.
5. Мамедов Э. Д. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии. – в кн.: Культура и искусства древнего Хорезма. – М.: Наука. 1981. -С. 82
6. Мамедов Э.Д. Изменения климата Среднеазиатских пустынь в голоцене. В кн. Колебания увлаженности Арало-аспийского региона в голоцене.-М.: Наука. 1980. -С. 170-175.
7. Герасимов В.А. Тенденция развития горных ледников северного полушария в послеледниковое время. – в кн.: Труды высокогорного геофиз. Ин-та, вып. 18. Снег и снежные лавины. –Л.: Гидрометеоздат, 1972. -С. 132.

CONSIDERATIONS AIMED AT PREVENTING NEGATIVE CHANGES IN NATURE BY TRANSITIONING TO A “GREEN ECONOMY”

Rajaboev Shahboz Shodiyevich

**Assistant teacher of the Department of “Information Technologies”,
at the Samarkand Institute of Economics and Service, Uzbekistan
E-mail: shahbozrajaboyev@gmail.com**

В свою очередь альтернативная гидроэнергетика, что включает в себя малые гидроэлектростанции, мощностью до 25 МВт вырабатывают порядка 0,01% от общей генерации. Ее мы и рассмотрим. Важно отметить, что в малой гидроэнергетике нет необходимости строить крупные гидротехнические сооружения и затоплять большие территории водохранилищами, маленькая гидроэлектростанция может быть установлена практически на любой реке.

Преимущества малых гидроэлектростанций:

– строительство в короткие сроки;

– низкая степень воздействия на окружающую среду;

– постоянный источник энергии;

– надежность электроснабжения;

Недостатки:

– малые источники могут промерзнуть, останавливая работу системы;

– высокие затраты на строительство;

Использованная литература:

1. Ахмедов В. С. Мировой опыт инвестирования в альтернативную энергетику //Актуальные проблемы и перспективы развития строительства, теплогазоснабжения и энергообеспечения. – 2018. – С. 41-44.

2. Вдовиченко М. М., Дорошенко А. Н. Анализ состояния мирового рынка альтернативной энергетики //ЦИТИСЭ. – 2019. – №. 2. – С. 13-13.

3. Телегина Е. А., Халова Г. О. Мировая экономика и энергетика на переломе: поиски альтернативной модели развития //Мировая экономика и международные отношения. – 2020. – Т. 64. – №. 3. – С. 5-11.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ” В КОНТЕКСТЕ АКТУАЛИЗАЦИИ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИИ И ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА

Исомиддинова Ёзоза Сирожиддиновна.
Студентка 2 курса группы “А”
направления русского
языка и литературы НГПИ
+9989883787728.
ezoza182@gmail.com

Научный руководитель: д.ф. по ф.н. Рузиева З.М.

Аннотация. В этой статье рассматриваются проблемы, существующие в экосистеме, даётся толкование слову «экология», проблемы между живыми и неживыми организмами, рассматриваются задачи глобальной экологии, проблемы высыхания Аральского моря и ее причины, человек как источник экосистемы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekotizimda mavjud bo‘lgan muammolar ko‘rib chiqiladi, “ekologiya” so‘zining talqini, tirik va jonsiz organizmlar o‘rtasidagi muammolar, global ekologiya muammolari, Orol dengizining qurishi muammosi va uning sabablari, inson ekotizim manbai sifatida.

Annotation. This article discusses the problems that exist in the ecosystem, gives an interpretation of the word “ecology”, problems between living and non-living organisms, discusses the problems of global ecology, the problem of drying up of the Aral Sea and its causes, man as the source of the ecosystem.

Ключевые слова: экология, живые организмы, проблемы экологии, биологическое толкование, прогнозирование биосферы, источник природы, окружающая среда.

Kalit so‘zlar: ekologiya, tirik organizmlar, ekologik muammolar, biologik talqin qilish, biosferani bashorat qilish, tabiat manbai, atrof-muhit.

Key words: ecology, alive organisms, ecological problems, biological interpretation, biosphere forecasting, source of nature, environment.

«Мы, без сомнения, — сторонники экологического баланса, чистого воздуха, чистой воды, процветающей природы. Этот вопрос более актуален и важен для нас, чем другие. Ведь мы нация, которая напрямую переживает крупнейшую экологическую катастрофу в мире — Аральскую трагедию».

Шавкат Мирзиёев.

Слово «**экология**» образовано от греческого «ойкос», что означает «дом», «жилище», поэтому в некоторых работах можно встретить термин-синоним «ойкология».

В буквальном смысле слова экология — это наука об организмах «у себя дома». В более строгом смысле экология — это наука об отношениях организмов или групп организмов к окружающей их среде или наука о взаимоотношениях между живыми организмами и средой их обитания. По нашему мнению, в это определение необходимо включить не только отношения или взаимоотношения, но и понятие совокупности организмов и среды (и формирование этой совокупности).

Экология — наука о самой реке с движущимися по ней плотами, т.е. учение о биотической навигации. Поэтому охрану окружающей среды можно рассматривать как предпринимаемые нами меры, чтобы реке не причинялся непоправимый вред.

Природа – это общий дом для растений, животных и людей. Наука экология не только помогает нам понять природу, но и учит, как её беречь.

Под термином «организмы» понимается совокупность объектов, обладающих признаками жизни. Так как проблема грани между живым и неживым, а также происхождения живого из неживого до сих пор не разрешена наукой, термин «организмы» (синоним: «живое вещество») имеет различное толкование — биологическое, экологическое, термодинамическое и т.п.

По М.И. Будыко (1977), первоочередная задача глобальной экологии — прогнозирование изменений биосферы в будущем, что должно служить основой для разработки мероприятий на ближайшие годы и перспективу по сохранению и улучшению среды обитания людей, а также предотвращению нежелательных изменений биосферы.

Высокие горы, бескрайние океаны, моря, зелёные леса, травы, разноцветные цветы, одним словом- вся живая флора и фауна - это всё и есть наша матушка- природа. И все мы, люди, тоже являемся частью всего этого живого.

В последнее время мы можем услышать много новостей о повышении температуры на планете Земли, о том, почему тают тысячелетние ледники и повышается уровень океана, в результате чего многим городам грозит опасность оказаться под водой и подобные сообщения из интернета и СМИ. На самом деле, какими бы страшными ни были эти сообщения, все они правдивы.

Какую роль играет вода в природе и в жизни человека? Как водные ресурсы связаны с мировым климатом? Давайте посмотрим на нашу планету как на живой организм. Водоёмы – это кровеносные сосуды, которые несут жизнь. Если водные запасы Земли уменьшаются, это приводит к глобальным экологическим проблемам.

Не будем заходить слишком далеко, самая большая экологическая катастрофа, случившаяся в нашей стране, - это высыхание Аральского моря.

Трагедия Аральского моря давно считается общемировой. Трудно представить, но море превратилось в пустыню! Расположенное на границе Казахстана и Узбекистана Аральское море до второй половины двадцатого века было четвёртым крупнейшим по площади озером в мире.

Мы можем показать, что причиной высыхания моря является нерациональное использование воды двух крупных рек Амударьи и Сырдарьи, снабжающих Аральское море водой с середины XX века.

За последние пятьдесят пять лет площадь моря сократилась в три раза, уровень воды снизился на двадцать девять метров, объем воды уменьшился в пятнадцать раз, а рыбы не стало. Возникла экологическая катастрофа, потому что вместе с рыбой исчезли животные, птицы и растения.

В результате этого в нашей стране возникает множество проблем. Среди них засоление земель, приведение их в негодность, частицы песка и соли, вызывающие респираторные заболевания, аллергии и даже опухолевые заболевания в организме человека.

Наша задача – вернуть воды Аральского моря и не допустить его исчезновения.

Заключение истории таково, что человек – хозяин природы, самое разумное существо и, безусловно, один из её источников. Наделённый разумом человек не должен забывать о том, что, обустроив свой быт, он не должен навредить природе. Недаром к природе добавлено слово «Мать», она добра и заботлива к нам, как и наша мать, так давайте же и мы будем к ней добры и заботливы.

Список литературы:

1. Основы экологии том I. Г.Ю. ВАЛУКОНИС, Ш.О. МУРАДОВ. Ташкент — «Мехнат» — 2001.
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2023/07/14/country>.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ELEKTRON TA‘LIM RESURSI BILAN ISHLASHGA O‘RGATISH

**Jumaeva D. N – NDPI “Informatika” kafedrası o‘qituvchisi
Abdusalomova Muqaddas Uchqunovna NDPI talabasi
Dilichka 1977@mail.ru
abdusalimovamuqaddas@gamil.com**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish, vaqtdan samarali foydalanish, o‘quvchi-talabalarni zamonaviy hayotga tayyorlash maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarning elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish tushunchalari keltirilgan. Shuningdek, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fanlari o‘qituvchilarning elektron ta‘lim resurslaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etishlari natijadorligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, electron ta‘lim resursi, axborot ta‘lim resursi, raqamli ta‘lim resursi kompetensiya.

Zamonaviy jamiyat yangi avlod o‘qituvchisiga muhtoj. Yangi avlodni shakllantirishda asosiy rol o‘qituvchiga beriladi. O‘qituvchilar nafaqat talabalar shaxsini to‘laqonli shakllantirish uchun sharoit yaratishi, yosh avlodni zamonaviy hayot uchun tarbiyalashi, balki o‘zlari yuqori malakali mutaxassis sifatida pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari kerak. Ular — umuminsoniy qadriyatlarini tashuvchilar, yosh avlodda axloq va insonparvarlikni shakllantirish omili hisoblanib, kelajak avlodni madaniyatli muhitda yashash va o‘qish qobiliyatini tarbiyalashlari kerak va bugungi kunda muhim bo‘lgan narsa axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan o‘z maqsadlarida foydalanish qobiliyatlarini ham namoyon etishlari kerak.

Tadqiqotlardan bilamizki, ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati unda ishlaydigan o‘qituvchilar sifatidan yuqori bo‘lmaydi. Eng yaxshi o‘qituvchilar ishlaydigan maktablarda maktab yuqori natijalarga erishishi va kasbiy tayyorgarligi past bo‘lgan va yoki faol bo‘lmagan o‘qituvchilar ishlaydigan maktablarda maktab faoliyatining sifati qoniqarlimasligini inobatga olsak, zamonaviy maktab o‘qituvchisi rolini oshirish zarurligini tushunib etishimiz mumkin. Buning uchun ham davlat, ham jamoatchilik ko‘magiga muhtojligimiz bor.

O‘qituvchi har doim bir qadam oldinda yurishi, ta‘lim va tarbiya bilan shug‘ullanishi, yaqin va uzoq kelajakni ko‘ra olishi va aynan kelajak uchun ishlashi kerak.

Talabalarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘qituvchilar o‘zlari ham bu kompetensiyalarni bilishlari va ega bo‘lishlari, ushbu kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari va shakllarini bilishlari kerak. Bu vazifalar o‘qituvchi tayyorgarligiga yangi talablarni qo‘yadi. Tabiiyki, universitet va institutlarda o‘qituvchilarni tayyorlashni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqmasdan va takomillashtirmasdan zamonaviy jamiyatning sifat jihatidan yangi holatiga erishib bo‘lmaydi.

Yangi qabul qilingan xalqaro va milliy darajadagi hujjatlar muammolar yechimini topish va zamonga mos pedagoglarni tayyorlash vazifalarini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Zamonaviy fikrlash uslubiga ega bo‘lgan shaxs axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi va raqamli resurslardan foydalanib axborot almasha olishi kerak.

Yaqin yillargacha bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron ta‘lim resurslarini yaratishga tayyorlash masalalari ko‘tarilmagan. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron ta‘lim resurslarini alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida yaratishga tayyorligini shakllantirish masalasi respublikamizda raqamli texnologiyalar sohasidagi strategik yo‘nalishlar va turli xil faoliyat turlarida kompyuterlardan foydalanish amaliyoti holatlari bilan belgilanadi.

Ma‘lumotlarning o‘sish tezligi ularni shaxs tomonidan o‘zlashtirishning cheklangan imkoniyatlari bilan ziddiyatga keladi. Bugungi kunda inson uchun muhim bo‘lgan bilimlar miqdori emas, balki maqsadga muvofiq faoliyat uchun mo‘ljallangan zarur bilimlardir. Bugungi kunda kerakli ma‘lumotlarni tahlil qilish va tanlash qobiliyati inson uchun muhimdir. Shu maqsadda ta‘lim tizimiga “individual ta‘lim traektoriyasi” tushunchasi kiritilgan, ya‘ni, talaba o‘z ta‘lim yo‘lini qurishi kerak. Talaba o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini

maksimallashtirishi lozim. Shuning uchun ta'lim tizimida talabalarning ma'lumotni izlash, qayta ishlash, idrok etish, tushunish va ulardan foydalanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish muhimdir. Bu jarayonda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Inson axborot texnologiyalariga ega bo'lishi kerak, bu o'zgaruvchan dunyoda moslashish mexanizmlaridan biridir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi, ular orasida elektron ta'lim resurslari so'nggi paytlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat elektron resurslardan foydalanishga tayyorlash, balki ta'lim jarayonida yaratish va qo'llash, umumta'lim maktablarida elektron ta'lim resurslarini joriy etish usullarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu muammoni bartaraf etishning dolzarbligi bo'lajak informatika o'qituvchilarini elektron ta'lim resurslari yaratishga tayyorlash usullarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi.

“Elektron ta'lim resursi” tushunchasining ma'nosini tushunishdan oldin “resurs” tushunchasining ma'nosini tahlil qilamiz. Resurs (fransuzcha “ressource” dan olingan) so'ziga yordamchi vosita, zaxira, manba, jarayonni amalga oshirish uchun imkoniyat, maqsadli foydalaniladigan hamma narsa sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun resursni vosita sifatida tushunish mumkin. Informatikada resurs boshqa kompyuterdan masofadan turib kirish mumkin bo'lgan ma'lumot sifatida ham tavsiflanadi. Ta'limda ta'lim resursi atamasi ishlatiladi (o'quv jarayonini amalga oshirish vositasi yoki manbai). Ta'lim resursining quyidagi turlari mavjud:

1. Axborot ta'lim resurslari — axborot tizimlarida alohida hujjatlar va hujjat massivlari bo'lib, ta'lim sohasida foydalanish uchun mo'ljallangan. Ularga o'quv-ma'lumotnoma materiallari bazalari, bilim bazalari; masofaviy ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlashning texnik va dasturiy vositalari kiradi.

2. Elektron ta'lim resursi — elektron qurilmalar bilan ishlatiladigan o'quv materiallari.

3. Raqamli ta'lim resursi — raqamli ravishda taqdim etilgan fotosuratlar, videokliplar, statik va dinamik modellar, virtual reallik va interaktiv modellashtirish obyektlari, kartografik materiallar, ovozli yozuvlar, ramziy obyektlar va biznes grafikasi, o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan matnli hujjatlar va o'quv jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo'ladigan boshqa o'quv materiallari. Elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga joriy etish talabalar faolligining oshishi, motivasiyaning kuchayishi va mavzuga qiziqishning ortishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ta'lim jarayoni to'liq kompyuterlashtirilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi

Elektron ta'lim resurslari, birinchi navbatda, o'qituvchining sinfda vaqtini tejash, o'quvchilarning bilim olish motivasiyasini oshirish uchun kerak. Elektron ta'lim resursi audio va video materiallardan foydalanadi, shuningdek, asosan o'quv materiallarini virtual shaklda taqdim etishga imkon beradigan multimedia texnologiyalaridan foydalanadi.

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarning bunday ta'lim resurslaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etishi samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni (28.01.2022 y).

2. R. Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. —Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2007.

5.TEACHER-MUALLIM, ISSN:2181-0850, DOI:10.26739/2181-0850, <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2020-11-17>, Axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash tizimi, B.Isabekov, Y.Xandamov, 2020-y,

6. Журнал математики и информатики, О'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETILISHI, Isabekov, B. Xandamov, Y.Shodmonqulov, (2020), isabekovbahodir@gmail.com;

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMIGA OID TAKLIFLAR

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna
Kimyo kafedrası o'qituvchisi,
OOT yo'nalish talabasi
Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada ekologik muammolar va ularni yechimiga oid takliflar keltirilgan. O'zbekiston hududida kuzatilayotgan ekologik muammolar ko'rsatilib, ularni yechimiga oid takliflar berilgan.

Аннотация В статье рассмотрены экологические проблемы и представлены предложения по их решению. Показаны экологические проблемы, наблюдаемые на территории Узбекистана, и даны предложения по их решению.

Abstract. The article is about environmental problems and their solutions proposals are presented. Ecological problems observed in the territory of Uzbekistan are shown, and suggestions are made for their solution.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik muammo, umumbashariy (global), mintaqaviy (regional), mahalliy (lokal)

Ключевые слова: экология, экологическая проблема, универсальная (глобальная), региональная (региональная), локальная (локальная).

Key words: ecology, environmental problem, universal (global), regional (regional), local (local)

Kirish. Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muommolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi[2]: Umumbashariy (global), mintaqaviy (regional), mahalliy (lokal).

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday umumbashariy muammolarga ba'zi bir misollar keltirish mumkin: Issiqxona samarasi, ozon qatlamining siyraklanishi, chuchuk suv muammosi, pestitsidlardan foydalanish, tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi, tropik va subtropik o'rmonlar.

Mintaqaviy ekologik muammolar: Yer yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari xarakterini belgilab beradi. Mintaqaviy ekologik muommolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, belgilangan miqdordan oshib ketishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarni kesilishi va boshqalar hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy ekologik muommolardan eng muhimi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir.

Mahalliy ekologik muammolar. Bu respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar:

1. Yirik-hududiy-sanoat majmualari joylashgan hududlarda (Angren-Olmaliq-Chirchiq, Farg'ona-Marg'ilon, Navoiy va hokazo) tabiatni muhofaza qilish muammolari;

2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar;

3.Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari, pestitsidlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi;

4.O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish va hokazolar kiradi.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, ayniqsa, sanoatda va transportdan "chiqindi" deb nom olgan qo'shimcha mahsulot ajralib chiqadi. Bu mahsulotlar Respublikamizning ba'zi bir hududlarida ko'p chiqarilmoqda va natijada tabiatni ifloslantirib, barcha tirik organizmlar, xususan inson salomatligi uchun zarar keltirmoqda. Ana shunday atmosfera havosini buzadigan chiqindilarga tutun va har xil zaharli gazlar kirib, ular ko'pincha Olmaliq, Angren, Farg'ona, Qarshi, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Toshkent, Chirchiq, Bekobod va shu kabi sanoati rivojlangan, transport qatnovi katta bo'lgan shaharlar havosini ifloslantirmoqda. Birgina Samarqand shahrida atmosfera havosini ifloslantirishda kimyo zavodi, "Chinni ishlab chiqaruvchi", "Muzatkich", vino-spirt, konserva ishlab chiqaruvchi, paxta tozalash zavodlari, mebel fabrikasi va boshqalar ishtirok etmoqda.

Samarqand va Navoiy shaharlari aholisi uchun mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan yana biri Zarafshon daryosining og'ir metallar bilan ifloslanishidir. A.Raxmatullaev va R.I.Mamajonovlarning (1998) ma'lumotlariga qaraganda [1] bu shaharlarga yaqin Zarafshon daryosining suvitarkibida mis va rux me'yorlaridan 1,5-20 marta, olti valentli xromning o'rtacha miqdori Navoiy shahri yaqinida 4 barobar ortiqligi, eng ko'p miqdori 17,4 marta ko'pligi aniqlangan.

Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan alyuminiy zavodining salbiy oqibatlarini Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlarida seziladi. Natijada anor va xurmoning hosildorligi va sifati pasayib ketdi, aholi salomatligi esa, yomonlashdi.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitargigienik qoidalarga rioya qilish, buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar [3].

Markaziy Osiyo antropogen landshaftlarining eng muhim komponentlaridan biri bo'lgan ichki suvlari ham yildan yilga kuchli ifloslanib bormoqda. Bu hol, ayniqsa, agrolandshaftlarning tarkibiy qismi bo'lgan paxta va sholi ekin maydonlarida va hokazo geotizimlarning tevarak atroflarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Yerlarning sho'rini yuvishda foydalaniladigan suvlar zovur va kollektorlarda to'plangan 30 km³ miqdordagi kuchli minerallashtirilgan qaytar suvlar har yili daryolarga, kanallarga, vohalarning tevarak atrofidagi pastkam joylarga va cho'kmalarga tashlanmoqda. Natijada vohalar va agrolandshaftlar atrofida sho'r ko'llar va botqoqliklar intensiv ravishda rivojlanmoqda.

Ekologik vaziyatning bunday holatdagi buzilishi, ayniqsa, Xorazm vohasi uchun xosdir. Shu sababli obikor dehqonchilik rivojlangan hududlarda kuchli minerallashtirilgan kollektor-zovur suvlarini chuchuklashtirish muammosi gidromelioratorlar oldida turgan ulkan vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi[4]:

❖ Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash;

❖ O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish;

❖ Regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; Tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma xiligini saqlash.

Takliflar. Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ona tabiatga odilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, kelajak avlodga, tabiat boyliklarini bus-butun yetkazish hamda ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shish har birimizning oldimizda turgan muhim vazifa hisoblanadi. Zero, tabiatni muhofaza qilish bu nafaqat Vatan oldidagi fuqorolik burchimizdir, balki insoniyatning kelajak avlod uchun qoldirishi mumkin bo'lgan yagona va bebaho xazinasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otaboyev Sh.T.Inson va biosfera. — T.: O'qituvchi, 1995, 135 b
2. To'xtayev A.S.Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. — Toshkent: "O'qituvchi", 1994, 27-28 b
3. Alimov T. L., Rafikov A.A. Ekologiya xatolik saboqlari —T.: 1991, 61 b
4. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. — Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2005, 58 b.

EKOLOGIYA VA IQLIM O'ZGARISHLARI MUAMMOSINING DOLZARBLASHUVI SHAROITIDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

XALMAMATOVA LOLA AMANKULOVA
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent
XAMIDULLAYEVA ELEONORA SHAVKAT QIZI
Professional ta'lim, 2-bosqich talabasi, TAQU, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bugungi kunda eng dolzarb masalaga aylanayotgan ekologiya muammosi va iqlim o'zgarishlari sharoitida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning mazmun-mohiyati, asosiy muammolari va vazifalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, iqlim, yashil iqtisodiyot, tabiiy resurs, energiya samaradorlik, taraqqiyot, strategiya.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ» В УСЛОВИЯХ АКТУАЛИЗАЦИИ ПРОБЛЕМ ЭКОЛОГИИ И ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА

Аннотация. Данная статья посвящена содержанию, основным проблемам и функциям перехода к «Зеленой экономике» в условиях экологических проблем и изменения климата, что становится наиболее актуальным вопросом на сегодняшний день.

Ключевые слова: Экология, климат, зеленая экономика, природные ресурсы, энергоэффективность, развитие, стратегия.

ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF A GREEN ECONOMY IN THE CONDITIONS OF UPDATED ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND CLIMATE CHANGE

Abstract. *This article focuses on the content, main problems and functions of transitioning to a "Green Economy" in conditions of ecological problems and climate change, which is becoming the most pressing issue today.*

Keywords: *Ecology, climate, green economy, natural resources, energy efficiency, development, strategy.*

Kirish. Yashil iqtisodiyotning yagona ta'rifi mavjud bo'lmasa-da, u odamlarning farovonligi va ijtimoiy tengligini yaxshilaydigan, ekologik xatarlarni va atrof-muhit resurslarining yetishmasligini sezilarli darajada kamaytiradigan va atrof muhitni yomonlashtirmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot degan ma'noni anglatadi.

“Ekologiya” terminini 1866-yil nemis olimi ekologiya E. Gekkel organizmlarning atrof muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etgan. Ekologiya (qadimgi yunoncha: οἶκος – “uy”, “turar joy”) — organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologiya fanlari majmui. Ekologiyani organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi. Ekologiya o'rganadigan ob'yektlariga ko'ra, umumiy va xususiy ekologiyaga ajratiladi.

Ekologik inqirozning kuchayishi va yaqinlashib kelayotgan iqlim o'zgarishi tahdidi “yashil iqtisodiyot” kontsepsiyasini global nutqning birinchi qatoriga olib chiqdi. Barqarorlik va ekologik mas'uliyatga yo'naltirilgan ushbu iqtisodiy model iqlim o'zgarishini yumshatish va ekologik muvozanatni mustahkamlashga qaratilgan muhim yo'lni taqdim etadi. Biroq, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish ko'plab murakkab muammolarga duch keladi.

Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlash va inson faoliyatining tabiiy muhitga ta'sirini minimalizatsiya qilish bilan bog'liqdir. Bu, tabiiy ekosistemalarni himoya qilish, suv, havoda va yer osti boyliklarini nazorat qilish, biologik tarkibni saqlash, atrof-muhit monitoringi va ekologik sertifikatsiya kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Iqlim o'zgarishlari esa Yer yuzidagi iqlimning o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu, okean va sirt harorati, quruqlik, tuproq unumdorligi, buzul va qorliq massalari, o'zgaruvchanlik va boshqa faktorlar orqali yuzaga keladi. Iqlim o'zgarishlari tabiiy ekosistemalarga, inson faoliyatiga va ob-havo sharoitiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bu sohada faoliyat ko'rsatadi. Ular atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik monitoring, iqlim o'zgarishini nazorat qilish va ekologik sertifikatsiya sohalarida ishlar olib boradilar

Dunyodagi iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavf-xatarlar va iqlim o'zgarishlari o'rtasidagi munosabatlar juda muhimdir. Yashil iqtisodiyot, bu muammolarga javob topishda bir necha mo'ljallarni o'z ichiga oladi. Bu masala har qanday iqtisodiyot tizimini chuqurlashtiradi, boshqa so'z bilan, ekologik ta'sirga ega bo'lgan iste'mol qilishni ta'minlaydi.

Birinchi navbatda, yashil iqtisodiyot, energiya resurslarini eng yaxshi shaklda foydalanish va energiya samaradorligini oshirish orqali o'tiladi. Yashil energiya iste'mol qilish, fosil yonilg'i samaradorligi va atmosfera o'zgarishiga olib kelgan zararlarni kamaytirishni kamaytiradi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot, ekologik materiallarni ishlatish va moddiy bosqichdagi israfni kamaytirish orqali atrof-muhitni saqlashga muvofiq yondashadi.

Ikkinchisi, yashil iqtisodiyot, yirik sanoat korxonalaridan transport vositalariga qadar, har xil sohalar ustida ekologik ta'sirni kamaytirishning ko'nikmalarni taqdim etadi. Bu, yangi texnologiyalarning rivojlanishi, atmosfera uchun zararli gazlarni kamaytirish, va o'zaro birga ishlashning kuchaytirilishi orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ham yashil iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi. Ekologik tarim texnologiyalari va suv ta'minoti, atrof-muhitni saqlash va iqtisodiyotni yanada ilg'orlash uchun muhimdir. Birinchi ko'rishda, yashil iqtisodiyotning amaliyati ehtiyotkorlik va siyosat muhim ahamiyatga ega. Qonuniy va dastlabki siyosatlar, yashil iqtisodiyotning rivojlantirilishida muhim rollarni o'ynaydi.

Jamiyatlarning ko'ngillariga joylashgan holda, yashil iqtisodiyot yangi iqtisodiy faoliyat shakllarini o'z ichiga oladi, bu esa atrof-muhitga, iqtisodiyotga va jamoatga foyda keltiradi. Yashil iqtisodiyotning rivojlantirilishida, ekologiya va iqtisod o'rtasidagi mustahkamlar, ko'rsatkichlar va qo'llanmalar bilan mustahkam ravishda bo'lishi kerak. Bu, dunyoning sog'lig'ini va mustaqilligini saqlashda katta rol o'ynaydi.

Tashkil etilgan sanoatlardan o'tish. Qazib olinadigan yoqilg'i kabi o'rnatilgan, ko'pincha ifloslantiruvchi tarmoqlardan qayta tiklanadigan energiya manbalariga va barqaror amaliyotga o'tish katta investitsiyalar va infratuzilmani o'zgartirishni talab qiladi. Ushbu o'tish mavjud tizimda manfaatdor tomonlarning qarshiligiga duch kelishi mumkin. Tashkil etilgan sanoatdan o'tish yashil iqtisodga o'tish rivojlangan sanoat tarmoqlarini, xususan, qazib olinadigan yoqilg'i va resurslarni ko'p talab qiladigan amaliyotlarga juda bog'liq bo'lgan tarmoqlarni sezilarli darajada o'zgartirishni talab qiladi. Ushbu o'tish davri ko'p qirrali iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlariga olib keladigan murakkab muammolarni keltirib chiqaradi.

Keling, ushbu masalani batafsil ko'rib chiqaylik. Iqtisodiy qaramlik: Ko'pgina iqtisodlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, yalpi ichki mahsulot va bandlikka sezilarli hissa qo'shadigan ko'mir qazib olish, neft qazib olish va ishlab chiqarish kabi tarmoqlarga juda bog'liq. Ushbu tarmoqlardan uzoqlashish qisqa muddatda ish o'rinlarining yo'qolishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin, bu esa o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishi mumkin.

Infratuzilma va investitsiyalar: Elektr stantsiyalari, transport tizimlari va sanoat ob'ektlari kabi mavjud infratuzilma ko'pincha qazib olinadigan yoqilg'i va an'anaviy ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga va barqaror amaliyotga o'tish yangi infratuzilma va mavjud tizimlarni qayta jihozlash uchun katta mablag' sarflashni talab qiladi, bu esa qimmat va ko'p vaqt talab qilishi mumkin.

Siyosiy va ijtimoiy qarshilik: Mavjud tizimda manfaatdor tomonlar, masalan, qazib olinadigan yoqilg'i kompaniyalari va sanoat lobbi guruhlari yashil iqtisodiyotni targ'ib qiluvchi siyosatlariga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Bu, ayniqsa, an'anaviy sanoatlar chuqur ildiz otgan jamoalarda siyosiy muxolifat va ijtimoiy tartibsizliklarga olib kelishi mumkin.

Texnologik cheklovlar: Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlar yashil amaliyotga to'liq o'tish uchun texnologik to'siqlarga duch kelmoqda. Misol uchun, po'lat va tsement ishlab chiqarish kabi og'ir sanoat hali ham yuqori haroratli jarayonlar uchun qazilma yoqilg'iga tayanadi va barqaror alternativlarni topish qiyin bo'lib qolmoqda.

Adolatli o'tish asosi: "adolatli o'tish"ni amalga oshirish yashil iqtisodiyotga o'tish hamma uchun adolatli va adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Bu ta'sir ko'rsatadigan sohalarida ishchilarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, shu jumladan qayta tayyorlash dasturlari, ishsizlik nafaqalari va rivojlanayotgan yashil iqtisodiyotdagi imkoniyatlar.

Iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish: Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirish ifloslantiruvchi tarmoqlarga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi. Bunga qayta tiklanadigan energiya, barqaror turizm va ekologik toza qishloq xo'jaligi kabi yangi tarmoqlarga sarmoya kiritish, yangi ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik: Hukumatlar va xususiy kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik yashil o'tishni moliyalashtirish uchun juda muhimdir. Bu toza energiya infratuzilmasiga davlat investitsiyalarini, yashil biznes uchun soliq imtiyozlarini va qo'shma tadqiqot va ishlanma tashabbuslarini o'z ichiga olishi mumkin.

Bosqichli yondashuv: O'rnatilgan tarmoqlardan bosqichma-bosqich va bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy va ijtimoiy buzilishlarni yumshatishga yordam beradi. Bu ishchi kuchini rivojlantirish, infratuzilmani yangilash va texnologik yutuqlarga erishish uchun vaqt beradi.

Uglerod narxini belgilash mexanizmlari: Uglerod solig'i yoki chegara va savdo tizimlari kabi uglerod narxini belgilash mexanizmlarini joriy etish kompaniyalarni chiqindilarni kamaytirishga va toza texnologiyalarga sarmoya kiritishga rag'batlantirishi mumkin.

Muvaffaqiyatli o'tishlarga misollar:

Germaniya: Germaniya hukumatining Energiewende siyosati qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishning sezilarli o'sishiga va qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqlikning kamayishiga olib keldi.

Kosta-Rika: Bu Markaziy Amerika davlati asosan qayta tiklanadigan energiyaga asoslangan iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tdi, elektr energiyasining 98% dan ortig'i toza manbalardan olinadi.

Texnologik rivojlanish va innovatsiyalar. Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, samaradorlik, arzonlik va foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun qo'shimcha innovatsiyalar zarur. Bunga energiya tejash, aqlli tarmoqlar va uglerodni ushlab texnologiyalari sohasidagi yutuqlar kiradi.

Texnologik taraqqiyot va uzluksiz innovatsiyalar yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tishning asosi hisoblanadi. Ular mavjud texnologiyalarning cheklovlarini engib o'tish va barqaror kelajak sari olg'a siljish uchun zarur bo'lgan vositalar va echimlarni taqdim etadi. Keling, texnologik rivojlanish hal qiluvchi rol o'ynaydigan ba'zi asosiy sohalarni ko'rib chiqaylik:

Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari:

Quyosh energiyasi sohasidagi yutuqlar: Fotovoltaik materiallar, quyosh batareyalari dizayni va energiya saqlash echimlari bo'yicha davomli tadqiqotlar quyosh energiyasining samaradorligi va arzonligini oshirish uchun juda muhimdir.

Shamol energetikasi innovatsiyasi: Kattaroq va samaraliroq shamol turbinalarini ishlab chiqish, dengizdagi shamol fermalarini o'rganish va tarmoq integratsiyasini yaxshilash shamol energiyasi salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshqa qayta tiklanadigan manbalar: Geotermal, suv oqimi va to'liq energiyasi kabi boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalarining salohiyatini o'rganish va ulardan foydalanish qayta tiklanadigan energiya aralashmasini diversifikatsiya qilish uchun juda muhimdir.

Energiyani saqlash yechimlari:

Batareya texnologiyalari: Lityum-ion va oqim batareyalari kabi akkumulyator texnologiyasidagi yutuqlar qayta tiklanadigan energiyani saqlash va ishonchli elektr ta'minotini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Tarmoqli miqyosda saqlash: Nasosli gidroenergetika va siqilgan havo energiyasini saqlash kabi samarali va tejamkor tarmoq miqyosidagi saqlash echimlarini ishlab chiqish qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishdagi tebranishlarni boshqarish va tarmoq barqarorligini saqlash uchun juda muhimdir.

Energiya samaradorligi va aqlli tarmoqlar:

Smart Grid Technologies: ilg'or sensorlar, aloqa tarmoqlari va ma'lumotlar tahlili bilan aqlli tarmoqlarni amalga oshirish energiya taqsimotini optimallashtirish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini yanada samarali integratsiyalash imkonini beradi.

Energiya tejamkor binolar va jihozlar: energiya tejaydigan qurilish materiallari, jihozlar va yoritish tizimlarini ishlab chiqish turar-joy va tijorat sektorlarida energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Uglerodni ushlab va undan foydalanish:

Uglerodni ushlab turish texnologiyalari: Uglerodni ushlab va saqlash (CCS) texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sanoat jarayonlari va qazib olinadigan yoqilg'i elektr stantsiyalari chiqindilarini kamaytirish uchun juda muhimdir.

Ugleroddan foydalanish: Olingan karbonat angidriddan foydalanishning innovatsion usullarini o'rganish, masalan, uni yoqilg'iga yoki boshqa qimmatbaho mahsulotlarga aylantirish, aylanma iqtisodiyotga hissa qo'shishi mumkin.

Barqaror transport:

Elektr transport vositalari (EVs): EV texnologiyasida davom etayotgan yutuqlar, jumladan, batareya diapazoni, zaryadlash infratuzilmasi va arzonligi barqaror transport tizimiga o'tish uchun zarurdir.

Muqobil yoqilg'ilar: vodorod va bioyoqilg'i kabi muqobil yoqilg'ilarni tadqiq qilish va ishlab chiqish elektrlashtirish qiyin bo'lgan transport tarmoqlari uchun barqaror imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Doiraviy iqtisodiyot texnologiyalari:

Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash: Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish poligon chiqindilarini kamaytirishga, qimmatli resurslarni tiklashga va aylanma iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Barqaror materiallar: bioplastika va qayta ishlangan kompozitlar kabi barqaror materiallarni tadqiq qilish va ishlab chiqish atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy materiallarni almashtirishi mumkin.

Raqamlashtirishning roli:

Katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt (AI): Katta ma'lumotlar tahlili va AIdan foydalanish energiya tizimlarini optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va talabni boshqarishni osonlashtirishi mumkin.

Narsalar interneti (IoT): IoT qurilmalari va sensorlari energiya sarfini kuzatishi, atrof-muhit sharoitlarini kuzatishi va barqarorlikni oshirish uchun aqlli tarmoqlar va aqlli binolarni ishga tushirishi mumkin.

Yashil o'tishni moliyalashtirish. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun etarli moliyaviy resurslarni safarbar qilish asosiy to'siqdir. Bu xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish, yashil obligatsiyalarni o'rnatish va barqaror loyihalarga davlat mablag'larini ajratishni o'z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirish davlat va xususiy sektordan katta moliyaviy resurslarni safarbar qilishni talab qiluvchi muhim vazifadir. Barqarorlik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar ko'lami innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini va investitsiya ustuvorliklarini o'zgartirishni talab qiladi. Keling, ushbu ko'p qirrali masalani chuqurroq ko'rib chiqaylik:

Yashil o'tishni moliyalashtirishdagi muammolar:

Investitsiyalar miqyosi: Yashil iqtisodiyotga o'tish qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasi, energiya samaradorligini oshirish, barqaror transport tizimlari va boshqa yashil texnologiyalarga katta sarmoya kiritishni talab qiladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, global iqlim va barqarorlik maqsadlariga erishish uchun har yili trillionlab dollar kerak bo'ladi.

Xavfni idrok etish: Investorlar ko'pincha yashil loyihalarni, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda an'anaviy investitsiyalarga nisbatan yuqori xavfga ega deb bilishadi. Bu tushuncha xususiy sektor investitsiyalariga to'sqinlik qilishi va yashil tashabbuslar uchun kapitalga kirishni cheklashi mumkin.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli daromadlar: Yashil investitsiyalar an'anaviy loyihalarga nisbatan uzoqroq o'zini qoplash muddatlariga ega bo'lishi mumkin, bu esa tez daromad izlayotgan investorlarni to'xtatishi mumkin. Bu investitsiya ongini uzoq muddatli barqarorlik va qiymat yaratishga o'zgartirishni talab qiladi.

Siyosat va tartibga soluvchi noaniqlik: Noaniq yoki nomuvofiq siyosat muhiti yashil investitsiyalar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Yashil investitsiyalarni rag'batlantiradigan va uzoq muddatli ishonchni ta'minlaydigan aniq va barqaror normativ-huquqiy bazalar kapitalni jalb qilish uchun juda muhimdir.

Yashil moliyalashtirishni safarbar qilish strategiyalari:

Davlat sektoriga investitsiyalar: Hukumatlar xususiy sektor ishtirokini jalb qilish uchun boshlang'ich investitsiyalarni ta'minlash va yashil loyihalarni xavf-xatarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, yashil obligatsiyalar chiqarish va barqaror texnologiyalar uchun subsidiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Yashil obligatsiyalar va iqlimiy moliyalashtirish vositalari: Yashil obligatsiyalar, ayniqsa, ekologik loyihalar uchun mo'ljallangan, yashil moliyalashtirishning muhim manbai sifatida paydo

bo'ldi. Iqlimni moliyalashtirishning boshqa innovatsion vositalari, masalan, uglerodni to'lash va yashil kreditlar, xususiy kapitalni yanada safarbar qilishi mumkin.

Ko'p tomonlama taraqqiyot banklari va xalqaro fondlar: Jahon banki va mintaqaviy taraqqiyot banklari kabi xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish va texnik yordam ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Aralashtirilgan moliya: Aralashtirilgan moliya modellari orqali davlat va xususiy sektor moliyalashtirishni birlashtirish cheklangan davlat resurslaridan foydalanishi va xatarlarni yumshatish orqali xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilishi mumkin.

Uglerod narxini belgilash va bozor mexanizmlari: Uglerod solig'i yoki chegara va savdo tizimlari kabi uglerod narxini belgilash mexanizmlarini amalga oshirish yashil investitsiyalarga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan daromad keltirishi va kompaniyalarni emissiyalarni kamaytirishga rag'batlantirishi mumkin.

Yashil moliyalashtirish tashabbuslariga misollar:

Yashil iqlim jamg'armasi: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konventsiyasi (UNFCCC) tomonidan tashkil etilgan Yashil iqlim jamg'armasi rivojlanayotgan mamlakatlarni iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashishda qo'llab-quvvatlaydi.

Yevropa investitsiya banki (EIB): EIB butun Yevropada qayta tiklanadigan energiya loyihalari va barqaror infratuzilmaning asosiy investori.

Xitoyning yashil moliyalashtirish tashabbuslari: Xitoy barqaror investitsiyalarni rivojlantirish uchun turli xil yashil moliya siyosatlarini amalga oshirdi va yashil banklarni tashkil etdi.

Moliyaviy institutlarning roli:

Tijorat banklari va institutsional investorlar: Tijorat banklari va institutsional investorlarni barqarorlik masalalarini kreditlash va investitsiya qarorlariga kiritishga undash yashil loyihalarga sarmoya oqimini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Rivojlanish moliya institutlari: Rivojlanish moliya institutlari yashil loyihalarga xususiy sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun xavflarni kamaytirish vositalari va texnik yordam ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda eng dolzarblashib borayotgan muammolardan biri bu ekologiyadir. Shu sababli ham yashil o'sish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolardan holi emas. Biroq, iqlim o'zgarishi va ekologik tanazzulga qarshi kurashning dolzarbligi ushbu to'siqlarni yengib o'tish uchun birgalikda global sa'y-harakatlarni talab qiladi. Innovatsiyalarni qabul qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va samarali siyosatni amalga oshirish orqali biz barqaror kelajakka va sayyoramiz va uning aholisiga foyda keltiradigan gullab-yashnayotgan yashil iqtisodiyotga yo'l ochishimiz mumkin.

Tashkil etilgan tarmoqlardan o'tish yashil iqtisodiyot sari murakkab, ammo zarur qadamdir. Muammolarni hal qilish va samarali strategiyalarni amalga oshirish orqali biz atrof-muhitga ham, jamiyatga ham foyda keltiradigan silliqlik va adolatli o'tishni ta'minlay olamiz. Buning uchun kuchli siyosiy iroda, xalqaro hamkorlik, innovatsiyalar va barqaror rivojlanishga sodiqlik talab etiladi. Texnologik rivojlanish va innovatsiyalar yashil iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Barqaror texnologiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va joriy etishga sarmoya kiritish orqali biz kam uglerodli kelajakka o'tishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishimiz va yanada barqaror va bardoshli dunyoni qurishimiz mumkin.

Yashil o'tishni moliyalashtirish davlat va xususiy sektor resurslaridan foydalanadigan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish, qo'llab-quvvatlovchi siyosat muhitini yaratish va investitsiya ustuvorliklarini barqarorlikka o'zgartirish orqali biz yashil iqtisodiyotni qurish va barcha uchun barqaror kelajakni ta'minlash uchun zarur kapitalni ochishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Odum Yu., Osnovi ekologii, per. s ang. Moskva, 1975.
2. Toshkent sh., 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son

3. Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel (IPCC) hisobotlari: IPCC beshinchi baholash hisoboti va undan keyingi maxsus hisobotlar iqlim o'zgarishi bo'yicha keng qamrovli ilmiy baholashlarni taqdim etadi.

4. Jahon bankining iqlim o'zgarishi va yashil o'sish bo'yicha hisobotlari: Jahon banki iqlim o'zgarishining ta'siri, oqibatlarini yumshatish strategiyalari va yashil o'sish imkoniyatlari haqida ko'plab hisobotlarni nashr etadi.

5. Xalqaro energiya agentligi (IEA) qayta tiklanadigan energiya bo'yicha hisobotlari: IEA qayta tiklanadigan energiya tendentsiyalari, texnologiyalari va siyosatlari bo'yicha ma'lumotlar va tahlillarni taqdim etadi.

6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) hisobotlari: UNEP nashrlari barqaror rivojlanish, resurslar samaradorligi va iqlim o'zgarishi kabi atrof-muhit muammolarining keng doirasini qamrab oladi.

YASHIL KIMYONI O'QITISHGA YANGICHA YONDASHUV

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna
"Kimyo" kafedrası o'qituvchisi
Jizzax politexnika instituti

yorqinoy.axmadjonova@bk.ru, 998 93 300-08-90

Annotatsiya. Maqolada atrof muhit kimyosi va yashil kimyo o'rtasidagi farq ko'rasatib berilgan hamda yashil kimyoni o'qitishga bo'lgan yangicha yondashuvlar keltirib o'tilgan.

Аннотация. В статье показана разница между химией окружающей среды и зеленой химией, а также приведены новые подходы к преподаванию зеленой химии.

Abstract. The article shows the difference between environmental chemistry and green chemistry, and new approaches to teaching green chemistry are given.

Kalit so'zlar: atrof muhit kimyosi (ekologik kimyo), yashil kimyo, "yashil" kimyogar, sintetik kimyo, xemofobiya, ta'lim

Key words: environmental chemistry (ecological chemistry), green chemistry, "green" chemist, synthetic chemistry, chemophobia, education

Ключевые слова: химия окружающей среды (экологическая химия), зеленая химия, «зеленый» химик, синтетическая химия, хемофобия, образование.

Kimyo fani ko'p yillar davomida ishlab chiqarishni eski texnologiyalar asosida amalga oshirib atrof muxitga juda ko'p zarar yetkazadi. Natijada "kimyoviy ekologiya", "atrof muhit kimyosi" yo'nalishlari paydo bo'lib ularning asosiy maqsadi atrof-muhitga ajralib chiqayotgan zararli komponentlarni aniqlash va o'z vaqtida yo'qotishga qaratilgan. Yuzaga kelgan vaziyat masalani bunday hal qilish noto'g'riligini ko'rsatdi va juda kata iqtisodiy zarar ko'rilayotgani ma'lum bo'lib qoldi. Buning asosida kimyo fani yotishini hisobga olib bu fanga nisbatan "xemofobiya" kayfiyatlari paydo bo'ldi. Ana shu holatlar bu fandagi metodologik qarashlar va yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqishga olib keldi

Avvalo "atrof muhit kimyosi" va "yashil kimyo" fani o'rtasidagi farqni aniqlab olaylik. Aslida ushbu ikkala yo'nalish ham dunyoni yaxshiroq joyga aylantiradigan yo'llarni topishga qaratilgan. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan.

Atrof-muhit kimyosi yoki ekologik kimyo - tabiiy muhitda yoki ekosferada sodir bo'ladigan kimyoviy va biokimyoviy o'zgarishlarni o'rganadigan kimyo bo'limi. Atrof muhit kimyosini havo, tuproq va suv muhitidagi kimyoviy birikmalarning manbalari, reaksiyalari, tashilishi, ta'siri va yo'llarini o'rganish sifatida belgilash mumkin. Atrof-muhit kimyosi, birinchi navbatda, ifloslanmagan muhit qanday ishlashini, tabiatda qanday kimyoviy moddalar qanday konsentratsiyalarda va qanday ta'sirlar bilan mavjudligini tushunishni o'z ichiga oladi. Busiz kimyoviy moddalarning tarqalishi natijasida insonning atrof-muhitga ta'sirini aniq o'rganish mumkin emas. Atrof-muhit fani manbalarni aniqlaydi, mexanizmlarini yoritadi va ekologik

muammolarni baholaydi. Atmosfera, suv va tuproq kimyosini o'z ichiga olgan fanlararo fan bo'lib, u asosan analitik kimyoga tayanadi va atrof-muhit va fanning boshqa sohalari bilan bog'liq[1].

Atrof-muhit kimyosi ifloslantiruvchi moddalardan xalos bo'lish uchun kimyoviy yechimlarni taqdim etadi. Bunday holda, kimyoviy eritmalarning quyidagi mumkin bo'lgan usullari mavjud:

1. Atrof-muhitga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalarni yo'q qilish;

2. Mahalliy bo'lsa, ularning tarqalishini cheklash;

3. Ularni ishlab chiqarishni to'xtatish - kimyoviy mahsulotlarni olishning mavjud usullarini yangilari bilan almashtirish;

Birinchi ikkita yo'nalish ekologik kimyoni tadqiq qilish sohasiga kiradi, oxirgi yo'nalish esa yashil kimyo tegishli bo'lgan soha.

Yashil kimyo xavfsiz muqobil texnologiyalarni yaratish orqali ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini qidirmoqda[2].

Yashil kimyo va atrof-muhit kimyosi turli fanlardir. Yashil kimyoning maqsadi kimyoviy mahsulotlar yoki jarayonlarni yaratish jarayonida ifloslanishning oldini olishdir, ya'ni boshlanishidan oldin ifloslanishning oldini olish.

Shu o'rinda quyidagicha savol paydo bo'ldi. Yashil kimyoning yondashuvi juda yaxshi bo'lsa, nega u alohida fan sohasi emas[3]?

Sintetik kimyo va atrof-muhit kimyosi ko'p yillar davomida bir-biridan ajralgan holda, amalda bir-biriga yopishmasdan mavjud edi. Aslini olganda, yashil kimyo fanning ushbu ikki sohasi kesishgan joyda paydo bo'lgan. Yashil kimyo o'z-o'zidan yangi texnologiya yarata olmaydi, u faqat zamonaviy fanning harakatiga yo'l ko'rsatadi. Bu fanning ko'plab sohalari uchun rivojlanishning yangi yo'nalishlarini ochadi: zaharli birikmalardan foydalanmasdan jarayonlarni yaratish, qo'shimcha mahsulotlar yo'q, ifloslanishning oldini olish va boshqalar.

Yashil kimyo kimyoning yangi sohasiga qaraganda ko'proq kimyogarlar uchun yangi fikrlash usulidir[4].

Yana bir haqli savol. Yashil kimyo jarayonlari an'anaviy jarayonlarga qaraganda qimmatroqmi yoki kam xarajatmi?

Albatta, yashil kimyo jarayonlari arzonroq. Kimyoviy jarayon uchun eng oddiy xarajatlar tahlili reaktivlar, asbob-uskunalar va mehnat xarajatlarini o'z ichiga oladi. Ammo, aslida, chiqindilar va qo'shimcha mahsulotlarni yo'q qilish, reagentlar va maqsadli mahsulotni qayta ishlash va tozalash va boshqa, ba'zan yashirin xarajatlar uchun xarajatlar mavjud. Hatto juda zaharli bo'lmagan birikmalardan foydalanish jarayonning narxini sezilarli darajada oshiradi, ularni sotib olish bosqichidan, transport xarajatlari, saqlash va maxsus jihozlar bilan ta'minlash, qo'shimcha ehtiyot choralari ko'rish xarajatlari va boshqalar. Kimyoviy texnologiyalarni zaharli bo'lmagan reagentlarga o'tishi, shubhasiz, ekologik va iqtisodiy nuqtai nazardan foydalidir.

Masalan, Men kimyogarman. Yashil kimyo yo'lidan ketayotganimni qanday bilsam bo'ladi?

Yashil kimyoning asosiy g'oyasi zaharli kimyoviy chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish yoki butunlay yo'q qilishdir. Yangi takomillashtirilgan jarayonlar tabiatga va odamlarga kamroq zarar keltiradigan ko'plab misollar mavjud, chunki ular zaharli bo'lmagan birikmalardan foydalanadi va qo'shimcha mahsulotlar hosil qilmaydi. Agar siz(men) bunday jarayonni yaratish, eskisini takomillashtirish ustida ishlayotgan bo'lsangiz yoki shunga o'xshash jarayonni allaqachon yaratgan bo'lsangiz, o'zingizni xavfsiz "yashil" kimyogar deb atashingiz mumkin.

Shunday ekan, bo'lajak kimyo o'qituvchilari va kimyo fanini o'rganayotgan o'quvchilari talabalar kimyo darslari jarayonida o'quvchilarga organik erituvchilar o'rniga ishlatiladigan tabiatga zararsiz erituvchilarni, katalitik jarayonlarni o'rganib olishlari, zamonaviy analiz usullari, toksikologiya elementlarini bilishlari kerak bo'ladi. Kimyo o'qitish darslari va laboratoriya darslarida tegishli mavzularni o'rganayotganda yashil kimyo elementlarini o'rgatish va bu bilan ekologik mezonni saqlashga, ekologik ta'limni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Chunki, keyingi yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlari universitetlarida va ilmiy markazlarida kimyoviy jarayonlarni amalga oshirishga Yashil kimyo prinsiplari asosida qarashlar rivojlanmoqda.

2008- yil Moskva va Sankt-Peterburgda o‘tkazilgan 2-Xalqaro konferensiyada “Yashil kimyo” yo‘nalishida ta’lim berishni tashkil qilish masalalari ko‘rib chiqildi. Shu yili Moskva davlat universitetida innovatsion universitet dasturi doirasida “Kimyo –barqaror rivojlanish uchun –Yashil kimyo” markazi ochildi va bu yo‘nalishda ta’lim daturlarini yaratishning dolzarbligi ta’kidlandi.

Maktab, litsey va texnikum, oliy ta’lim muassasalarining integratsiyasida kimyo fanini o‘qitishda o‘quv dasturlariga „Yashil kimyo” elementlarini kiritish kabi qator qarorlar qabul qilingan. Bugungi kunda Respublikamizda shu qarorlar asosida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Yashil kimyo” yo‘nalishida amalga oshiriladigan ta’limda o‘quvchilar kimyoviy va kimyoviy texnologik jarayonlarni tassavvur qilishga, tushinishga, ko‘nikmalar hosil qilishida yangicha qarashni shakllantiriladi. Bu dastur ko‘pgina fanlarni integratsiyada o‘qitilishida, ya’ni biologiya, tibbiyot, fizika, matematika, kimyo va kimyoviy texnologiya fanlarini o‘qitishga va kimyo fani mazmuniga boshqacha qarashlarni talab qiladi. Bunda butun jarayonlarda o‘tkaziladigan hamma bosqichlarda atrof-muxitga bo‘ladigan salbiy ta’sir minumimga keltirilishi va iloji boricha chiqindisiz texnologiyaga yo‘nalishiga o‘tish imkoni yaratiladi. Ta’limni bu yo‘nalishda olib borilishi o‘sib kelayotgan yoshlarini ekologik va gidroekologik savodxonligini oshishiga, atrof-muhitga bo‘lgan mehrini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исидоров В.А. Экологическая химия (Уч.дляВУЗ), Химиздат, 2001,304 с, ISBN 5-7245-1068-5
2. Anastas P.T., Warner J.C., Green Chemistry: Theory and Practice, Oxford University Press, New York, 1998, p.30
3. Лунин В.В., Локтева Е.С., Голубина Е.В.. Инновационные образовательные программы в области химии. Научно-образовательный центр «химия в интересах устойчивого развития -зеленая химия» М.: Изд-во МГУ, 2007. – 117 с.
4. Noyori Ryoji. Pursuing practical elegance in chemical synthesis. Chemical Communications, 2005, (14), 1807—1811

TA’LIM MUASSASALARIDA FAN TO‘GARAKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI

Umarova Amina Norqul qizi
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimida fan to‘garaklari faoliyatini tashkil etishning ahamiyati xususida so‘z boradi. Ta’lim muassasalarida yoshlar intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishning usullaridan biri fan to‘garaklari faoliyatlaridan samarali foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, fan to‘garaklari, axborot texnologiyalari, kompyuter imkoniytlari, o‘quvchi, talaba, ilm-fan.

Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, xalqimizning yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, ularga munosib bilim berish, o‘qish-o‘rganishlari uchun zarur shart-sharoit va keng imkoniyatlar yaratish borasidagi orzu-maqсадlari ushala boshladi. Ozod Vatanga o‘z iqtidorini kamolga yetkaza biladigan yoshlar nihoyatda zarur. Ularning iste’dodi butun bir xalqning nomini ulug‘lashga qodir. Bugun yoshlar orasidan ana shunday o‘z ilmi, ma’naviyati bilan ona yurt sharafini yuksaltiradigan mutaxassislar etishib chiqishiga shubha yo‘q.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan Respublikamizda yoshlarning ta'lim olishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar kun sayin yaxshilanib bormosda. Yoshlarimizning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlar va bunyod etilayotgan inshootlar dunyoning eng rivojlangan davlatlari yoshlari havas qilsa arzigulik. Bu ishlarga bevosita davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz rahnomaligida amalga oshirilayotgani ayniqsa quvonarlidir.

Ta'lim muassasalarida yoshlar intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishning usullaridan biri fan to'garaklari faoliyatlaridan samarali foydalanishdir. Fan to'garaklarini olib borishda oldindan tasdiqlab olingan dastur va reja asosida, qolipga tushgan usuldan foydalanmasdan, ularning ijodiy faoliyatini jonlantirishning turli usullaridan samarali foydalanish zarur. O'quvchi va talabalarga yo'nalish bo'yicha turli murakkablikdagi dolzarb hamda muammoli mavzularni topshirish va ulardan biri ustida mustaqil ishlab ko'rishni taklif etish zarur. O'quvchi yoki talaba tanlab olgan mavzu ustida ishlash jarayonida ma'lumotlar to'plash, adabiyotlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni ilmiy asoslagan holda yechish kabi xislatlarini rivojlantiradi. To'garak rahbari tomonidan tashkil etiladigan ilmiy seminarlarda o'quvchi va talabalar o'z fikrini ilmiy asoslagan holda himoya qilish va tinglovchilarga yetkazib berish qobiliyati rivojlanadi. Tanlab olingan mavzu doirasida turli murakkablikdagi texnik qurilmalarning tayyorlanishi va amalga oshiriladigan o'lchash ishlari, rasionalizatorlik xislatlarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu ishtirokchilar, o'zlari tanlab olgan mavzu doirasida turli ko'rik tanlov va loyihalarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida ulardan kelajakda ushbu sohaning yaxshi mutaxassisi bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Har bir o'quvchi yoki talabani fanga qiziqish uyg'otish maqsadida to'garakka a'zo qilish mumkin. To'garak rejasini ma'lum ta'lim va tarbiyaviy maqsadini ko'zlagan holda, zamonaviy voqea-hodisalarga, kundalik turmushga bog'lab, moslab tuzilgani ma'qul. To'garak mashg'ulotining buyuk olimlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganishda, o'quvchi va talabalarda xalqimizning madaniy-ma'naviy merosga bo'lgan hurmatini o'z Vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'usida tarbiyalashda o'rni katta.

Mamlakatning istiqboli ko'p jihatdan undagi ta'lim tizimi darajasi bilan belgilanadi. Shu boisdan yurtimizda yoshlarining har tomonlama teran fikrli bo'lib kamol topishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda va buning uchun barcha zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ishtiyok bilan o'qish-o'rganish, bilim olish, tinimsiz izlanish, tajribali ustozlar yo'l-yo'rig'i hamda ilmiy muhit muvaffaqiyat kafolati bo'lib xizmat qildi. O'g'il-qizlarimizning noyob iqtidor va qobiliyatini aniqlash, bilim olishga qiziqishini yanada oshirish maqsadida qator tanlovlar tashkil etilayotgani ham O'zbekiston yoshlarining xalqaro intellektual musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki va pirovardida g'olibligini ta'minlamoqda.

Turli konchilik, kimyoviy va boshqa sanoat korxonalarini texnologiyalaridagi muammolarni hal qilishda zamonaviy texnika vositalarini keng qo'llash mutaxassisdan kompyuter hamda axborot texnologiyalaridan kerakli darajada foydalanish mahorati va tegishli ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi.

To'garak ishlariga quyidagi talablarni bajarilishiga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi: iqtidorli o'quvchi va talabalarni ijodkorlik, ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish; umumta'lim fanlarini chuqurlashtirilgan holda shaxsiy barkamollik fazilatlarini rivojlantirish; mutaxassis fanlarini o'rganishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va kasbiga mehr-muhabbat tuyg'ularini singdirish; ijodiy va ixtirochilik ishlaridan namunalar tayyorlash; o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish.

Masalan, ta'lim muassasalarida kompyuter sohasidagi turli to'garaklar tashkil qilinadi. Bu esa to'garakka qatnagan o'quvchi yoki talaba fanni o'rganishi natijasida quyidagi bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'ladi:

- zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi va ulardan foydalana oladi;
- turli amaliyot tizimlari va dastur qobiqlarida ishlay biladi;
- yuqori darajadagi algoritmik tillarda dasturlar tuza oladi;

- turli muhandislik kasbiy masalalarini yecha oladi;
- MS Word, MS Excel, MS Power Point kabi muharrirlarida ishlay oladi;
- internet tizimi imkoniyatlaridan foydalana olishi;
- ma'ruzalar bilan turli anjumanlarda va tanlovlarda ishtirok eta oladi.

O'quvchi va talabalarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, zamonaviy axborot vositalari va o'quv adabiyotlaridan mustaqil tarzda zarur ma'lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o'rgatish hamda shu asosda mas'uliyatli yechimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish, ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlash maqsadida yurtimizda iqtidorli yoshlarga juda katta e'tibor qaratilmoqda va fan to'garaklari faoliyati takomillashtirilib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Д.И.Камалова, Г.Турлибаева. “Современные инновационные методы в подготовке будущего учителя”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Таганрог. 2016. №2(17).
2. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. “The role of pedagogical competencies in improving technical knowledge of students in the higher education system”. International scientific-online conference “Innovation in the modern education system”. Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 434-437.
3. H.O.Uzoqov, A.R.Jo'rayev, Sh.H.Quliyeva, M.N.Karimova. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. T. Fan. 2022.
4. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. “Zamonaviy innovatsion ta'lim”. “Journal of universal science research” International scientific journal. Volume 1. Issue 1. 2023. pp. 187-189.
5. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. Texnologiya fanini o'qitishning muhim jihatlari. Conference of universal science research 2023. Volume 1. Issue 10. 19 october. 2023. Tashkent. Uzbekistan. pp. 111-113.
6. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. “Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish”. “Ijodkor o'qituvchi” ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent. 67-68 bet.
7. D.I.Kamalova, O.D.O'rinova, S.O.Hamidova. “Mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar”. “Journal of universal science research”. Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.
8. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. “Professional ta'lim tizimini rivojlantirish zarurati va fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari”. “Новости образования: Исследование в XXI веке”. №17(100). Россия. Январь. 2024. Часть 1. 10-11 стр.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATLI TOMONLARI

Sharapova Gulnoza Valentinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Boboqulova Dilso'z Zokir qizi

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barcha sohalarida “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish va uning afzaliklarini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti, global, issiqxona, yashil binolar.

ABSTRACT

In this article, the active introduction of "green" economy technologies in all areas for the development of the economy and ensuring high growth rates and its advantages are highlighted.

Keywords: green economy, economic growth, sustainable development, economy of ecosystems and biodiversity, global, greenhouse, green buildings.

АННОТАЦИЯ

В данной статье выделены активное внедрение технологий «зеленой» экономики во всех сферах для развития экономики и обеспечения высоких темпов роста и ее преимущества.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономический рост, устойчивое развитие, экономика экосистем и биоразнообразия, глобальный, теплица, зеленые здания.

Yashil iqtisodiyot -bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot hisoblanadi. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega.

UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta’kidlanishicha, yashil bo‘lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi kerak[2]. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi. Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat -bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash. „Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti“ va „Tabiiy kapital banki“ va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to‘liq xarajatlarni hisobga olish rejimidir. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish, innovatsion loyihalarni tatbiq etish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash uchun barcha sohalarda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol joriy etish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi vazifalari doirasidagi maqsadlardan biridir [1].

Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta’riflagan [3].

•Qayta tiklanadigan energiya

•Yashil binolar

•Barqaror transport

•Suvni boshqarish

•Chiqindilarni boshqarish

•Yerni boshqarish

Prezidentimizning 2-dekabr 2022-yildagi «2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-436-son qarori qabul qilindi[1]. Bu hujjat bilan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘shishni ta’minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan:

•Issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35% ga qisqartirish;

•Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30% idan ko‘prog‘iga yetkazish;

•Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20% ga oshirish;

•Yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;

•Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln hektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

•Yiliga 200 mln ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30% dan ortiqroqqa kengaytirish;

•Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% dan oshirish va boshqalar.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

Xorijlik mutaxassislarining fikriga ko‘ra, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik ko‘nikma, ya’ni: dizaynerlik, liderlik sifatleri, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landshaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy ko‘nikmalarga talab katta [4].

Mamlakat aholisi IQ darajasining 1%ga oshishi “yashil” bandlikning 0,98%ga oshishiga imkoniyat yaratadi. Iqtisodiy o‘shish “yashil” bandlikni oshirish uchun ham qulay shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, aholining o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat siyosati bandlikni oshirish uchun ko‘proq mehnat talab qiladigan ish o‘rinlarini yaratishga qaratiladi[6].

Natijalarga ko‘ra, oliy ma’lumotli va yuqori darajadagi **IT-ko‘nikmalarga** ega kadrlarni tayyorlashning ekologik muammolarni hal qilishdagi ahamiyati katta ekani aniqlandi.

"Yashil iqtisodiyot" bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish, innovatsion loyihalarni tatbiq etish masalalariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Global yashil iqtisodiy o‘tish yangi ish o‘rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi va O‘zbekiston bu imkoniyatlardan foydalanish uchun yaxshi mavqega ega. Yashil iqtisodiyotga o‘tish muvaffaqiyatini ta’minlash uchun davlat sektori va yashil moliyani jalb qilish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Abdurahmonova G.K., G‘oipnazarov S.B. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari va ustuvorlik xususiyatlari// 2024-yil. –10-16 bet. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/955/970>

3.,,United Nations Environment Programme (UNEP)“. 2016-yil 27-martda asl nusxadan arxivlangan: 2016-yil 11-may.

4.Lynn R. Kahle, Eda Gurel-Atay, Eds. Communicating Sustainability for the Green Economy. New York: M.E. Sharpe, 2014. ISBN 978-0-7656-3680-5.

5.UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, www.unep.org/greeneconomy

6. „Green Economy Roadmap“. International Chamber of Commerce (2012). 2021-yil 5-fevralda asl nusxadan arxivlangan: 2021-yil 31-yanvar

AVTOTRANSPORT CHIQINDILARINI KAMAYTIRISH ORQALI “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH

**Boyirov Zafar Ravshanovich,
QarMII, Qarshi shahri
Abdullayeva Marjona Ulug‘bek qizi,
Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi, QarMII, Qarshi shahri**

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarning yuzaga kelish sabablari hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli gazlarning ahamiyati to‘g‘risida bayon qilingan.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda avtotransport chiqindilarini kamaytirishning asosiy jihati hisoblanadi. Bunga yordam beradigan bir necha usullar, jumladan, avtotransport vositalarining atrof muhitga ta’sirini kamaytirish bo‘yicha bir nechta takliflar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: avtotransport vositalari, yashil iqtisodiyot, atmosfera, is gazi, uglevodorodlar, azot oksidi, benzapirin, gibrid transport vositalari, elektromobil, bioyoqilgʻi, transport-logistika, Yevro-4.

Аннотация. В данной статье описаны причины изменения климата и экологических проблем, а также значение вредных газов, выбрасываемых автотранспортом, в развитии зеленой экономики.

В то же время сокращение выбросов транспортных средств является ключевым аспектом развития «зеленой» экономики. Есть несколько способов помочь в этом, включая несколько предложений по снижению воздействия автотранспорта на окружающую среду.

Ключевые слова: автомобили, зеленая экономика, атмосфера, углекислый газ, углеводороды, оксид азота, бензапирин, гибридные автомобили, электромобиль, биотопливо, транспортно-логистика, Евро-4.

Abstract. This article describes the causes of climate change and environmental problems, as well as the importance of harmful gases emitted by vehicles in the development of a green economy. At the same time, reducing vehicle emissions is a key aspect of developing a green economy. There are several ways to help with this, including several suggestions for reducing the environmental impact of vehicles.

Keywords: cars, green economy, atmosphere, carbon dioxide, hydrocarbons, nitrogen oxide, benzopyrine, hybrid cars, electric vehicle, biofuel, transport and logistics, Euro-4.

Bugungi dunyoda iqlim oʻzgarishi va ekologik muammolar bilan bogʻliq muammolar tobora dolzarb muhokama va harakat mavzusiga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyotga oʻtish zaruriyatga aylanib va bu oʻtishning asosiy jihatlaridan biri avtomobillardan atmosferaga chiqayotgan chiqindilarni kamaytirishdir.

Avtomobil transporti uzoq vaqtdan beri harakatchanlik va bozorlarga kirishni taʼminlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol oʻynab kelmoqda. Biroq avtomobillar soni koʻpaygani sari havoning ifloslanishi, issiqxona gazlari chiqindilari va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bogʻliq muammolar ham ortib bormoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, AQSH va Yaponiyada atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar ichida avtotransport vositalari oldingi oʻrinda turadi. Shu jumladan, Oʻzbekistonda atmosferadagi jami zararli chiqindilarning 58% i avtotransportga toʻgʻri keladi. Atrof muhit havosini buzuvchi tajovuzkor gazlarning 60% ini is gazi, uglevodorodlar, azot oksidlari tashkil qiladi bu koʻrsatkich esa atmosfera va atrof muhitga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Dunyo boʻyicha 800 milliondan ortiq avtomobil har kuni havoga yuz minglab tonna zararli birikmalar chiqaradi. Avtomobil tutunida 200 dan ortiq zararli birikmalar mavjud boʻlib, oʻpka raki va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaruvchi moddalar (benzapirin, qoʻrgʻoshin va boshqalar) borligi aniqlangan [1]. Bu ifloslantiruvchi moddalar global iqlim oʻzgarishiga sabab boʻlmoqda.

Iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq muammoli masalalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy oʻsish va kambagʻallikni qisqartirish, ekologik va oziq - ovqat xavfsizligini taʼminlashga oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatadi. Shundan kelib chiqib, bu yoʻnalishda mamlakatda iqlim oʻzgarishi taʼsirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy oʻsish modelini targʻib qilishga katta eʼtibor qaratilmoqda[2].

Bu borada, mamlakatda “yashil” iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy taʼsirini yumshatish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5 - oktabrdagi PQ – 4477 - son qarori bilan 2019 – 2030 -yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi tasdiqlangan[3].

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda avtomobillar chiqindilarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunda nafaqat ekologik jihatlar, balki transport vositalarining atrof - muhitni ifloslantirishini kamaytirish, barqaror va samarali transport turlariga oʻtish orqali erishish mumkin boʻlgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni belgilab beradi.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradigan va atrof - muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytiradigan yondashuvni taklif qiladi. Avtomobillar chiqindilarini kamaytirish esa bu maqsadga erishish yo‘lidagi muhim qadamdir[2].

Shaharda avtomobillarning soni kundan - kunga ko‘payib bormoqda. Buning natijasida esa havo ifloslanishining foiz ko‘rsatkichi oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Hozirgi kunda O‘zbekiston ko‘chalarida 4 milliondan ziyod avtomobil harakatlanmoqda. Bu avtomobillardan chiqadigan is gazi, qo‘rg‘oshin, benzapirin, azot oksidi kabi zararli birikmalar ozon qatlaminin yemirilishiga hamda insonlarda turli xil kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi[4].

Avtomobil yo‘llarida yuzaga kelayotgan tirbandliklarni kamaytirish maqsadida avtomobillarni toq va juft kunlarda boshqarish qoidasini joriy etish orqali transport vositalarining atrof - muhitga ta’sirini nazorat qilish mumkin. Katta shaharlarda svetoforsiz chorrahalar loyihalarini ishlab chiqish va joriy qilish orqali yirik shaharlarda tirbandliklar va buning natijasida ba’zi hududlarning zaharli gazlar bilan ma’lum bir vaqt davomida me’yoridan ortiq ifloslanishini bartaraf etish mumkin.

Avtotransport chiqindilarini kamaytirish yashil iqtisodiyotni amalga oshirishning asosiy jihati hisoblanadi. Bunga yordam beradigan bir necha usullar mavjud:

✓ elektr va gibrid transport vositalariga o‘tish issiqxona gazlari va boshqa zararli moddalar tashlamasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Elektr transport vositalarini subsidiyalash va zaryadlash infratuzilmasini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari bu jarayonni rag‘batlantirishi mumkin.

✓ jamoat transporti va uning samaradorligini oshirish yo‘lda avtomobillar sonini kamaytiradi, bu esa o‘z navbatida chiqindilarni kamaytiradi. Metro, nol tashlamali avtobuslar va tramvaylar kabi ommaviy transport tizimlariga investitsiyalar kiritish muhim rol o‘ynaydi.

✓ bioyoqilg‘i, vodorod yoki siqilgan tabiiy gazdan foydalanish avtotransport vositalaridan karbonat anhidrid va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirishi mumkin.

✓ energiyani tejaydigan dvigatellar va transport vositalarini boshqarish tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, yengil materiallar va aerodinamik yaxshilanishlarni joriy etish yonilg‘i sarfini va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi.

✓ svetoforni boshqarish tizimlari va dinamik tezlikni boshqarish kabi transportni boshqarishda aqlli texnologiyalardan foydalanish tirbandlik va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, avtomobil chiqindilarini kamaytirish texnologik innovatsiyalar, siyosiy harakatlar va jamoatchilikni xabardor qilishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflarni berishimiz mumkin:

1. Yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish orqali transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta’minlash, “yashil” transportni rivojlantirish uchun shaharlarni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq qurish;

2. Yevro-4 va undan yuqori standartlarga mos keluvchi energiya samaradorligi va ekologik tavsiflari yaxshilangan avtotransport vositalari, elektromobillar, gibrid dvigatelli avtomobillar va gaz yoqilg‘isida ishlaydigan avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni kengaytirish;

3. Transport vositalarining atrof muhitga ta’sirini kamaytirish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yaxshilangan tavsifga ega motor yonilg‘ilarini ishlab chiqarish;

4. Zamonaviy va kam chiqindili avtotransport parkini yangilashda davom etish, eski avtomobillarni utilizatsiya qilish va yangi, yanada ekologik toza avtomobillarni sotib olishni rag‘batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;

5. Shaharlarda jamoat transportining samarali tizimlarini yaratish va takomillashtirish (yaxshilangan tavsifga ega jamoat transporti ulushini oshirish);

6. Yangi transport-logistika tizimlarini yaratish va rivojlantirish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish;

7. Mamlakatimizda mavjud bo'lgan va foydalanilayotgan transport vositalarining ekologik holati ustidan davlat nazoratini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisherov Sh.M, Abdumalikov R.R, "Avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli kimyoviy birikmalarning havo qatlamining ifloslanishi darajasiga salbiy ta'sirini fundamental o'rganish": "So'nggi ilmiy tatqiqotlar nazariyasi" jurali.
2. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son [qarori](#).
3. "2019 — 2030 - yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son [qarori](#).
4. O'zbekiston Respublikasining "Atrof muhit holati to'g'risida Milliy ma'ruza" 2023 yil.

KIMYOVIY MODDALARNING TUPROQ BIOTSENOZIGA TA'SIRINI O'RGANISH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARINI YARATISH

Xudoyberdiyeva Ruxsora Xamraqulovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani
5- umum ta'lim maktab o'qituvchisi
Mardiyev Nodirbek Orifjonovich
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Annotation. The article describes in detail the factors leading to soil salinization, work to increase its productivity and productivity, as well as the biocenosis.

Key words: biocenosis, deflation, erosion, agromelioration.

Аннотация. В статье подробно описаны факторы, приводящие к засолению почв, работы по повышению ее продуктивности и продуктивности, а также биоценоза.

Ключевые слова: биоценоз, дефляция, эрозия, агромелиорация.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tuproqning sho'rlanishiga olib keluvchi omillar, unumdorligi va samaradorligini oshirish ishlari va biotsenozni batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlari: biotsenoz, deflyatsiya, eroziya, agromeliorativ

Tuproq — litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta'sirida o'zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o'zaro bog'liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po'stining yuza va unumdor qatlami. Tuproqning nuragan tog' jinslaridan farq qiladigan eng muhim xususiyati — unumdorligidir. Tuproqni o'rganish va uning tasnifini tuzish, tarkibini yaxshilash hamda unumdorligini oshirish usullarini ishlab chiqish singari masalalar bilan tuproqshunoslik fani shug'ullanadi. Tuproq hosil qiluvchi asosiy omillar: iqlim, tuproq ona jinsi, o'simliklar va hayvonot olami, hududning relyefi va geologik yoshi hamda odamning xo'jalik faoliyati. Tuproqning hosil bo'lishi va shakllanishida mineral tog' jinslarining yemirilishini ta'minlovchi tirik organizmlar mikroorganizmlar, o'simliklar, hayvonlar katta rol o'ynaydi. Evolutsiya jarayonida tirik organizmlar paydo bo'lgach, ularning faoliyati natijasida tuproq hosil bo'lgan. Tuproqning hosil bo'lish jarayoni o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlarning o'zaro uzviy va murakkab munosabatlari natijasi sanaladi. Yashil o'simliklar tuproqni yangi organik birikmalar bilan boyitib boradi. Natijada tog' jinslari o'zgaradi. Yer yuziga yetib kelayotgan quyosh nurlari tuproq hosil bo'lish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi omildir.

Tuproqqa ekologik omillarning ta'siri natijasida tuproqning sho'rlanishi, yemirilishi, botqoqlashish yoki cho'llanishi mumkin. Tuproq degradatsiyasi natijasida dunyo bo'yicha 7mln.ga

dan ortiq haydaladigan yerlar foydalanishdan chiqmoqda. Tuproq sho'rlanishining asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

1.Sug'oriladigan maydonlarning ikkilamchi sho'rlanishi;

2.O'simliklarning unumdorligi ta'minlash maqsadida ularga ortiqcha miqdorda mineral o'g'itlarning solishidir. Xususan, O'zbekistonda g'ozachilikni rivojlantirish maqsadida 2 million gektar yer o'zlashtirildi. Natijada gidromeliorativ tizimning noto'g'ri tashkil etilishi va g'oz monokulturasi tuproq strukturasi buzilishiga olib keldi.

3.Sun'iy yaratilgan ekosistemada asosan bir xil tuzga chidamli o'simliklarni ekish, ularning vegetatsiya davri tugagach, uning qoldiqlari chirishi natijasida ularning tarkibidagi tuz yana tuproqning unumdor yuza qatlamiga yig'iladi. Tuproqlarning sho'rlanishi sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. O'zbekistonda sug'oriladigan dehqonchilik o'tgan asrning 1955-1990-yillarda jadal rivojlandi. Shu davr mobaynida 2 million gektardan ortiq yangi yerlar o'zlashtirildi. Bunda unumdor yerlar bilan bir qatorda sho'rlangan va qiyin o'zlashtiriladigan yerlar ham o'zlashtirildi. Bu davrda gidromeliorativ tizimlarda noto'g'ri foydalanilganligi, meliorativ tadbirlarning sifatsiz o'tkazilishi hisobiga sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmining meliorativ holati yomonlashgan. Bugungi kunga kelib Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasida sho'rlangan yerlar maydoni ortib bormoqda.

Tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri eroziyadir. Respublikamizdagi sug'orma yerlarning 700 ming gektarida irrigatsion eroziya kuzatilmoqda. Buning kelib chiqishiga asosiy sabab noto'g'ri sug'orishdir. Natijada paxta va g'alla ekinlarning hosildorligi 10%dan 60% gacha kamaymoqda. Bunday eroziya asosan Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryoda kuzatiladi.

Tuproqning ekologik muammolaridan yana biri uning biotsenozi xilma-xilligining kamayishidir. Tuproqda yashovchi organizmlar tuproqning asosiy biomassasini hosil qiladi. Ular tuproqning strukturasi ta'minlab, unda gazlar va suv almashinuvi, tuproq hosil bo'lishini va unumdorligini ta'minlaydi. Tuproqda yashovchi organizmlarning kamayishi tuproqning buzilishiga olib keladi. Insonning xo'jalik faoliyati, o'simlik zararkunandalariga qarshi tur xil pestitsid va gerbitsidlardan foylanish biosferaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tuproq organizmlarini yoppasiga nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Buning uchun tuproq zararkunandalariga qarshi biologik va texnik kurashdan foylanish zarur.

Bugungi kunda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida huquqiy harakatlar rejasi ishlab chiqilgan.

Mahalliy o'g'it deganda faqatgina go'ngni nazarga tutamiz, balki eski devorlar, ariq va kanallardagi loyqalar, o'simlikning yonishidan hosil bo'lgan kul, o'simliklarning qoldiqlaridan ham foydalanishimiz lozim. Bu chiqindilardan asosan minerallarga boy o'g'it tayyorlash mumkin. Buning uchun uzunligi 1m, eni 1m va chuqurligi 1m bo'lgan chuqurlik qaziladi. Unga 1-1,3 tonna go'ng, ariq yoki kanal loyqa tuprog'i, kul va boshqa chiqindilar (o'simlik qoldiqlari) 30 kg fosfor solinadi. Bunda fosfor jarayonni tezlashtirish va tuproqqa solinganda teng taqsimlanishi ta'minlanadi. Natijada 1senteneriga 5-10 kg azot, 4-6kg fosfor, 5-6 kg kaliyli aralashma hosil bo'ladi. Bu usulning afzallik ta'rafi shundagi sifatli, begona o't urug'lari chirigan, o'simlik uchun kerak bo'ladigan mikroelementlar to'liq saqlanib qolinadi va mineral o'g'itlarning tuproqdagi konsentratsiyasi bir xil bo'ladi.

Tuproq unumdorligini oshirish mineral o'g'itlardan voz kechishga olib keladimi? Jahon qishloq xo'jaligi amaliyoti bunga "yo'q" deb javob beradi. Chunki rivojlangan mamlakatlarda tuproq unumdorligini oshirish madaniy o'g'itlar samaradorligini yanada ko'tarishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakat uchun hal etish muammo bo'lib, turgan boshqoli don, paxta umuman barcha ekin turlari bo'yicha hosildorlik juda past bo'lsa bu ko'rsatkich (boshqoli don)

Germaniyada 52,5, Fransiyada 50, Chexoslovakiyada 47,6, AQShda 44,3. Vengriyada 43,7 sentnerni tashkil etadi. Sholi Yaponiyada 65, Vengriyada makkajo'xori 61,1 sentnerni tashkil etmoqda. Mineral o'g'itlar qo'llashga kelganda Gollandiyada ekin maydonlarining har gektariga 950 kg, Yaponiyada 890 kg, Daniyada 820 kg miqdordaa sof holatdagi azot, fosfor va kaliy to'g'ri kelgan bo'lsa bu ko'rsatkich bizning mamlakatimizda 400 kg.ni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi muammolarni qisman bartaraf qilish uchun:

- mahalliy o'g'itdan foydalanish,
- biogumus tayyorlash,
- mineral o'g'itlardan yitarlicha va to'g'ri foydalanishni ta'nimlash zarur.

Irrigatsion eroziya muammosini oldini olish uchun sug'orish tizimida yangi texnologiyalarni qo'llash, asosan tomchilab sug'orishni joriy qilish zarur. Shu bilan birga o'simlikka kerak buladigan kunlik suv miqdori boshqariladi va suv tejab qolinadi.

Tomchilab sug'orish texnologiyasini qo'llash orqali:

- o'simlikka kerakli o'g'it aralashmasini o'ziga , foydalanib biladigan darajada yetkazib berish kerak.
- har bir o'simlikka tomchilab sug'orishda uning vegetatsiya davri ma'lum bosqichi uchun zarur o'g'itlar aralashmasini berish.
- mineral o'g'itdan o'simlik yetarlicha foydaladi.
- tuproqning kimyoviy turg'unligi saqlanadi.
- O'g'it sarfi muammosi oldi olinadi.

Shuningdek, almashlab ekishni yo'lga qo'yish ,tomchilatib sug'orish tuproq ekologiyasi asrab qolish uchun asos bo'ladi. Tuproq sho'rlanishini oldini olish uchun kam va kerakli miqdorda mineral o'g'itlardan foydalanish, asosan organik o'g'itlar foydalanish kerak. Tuproqdagi organizmlar tuproqning ekologiyasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Tuproq bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.S.S.BURIYEV,D.A.MAXKAMOVA,V.X.SHERIMBETOV “EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI” Toshkent 2019
2. Y. D. Xolov. ”Tuproqni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish” maqola
3. A.A. Pardayev ”TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA EKINLAR HOSILDORLIGI”
3. Bakhramov I.Z. “Aerobiological monitoring and its prospects” // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2022. 12(102). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/146601>.
4. Н.Б.Ханходжаева, Д.Исмаилова. Агроэкология. Учебно-методическое пособие.- Ташкент, 2011
5. Bakhramov Inomjon, Jumabayeva Sevara “Bioremediation of contaminated soils using tall plants” [Vol. 3 No. 19 \(2024\): Innovations in Technology and Science Education](#)
6. Хужжиев Содик Олтиевич, Бахрамов Иномжон Закирович “Фиторемедиация почв, загрязнённых тяжёлыми металлами” (биологические науки) Естественные науки. 2022. № 2 (7). С. 37–45.

SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CASE IN ENGLISH AND UZBEK GRAMMAR

Farida Sobirovna Ergasheva

The student of Navoi State Pedagogical Institute

Annotation. In this scientific article the similarities of the agreements in English and Uzbek are discussed, also point out the differences between them. The article provides a number of examples of the importance of agreements in Uzbek and English. It is highly proved that by this article some problems of grammar.

Keywords: Case, nominative, accusative ,genitive, subject, object.

Аннотация. В этой научной статье. На английском и узбекском языках кейсы представлены с примерами. В статье приводится несколько примеров важности мыслей на английском и узбекском языках. Некоторые проблемы и сложности грамматики в той или иной степени решены. Не только из этой статьи могут использовать студенты и, возможно, даже носители языка.

Ключевые слова: падеж, именительный, винительный, родительный, подлежащее.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillarida caselarning o'xshash va farqli tomonlari misollar bilan birga keltirilgan. Maqola ingliz va o'zbek tillaridagi fikrlarning muhimligini bir necha misollar bilan ta'minlaydi. Grammatikaning ba'zi muammolari, murakkabliklari ma'lum darajada hal qilindi. Ushbu maqoladan nafaqat talabalar, balki o'z ona tilida so'zlashuvchilar ham foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, ega, to'ldiruvchi.

Grammar plays a crucial role in effective communication in the English language. It provides the structure and rules necessary for clear and coherent expression. Studying grammar not only enhances one's writing and speaking skills but also contributes to a deeper understanding of the language itself. But learners may have difficulties when they need to compare their native language with foreign one, in our case with the English. In this article we are going to compare some cases in English and Uzbek languages with grammatical point of view.

Cases serve to link noun or pronoun with other parts of speech via some suffixes or words. This rule is suitable for both languages except those cases varied number, in some extent functions. Looking at precise data main three cases are include in English counted as

- Subjective Case
 - Possessive Case (or Genitive)
 - Objective (Accusative or Dative Case)
- When it comes to Uzbek case, it will involve six ones:
- Nominative (bosh kelishik)
 - Accusative (tushum kelishigi)
 - Genitive (qaratqich kelishigi)
 - Dative (jo'nalish kelishigi)
 - Locative (o'rin-payt kelishigi)
 - Ablative (chiqish kelishigi)[1-4]

The Genitive Case (Qaratqich kelishigi). The English possessive case is marked by the stiffly is which can sometimes be substituted by the preposition of (e.g. my father's room, the room of my father) and therefore is sometimes called of – genitive case. This case denotes possession of a thing or a person and in Uzbek it has its correspondence in the Uzbek qaratqich kelishigi which is expressed by the case ending suffix. Guruchning kurmagi bor, yomonning to'qmog'i bor (Maqol) [3,2007:90].

Dealing with notion of possession one should keep in mind that in Uzbek this category may be expressed not only by the nouns but also their antecedents in the pleonastic phrase such as mening opam, sizning pasportingiz. In this case we have to face the problem of redundancy and often try to avoid it using the modified noun only which contains the possessive suffix. e.g. Opam keldi [3,2007:92]. In English the categorical form of the genitive case is the morpheme -which has three phonetically conditioned variants [s], [z] and [iz].

There are two types of qaratqich kelishigi in Uzbek languages – marked (belgili) or unmarked (belgisiz). The indicative case is marked when used -ning (-n). A noun in the definite indicative case expresses the meaning of definite subjectivity: e.g. Daraxtning ildizi, Onaning baxti). The demonstrative case is -ning (-n) unmarked unless used with the affix of -ning: umid uchquni, bahor fasli [3,2007:90].

If the plural of the noun is formed by the inflexion -(e)s the possessive case inflexion blends into one with the plural inflexion. E.x. Students' books, girls' coats, actresses' role, etc. In Uzbek the categorial form of the genitive case of the noun is the morpheme -ning which is

pronounced as (-ni) in colloquial speech. In Uzbek number and case are always expressed by separate morphemes (qizlarning, gullarning), in English we observe both cases (oxen's, men's, bacteria's, boy's, girl's, dog's).

In English the usage of the genitive case is limited. As a rule, it is used with animate nouns: Man's destiny, student's books, dog's tail, elephant's trunk. The genitive case may be also used with names denoting time and distance, with the nouns town, city, country, river, water, ocean, world, life, wind .e.g. The school is an hour's walk from here. We walked a mile's distance. We went through the town's business street. The ocean's roar could be heard from afar. The boat was at the water's edge.

The Accusative case (Tushum kelishigi). Meaning and functions of the other Uzbek cases may be denoted in Uzbek either by means of prepositions or by word order. For instance the meaning and function of the Uzbek tushum kelishigi is expressed in Uzbek by means of the case ending – ni which denotes the object acted upon and it may be expressed in English by means of word order which is characterized in this language to be very strict in comparison with Uzbek e.g. Hayot harakatni talab etadi (Arastu). Hujrani yasatganmisan? (A.Qahhor) [3,2007:91].

In Uzbek the Accusative case of the noun is represented by the morphemes -ni and –n which simultaneously express two meanings: object and definiteness. e.g. Menga kitobni ber. (Give me the book). Xatni yozib bo'ldim. (I have finished the letter). The morpheme –n is used in poetry: Tongi kurtak, oqshomgi g'uncha, Sahar turib ochar chechagin (H.Olimjon) [3,2007:91].

The tushum kelishigi has two forms, just like the nominative includes: a marked (belgili) receipt agreement and an unmarked (belgisiz) receipt agreement. A noun in the form of the accusative case, taking the suffix -ni (-n) comes: Xushro'ying rahmsiz muhokamasidan oqqan bu haqiqatlar Zaynabni yig'latdi (A.Qodiriy). And in the noun in the accusative form without a sign, the affix is -ni is not possible: Gul tufayli tikon suv ichar (Maqol) [3,2007:91].

One should distinguish between the object expressed by a noun in the nominative case and the object expressed by a noun in the accusative case: Menga kitob ber (Give me a book). Menga kitobni ber (Give me the book). In the first example the noun in the nominative case (kitob) denotes an indefinite object. In the second example the noun in the accusative case (kitobni) denotes a definite object.

The Dative Case (Jo'nalish kelishigi). The Uzbek jo'nalish kelishigi denotes the direction of an action performed by means of the case ending -ga [3,2007:92]. It can be rendered in English also by means of prepositions to, at, into, etc. e.g. Yigit maktabga keldi. He went to school. U qiz menga qaradi. She looked at me. Compare English and Uzbek nouns have the dative case [1].

In Uzbek the morpheme of the dative case is represented by its orthographic variants: -ga, -qa, -ka. Uyga, suvga, xonaga, ko'chaga, institutga. Elakka, beshikka, teshikka, etikka. Toqqa, boqqa, quduqqa, buloqqa, qishloqqa [3,2007:92].

The Locative Case (O'rin kelishigi). The Uzbek o'rin-payt kelishigi denotes the place of the thing or a person in the space and it can be rendered in English by means of prepositions at, in, on, by, over, above, among, between, behind etc. E.g. Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi. It should be kept in mind that most of the English preposition may contain more additional meaning denoting the place of the thing or a person, behind-orqasida, between-orasida, under-ostida, etc. The locative case exists in Uzbek and it has one orthographic -da and two orthoepic variants -da, -ta [3,2007:93].

Ablative case (Chiqish kelishigi). Chiqish kelishigi of Uzbek nouns denotes the beginning point of the action denoted by the verb. e.g. Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on, Shunda bilursankim, ilm bepoyon (Firdavsiy) [3,2007:94]. It can be rendered in English by means of preposition from, out of, from under, etc. e.g. I came from Canada [4,2017:8].

Diverse opinions about modern case system in two languages. Other four cases expressed with prepositions in English. The Coordination of the case with preposition brings some problems, because there is no preposition in Uzbek. Besides that, preposition give another meaning according to expressing in the sentence. Dative case, Accusative case, Locative case, Ablative

case.Eg: His face red with anger. Uning yuzi jahldan qizardi. She writes letter with pen, U xatni ruchka bilan yozdi [1-5].

CONCLUSION

To sum up, comparison of any two languages which can be Uzbek and English has grabbed attention of many students. The most notable feature of this event, even foreign students whose mother tongue is English pays great attention to learn Uzbek language. Therefore, during that time different countries learners face some issues as the difference of grammar systems. Cases are one the most interesting as well as necessary theme for both Uzbek and English students. The reason of that a great number of other themes are correlated to this theme such as noun, pronoun, part of speeches and so on. From this point of view, it should be concluded that in teaching cases, both teachers and students ought to keep their awareness, attention in case theme. This article can be helpful for them to carry out their aims.

REFERENCES:

1. Benjamin Lee Whorf. Grammatical Categories. 2017. 11p
2. Daily Writing Tips, <https://www.dailywritingtips.com> > gram.
3. Grammatical Case in English and Uzbek.
4. M. Hamroyev, D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva ("Ona tili grammatikasi") "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti 274p.
5. Understanding Case in English Grammar.

VERB RELATIONS IN UZBEK AND ENGLISH

Scientific supervisor: Muminov Elyor Turayevich

Teacher of Navoi State Pedagogical Institute

Juraev Feruzbek Ikhrorbek o'g'li

Student of Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. The following article examines the types of verb tenses in Uzbek and English and explains their differences and uses. The main content of the article will help students learning English as a second foreign language to fully understand the meaning of verb ratios in both languages.

Key words: Verb ratios, active voice, passive voice, suffix, tenses.

Аннотация. В следующей статье рассматриваются типы времен глаголов в узбекском и английском языках, а также объясняются их различия и использование. Основное содержание статьи поможет студентам, изучающим английский как второй иностранный язык, полностью понять значение соотношений глаголов в обоих языках.

Ключевые слова: Соотношение глаголов, активный залог, пассивный залог, суффикс, времена.

Annotatsiya. Quyidagi maqola o'zbek tili va ingliz tilida fe'l nisbatlarining turlanishini o'rganib ularning bir biridan farqi va qo'llanilishini yoritib beradi. Maqolaning asosiy mazmuni ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalarga fe'l nisbatlarining mohiyatini ikkala tilda to'liq tushunishi uchun yordam beradi.

Kalit so'zlar: Fe'l nisbati, faol ovoz, passiv ovoz, qo'shimchalar, zamonlar.

It is known that not knowing the mother tongue is foreign learning a language is a difficult matter. Because every language has its own grammar and to learn it, we must have some knowledge of the grammar of our mother tongue demand the various similarities and differences between them make people even more calls for deeper research. This phenomenon is similar to other languages such as Uzbek and English on their tongues. An example of this is a small grammar we can get verb proportions. Come rate now we will talk about its place in Uzbek and English languages. depends on the definition of ratios Let's face it. Fetl ratio is the action and the state of the person who performs this process indicates the degree to which he participated in the implementation. There are five types of verb ratios in the Uzbek language. In English they are of three types consists of the first of them is the exact ratio, which is also called the basic ratio. In this the action is performed by the person or thing that is the owner of the action sentence.

“Boysarining bu holini **bilgan** o‘zbek xabar olar”, — deb Surxayil kampir ham poyloqchilik qilib davrini suraverdi. [2;18]

*I, at that distance, **know** what it was. I found quickly the negroes were for eating the flesh.* [3; 20]

Exact Aspect Ratio - The performer accurately represents the action and does not add aspect ratio. Such 0 makes almost no difference in this ratio (aniq nisbat) [Erkaboyeva. N; 49] In Uzbek and English verbs, the verb to **know** and **bilmoq** means an action in which the executor is clearly defined.

*Nigora gulni uzish uchun **egildi**.* [5; 76]

The next type of relation is the self is a ratio, and the action is performed on the person or things themselves. That is, when the person performing the action and the object of the action are united will be. In Uzbek, the personal relation is formed by adding **-n, -in, -l, -il** to the verb.

*Nigora went down to **pick up** the flower.* [5; 77]

But there is no such ratio in English, and it is expressed by the ratio definite and comes as participle.

*Ayol ovqatni ichar ichmas qo‘zg‘aldi. Munavvarxonimning ko‘ngli xotirjam edi. Kerakli saboq **berildi**.* [1; 25]

It was given up, as above; which, as he remember, was for about twelve years. [3;154]

In Uzbek language by adding the adjuncts of this ratio type just like a proper ratio is formed. Since the personal and passive participles are the same, they are we differentiate by putting the word "**himself**" in front of it.

In English this is called passive voice and it is done with these formulas and tenses **to be + V (3) or (ed)**.

“Sizlar ketaveringlar”, — deb tayinlab, o‘zlari jang qilish niyatida ortga **qaytishdi**. [2;16]

*Nigora and Noila **went** to the theater.* [6; 84]

The next ratio is the ratio of unity, the action or state of several people In the Uzbek language, this ratio is a work action performed by several persons It is formed by **-sh (ish)** adding suffixes

As mentioned above, the verb "**went**" is expressed in a definite proportion

*Hech kimga bildirmay ikki kunda kelinni **keltirdilar**.* [1; 39]

The last type of ratio is the additive ratio, which changes depending on the movement serves as a personal tool, that is, one person invites another person to Da'wah In the Uzbek language, this type of ratio is expressed by the suffixes **- t, - ir, - iz, - sot, - dir, - tir, - giz, - kar** is made.

We are going to have our meal cooked now. [4; 39]

In English, this type of Causative voice is formed in the verb "**have something done**".

REFERENCE

1. Ahmad Lutfiy. Qaynona romani. T.: “Movarounnahr”, 2004. 25 p, 39 p.
2. “Alpomish dostoni”. 18 p. 16 p.
3. Daniel Defo. Robinson Crusoe. “Global Grey”, 2021. 20 p. 154 p.
4. Ingliz tili grammatikasi. “Morphy”. 51 p.
5. Jumayeva, M. (2022). CHARACTERISTICS OF VERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Science and innovation, 1(B7), 711-714.
6. “Ona tili”. A. Anorbekova 178 p, 181 p.
7. www.uza.uz sayti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH VA IQLIM O‘ZGARISHI MUAMMOLARINI HAL ETISH UCHUN SHAROITLAR YARATISH.

Madatov Quvonchbek Geldiyor o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Kompyuter tizimlari” kafedrasini o‘qituvchisi, Qarshi shahar

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot olib borish jarayonlari haqida so‘z boradi. Respublikamizdagi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi qonunchilik bazasi yashil mexanizmlarni joriy qilish darajasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: “yashil iqtisodiyot”, eko-innovatsiya, qayta tiklanadigan energiya, fotoelektr stansiyasi, energiyadan samarali foydalanish, iqtisodiyotni yashillashtirish.

Аннотация. В данной статье рассказывается о процессах ведения зеленой экономики в Узбекистане. Законодательная база нашей республики и отраслей экономики была проанализирована с точки зрения уровня реализации зеленых механизмов.

Ключевые слова: “зеленая экономика”, экоиновации, возобновляемые источники энергии, фотоэлектрические установки, эффективное использование энергии, экологизация экономики.

Annotation. This article talks about the processes of conducting green economy in Uzbekistan. The legislative framework in our republic and economic sectors was analyzed in terms of the level of implementation of green mechanisms.

Keywords: “green economy”, eco-innovation, renewable energy, photoelectric plant, efficient use of energy, greening of the economy.

Kirish

Hozirgi glaballashuv jarayonida rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasini sifat jihatdan yangilanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilovchi yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o‘tishni talab qilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda bunga o‘tishni amalga oshiruvchi “Yashil o‘tish” iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha ‘zolarining uzoq muddatli (2030 yilgacha) rivojlanish uchun strategik yo‘nalish sifatida qabul qilingan. O‘zbekiston so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasidamuvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini rivojlantirishga e‘tibor qaratgan holda, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan ushbu qarorning qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Quyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroridan qisqacha ilova keltirilgan:

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bizni mamlakatimiz ham Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo‘yicha o‘rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orol bo‘yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekistonda ham yashil iqtisodga o‘tish va reytingda yuqori o‘rinlarga ko‘tarilish bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasiga Toshkent viloyatida qibray tumanida joylashgan poliz ekinlarini yetishtiruvchi issiqxonalar hamda hozirgi kunda aholi uy-joylariga qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchi quyosh batareyalarni o‘rnatish hamda uni sotish imtiyozlari hamda uni o‘rnatish bo‘yicha imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Mavjud muammolarni hal

etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi. Bunda uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak: barqaror rivojlanish sohasida Milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik; resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish; iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun "yashil" vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi; eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va korsatkichlarni yaxshilash, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makro iqtisodiy maqsadlarga erishish; resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash. Shu munosabat bilan iqlim o'zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan 2019 — 2030-yillardavrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini (keyingi o'rinlarda — Strategiya) ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi." Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yilning 30-oktyabridagi PF-5863 sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni, 2019-yil 5-oktyabrdagi PQ-4477 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlar yurtimizda yashil iqtisodiyot rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratib berdi. Xususan, ushbu hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Mazkur amalga oshirilgan keng qamrovli iqtisodiy va siyosiy islohotlar, mamlakatimizning rivojlanishiga yordam berayotgan yaxshi bazani shakllantirish damuhim ahamiyatga ega bo'lgan asosdir. O'zbekiston, shu sabablarga ko'ra, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining besh tashabbus yo'nalishlarida Ijtimoiy-iqtisodiy Rivojlantirish strategiyasi"ni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning yaxshi taraqqiyoti siyosiy va iqtisodiy rivojlanganlikning yanada kuchayishiga imkon beradi. Mamlakatimizda o'z elektr jihozlarini mustahkamlash, muqobil energiyadan foydalanishda muvaffaqiyatlarga erishish, "Yashil iqtisodiyot" va "Eng ijtimoiy-muvozanat sirlari" konsepsiyasi doirasidan ko'proq qadam tashlash muhim ahamiyatga ega. O'ylaymanki, bu yo'nalishni yanada rivojlantirish, yashil iqtisodiyot ishlash tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda ekologiya va iqtisodiyot sohasida yanada yuksak natijalarni zabt etishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" mavzusidavlat va xalq faoliyati sohasida iqtisodiy saviyani ta'minlab, har bir insonning yuksak fikrda bo'lishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu konsepsiya mamlakatni iqtisodiyot va ekologiya sohasida rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida ajoyib yutuqlarni ko'rsatdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslar, strategiyalar, siyosatlar qabul qilindi. Parij bitimining ratifikatsiya qilinishi mamlakatning issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha majburiyatlaridagi muhim qadamdir. Kam uglerodli rivojlanish, samarali texnologiyalar, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etish orqali O'zbekiston ekologik toza iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yetakchiga aylanish yo'lidan bormoqda. Milliy maqsadlar va innovatsiyalarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlashning yakuniy maqsadiga erishishda yanada muhim yutuqlarni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar

2006 – yilda respublikamizda ilk bor Jamg'arma bazasida tashkil etilgan o'zbek tilidagi "Ma'naviyat va ma'rifat", "Axborot texnologiyalari va masofali o'qitish" (shu [jumladan](#), rus va ingliz tillarida ham) va "Innovatsion texnologiyalar", "

Ta'lim muassasalari boshqaruvi" kurslari bo'yicha Jamg'arma portalida elektron ko'rinishdagi kurslar yaratildi. Ushbu kurslar republikamizning ta'lim muassasalari va ilmiy – tatqiqot institutlarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh, istiqbolli pedagog va ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan bo'lib, hozirgacha 4114 nafar tinglovchi masofali malaka oshirishda qatnashdi. Shulardan 1334 nafari masofali kurslarni muvaffaqiyatli yakunladi va elektron sertifikatlariga ega bo'ldi.

Hamkorlikda o'rganish. An'anaviy sinf tizimiga muqobil sifatida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi paydo bo'ldi. Uning mualliflari uchta fikrni bitta jarayonda birlashtirgan:

jamoaviy mashg'ulotlar, kichik guruhlarda mashg'ulotlar. Hamkorlikda o'rganishda quyidagi vazifalar hal qilinadi: Talabada ijtimoiy madaniyat shakllanadi hamda birgalikda ishlansa, ancha yaxshi o'rganadi; Talabalarning to'g'ri va mantiqiy yozish qobiliyati jamoaning boshqa a'zolari bilan muloqot qilish qobiliyatiga bog'liq; Talabalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar jarayonida yangi bilimlar o'zlashtirish va ma'lumot almashish imkoni oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
2. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. 1 ST/ESA/333.
3. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya –Toshkent: Tafakkur-2010.B.36.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.

“YASHIL IQTISODIYOT” HAMDA UNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

O.Toshpo'latov

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar:Sh.Akobirov-

NavDPI biologiya kafedrasini o'qituvchisi.

Annotatsiya. Yashil iqtisodiyot har qanday [iqtisod](#) nazariyasi sifatida aniq ta'riflanadi, unga ko'ra iqtisodiyot o'zi yashaydigan ekotizimning tarkibiy qismi hisoblanadi (Linn Margulisdan keyin). Mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo'lib, iqtisodiy g'oyalarni ma'lum bir nazariyotchiga qarab har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. [Feminizm](#), [postmodernizm](#), atrof-muhit harakati, tinchlik harakati, Yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashuvga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo'lgan juda boshqacha g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan.

Аннотация. Зеленая экономика точно определяется как любая экономическая теория, в которой экономика является компонентом экосистемы, в которой она живет (по Линн Маргулис). Типичен целостный подход к предмету, при котором экономические идеи смешиваются с любым количеством других тем в зависимости от конкретного теоретика. Сторонники феминизма, постмодернизма, экологического движения, движения за мир, зеленой политики, зеленого анархизма и антиглобалистского движения использовали этот термин для описания самых разных идей, выходящих за рамки основной экономики.

Abstract. A green economy is precisely defined as any economic theory in which an economy is a component of the ecosystem in which it lives (after Lynn Margulies). A holistic approach to the subject is typical, with economic ideas mixed with any number of other topics depending on the particular theorist. Proponents of feminism, postmodernism, the environmental movement, the peace movement, Green politics, green anarchism, and the anti-globalization movement have used the term to describe very different ideas outside of mainstream economics.

Kalit soʻzlar: Ekologiya, “Yashil iqtisodiyot”, atrof-muhit, tabiatni asrash, tabiiy kapital, marksistik iqtisodiyot, ekologik xavf

Ключевые слова: Экология, «Зеленая экономика», окружающая среда, охрана природы, природный капитал, марксистская экономика, экологический риск.

Key words: Ecology, "Green economy", environment, nature conservation, natural capital, Marxist economy, environmental risk

Baʼzi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni koʻproq tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida koʻrishadi. Masalan, anʼanaviy er tabiiy kapitalga umumlashtirilgan va mehnat va jismoniy kapital bilan baʼzi umumiy xususiyatlarga ega boʻlgan [klassik iqtisod](#) sifatida qaraladi (chunki daryolar kabi tabiiy kapital aktivlari toʻgʻridan-toʻgʻri [kanallar](#) kabi inson tomonidan yaratilgan aktivlar oʻrnini bosadi). Yoki u marksistik iqtisod sifatida qaraladi, tabiat Lumpenproletariatning bir shakli, insoniyat iqtisodiyotiga ortiqcha qiymat beradigan noinsoniy ishchilarning ekspluatatsiya qilinadigan bazasi yoki neoklassik iqtisodning bir tarmogʻi boʻlib, unda rivojlanish uchun hayot narxi va boshqalar. Rivojlangan davlatlar kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror saqlanadi va insoniy boʻlmagan hayot juda past.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bogʻliq, lekin koʻproq siyosiy jihatdan qoʻllaniladigan yoʻnalishga ega.^{[1][2]} [UNEP](#) 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida taʼkidlanishicha, „yashil boʻlishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli boʻlishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik oʻlchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli oʻtishni taʼminlashni nazarda tutadi.“^[3]

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat — bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni [iqtisodiy ahamiyatga](#) ega sifatida bevosita baholash (*qarang: „Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti“ va „Tabiiy kapital banki“*) va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan toʻliq xarajatlarni hisobga olish rejimi. Aktivga zarar yetkazgan yoki eʼtiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi.^[4]

Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti isteʼmolchilar oldida atrof-muhitga doʻstona munosabat va barqaror rivojlanish koʻrsatkichlari sifatida paydo boʻldi. Koʻpgina sanoat tarmoqlari [globallashtirilgan](#) iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targʻib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshlaydi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar soni yaqinda oʻsib bordi va endi ular yangi, yanada yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular oʻrmon xoʻjaligi, qishloq xoʻjaligi, togʻ-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga eʼtibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga eʼtibor qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qoʻllab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uy.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash uchun barcha sohalarda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish 2022–2026-yillarga moʻljallangan [Taraqqiyot strategiyasi](#) vazifalari doirasidagi maqsadlardan biri.

“[Cedefop](#)” kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida inson resurslarini rivojlantirish iqtisodiyotni “yashillashtirish” uchun asos ekanligi taʼkidlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, “Oʻzbekistonning kadrlar tayyorlash tizimi „yashil“ transformatsiyaga qanchalik tayyor?” degan savol tugʻilishi tabiiy.

“Yashil” iqtisodiyotga oʻtish suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, oʻrmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim oʻzgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

Xorijlik mutaxassislarining fikriga koʻra, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik koʻnikma, yaʼni: dizaynerlik, liderlik

sifatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landshaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy ko'nikmalarga talab katta.

Xulosa:

Korxonalar va xo'jaliklarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiyotni qayta tiklash, balki uni o'zgartirishga ham qaratilishi kerak. Tashabbuslar kam uglerodli texnologiyalarga xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishdan tashqari, ekologik toza echimlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Energetika sektori uchun bu qayta tiklanadigan energiya manbalarining narxi pasayishda davom etayotgani va uglerod energiyasini import qiluvchilar o'z transformatsiyalarini o'z zimmalariga olishlari sababli qolib ketishi mumkin bo'lgan qazib olinadigan yoqilg'i infratuzilmasini (ularning 40 foizi umrining oxiriga yaqin) saqlashdan ko'ra arzonroq bo'ladi. Bu, shuningdek, iqlim bo'yicha Parij majburiyatlarini amalga oshirish va Milliy ravishda belgilangan hissalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Райзберг Б.А. Современный социоэкономический словарь. /Б.А. Райзберг. - М.: ИНФРА-М, 2009. - 629 с.
2. Основные тенденции развития сферы услуг в Узбекистане // Молодой ученый. — 2016. — №11. — С. 791-793.
3. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Стат. сб. - Т.: Узбекистан, 2011. - с. 14.
4. Каримов И.А. Наша самая актуальная задача - не останавливаясь на достигнутом, поднять на новый уровень начатые реформ. - Т.: Узбекистан, 2015. - с. 34.
5. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Стат. сб. - Т.: Узбекистан, 2011. - с. 14.
6. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя // Народное слово, 16 января 2017г.

ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

ibodovamahfuza 75@mail.ru

**Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya
kafedrasida dotsenti. Ibodova Mahfuza Namozovna,
1 kurs magistranti Abdug'aniyeva Shahnoza**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, subyektiv, aqliy-hujum, fikrlar hujumi, blits -o'yin texnologiyasi, intervyu metodi, konsepsiya, axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'qitishmetodlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описана информация об использовании инновационных технологий при преподавании предмета «Анатомия и физиология» в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Инновация, субъективная, ментальная атака, мысленная атака, технология блиц-игры, метод интервью, концепция, информационные технологии, образование, репродуктивные, продуктивные, методы обучения.

ANNOTATION

This article describes information about the use of innovative technologies when teaching the subject "Anatomy and Physiology" in higher education institutions.

Key words: Innovation, subjective, mental attack, mental attack, blitz game technology, interview method, concept, information technology, education, reproductive, productive, teaching methods.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, sliakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy obyektga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hainisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar. amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya — bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan AKT, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liqligidadir, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa. o'quv jarayonida o'quvchi talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zlari xulosa qila olsa, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bersa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchi - talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalash tirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini. mavjud moddiy va m a'naviy shart-sharoitlami, AKT vositalarini. eng asosiysi, o'quvchi-talabalaming imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olish qobili yatlarini hisobga olishi

kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metod va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlariga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib, o'z mazmuni va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammo va istiqbollarni ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Pedagogik texnologiyalar — ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi faninining o'qitilish sifati va samara dorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanidan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarini to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Innovatsiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omil ko'nikmalarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz:

«TARMOQLAR» metodi - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3x4» metodi - o'quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«BLITS-O'YIN» metodi — harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«INTERVYU» texnikasi - o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«IERARXIYA» texnikasi — oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan.

«BUMERANG» texnikasi - o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida , darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchitalabalarni baholay olishga qaratilgan.

«TALABA» treningi - o‘quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘siqni yo‘q qilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan,

«O‘QITUVCHI SHAXSI» treningi — o‘qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«MULOQOT» texnikasi o‘qituvchilarni auditoriya diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

«BOSHQARUV» texnikasi o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

XULOSA

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o‘qitishda Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta’lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ibodova Mahfuza Namozovna CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR THE USE OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES FOR TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN ACADEMIC LYCEUMS *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852

2.Ibodova Mahfuza Namozovna "IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT "ZOOLOGY" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." Open Access Repository 4.3 (2023): 21-25.

3.Ibodova, Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4-2 (2023): 125-131.

4.Ibodova Mahfuza Namozovna "BIOLOGIYANI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARI." *PEDAGOGS* jurnali 11.2 (2022): 12-21.

5.Ibodova Mahfuza Namozovna "Effectiveness of independent work in the educational process." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 322-326.

6.Ibodova Mahfuza Namozovna "A FORMING THE BASIC COMPETENCIES OF PUPILS BY USING OF SELF-STUDY ASSIGNMENTS." *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ* (2018):

7.J.O.Tolipova "Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” *Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik*. Toshkent - "Cho‘lpon" – 2011 y.

8.Ibodova Mahfuza Namozovna BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTEGRATIV-BINAR MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI *Innovative, educational, natural and social sciences (E)* ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(11), November, 2023 417

9.H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining* 5A340605 — «Xalqaro moliya» mutaxassisligining

magistrantlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent - "Iqtisod - Moliya" – 2009 y.

IQLIMLASHTIRILGAN BALIQ TURLARINING RESPUBLIKAMIZ IXTIOFAUNASIDAGI O‘RNI

Mamaraymova Sh 1-kurs magistri (biologiya)
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Respublikamizda ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar oqsla, do‘ngpeshona baliqlari to‘g‘risida, baliqlarning Respublikamiz baliqchilik xo‘jaligidagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga gambuziya, qirraqorin kabi sanoat ahamiyatiga ega bo‘lmagan baliqlarning Respublikamiz ixtiofaunasiga olib kelinayotgan salbiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Iqlimlashtirish, ovlaniladigan baliqlar, suv omborlari, ekologik sharoitlar, sun‘iy baliqchilik xo‘jaliklari, areal, ixtiofauna, biologik xilma-xillik.

Аннотация. В статье рассматриваются основные виды промысловых рыб на территории Республики Узбекистан, значение обыкновенного судака, белого толстолоба в рыбном хозяйстве. Также даётся информация об отрицательном влиянии в ихтиофауну нашей Республики таких акклиматизированных не имеющих промыслового значения рыб, как гамбузия и востробрюшко.

Ключевые слова: акклиматизация, промысловые рыбы, водохранилища, экологические условия, искусственное рыболовство, ареал, ихтиофауна, биологическое разнообразие.

Abstract. In this article, explained about the importance of hunted fishes such as oqsla, do‘ngpeshona in the Republic of Uzbekistan, and the importance of fish in the fishery of Republic of Uzbekistan.

At the same time, the negative influence of fishes which are not industrial important, for example, gambuziya, qirraqorin, brought to the ichthyofauna of the Republic of Uzbekistan is highlighted.

Key words: Climate change, caught fish, reservoirs, ecological conditions, artificial fisheries, area, ichthyofauna, biological diversity.

Respublikamiz suv havzalariga muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarni iqlimlashtirish ishlari 1951-1952 yillardan boshlangan. Shu yillar davomida Moskva viloyatidagi Savin baliqchilik xo‘jaligidan kumush tovonbaliq, 1958-1961 yillarda Uzoq Sharq va Xitoy daryolaridan o‘simlikxo‘r oq amur, qora amur, oq do‘ngpeshona, chipor do‘ngpeshona baliqlari, 1963 yilda Urol daryosidan oqsla, oqcha, 1973 yili Issiqko‘ldan issiqko‘l gulbalig‘i, 1984 yili Qirg‘izistonning tog‘li ko‘llaridan pelyad baliqlari iqlimlashtirilgan. Iqlimlashtirish ishlarini olib borish vaqtida muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq va baliq chavoqlari bilan birgalikda troegub, kaspii aterinasi, medaka, ilonbosh, xitoy qirraqorin balig‘i, buqa baliqlarning bir necha turlari, amur chebakchasi va qo‘shni respublikalarimiz suv havzalaridan bir necha tur baliqlar tasodifan kelib qolgan.

Muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarni iqlimlashtirish jahon baliqchilida samarali usul deb topilgan. Respublikamiz suv havzalariga jami 16 tur baliq iqlimlashtirilgan. Muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq chovoqlarini iqlimlashtirish jarayonida ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lmagan 20 tur baliq chovoqlari ham tasodifan kelib qolgan.

Quyida biz, iqlimlashtirilgan va ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lib, respublikamizda ovlaniladigan baliqlarning biriga aylangan hamda suv havzalarimiz ixtiofaunasiga, baliqchilik xo‘jaliklarining samaradorligiga salbiy ta‘sir etuvchi ayrim kelgindi turlari to‘g‘risida fikr yuritmoqchimiz.

Oqsla (*Stizostedion lucioperca* Linnaeus, 1758) balig‘i 1963 yili Ural daryosidan respublikamizdagi Degrez suv omboriga baliqchilik xo‘jaliklari uchun kam qimmatli, ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lmagan baliqlar sonini kamaytirishni nazarda tutgan holda iqlimlashtirilgan [2]. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha suv havzalarida uchraydi va asosiy ovlaniladigan baliq turlarining biri hisoblanadi. 1981-2023 yillari Aydar-Arnasay ko‘llar tizimida ovlangan baliq miqdorining 10,6 foizini [4], Oyoq-Og‘itma ko‘lidan ovlangan umumiy baliq miqdorining 30,0

foizini oqsla balig'i tashkil qilgan. Har yili respublikamiz bo'yicha 774,6 tonnadan 920,0 tonnagacha oqsla balig'i ovlaniladi [1].

Lekin suv havzalarida bu yirtqich baliq soni haddan tashqari ko'payib ketsa, muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq va ularning chovoqlari bilan oziqlanib, baliqchilik xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun suv havzalaridaga oqsla balig'i sonini idora qilib turish lozim.

Oq do'ngpeshano balig'i (*Hypophthalmichthys molitrix* Valenciennes, 1844) 1961 yillarda O'rta Osiyoga Xitoy daryolaridan keltirilib iqlimlashtirilgan [2]. Respublikamiz suv havzalari ekologik sharoitlarga moslashgan, ayniqsa sun'iy baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Aydar-Arnasay ko'llari tizimi, Sho'rko'l, To'dako'l suv omboridagi asosiy ovlanadigan baliqlarning biri hisoblanadi.

Gambuziya (*Gambusia affinis holbrookii* (Baird et Girard, 1853)) balig'i vatani Shimoliy Amerika hisoblanadi. O'zbekistonga 1929 yili bezgak kasalligiga qarshi kurashish maqsadida iqlimlashtirilgan edi[3]. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha kichik suv havzalarida, ko'lmak va suvi sekin oqadigan suv havzalarida keng tarqalgan. Yillar davomida gambuziyaning soni va areali kengayib borishi sababli respublikamiz suv havzalaridagi muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlar chovoqlari bilan oziqlanib, baliqchilik xo'jaliklariga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Qirraqorin baliq (*Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855)) 1961 yilda o'txo'r Uzoq Sharq baliqlarini iqlimlashtirish vaqtida tasodifan kelib qolgan. Bu baliq bizning suv havzalarimiz sharoitiga yaxshi moslashib, yildan-yilga ko'payib bordi va hozirgi kunda respublikamiz biologik xilma-xilligiga hamda suv havzalarimiz ixtiofaunasiga katta darajada zarar keltirmoqda [4].

Iqlimlashtirilgan baliqlar O'zbekistonning tabiiy va sun'iy suv havzalariga juda yaxshi moslashib ketib, respublikamiz hayvonot dunyosi bioxilma-xilligini ancha boyitdi. Hozirgi vaqtda bu baliqlar daryo, ko'l va suv omborlarimizda ko'plab uchrashi bilan birga baliqchilik xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligining oshishiga ham olib keldi.

Yuqorida biz, iqlimlashtirilgan baliqlarning respublikamiz suv havzalaridagi ijobiy va salbiy oqibatlarini qisqacha tahlil qilib o'tdik. Bu baliqlar respublikamiz hayvonot dunyosi biologik xilma-xilligining boyishiga va baliqchilik xo'jaliklaridan ratsional foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin baliqlarni iqlimlashtirish paytida tasodifan kelib qolgan, ovlanish ahamiyatiga ega bo'lmagan ayrim kelgindi baliq turlari respublikamiz ixtiofaunasiga va baliqchilik xo'jaliklariga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bunday kelgindi turlarning ayrimlari muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq va chavoqlarining ozuqalarini eb, ozuqa muhitining kambag'allashuviga olib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi bir turlari ovlanadigan baliqlarning uvildiriqlarini ozuqa sifatida iste'mol qilayotgan bo'lsa, uchinchi bir turlari sonining ko'payib ketishi natijasida mahalliy, endemik, respublikamiz «Qizil kitobi»ga kiritilgan baliq turlarini (*Alburnoides oblongus* Bulgakov, 1923) yashash muhitidan siqib chiqarib, ular sonining haddantashqari kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, maqsadli ravishda olib borilgan iqlimlashtirish ishlari respublikamiz hududida baliqchilik xo'jaliklarining rivojlanishiga, xalqimizni baliq mahsulotlari bilan ta'minlash masalasini hal qilishda benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Lekin, suv havzalarimizga iqlimlashtirish uchun olib kelinayotgan baliq turlari va chavoqlari qattiq nazorat qilinmaganligi tufayli ovlanish ahamiyatiga ega bo'lmagan baliq turlarining kelib qolishiga sabab bo'lgan. Hozirgi vaqtda bunday kelgindi turlar respublikamiz biologik xilma-xilligiga, hamda suv havzalarimiz ixtiofaunasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев М.А., Урчинов Д.У. Промысловые рыбы водоёмов низовьев р.Заравшан. -Ташкент: Фан, 1989.
2. Аманов А.А., Холматов Н.М., Сибирцева Л.К. Акклиматизированные рыбы водоемов Узбекистана. -Ташкент: Фан, 1990.
3. Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari. Toshkent: O'qituvchi, 1983.

УНИКАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ТУРЦИИ КАК ЧЛЕНА НАТО И ПАРТНЕРА СССР В 1950-Х

Софья Михайловна Терещенко, 1 курс магистратуры восточного факультета СПбГУ, Санкт-Петербург, Россия

Аннотация: Статья представляет собой обзор общих тенденций во внешней политике Турецкой республики в 1950-х гг., когда Турция проводила более многосторонний дипломатический курс. Оставаясь членом НАТО и сохраняя тесные связи с Западом, Турция тем не менее налаживала отношения с СССР, чтобы получить экономическую помощь.

Ключевые слова: Турецкая республика, Демократическая Партия, Аднан Мендерес, СССР, НАТО, холодная война, история, востоковедение

TURKEY'S UNIQUE POSITION AS A NATO MEMBER AND USSR PARTNER IN THE 1950s.

Sofia Tereshchenko

Abstract: The article provides an overview of the general trends in the foreign policy of the Turkish Republic in the 1950s, when Turkey pursued a more multilateral diplomatic course. While remaining a member of NATO and maintaining close ties with the West, Turkey nevertheless improved relations with the USSR in order to receive economic assistance.

Key words: Republic of Türkiye, Democratic Party, Adnan Menderes, USSR, NATO, Cold War, history, oriental studies

Руководство Демократической партии (ДП) во главе с Аднаном Мендересом проводило активную внешнюю политику. В период 1950-1960 гг. Турция была важным региональным игроком холодной войны и искала альянсы в регионе. Участие в системе коллективной безопасности Запада было одним из важнейших вопросов, который должен был решиться в этот период для проведения Турцией эффективной внешней политики. Кроме того, это было принципиальным условием обеспечения экономической поддержки со стороны стран Запада. [6, с. 2-3]

История турецко-американских военных отношений начинается с решения о создании американской базы в Адане в 1943 году. Благодаря провозглашению доктрины Трумэна в 1947 году Турция, наряду с Грецией, стала первым получателем зарубежной помощи США в мирное время. В этой ситуации Турция начала настаивать на присоединении к строящейся системе обороны Запада. [5, с. 90]

Еще в начале своего срока на посту премьер-министра Мендерес поставил вопрос о членстве в НАТО как основную цель своей внешней политики [1, с. 94]. В конце июля 1950 года, вскоре после начала Корейской войны, Мендерес подал официальную заявку на членство в НАТО, и Турции был предоставлен статус ассоциированного члена. Уже 30 апреля 1951 года Трумэн проголосовал за то, чтобы США немедленно добились включения Турции в Североатлантический альянс, и Турция стала полноправным членом НАТО 18 февраля 1952 года. [5, с. 90]

tabiatning kundan-kunga qashshoqlashib borayotganidir. Bunga misol qilib oxirgi yillarda O'zbekistonda 400 dan ortiq o'simlik va undan ham ko'proq hayvon turlari kamayib borayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Dunyo bo'yicha esa ma'lum bo'lgan o'simliklarning 250000 turidan 2000 turini muhofaza qilish kerak. Bu esa juda achinarli holatdir. Shuning bilan birga hozirda tuproq eroziyasi ham kuzatilmoqda. Bunga sabab esa ekinlarga noto'g'ri ishlov berish, almashlab ekin ekmaslik, noto'g'ri pestitsitlardan foydalanishni aytib o'tish mumkin. Kuz mavsumida to'kiladigan barglar, qurigan o't-o'simliklarni yoqish natijasida esa havoning tarkibiga zararli moddalar ajralmoqda. Xazonrezgi mavsumida o'simliklarni yoqgan vaqtda undan ajraladigan tutun yuqori nafas yo'llari va o'pkani zararlaydi. Bolalar, keksalar va homilador ayollar uchun bu tutun juda zararlidir. Bu tutun allergik kasalliklarni, branxeal astma, o'sma kasalliklarini keltirib chiqaradi. Chiqindi yerga ko'milganda yerning ham unumdorligi, sifati pasayadi. Hattoki yerga ko'milgan politilen chiqindilar, metallar chirmasdan tuproq tuzilmasini uzoq vaqtgacha buzadi. [1,2,3].

Biz nafas olayotgan havoning tarkibida esa azot, kislorod, karbonat angidrit va kam miqdorda ozon uchraydi. Azotning gegienik ahamiyati shundaki, u inert gazlarning barchasi bilan birga, kislorodni odamning normal nafas olishi uchun zarur darajada qulaylashtiradi. Chunki azotsiz sof kislorodda hayot bo'lishi amrimahol. Kislorod esa hayot uchun eng kerakli gazlardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida 22-23% kislorod bo'lganda hayvonlar va odamlar o'zlarini erkin tutib, yashashlari juda qulay bo'lar ekan. Atmosfera havosining yana bir tarkibiy gazlaridan bittasi bu ozondir. Ozon—osmonga ko'k rang beruvchi, oksidlovchi xususiyatga ega bo'lgani uchun barcha yomon hidlarni yo'qotuvchi gazdir. Ozon jami organizmlarning ko'pchiligini ko'r bo'lib qolishdan asraydi, yani quyosh nuri orqali kelayotgan ultrabinafsha nurlarni tutib qoladi. Bu nurlar ko'z qobig'idagi to'r pardasini zararlaydi. Ozon qatlamidan o'ta olgan boshqa nurlar esa ko'z gavhariga butunlay singib ketadi. [1,6,7].

Lekin hozirgi kunda ozon qatlamining yemirilishi kabi muammo kuzatilmoqda. Bunga asosiy sabablarda biri kondetsionerlar, aftomobillar tomonida ajralib chiqayotgan zararli xlorftorokarbon gazlaridir. Turli kimyoviy korxonalar, zavodlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan zararli gazlar va chiqindilar havo tarkibini buzibgina qolmasdan ozon qatlamiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Agarda havo tarkibida ozon normadan bo'lmasa inson lohas bo'ladi, charchaydi, boshi og'riydi, ko'ngil aynishi, burundan qon ketishi, ko'zning yallig'lanishi, yurak mushaklarida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu kabi holatlar so'ngi yillarda insonlarni junda ko'p bezovta qilmoqda. Shu bois ham ekologiya ni asrash maqsadida turli xil chora tadbirlarni ko'rish kerak. Masalan „Mashinasiz bir kun“ loyihalarini amalga oshirish, to'g'ridan to'g'ri quyoshdan kelayotgan issiqlikni kamaytirish maqsadida turli xil manzarali daraxtlarni ko'paytirish, zavodlardagi zararli gazlarni miqdorini kamaytirish, ularni qayta ishlash choralarni izlab topish kerak.

Issiqlikning ortishi bilan bog'liq bo'lgan so'ngi 10 yillikdagi dolzarb muammolardan biri „Issiqxona effekti“ dir. So'ngi yillarda harorat sezilarli darajada oshib bormoqda. O'rtacha harorat 1,09 °C ga ortganini misol qilish mumkin. Issiqlikning ortishi turli xil kasalliklarni, stressni hattoki o'lim holatlarini ham keltirib chiqarmoqda. So'ngi ma'lumotlarga qaraganda issiqlikning ortishi sababli insonlarda uyquning buzilishi, uyqusizlik holatlari ham kuzatilmoqda. Bu esa yurak-qon tomir, qandli deabet, semizlik kabi kasalliklari bor bo'lgan bemorlarda kasallikning salbiy holatlari ortishiga sabab bo'lmoqda. [1,4,5].

Issiqlikning ortishiga nima sabab bo'lmoqda?

Issiqlik effektiga ozon qatlamining yemirilishi sabab bo'lmoqdami?

Turli xil olimlarning fikriga qaraganda ozon qatlamining yemirilishi issiqlik miqdorining ortishiga sabab bo'lmoqda. Issiqlikning ortishiga asosiy sabablardan biri sifatida karbonat angidrid miqdorining ortishi, ko'chalar, xonadonlardagi issiqlik chiqaradigan yoqilg'ilarni hadan ziyod atmosferaga chiqarilishi, mashinalardan chiqadigan zaxarli gazlar, yoqilg'ilarni chala yonishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Karbonat angidridning ortishi „Parnik effekti“ ning asosini tashkil etib, miqdorining ortishi issiqlikning ortishiga sabab bo'ladi. Buning oldini olish uchun ko'proq o'simlik, daraxtlar ekish, havoni ifloslantiradigan gazlar miqdorini kamaytirish, „Yashil makon“, „Yashil iqtisodiyot“ mexanizmalni joriy qilish kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham ekologiyani buzilish holatlari ko'p kuzatilmoqda. Masalan Toshkent shahri havosining sezilarli darajada ifloslanishi, chiqindilarning insonlar tomonidan befarosatlaricha har joyga tashlanishi, chiqindilarni qayta ishlash chora tadbirlari yetarli darajada zamonaviylashtirilmaganligini keltirib o'tish mumkin. Har xil zavodlardagi chiqindilarni to'g'ridan to'g'ri toza maydonlarga chiqarish holatlari ham kuzatilmoqda. Chiqindilarni, zararli oqava suvlarni qayta ishlash, odamlar turar joylaridan ularni uzoqda saqlash zarur.

Yer resurslari va yer osti boyliklarini muxofaza qilish soxasida: - tuprok unumdorligini va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini saqlash va oshirish uchun qisqa-rotatsiya va paxta-beda almashlab ekishni keng joriy etishni ta'minlash; - qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda organik qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish; - shurlangan yerlarni qayta tiklash va rekultivatsiya qilishni ta'minlash - kollektor-drenaj tarmog'ining rekonstruksiya qilinishi va qayta tiklanishini ta'minlash orqali

Suv resurslarini muxofaza qilish soxasida: Suv resurslari yo'qotishlarini qisqartirish; - qishloq xo'jaligida solishtirma gektarga nisbatan suv iste'molini qisqartirish;- tomchilatib sug'orish va suvni tejoychi boshqa texnologiyalarga o'tkazilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini kengaytirish; - oqava suvlarni tozalash samaradorligini oshirish; - sanoatda suv ta'minotining aylanma sikli amaliyotini kengaytirish; - respublika axolisini markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlanish qamrovini oshirish

Atmosfera xavosini muxofaza qilish soxasida: - atmosfera xavosiga chiqariladigan chiqindilarni kamaytirish; - jamoat transportini gaz-ballon yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish; amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera xavosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarida samaradorligi 95 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalarni qo'llash muhim hissoylanadi.

Xulosa: Hozirgi kunda O'zbekiston nafaqat iqtisodiyot balki turizm sohasida ham rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz faqatgina tarixiy obidalari bilangina emas balki ekosistemasini asrashi, kelak avlodga toza holda yetkazish muhim hissoylanadi. Bu holat faqatgina turizmni yaxshilabgina qolmasdan, aholimizning ekologik madaniyatini, ekologik tarbiyani shakllantirish, sog'lom turmush tarizini to'g'ri yo'lga qo'yish ekologiyani asrashning muhim chora tadbirlardan biri hissoylanadi. Chiqindilarni tartib bilan saralash, ularni qayta ishlash choralari puxta rejalashtirishimiz lozim. Plastmassa buyimlar, idishlarni qayta ishlash natijasida turli xil foydali jihozlar va buyimlar ishlab chiqarish mumkin. Plastmassa idishlardan Korea texnologiyalaridan foydalangan holda uy jihozlari, o'rindiqlar uchun qoplamalar ishlab chiqarish, shisha buyumlarni qayta ishlash va ularning tarkibiga ma'lum qo'shimchalar qo'shish orqali esa zargarlik toshlarini yasashimiz mumkin bo'ladi.

Tarbiya oiladan boshlanadi. Yani tabiatni muhofaza qilishni, tozalikga e'tiborli bo'lish, ekologik tarbiyani oilada kattalarimiz bolalarga o'rgatib, o'zlari o'rnak bo'lishlari lozim. Shundagina kelajak ekologiyasini hozirdan muhofaza qila boshlagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adrian C. Newton, Elena Cantarello "An introduction to the Green Economy".Textbook. Abingdon, Great Britain. 2014. (pages 1-14).
2. Hakimov T.H. Axmedov O.M., Abdumalikov A.A., Sharipova Z.B. "яшил иктисодиёт va ekologiya" Darslik - .: Toshkent. "Adas poligraf". 2021-264b
3. Ismoilov K.T., & Muxitdinov Sh.M, Mamurova G.N., Interrelation of viability and productivity indicators with Etological characteristics in the growth and development of sur Karakol lambs. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES VOLUME; 04 Issue: 02 Mart-apr 2023 ISSN: 2660-4159. 219-223
4. Mukhitdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
5. Абдуллаев А.М., Хакимов Н.Х., Ишмухамедова Л.А. «Экономика природопользования». Учебное пособие. Ташкент, Ташкентский Государственный экономический Университет, 2006. (стр 5-11).

6. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Жахонда “яшил иктисодиёт” асосида кишлок хужалигини ривожлантириш тажрибаси ва муаммолари /“Иктисодиётни модернизациялаш шароитида минтакавий агросаноат мажмуаларини ривожлантириш йуллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари туплами. -Т.: “Университет”. 2017.

7. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Кцшлок хужалигини “яшил иктисодиёт” асосида ривожлантириш муаммолари // Электрон илмий журнал. Agroiqtisodiyot, №1,2017

8. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/311>

9. https://www.ejmcm.com/article3801_73fe2f809218756cad4f827f79097ffc.pdf<https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4590>

11. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4590>

EKOLOGIYA VA IQLIM O‘ZGARISHLARI SHAROITIDA “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Negmatov Samariddin Qarshiboyevich - NavDPI,
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini
o‘qituvchisi Narzullayeva Lolaxon Shavkat qizi
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada hozirgi kunda yer yuzida sodir bo‘layotgan global ekologik muammolar hamda yurtimizda ekologik muammolarni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Issiqxona effekti”, ozon qatlami, karbonat angidrid, “Yashil iqtisodiyot”, o‘rmon fondi, yashil maydon.

Аннотация: В данной статье говорится о современных глобальных экологических проблемах и реформах, проводимых в нашей стране для предотвращения экологических проблем.

Ключевые слова: «Парниковый эффект», озоновый слой, углекислый газ, «Зеленая экономика», лесной фонд, зеленая территория.

Annotation: This article talks about the current global environmental problems and the reforms being implemented in our country to prevent environmental problems.

Key words: “Greenhouse effect”, ozone layer, carbon dioxide, “Green economy”, forest fund, green area.

Hozirgi kunda yurtimizda, nafaqat butun dunyo miqyosida global ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Mana shunday global ekologik muammolar qatoriga biz “Issiqxona samarasi”, “ozon qatlamining yemirilishi”, iqlimda sodir bo‘layotgan turli xil o‘zgarishlarni kiritishimiz mumkin. Atmosferada kuzatilayotgan yuqoridagi ekologik muammolarning kelib chiqishiga asosiy sabab qilib quyidagi omillarni ko‘rsatishimiz mumkin:

- ✓ zavod, fabrika, korxonalaridan chiqayotgan turli xildagi zararli birikmalar;
- ✓ avtotransport vositalaridan chiqadigan tutunlar;
- ✓ o‘rmonlar maydonining keskin ravishda qisqarib ketayotganligi;
- ✓ chiqindilarni istalgan yerlarga tashlab ketish holatlari;
- ✓ antropogen omillar [3].

Birgina global ekologik muammo hisoblangan iqlimning yildan - yilga o'zgarishini oladigan bo'lsak, ushbu jarayon natijasida yer yuzasida turli xil salbiy holatlar yuzaga kelmoqda. Mutaxassislar iqlim o'zgarishining asosiy omili qilib, issiqxona effektini ko'rsatishmoqda. Quyoshda keladigan issiqlikni yer sathida jamlanib qolishiga issiqxona effekti deyiladi. Quyoshdan kelgan nurni yer ham o'z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga yer yuzasiga chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga chiqib ketmasligi oqibatida yer yuzasi me'yordan ortiq qizishni boshlaydi. Issiqxona effektini hosil qiluvchi asosiy gaz bu - karbonat angidrid. Atmosfera havosi tarkibida karbonat angidrid gazlarining ko'payib ketishiga yoqilg'i mahsulotlarining, ayniqsa, toshko'mirning keng ishlatilishi, o'rmonlarning kesilishi, avtotransport vositalarida yoqilg'ilardan foydalanish kabi holatlar ta'sir ko'rsatadi. Shu kabi holatlar issiqxona samarasini yanada keskinlashuviga olib keladi. Iqlim o'zgarishi natijasida yer yuzasida quyidagi salbiy holatlar kuzatilmoqda:

- ❖ haroratning ko'tarilishi natijasida yil davomida umuman yog'ingarchilik kuzatilmaydigan kunlar soni ko'paymoqda;
- ❖ tuproqdagi namlik miqdori kamayib, cho'llashish xavfi ortmoqda;
- ❖ ichimlik suvi tanqisligi kuzatilmoqda;
- ❖ atmosfera havosida namlik miqdori kam bo'lganligi sababli, havoda chang miqdori ko'paymoqda;
- ❖ anomal isish hamda sovish hodisalarining o'zgarishi qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda [1].

Iqlimda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yil sayin tobora yomonlashib borayotganligi har bir insonni xavotirga solmay qo'ymaydi. Shu singari salbiy holatlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, Senatning Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologik qo'mitasi hamda qator tashkilotlar hamkorligida yurtimizda keng ko'lamli islohotlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 2-dekabrda qarorlariga binoan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot" strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi doirasida yashil va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yorqin ifodasidir. Yangi O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning Taraqqiyot strategiyasi 2030-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu davr mobaynida yurtimizda:

- ✚ issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligida nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35% ga qisqartirish;
- ✚ qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 Gvt ga oshirish;
- ✚ 1 mln hektargacha maydonda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish;
- ✚ yiliga 200 mln ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 mlrddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30% dan ortiqroqqa kengaytirish;
- ✚ respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 mln m³ dan ortiqroqqa yetkazish;
- ✚ hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% dan oshirish kabi tizimli ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan [2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mana shunday qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizni yanada obod va ko'rkam bo'lishiga xizmat qiladi. Biz yoshlar ham Vatanimizda turli xil ekologik muammolar vujudga kelishini oldini olishimiz uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot" strategiyasi.

2. “2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot” ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli qarori.

3. Sattorov A., Allanov Q., Abdumovminov B. “Global iqlim o‘zgarishi, uning oqibatlari va unga moslashish”, Termiz.: 2019.

QASHQADARYO VILOYATI FOYDALI QAZILMA KONLARI VA ULARNING ATROF-MUHITGA TASIRI

**Negmatov Samariddin Qarshiboyevich - Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o‘qituvchisi
Mardonova Zilola - Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari yo‘nalishi 2- kurs 203- guruh talabasi**

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati geografik o‘rni, mavjud o‘rab turgan tog‘lar, foydali qazilma konlari, ularning joylashgan o‘rni, zaxirasi, ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, neft gaz, ko‘mir, g‘isht cherepitsa, osh tuzi, Qorabuloq, Muborak, Dovtosh, Qizilbayroq, Qamashi.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о географическом положении Кашкадарьинской области Республики Узбекистан, существующих окружающих гор, месторождениях полезных ископаемых, их расположении, запасах, их использовании и охране.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, нефть и газ, уголь, кирпичная плитка, поваренная соль, Карабулок, Мубарак, Довташ, Кызылбайрок, Камаша.

Annotation: In this state, information on the geographical location of the Kashkadarii region of the Republic of Uzbekistan, the participating district, the useful mining resources, its location, storage, use and protection.

Key words: Kashkadarya region, oil and gas, coal, brick tile, table salt, Karabulok, Mubarak, Dovtash, Kyzylbairok, Qamashi.

Qashqadaryo viloyati - O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi viloyat bo‘lib 1924- yil 1- noyabr kuni tashkil etilgan. Maydoni 28,6 ming km², aholisi esa 3,408 300 kishidan ortiq. Qashqadaryo O‘zbekiston Respublikasining janubida joylashgan viloyat bo‘lib, atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan. Shimoldan Qoratapa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog‘lari bilan g‘arbdan Jarqoq, Muborak va Dengizko‘l balandliklari bilan chegaradosh. Sharqiy qismida Hisor tog‘lari mavjud. Shu bilan birgalikda shimoliy - g‘arbdan Buxoro viloyati, janubi-sharqdan Surxandaryo viloyati bilan, g‘arbdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyati bilan chegaradosh. Qashqadaryo viloyati mamlakat hududining 64% ni egallaydi. U yerda O‘zbekiston aholisining 9,6% yashaydi. Respublikamizdagi asosiy neft va gaz konlari shu hududda joylashgan. Qashqadaryo mamlakat bo‘yicha yoqilg‘i sanoati yalpi hajmiga ko‘ra 1-o‘rinda turadi. Respublikamizda ishlab chiqariladigan elektronergiya ning 1/10 qismini yengil sanoat mahsulotlarning 7% dan ortig‘ini beradi.

Bunday qulay tabiiy sharoit Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Natijada bu yerda qishloq xo‘jaligi ham sanoat ham rivojlanib bormoqda. Viloyatdagi foydali qazilma konlari sanoat rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan hududda neft va gaz, ko‘mir, polimetall, alyuminiy rudasi, gips, tuz, har xil qurilish materiallari konlari mavjud. Masalan noruda foydali qazilma konlari joylashgan hududlar:

- Zevarda (mineral tuz xomashyosi 17.2 ming tonna).
- Qorabuloq (mineral tuz xomashyosi 37.2 ming tonna).
- Bo‘ynoqsoy (hinni xomashyosi uchun kvarts 854 ming tonna).
- Nishon (qurilish uchun qum 7674 ming m³).

Bundan tashqari Pachkamar, Tepaqo‘ton va Langar konlarida gips xomashyosi mavjud. Hududda qum va shag‘alning ham zahirasi katta. Bu 29.2 mln m³ bo‘lgan Tanxoz qum- shag‘al konidir. Bu xomashyo Shahrisabz shag‘al saralash zavodida foydalanilmoqda. Kitob shahridan 12 km shimolda Qoratepa ohaktoshli koni aniqlangan. Yana Kitob tumanida Birkunlik, Sevaz, Bodomzor kabi marmarning yirik konlari bor. Bu hududlarda marmarning umumiy zahirasi 4 mln m³ dan ortiq. Dehqonobod, Qizilcha, Dardara, Xo‘jarna kabi hududlarda esa yonuvchi slanetslarning borligi aniqlandi.

G‘isht cheripitsiya xomashyosi uchun lyossimon jinslar:

- ❖ Qamashi - 505,6 ming m³
- ❖ Qalqoma - 966 ming m³
- ❖ Mang‘it - 70,1 ming m³
- ❖ Qarshi - 88,7 ming m³
- ❖ Nig. - 15046,9 ming m³
- ❖ G‘uzor - 941 ming m³

Bu foydali qazilmalarning barchasi qurilish materiallari hisoblanadi [4].

Mamlakatimizda qazib olinayotgan gazning 64%, gaz kondensatining 87.4%, neftning 67% Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi. Yonuvchi slanetslar, fosforitlar va marganesning uncha katta bo‘lmagan zahirasi aniqlangan. Qashqadaryo viloyati tabiiy gaz zahirasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida 1-o‘rinni egallaydi. Shimoliy Muborak, Janubiy Muborak, Odamtosh, Pachkamar, Qizilbayroq kabi gaz konlari, Sho‘rtepa, Qoraxitoy gaz-neft konlarining o‘zlashtirilishi 60-yillarda boshlandi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi aynan gaz zahirasidan foydalangan holda oltingugurt va gaz ishlab chiqara boshlandi[3].

1965-yil 10-sentabrda Muborak shahridan 12km janubi - sharqda Muborak oltingugurt zavodi qurila boshlandi va 1972-yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodiga aylantirildi. Pachkamar gaz - kondensat koni Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi kon 1973 - yilda dastlabki parametrik quduq qazilgan bo‘lsa, 1978-yildgacha 6 burg‘i qudig‘i qazildi. Odamtosh gaz - kondensat koni viloyatning G‘uzor tumanida joylashgan. Konda 1962- yilda qidiruv quduqlari burg‘ilangan [2].

1971 yil 31 dekabrda O‘rtabuloq va Muborak guruhidagi konlardan 3,7 mlrd m³ oltingugurtli tabiiy gaz, 5 mlrd m³ oltingugurtsiz tabiiy gazni tozalash quvvatiga ega bo‘lgan korxonalar ishga tushirildi. 1977 yilda viloyatda 360 ming tonna neft 8 mlrd m³ gaz qazib olingan. Oradan 15 yil o‘tib 1992 yilda 946 ming tonna neft, 36,9 mlrd m³ gaz qazib olindi. Shu jumladan Sho‘rtepa neft - gaz koni Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida joylashgan kon. Bu kon 1968 yilda ochilgan. Uning relyefi cho‘l tekislikdan iborat. Sho‘rtepa neft- gaz konida jami 13 ta quduq qazilgan. Ya‘ni paleozoy, mezozoy va katnazoy erasi yotqiziqlari ochilgan. Neft va gaz quyi bo‘r davri yotqiziqlaridan 12-13 - gorizontallarda joylashgan. “Zevarda” koni esa Mirishkor tumanida joylashgan yirik konlardan biri hisoblanadi. Bu kon 1979- yildan buyon ishlatilib kelinmoqda. Bu kon Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qaraydi. Kon pzlashtirilgandan so‘ng 2,6 tonna gaz kondensati, 100 ming m³ miqdorida tabiiy gaz qazib chiqarishga erishildi [1].

Viloyatda shu bilan birgalikda Dovtoshva Qizilbayroq marganets konlari bor. Qizilbayroq koni Dovtosh konining sharqida joylashgan. Dovtoshda marganets zahirasi 0.8 mln tonnani tashkil qiladi. Dehqonobod Qamashi va G‘uzor tumanlari osh tuzi va kaliy tuzi zahiralari mavjudligi aniqlandi. Hisor tarmoqlarida osh tuzining Boybichakon va Tepaqo‘ton konlari aniqlangan.

Qashqadaryo viloyatining janubiy sharqida joylashgan Lalmikon tuz koni Dehqonobod shaharchasidan 50 km janubda joylashgan. Konda osh tuzining bir necha mlrd tonna kaliy tuzining esa 200 mln tonnadan ziyodligi aniqlandi. Tuz qoplaminin qalinligi bu yerda 400-450 metrni tashkil qiladi. Tepaqo‘ton tuz koni esa Lalmikon tuz koni bilan tutashgan. Tepaqo‘ton tuz koni 1950 yilda ochilgan. Tepaqo‘ton tuz konida osh tuzi va kaliy tuzidan tashqari gips va angidirit qatlami ham mavjud. Bular sulfat kislotaga uchun xomashyo hisoblanadi.

Hududda bunday qazilmalar ko‘p. Lekin olinadigan hududlarda karerlar, tepaliklar, ag‘darilgan qatlamlar, hosil bo‘lgan. Kuchli shamollar esgan paytda bunday joylardan mayda zarrachalar aholi yashaydigan joylarga borib tushadi. Yog‘in - sochin vaqtida esa mayda zarrachalar

yuvilib tushib suv havzalarini, daryo irmoqlarini hamda, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini zararlaydi. Shunday ekan tabiatdan foydalanish bilan birgalikda tabiatni asrab avaylashimiz ham darkor.

Adabiyotlar:

1. Jo'raqulov O., Ergasheva J. "Qashqadaryo sanoati tarixi" Qarshi, 1996.
2. Ravshanov P. "Qashqadaryo tarixi", Toshkent, 1995.
3. Yangiboyev M. "Qashqararyo viloyati geografiyasi" Qarshi, 1993.
4. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" (2000-2005).

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

¹Qurbanova L.M., ²Ibrohimova Z.I.

¹Kimyo kafedrası o'qituvchisi

²Muxandisik kommunikasiyalari qurilishi

va montaji yo'nalishi II-kurs talabasi

Jizzax politexnika instituti. Jizzax

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan ustuvor masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, inklyuziv, energiya samaradorligi, landshaft, atrof-muhit, iqlim, uglerod intensivligi, optimallashtirish.

Аннотация: В данной статье представлены приоритетные вопросы, направленные на решение существующих экологических проблем с целью достижения перехода к зеленой экономике и зеленому росту, а также достижения устойчивого и инклюзивного развития.

Ключевые слова: Зеленая экономика, инклюзивность, энергоэффективность, ландшафт, окружающая среда, климат, интенсивность углерода, оптимизация.

Annotation: This article presents priority issues aimed at solving existing environmental problems with the aim of achieving a transition to a green economy and green growth, as well as achieving sustainable and inclusive development.

Keywords: Green economy, inclusion, energy efficiency, landscape, environment, climate, carbon intensity, optimization.

Respublikamizning o'zini iqtisodiy rejalashtirish barqaror amaliyotni kiritish borasida sezilarli yutuqlarga erishayotgani hammamizga ma'lum. U o'zining iqtisodiy transformatsiyasini yashil yondashuv bilan kuchaytirish zarurligini tan oldi va hukumat yanada barqaror iqtisodiy modelni yaratish majburiyatini oldi.

Prezidentimiz tomonidan 2022-yilning dekabr oyida imzolangan qarorida 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash bo'yicha Harakatlar rejasini qabul qildi, u yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Energiya samaradorligi bo'yicha chora-tadbirlar va landshaftlarni tiklash dasturlari kabi bir vaqtning o'zida iqtisodiyot va atrof-muhitga foyda keltirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi[1].

Mamlakatning qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan iqtisodiyoti va aholi zich joylashgan hududlarda havoning bosqichma-bosqich yomonlashishini hisobga olgan holda, uning eng dolzarb yashil ustuvorliklari havo sifatini yaxshilash, yer va suvdan barqaror foydalanish hisoblanadi. Bunga landshaftni tiklash, suvni samarali boshqarish va havo ifloslanishini kamaytirish choralari orqali erishish mumkin

Yerdan barqaror foydalanish O'zbekistonda kengayishi kerak bo'lgan muhim amaliyotdir. Iqlimga asoslangan qishloq xo'jaligi amaliyotlari erdan foydalanish barqarorligini yanada oshiradi. Global yashil o'tish yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi va O'zbekiston bu imkoniyatlardan foydalanish uchun yaxshi mavqega ega. Ish joylari va atrof-muhit natijalarini optimallashtiradigan sohalar qatoriga sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya va iqlimga mos konchilik kiradi[1-2].

Mamlakatdagi eng yirik bandlik sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi qimmatroq sanoatga o'tish va ekotizim xizmatlari yordamida yerdan foydalanishni optimallashtirish orqali yanada ko'proq yashil ish o'rinlarini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilash salohiyatiga ega. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, xuddi shunday yashil salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlarning kengroq ro'yxati qo'shimcha tahlilga loyiqdir[2].

Yashil iqtisodiyotga o'tish muvaffaqiyatini ta'minlash uchun davlat sektori va yashil moliyani jalb qilish juda muhimdir. Siyosiy chora-tadbirlar yashil sektorda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga moliyalashtirishdagi bo'shliqni bartaraf etishi kerak. Bundan tashqari, siyosat eng ko'p zarar ko'rganlarni qayta tayyorlash, qayta joylashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini berishi kerak.

Dunyo yanada barqaror kelajak sari intilayotgan bir paytda O'zbekiston global energetika ko'rsatkichlariga, xususan, yuqori energiya va uglerod intensivligi nuqtai nazaridan javob berishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Biroq O'zbekiston global yashil o'tish jarayonini o'zlashtirib, atrof-muhit va iqlim siyosatini kuchaytirish orqali bu muammoni imkoniyatga aylantirishi mumkin[3].

Aksariyat mamlakatlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun past uglerodli siyosatni qo'llayotgani sababli, uglerodni ko'p iste'mol qiladigan mahsulotlarga global talab o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kamayadi. Bu O'zbekistonning ko'p uglerodli eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti va farovonligiga ta'sir qilishi mumkin. Keyinchalik ugleroddan voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiya va tizimlarga yopishib qolmaslik uchun O'zbekiston o'z iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini darhol boshlashi kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o'tishda davom etayotgan sa'y-harakatlarning ajralmas qismi bo'lishi kerak[4].

Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa yashil choralar ham O'zbekistonga yaqin muddatli foyda keltirishi mumkin.

Biroq mamlakat yashil o'tishning jamiyatga ta'sirini ham hisobga olishi kerak. Yashil sektorlarni qo'llab-quvvatlash hamda uglerodni ko'p talab qiladigan faoliyatdan voz kechish investitsiyalar va ish o'rinlari yaratish sxemasini o'zgartirish.

Jahon banki O'zbekistonning yashil va inklyuziv o'sishni amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga sodiqdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati va islohotlarning to'g'ri aralashmasini qabul qilish orqali mamlakat yashil, bardoshli va inklyuziv kelajakning mukofotlarini olishi mumkin. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etayotgan global yashil o'tish davrida O'zbekiston o'z kelajagini ta'minlash uchun barqaror siyosatni qabul qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohatlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida" gi Prezidentning qarori.
2. Qo'chqorov O. A. Et al. Iqlim o'zgarishining global oqibatlarini //Интeрнаука. – 2020. – №. 23-3. – С. 52-53.
3. Sharipbayeva Y. M. Aholining global iqlim o'zgarishi bo'yicha savodxonligini oshirish yo'llari //Research and education. – 2022. – T. 1. – №. 8. – С. 125-127.
4. Aziz Hakim o'g'li Ergashev., Fotima Baxtiyor qizi Mengliboyeva. Global iqlim o'zgarishining iqtisodiy va ijtimoiy geografik muammolari // Central asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489 Volume 2 | ISSUE 5 | 2022. – С. 907-914. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230907> UZBEKISTAN | www.caajsr.uz

LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLAR ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.

**Ilmiy rahbar: O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, p.f.n.
Qurbonova Xolbibi Qirboyevna
Talaba: O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi
Muhammadiyeva Nargiza**

Ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzidan yetti mingdan ortiq til bor. Bu tillarning ayrimlariga yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zilarida esa bir necha ming kishigina gaplashadi, xolos. Mana shu yuqorida ko'rsatilgan tillarning barchasidagi so'zlarning leksik, frazeologik tomonlarini ta'sirchanligi va ifoda xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi leksikologiya bo'lib hisoblanadi. Xususan, o'zbek tilining boyib borishi va kengayishi mana shu leksikologiya bo'limiga bog'liqdir. Shunday ekan o'quvchilarga leksikologiya bo'limini o'rganish boshlang'ich sinfdan boshlash lozim. Ularda bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma- bosqich izchillikda olib borish zarur.

Leksikologiya bo'limini maktab o'quvchilariga o'qitishdan maqsad:

- ularda nutqiy kompetensiyalardan biri bo'lmish so'zlash kompetensiyasini shakllantirish;

- tilimizdagi so'zlardan o'z o'rnida foydalanish;

- adabiy til me'yorlariga rioya qilish;

- o'quvchilar nutqidagi kamiste'mol so'zlarni seriste'mol so'zlarga aylantirish; ularning lug'at zaxirasini yangi so'zlar bilan boyitish;

- nutq boyligini oshirish kabilar ko'zda tutilgan.

Shuning bilan birga bu bo'limni tushuntirishda ham bolani zeriktirmasdan, yangi va qiziqarli zamonaviy metodlar bilan tashkil etish bolani yanada bo'limni chuqurroq o'rganishga va qiziqishga undaydi.

Leksikologiya bo'limi yuqori sinf ona tili darslarida 5-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Ushbu sinf darsliklarda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, yangi paydo bo'lgan so'zlar (neologizmlar), terminlarni o'rganish kabi mavzular berilgan. Eng asosiysi mavzular boshlanmasida "Tilimizning tillo sandig'i" mavzusida suhbatlashing topshirig'i berilgan. Bu esa bolada shu paytgacha til haqida qanchalik ma'lumotga ega ekanligini bilishda yordam beradi. Shu orqali o'qituvchi unga soddadan yoki ozroq murakkabroqdan boshlab mavzu o'tish kerak ekanligini anglaydi. Undan tashqari shu sinf darsligida "qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring" topshirig'i ekologik tarbiyani singdirish asosida ham misollar berilgan. Masalan:

1. Dehqonning (boyligi, xazinasi, ganjinasini) -yer, kaliti-ter.

2. Yer ichida (tilla, oltin, zar) bor, qaziy bersang, topasan.

3. Yerga qaraganda (bo'ston, bog', guliston) bo'lar, (Ko'ngling, diling, qalbing) ochilib, chog' bo'lar.

4. Suv keldi - (ziyo, nur, yog'du) keldi.

O'quvchilar qavs ichidagi so'zlardan mosini topib ko'chiradi. Bu kabi mashqlar o'quvchida fikrlash qobiliyati bilan birga tafakkuri yuksalishiga ham olib keladi. Sinonim (ma'nodosh) so'zlar haqida ham ko'nikma hosil bo'ladi. Agar bu mavzularni biron bir metod orqali tushuntirilsa yana maqsadga muvofiq bo'ladi.

Leksikologiya bo'limida o'quvchi duch keladigan qiyin mavzulardan biri bu o'z va ko'chma ma'no farqlarini anglashdir. Bu mavzuni tushuntirishda o'quvchi ko'proq nazariy ma'lumotlardan ko'ra amaliy tushuntirishlarni qo'llaganimiz yaxshiroq deb o'ylayman. Ya'ni faqat qoidani yodlash orqali emas, balki og'zaki misollar tuzish va ular orasidagi o'z va ko'chma ma'nolarni topish, biror matn yoki she'r ichidagi ko'chma manodagi so'zlarni topish orqali bolaga yetkazishi kerak. Shunda bola ham qiynalmasdan "temir xotin" ko'chma ma'noda "temir qoshiq" esa o'z ma'nosida ekanligini farqlay oladi. Shuningdek, dars qiziqarliroq bo'lishi uchun turli metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Magnit" yoki "Gul yaproqlarini top", "Qaysi biri begona?" metodlaridan aynan leksikologiya bo'limida foydalansa bo'ladi.

Magnit metodi - bu o'quvchilarga sinonim so'zlarni tushuntirayotgan vaqtda qo'l keladi. O'qituvchi o'zi bilgan uchta so'zni asos qilib uning ma'nodoshlarini yozib chiqadi va unga

ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham aralashtirib yozadi va sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'lib, uchta mavzudan biri tanlashini aytadi. O'quvchilar mavzuni tanlab bo'lishgandan so'ng ma'nodoshi va u so'zga ma'nodosh bo'lmagan boshqa so'zlar ham o'quvchilarga beriladi. Masalan, birinchi guruhga yuz so'zi, ikkinchi guruhga chiroyli so'zi, uchinchi guruhga esa g'alaba so'zi beriladi. Keyin o'qituvchi tomonidan (yuz, yutuq, chiroy, suluv chehra, turq, aql, ziyo, aft, lobar, zafar latofatli, bet,xotira, bashara) so'zlar beriladi. Birinchi topshirig'i ma'nodoshini topish bo'lsa, ikkinchi topshirig'i ular ichida bosh so'z (dominanta)ni topish bo'ladi. Faqat o'sha so'zning ma'nodoshini topgan ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni aralashtirmagan, bosh so'zni ham ajratolmagan guruh o'quvchilari g'olib hisoblanadi. Bu metod orqali ham darsni qiziqarli olib borish va o'quvchilarda sinonim mavzusini yaxshi tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, ekologik tarbiyani singdirishda "Gul yaproqlarini top" metodi esa - uyadosh so'zlar va asosdosh so'zlar mavzusini o'tishda qo'l keladi. Agar uni asosdosh so'zlar mavzusini o'tishda qo'llasak, o'qituvchi tomonidan ko'rgazmali holatda doskaga bir gul rasmi qo'yiladi, albatta gul yaproqli bo'lishi kerak va gul tepasiga gul deb yozilgan bo'ladi. O'quchi mana shu gul so'zining asosida yasalgan ya'ni asosdosh bo'lgan so'zlarni topishi kerak bo'ladi. O'qituvchi doskaga gullar, gulchi, guldon, gulni, gul kosa, gulga, gulning, gulchilik kabi so'zlar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchining ruxsati bilan doskaga yoki daftariga bu topshiriqni bajarishlari mumkin. Faqat asosdosh so'zlarni tog'ri topgan o'quvchilar yuqori ball bilan baholanadi. Agarda bu topshiriq daftarga bajarilsa, hammaning ishtiroki birdek ta'minlanadi va vaqtdan ham yutish mumkin.

Darslarda tayyorlayotgan metodlardagi mavzular zamonaviy darsliklar kabi integratsiya asosida ya'ni boshqa fanlar bilan aloqadorlik asosida olib borish ham mumkin. Bunda ona tili faniga qiziqmaydigan o'quvchilar ham boshqa fan orqali ona tilidagi mavzularni anglashi osonroq bo'ladi. O'quvchining nutqiy rivojlanishi, leksik va stilistik me'yorlarga amal qilgan holda so'zlay olishi mana shu leksikologiya bo'limini o'rganishiga bog'liq. Tilimizning go'zal va naqadar boy ekanligini, tilmizdagi so'zlar miqdori ta'sirchanligi va ifodaviyligini ham biz mana shu leksikologiya bo'limini chuqur o'rganishimiz bilan ko'rsata olamiz.

Tilimizning lug'at boyligini, uning taraqqiyotini biz leksikologiya bo'limiz tasavvur qilishimiz qiyin. Shunday ekan, tilimizning asl posponlari bo'lgan kelajak avlodga bu mavzularni oson va tushunarli qilib yetkazish, tilimizning naqadar go'zal va sof ekanligini anglatish, ona tili o'qituvchilariga alohida ma'suliyat yuklaydi.

O'QUVCHILARDA MILLIY MULOQOT XULQINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

**Ilmiy rahbar: O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
Qurbonova Yulduz Qulmurot qizi**

**Talaba: O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi
Jo'rayeva Sevinch**

Bugungi innovatsion ta'lim ona tilini o'qitish samaradorligini oshirish maqsadi bilan ta'lim oluvchida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishni ustuvor vazifaga aylantirdi, zero, zamonaviy sharoitda muloqotning kompetentligini oshirish bu uning insonparvarlikka yo'naltirilganligini va uyg'unlashtirilganligini nazarda tutadi. Nutqiy kompetensiya til orqali fikrlarni shakllantirish usullarini egallaganlik va nutqni idrok etish va hosil qilish jarayonida bunday usullardan foydalana olish qobiliyatini anglatadi.

Ona tili darslarida yuqori sinf o'quvchilariga jamiyat tomonidan muayyan ijtimoiy maqom egalari qo'yiladigan talablar va bundan kutiladigan natijalar umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan milliy-madaniy xususiyatlarga tayangan holda o'rgatilishi lozim. Muloqotga kirishuv verbal hamda noverbal vositalar orqali amalga oshirilgan ekan, ona tili fani o'qituvchisi o'quvchi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning verbal ko'inishini gaplarning faqat semantik-sintaktik muvofiqligi asosida emas, balki milliy-madaniy qadriyatlarga

to'yintirilgan birliklar vositasida tashkil qilinishiga ham e'tibor qaratishi kerakligini o'rgatishi lozim. Natijada o'quvchida nutqiy kompetensiya o'zligini anglashi, o'zini ijtimoiy subyekt va shaxs sifatida idrok etishi bilan omuxtalanib takomillashadi, yuqori sinf o'quvchilari mustaqil fikr egalari sifatida nutqini grammatik me'yorlar asosida, milliy va umuminsoniy nutqiy modellarning ijtimoiy hamkorligi asosida shakllantira oladigan yoshdagi nutq sohiblaridir. Aynan shu jihatlarning nazardan qochirilishi o'quvchida milliy fikrlash tarzini, *ona* so'zi bilan izohlanayotgan tilning mohiyatini to'laqonli anglash hissini tuyishdan uzoqlashtiradi. Bu jihatlarga e'tibor esa o'quvchilarda ijtimoiy, milliy mansublikning optimal ko'rinishini shakllantiradi: suhbatdoshi bilan o'zaro moslashuvchanlik muhitini qurishga imkon beradi.

Ona tili ta'limini insonparvar ta'limotga yo'naltirish, milliy-madaniy jihatlar bilan to'yintirgan holda o'qitish fan mazmun-mohiyatini boyitish, o'quvchilarning mehnat va o'qishdan qoniqishlarini oshirish, sinfdan tashqari ijodiy faolligini oshirishga ham asos bo'ladi. Bunday ta'lim o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni barqarorlashtiradi. O'quvchi ilm mehnatning oliy ko'rinishi ekanligini va bu mehnat axloqiy tarbiyaning, kasbiy yetuklikning muhim bo'g'ini ekanligini anglaydi.

O'quvchi lisoniy tahlil jarayonida aynan gaplarning semantik-sintaktik qurilishidagi muvofiqlikni, masalan, o'zbek nutqidagi gaplarning ijtimoiy xoslanish masalasida *assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xush kelibsiz, xush ko'rdik, hormang, bor bo'ling, uying bug'doyga to'lgur, ofarin, salomat bo'ling, oq yo'l, oy borib omon qayt* kabi milliy-madaniy mansublikni bildiruvchi so'zlar, duolar, olqishlar kabi milliy etiketlar bilan uzviy tarzda tahlil qilsa, sabalarini anglasa, o'z qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiya topadi. Shu ma'noda, sodda gapning alohida bir ko'rinishi bo'lgan so'z-gaplarning voqelanishi qadriyatlarimiz, axloqiy me'yorlarimiz bilan bog'liq, bu gaplarni o'rganish jarayonida aynan shu jihatlarga urg'u bermay o'tmasdan bo'lmaydi.

Shuningdek, nazariy ma'lumot "Kishilar orasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatib turiladigan so'z yoki ibora so'z-gap vazifasida qo'llanadigan bo'lib qolgan: *assalomu alaykum, yoqimli ishtaha, marhamat, salomat bo'ling, qulluq, osh bo'lsin, yaxshi boring, xush ko'rdik, labbay, jonim bilan, bajonidil* kabi", deb tugatilgan.

Darslikda so'z-gaplar yuzasidan uchta mashq keltirilgan bo'lib, shundan birinchi mashq misollar tahliliga qaratilgan, ikkinchisida matn tahlili va uchinchi mashq uyga vazifa bo'lib, «Muomalam – husnim» mavzusida kamunum so'z-gaplarni qo'llab matn tuzish so'ralgan.

Biror bir til yo'qki, milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lmasa, biror til egasi o'zaro muloqotga kirishayotgan ekan, muomala jarayonida o'z fikrini ifodalashi lozim ekan, albatta, fikrlash tarzida milliy-madaniy mansubligidan kelib chiqib fikr bildirish, xulosa yasash ustunlik qiladi.

Fikrimizni darslikda keltirilgan mashqni tahlil qilish asosida mustahkamlaymiz. Mashq izohi quyidagicha: **114-mashq. O'qing. So'z-gaplarning ifodalayotgan ma'nosini tushuntirib bering.**

1.– **Barakalla**, o'g'lim, shunday bo'lish kerak, orzu-niyatingga, murod-maqsudingga yet, – deb olqishladi, uni yaxshi tarbiya qilishga ahamiyat berdi.

2.– Savob ishlarga rag'bat qiling... – **Xo'p... xo'p...** (*T.Malik*)

3.– Labbay, hazrat, sadongizdan aylanay, hazrat! (*M.Shayxzoda*)

4.Mahmudxon (xatni qo'yniga solub, yugurub turub):

– **Assalomu alaykum**, boy pochcha, kelsinlar, **qani, marhamat** (joy ko'rsatub), qani, o'tursinlar, manam hozir janobingizni kutib turuvdim (boy kursiga o'tirur, fотиha o'qur).

Abdiqodirboy: **Xayr**, ziyoda davlat, Illohu akbar.

Mahmudxon (turub): **Xush ko'rduk.**

Abdiqodirboy: **Xush, salomat.** Yangi xabarlar yo'qmi, afandim?

5.– Esonmisiz? Sarupolar muborak! Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilmaslik edi:

– **Qutlug' ...**

So'z-gaplarni ham milliylikimizni aks ettiruvchi milliy-madaniy birliklar – etalon gaplar deyish mumkin. To'g'ri gap tuzish, mazmunli matn yartish uchun til haqidagi nazariy bilimlarning

o‘zi yetarli bo‘lmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirayotganda o‘zbek xalqining o‘ziga xos muloqot xulqi borligini, muloqot xulqi milliy xarakter bilan, inson psixologiyasi bilan bog‘liqligini tushuntirishi lozim. Masalan, keltirilgan birinchi gapda qo‘llangan *barakalla* so‘z-gapi so‘zlovchining ijobiy istagini ifodalovchi milliy-madaniy birlik sanaladi, odatda, yoshi ulug‘larning mamnunligini ifodalovchi undov so‘z hisoblanadi. *Barakalla* undov so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “seni xudo muborak qilsin, ofarin” ma’nolarini bildiradi. Kimsaning biror harakatidan mamnunlikni, ma’qullash, maqtovni anglatadi. Yuqorida keltirilgan gapda aynan shu mazmun ifodalangan. Yoki o‘quvchilardan “O‘tkan kunlar” romanidan olingan quyidagi parchada *barakalla* so‘z-gapi nima maqsadda qo‘llanganligi sababini so‘rash mumkin:

Hasanali ham iljayib yonchiq kavlashka tutindi va:

– O‘g‘ulmi, holva? – deb so‘radi xotinidan.

– O‘g‘ul!

– **Barakalla.**

Biroq o‘quvchilardan *barakalla* so‘zining badiiy matnda ifodalanuvchi boshqa ma’nolarini, ijobiy va salbiy ma’no ifodalash xususiyatlarini “Nilufar guli” usulida izohlash so‘ralsa, ularda kompetensiyaning shaxsiy xususiyat, individuallik, ijodkorlik kabi xususiyatlari rivojlanishiga yo‘l ochiladi.



O‘quvchi millat vakili, kelajak vorisi sifatida o‘z nutqi orqali obyektiv olamga bo‘lgan munosabatini ifoda etar ekan, shu bilan bir qatorda, milliy o‘zligini ham namoyish etadi, demak, “...nutqning amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq hodisalar talqini o‘sha tilga xos milliy o‘ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.” 114-mashqdagi 5-misol tahliliga e’tibor qaratamiz:

– Esonmisiz? Sarupolar muborak! Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilmaslik edi:

– **Qutlug‘ ...**

O‘quvchilardan “O‘tkan kunlar” romanidan olingan ushbu parchada keltirilgan *qutlug‘* so‘z-gapining qo‘llanish sababini matn mazmuni asosida tahlil qilish lozimligini, yozuvchining bu tanlovdan maqsadini so‘rash lozim. Odatda, turmushga chiqayotgan o‘zbek qizining bu kabi savolga ochiq javob bermasligi axloqiy me’yorlarga mos keladi, bu tarbiya belgisi sanaladi, ikkinchidan, o‘quvchidan ushbu so‘z-gapning qo‘llanishi uchun yana qanday sabab borligini so‘rash lozim. Buning uchun gap oxiriga qo‘yilgan ko‘p nuqta belgisi haqida ham so‘rashni unutmaslik kerak bo‘ladi. Bularning barchasi o‘quvchining ushbu badiiy durdona mazmunidan xabardorlik darajasini ham bilib olish imkonini beradi.

O'zbek xalqining muloqot xulqida xotin-qizlari uchun nafaqat erkaklar oldida, balki ko'pchilik oldida ham kam gapirish xislat sanaladi, shuningdek, shukronalik, andisha, uyat kabilar ham muhim xarakterli jihatlar sanaladi, bu o'rinda so'z-gap Kumushbibining roziligini emas, balki noroziligini yashirish maqsadida qo'llangan. Holbuki *qutlug'* so'zi "tashakkur", "minnatdorman" ma'nolarini anglatadi. So'z-gaplar so'zlovchining psixologik holati bilan bog'liq tarzda voqelanishini bugungi o'quvchi bilishi lozim, umuman, har qanday gap turiga nisbatan shu fikrni aytish mumkin.

Ko'rinadiki, bir so'zga bir ma'no xos emas, balki nutqda uning ko'plab ma'nolarini voqelantirish mumkin, bu esa so'zlovchi kompetensiyasiga qo'yiladigan ijodkorlik sifati bilan bog'liq. Bugun o'quvchida ana shu xususiyatlar shakllantirilishiga e'tibor qaratilmas ekan, uning ijtimoiy hayotga faol aralashuvini ta'minlash, kelajakka kreativ shaxsni tarbiyalab berish, malakali mutaxassisga zamin yaratib berish kabi maqsadlardan uzoqlashib borilaveradi. Qisqa qilganda, o'quvchida ijtimoiy kompetensiya shakllanmaydi, shunga ko'ra, bugun olimlar yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida muhim vazifa ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va ideallarni ishlab chiqish va qabul qilish, jamiyatning madaniy rivojlanish darajasiga javob beradigan ijtimoiy xulq-atvor shakllari va usullarini ishlab chiqish ekanligi, buning uchun yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy yo'naltirilgan va *ma'naviy-axloqiy* sohalarda shakllantiruvchi ta'sirlar majmui sifatida ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Baholashga, xulosalashga ongli munosabat, muloqot xulqiga egalik, nutqiy jarayonda tinglovchining nutqiy, psixologik va milliy mansubligini e'tiborga olish o'quvchi tahlil qilish ko'nikma va malakalarga ega bo'lgandagina mumkin bo'ladi. Kuzatilganidek, muloqot jarayonida tanlangan gap shakli muloqot egasini turli tomondan xarakterlaydi. Shunday ekan, o'qituvchi gap tahlillari shkalasini kengaytirishi, yuqorida keltirilgan xususiyatlarni e'tiborga olishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Петровская, Л.А. Общение – компетентность – тренинг: избранные труды. – М. : Смысл, 2007. – С.103.

2. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. – Москва, 2014. – № 1. Серия 14. Психология. – С. 87.

3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To'rtinchi nashri. Qodirov M. va boshq. -T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. 69-70b.

4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. -Т.: ЎзМЭ, 2006. -Б.164.

5. Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.д-ри. ...дисс. -Т., 2001. -Б.256.

6.Кужелова И.Г. Педагогические условия формирования социальной компетентности старшеклассников в культуросообразной среде школы: Автореф. ...дисс.канд.педаг.наук. - Майкоп, 2019. -С.12.

YASHIL ENERGETIKANING EKOLOGIIYAGA TA'SIRI

Raxmonov Ilg'or G'aybullayevich
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Geografiya va iqtisodiy bilimlar
asoslari" kafedrasini o'qituvchisi
Pirmamatova Nozima Komiljon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti maktab menejmenti 3-kurs talabasi
Rayimova Mashhurabonu Ozod qizi
Navoiy davlat pedagogika institute maktab menejmenti 3-kurs talabasi
Xolboyeva Marjona Azizovna
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti maktab menejmenti 3-kurs talabasi
E-mail:mashhurabonurayimova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada jahonda ro‘y berayotgan ekalogik muammolardan birini hal qilish uchun yashil energetikaga o‘tishning zarurligi keltirib o‘tilgan. Global miqyosda stratosfera o‘zini yo‘q qilish potentsialiga ega bo‘lgan texnikalardan, atmosferaga katta zarar yetkazuvchi qurilmalardan va mashinalardan bosqichma-bosqich voz kechish uchun tegishli qarorlar va choralar ko‘rilmogda. Jahon energiya zahirasi kamayayotganini inobatga olgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalarini topib ularga o‘tish, undan samarali va keng doirada foydalanishni taqazo etmoqda. Iqlim o‘zgarishini inobatga olib energiyani tejash masalalari keltirib o‘tilgan. Maqolada yashil energetika tarmoqlarini tahlil qilish va ularni optimallashtirish uchun energiya modellari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: yashil energiya, optimallashtirish, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, biomassa va gidroelektr energiyasi, stratosfera, atmosfera, elektromobil

Annotation: This article highlights the need to switch to green energy to solve one of the world's environmental problems. Globally, appropriate decisions and measures are being taken to phase out techniques and machines that have the potential for stratospheric self-destruction, devices and machines that cause significant atmospheric damage. Considering the fact that the world's energy reserves are decreasing, it is important to find and switch to renewable energy sources, to use them efficiently and widely. Issues of saving energy in view of climate change are mentioned. The article discusses energy models for analyzing and optimizing green energy networks.

Keywords: green energy, optimization, solar energy, wind energy, biomass and hydroelectric energy, stratosphere, atmosphere, electric car

Аннотация: В данной статье подчеркивается необходимость перехода на зеленую энергетику для решения одной из мировых экологических проблем. В глобальном масштабе принимаются соответствующие решения и меры по поэтапному отказу от техники и машин, обладающих потенциалом самоуничтожения в стратосфере, устройств и машин, наносящих значительный ущерб атмосфере. Учитывая тот факт, что мировые запасы энергии сокращаются, важно найти и перейти на возобновляемые источники энергии, использовать их эффективно и широко. Затронуты вопросы энергосбережения в условиях изменения климата. В статье рассматриваются энергетические модели для анализа и оптимизации сетей зеленой энергетики.

Ключевые слова: зеленая энергетика, оптимизация, солнечная энергия, энергия ветра, биомасса и гидроэнергетика, стратосфера, атмосфера, электромобиль.

Yashil energiya - bu quyosh nuri, shamol yoki suv kabi tabiiy resurslardan ishlab chiqariladigan har qanday energiya turi. Bu ko‘pincha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kelib chiqadi. Energiya manbai sifatida yashil energiya ko‘pincha quyosh energiyasi, shamol energiyasi, geotermal energiya, biomassa va gidroelektr energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya texnologiyalaridan keladi. Ushbu texnologiyalarning har biri turli yo‘llar bilan ishlaydi, masalan, quyosh panellari kabi quyoshdan quvvat olish yoki energiya ishlab chiqarish uchun shamol turbinalari yoki suv oqimidan foydalanish demakdir. Yashil energiya deb hisoblanishi uchun resurs qazib olinadigan yoqilg‘i kabi ifloslanishni keltirib chiqara olmaydi. Bu qayta tiklanadigan energiya sanoati tomonidan ishlatiladigan barcha manbalar yashil emasligini anglatadi. Yashil energiya manbalari, odatda, tabiiy gaz yoki ko‘mir kabi qazib olinadigan yoqilg‘i manbalaridan farqli o‘laroq, tabiiy ravishda to‘ldiriladi, ularning rivojlanishi millionlab yillar davom etadi. Yashil manbalar, shuningdek, ko‘pincha ekotizimlarga zarar etkazadigan kon yoki burg‘ulash ishlaridan qochadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Asosiy manbalar shamol energiyasi, quyosh energiyasi va gidroelektr energiyasi (jumladan, dengizdagi suv oqimidan okean energiyasidan foydalanadigan to‘lqin energiyasi). Quyosh va shamol energiyasi odamlarning uylarida kichik miqyosda yoki muqobil ravishda kattaroq sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi mumkin.

Yashil energiya yechimlari, shuningdek, qurilganidan keyin ko‘p qo‘shimcha energiya sarfini talab qilmaydi, chunki ular shamol kabi tezda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga moyildirlar. Darhaqiqat, ko‘mir uchun ishlatiladigan energiyaning umumiy

samaradorligi uning dastlabki energiya qiymatining atigi 29% ni tashkil qiladi, shamol energiyasi esa o'zining dastlabki energiya sarfiga 1164% daromad keltiradi.

Eng keng tarqalgan oltita shakl quyidagilardir:

1. Quyosh energiyasi

Qayta tiklanadigan energiyaning bu keng tarqalgan turi odatda quyosh nurini ushlaydigan va uni elektr energiyasiga aylantiradigan fotovoltaik hujayralar yordamida ishlab chiqariladi. Quyosh energiyasi binolarni isitish va issiq suv uchun, shuningdek ovqat pishirish va yoritish uchun ham ishlatiladi. Quyosh energiyasi endi maishiy maqsadlarda, shu jumladan bog 'yoritilishida foydalanish uchun etarlicha arzon bo'ldi, garchi u butun mahallalarni energiya bilan ta'minlash uchun kengroq miqyosda qo'llaniladi.

2. Shamol energiyasi

Ayniqsa, dengiz va balandroq joylarga mos keladigan shamol energiyasi butun dunyo bo'ylab havo oqimining kuchidan elektr energiyasini ishlab chiqaradigan turbinalarni surish uchun foydalanadi.

3. Hidroenergetika

Gidroelektr energiyasi sifatida ham tanilgan ushbu yashil energiya elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun daryolar, daryolar, to'g'onlar yoki boshqa joylarda suv oqimidan foydalanadi. Hidroenergetika hatto uydagi quvurlar orqali suv oqimidan foydalangan holda kichik miqyosda ham ishlashi mumkin yoki bug'lanish, yomg'ir yoki okeanlardagi toshqinlardan kelib chiqishi mumkin.

4. Geotermal energiya

Yashil quvvatning bu turi yer qobig'i ostida to'plangan issiqlik energiyasidan foydalanadi. Ushbu resursga kirish uchun burg'ulash kerak bo'lsa-da, bu atrof-muhitga ta'sirini shubha ostiga qo'yadi, lekin u bir marta foydalanilganda juda katta resurs hisoblanadi. Geotermal energiya ming yillar davomida issiq buloqlarda cho'milish uchun ishlatilgan va xuddi shu resurs bug 'turbinalarini aylantirish va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin. Birgina Qo'shma Shtatlar ostida saqlanadigan energiya hozirgi vaqtda ko'mirdan 10 baravar ko'p elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun etarli. Islandiya kabi ba'zi mamlakatlarda foydalanish oson bo'lgan geotermal resurslar mavjud bo'lsa-da, bu foydalanish qulayligi uchun joylashuvga bog'liq bo'lgan resursdir va to'liq "yashil" bo'lishi uchun burg'ulash jarayonlarini diqqat bilan kuzatib borish kerak.

5. Biomassa

Ushbu qayta tiklanadigan resurs haqiqatan ham "yashil energiya" manbai sifatida belgilanishi uchun ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak. Biomassa elektr stantsiyalari energiya yaratish uchun yog'och chiqindilari, talaşlar va yonuvchan organik qishloq xo'jaligi chiqindilaridan foydalanadi. Ushbu materiallarning yonishi issiqxona gazlarini chiqarishiga qaramasdan, bu chiqindilar hali ham neftga asoslangan yoqilg'ilarga qaraganda ancha past

6. Bioyoqilg'i

Yuqorida aytib o'tilganidek, biomassani yoqish o'rniga, bu organik materiallar etanol va biodizel kabi yoqilg'iga aylantirilishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2010 yilda transport uchun dunyo yoqilg'isining atigi 2,7 foizini ta'minlagan bioyoqilg'i 2050 yilga borib transport yoqilg'iga global talabning 25 foizdan ortig'ini qondirish imkoniyatiga ega.

Natija va muhokamalar

Bilamizki, yashil iqtisodiyot - bu ekalogik xavflarni va ekalogik tanqislikni kamaytirishga qaralib, atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. Bir so'z bilan aytganda iqtisodiyotni rivojlantirishda tabiatga zarar yetkazmasdan, u bilan do'stona rivojlanishni anglatadi. Xalqaro tashkilotlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNEP dasturida Yer atmosferasi, dengiz va quruqlik ekotizimlar sohasidagi turli loyihalarni o'z ichiga oladi. U Global Ekalogik fondining homiylaridan biri hisoblanadi. Yana bir dasturi esa "Yashil energetika"dir.

Mashinalardan chiqayotgan zaharli tutun ham nafaqat tabiatga balki inson hayotiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Asosan avtomobillar benzin yoqilg'isidan foydalanishardi. Bu ham qimmat

va chiqayotgan gazi zararli edi. Keyinchalik gazdan foydalanishni o'ylab topishdi. Bu arzonroq lekin baribir ham zararli gaz chiqadi. Avtomobil sohasi ham "yashil" energetikaga o'tishni maqsad qildi va buni uddaladi ham. Buning uddasidan chiqqan "TESLA" kompaniyasi edi. Kompaniya birinchi bo'lib elektromobillarni sinovdan o'tkazib uni ishlab chiqara boshladi. Unga bo'lgan talab oshdi. "Tesla" kompaniyasi 25 000\$ lik elektromobillar ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Hozirda unga raqobatbardosh gigant kompaniyalardan Renault, Mazda, Toyota va boshqalari bu narsaga katta e'tibor berishdi. Mazda faqat elektrmobillarni ishlab chiqarishni rejalashtirdi. 2030-yilga BMW Yevropa bozorining yarmini "yashil" avtomobillar bilan egallamoqchi. Honda o'z mashinalarining 2/3 qismini elektromashina ishlab chiqarishga qaratmoqchi. Yaqin 10 yilda Buyuk Britaniya va yetakchi mamlakatlar oddiy mashinalardan voz kechmoqchi. Elektromobillarning tom qismiga quyish panellarini o'rnatish ham rejada bor. Buning natijasida mashina elektr energiyasi bilan o'z-o'zini ta'minlashi mumkin. Bu g'oya ham cho'ntakka, ham tabiatga foyda. Elektr energiyasini qayta tiklasa bo'ladi. Yuqorida keltirib o'tilgan usullar bilan uni ishlab chiqarish mumkin. Global avtomobil bozorida makromuhit omillariga qaraydigan bo'lsak, "yashil" avtomobillarning o'sish imkoniyati katta.

Xulosa

Yer yuzasining o'rtacha harorati ko'tarilayotgani haqida kuchli ilmiy dalillar mavjud. Bunga yaqqol misol: okeanlardagi muzlarning katta hajmda erishi. Sababi iqtisodiyotning rivojlanishida foydalanilayotgan yoqilg'ilarni yoqish natijasida atmosferaga chiqadigan CO₂ va boshqa GHG konsentratsiyasining ortishi hamda muzlatgich, issiqxona, ayniqsa, avtomobillardan chiqayotgan gazlar stratosferani yemirilishi. Hozirda ko'p avtomobil soni kam emas. Bu gazlarning chiqishini kamaytirish va butkul yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada ishlab chiqib kuchaytirish lozim. "Yashil" energetika esa buning oldini olish omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] T. Han and N. Ansari, "On Greening Cellular Networks via Multicell Cooperation," IEEE Wireless Commun., vol. 20, no. 1, Feb. 2013, pp. 82–89.

[2] García P, Torreglosa JP, Fernández LM, Jurado F. Optimal energy management system for stand-alone wind turbine/photovoltaic/hydrogen/battery hybrid system with supervisory control based on fuzzy logic. Int J Hydrog Energy 2013;38:14146–58

[3] Faxas-Guzmán J, García-Valverde R, Serrano-Luján L, Urbina A. Priority load control algorithm for optimal energy management in stand-alone photovoltaic systems. Renew Energy 2014;68:156–62

[4] Qiu H, Huang J, Yang J, Rozelle S, Zhang Y, Zhang Y, et al. Bioethanol development in China and the potential impacts on its agricultural economy. Applied Energy 2010;87:76–83.

[5] "Definitions: energy, sustainability and the future". The Open University. Archived from the original on 27 January 2021. Retrieved 30 December 2020. 4. Golušin, Popov & Dodić 2013, p. 8

[6] Vapayev M. Shomurodov S. Patxullayeva M. Yashil energetika kelajak energetikasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.

O'ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNING DOLZARBLIGI

¹SH.S.Botirov

²Shodiyev Ramshidjon Muxtor o'g'li

¹Termiz muhandislik - texnologiya instituti assistenti

²Termiz muhandislik - texnologiya instituti

Energetika va konchilik ishi fakulteti Marksheyderlik ishi 2-kurs talabasi

shodiyevramshid@gmail.com **Tel:+998 94 654 77 18**

Annotatsiya : O'zbekistondagi muhim ekologik muammo bu Orol dengizini qurishidir. Bu holat natijasida dengiz o'rni cho'lga aylangan va atrof muhitda turli xil zararli tuzlarning yoyilishiga olib kelmoqda. Bu muammoni yechimi sifatida bizning akselerator laboratoriyamiz cho'l o'rniga yashil hudud barpo etmoqda va har bir inson bu loyihaga osonlik bilan o'z hissasini qo'sha oladi.

Аннотация: Важной экологической проблемой в Узбекистане является высыхание Аральского моря. В результате такой ситуации море превратилось в пустыню, а в окружающей среде распространяются различные вредные соли. В качестве решения этой проблемы наша лаборатория-ускоритель строит вместо пустыни зеленую зону, и каждый может легко внести свой вклад в этот проект.

Abstract: An important ecological problem in Uzbekistan is the drying up of the Aral Sea. As a result of this situation, the sea has turned into a desert and various harmful salts are spreading in the environment. As a solution to this problem, our accelerator lab is building a green space instead of a desert, and everyone can easily contribute to this project.

Kalit soʻzlar: Ekologiya, dolzarb, muammo, sanoat, chiqindi, orol dengizi, atmosfera, muhofaza, akselerator, laboratoriya, choʻl mintaqasi.

Ключевые слова: Экология, актуальная, проблема, промышленность, отходы, островное море, атмосфера, защита, ускоритель, лаборатория, пустынный регион.

Key words: Ecology, actual, problem, industry, waste, island sea, atmosphere, protection, accelerator, laboratory, desert region.

Oʻzbekiston iqlimi keskin quruqlashib bormoqda. Kuzda yomgʻir, qishda esa qor yogʻishi sezilarli darajada kamaydi. Yoz oylarida anomal issiq harorat kuzatilmoqda. Yil davomida yurtimizga kirib keladigan sovuq havo oqimi "barobargacha qisqardi. Bularning barchasi global iqlim oʻzgarishlari bilan bogʻliq boʻlib, havo va tuproqda suv tanqisligini kuchaytirib, mintaqamizga ham jiddiy taʼsir qilayotganini anglatadi. Choʻllanish –yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holga kelish jarayoni. U qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bunda qurgʻoqchil iqlimli oʻlkalarda ekologik tizimlar buziladi, oʻsimlik va hayvonot olami populyatsiyasiga salbiy taʼsir kuchayadi. Dunyoni tabiiy-iqtisodiy inqirozga olib keladi. Ana shunday choʻllangan suvli hududlarning 87 foizi oxirgi 300 yil ichida yaroqsiz holga kelgan. Yana ham yaqin tarixga nazar tashlasak, choʻllanishning 54 foizi oxirgi 100 yilga toʻgʻri keladi. Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada bu jarayon hamon davom etmoqda. Shuningdek, dunyo aholisining oʻsib borishi –choʻllanishning asosiy sabablaridan biri. Chunki odamlar soni koʻpaygani sari oziq-ovqat va moddiy boyliklarga talab ham oshadi. Bu esa yerdan koʻproq hosil olish kerakligini anglatadi. Natijada dehqonchilik maydonlari ayovsiz ishlatilib, yaroqsiz holga keladi. Shoʻrlanish, qurgʻoqchilik kabi boshqa ekologik muammolarning eng oxirgi natijasi choʻllanish hisoblanadi. Shu bois ularni nisbatan tezroq bartaraf etsa boʻladi. Choʻllanishni toʻxtatish esa birmuncha qiyin, chunki bunday hududda yerlar unumdorligini yoʻqotadi. Hech qanday maqsadda foydalanib boʻlmaydi, yaʼni qishloq xoʻjaligi, chorvachilik maqsadida foydalanish uchun yaroqsiz boʻladi. Bunday hududlarda faqat yantoq, saksovulga oʻxshagan oʻsimliklar oʻsadi, lekin isteʼmolga yaroqli mahsulot olib boʻlmaydi. Soʻnggi maʼlumotlarga koʻra, Oʻzbekiston hududining 70 foizi choʻllangan. [1]. Choʻllanishga olib keladigan yana bir omil –qishloq xoʻjaligining oqilona tashkil qilinmaganidir. Ikkinchidan, qishloq xoʻjaligi chorva mollarining notoʻgʻri oʻtlatilishi ham bunga sabab boʻladi. Chorva mollarini oʻtlatish jarayonida hayvonlar oʻsimliklarni ildizi bilanyeb yuboradi. Bu esa degredatsiya jarayonini yanada tezlashtiradi. Orol dengizining hozirgi holati. Dengiz choʻl mintaqasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bugʻlangan. Oʻtgan asrning boshlaridan suv sathi pasaya boshlangan. Masalan, 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga daryolardan yogʻin bilan birga bir yilda, oʻrtacha 65 kub, km suv kelib turgan; suv yuzasidan esa 66,10 kub, km suv bugʻlangan. Shunday qilib, har yili dengiz 1 kub km 50 yil davomida esa 50 kub, km suvni yoʻqotgan. Suv sathi ayniqsa, oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlab sugʻoriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sugʻorishga ishlatilishi tufayli keskin kamaya boshlagan. Oʻtgan 40 yildan koʻproq vaqt davomida Orol "dengizining maydoni deyarli 4-marta, suv sathi 1,8-marta, undagi suv hajmi 9-martaga yaqin kamaydi. Dengiz suvining shoʻrlanishi 9-10 g/l dan 70-84 g/l gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz chuqurligining kamayishi yiliga 80-110 sm ni tashkil etadi. Oʻtgan 40 yil mobaynida qirgʻoq chizigʻi 80–100km pasaygan. Buning oqibatida 4,5 mln gektardan oshiqroq dengiz tubi ochilib qoldi. Hozirgi kunda Orol dengizi uch qismga boʻlinib ketgan. Uning

sayoz kichik shimoliy qismining suvi kuchsiz minerallashgan (8-13 g/l), birmuncha kattaroq sayoz sharqiy qismi ancha kuchli sho'rlangan (68-72g/l) .[2].

Orol bo'yi hududining ekologik muammolari.Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So'ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to'ldirishga va sug'orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo'ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko'p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo'lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig'imi 1617 mld kubokilometrni tashkil etadi.Suv zahiralardan noo'rin foydalanish–Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko'tarilib, tuproqdagi namlik bug'lanishining ko'chayishi va buning oqibatida tuproqlarning sho'rlanishining ortishiga olib keldi. Orol bo'yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, yer yuzasi sho'rhok tuproq bilan qoplana boshladi.Orol dengizi suv sathining pasayishi bilan qirg'oq chizig'i 100km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o'rnida 4mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Ana shunday qilib, Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo'rin foydalanish 20 asr oxirida 3 mln dan ko'proq aholi yashaydigan hududda „Orol fojiasi“ deb atalgan global ekologik halokatni paydo qildi.Oroldengizi o'rnida paydo bo'lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan.Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko'tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250kg, ayrim hududlarda 500kg gacha tuzli chang yog'iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko'tarilishi mumkin. Tuzli chang to'fonlarning kengligi 40km ga , uzunligi 400km ga yetadi. Tuzli chang Orolqumdan o'nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o'tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog'lar, shaharlar va qishloqlar ustiga yog'iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog'lari cho'qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborgan.Cho'llanish va sho'rlanishning tezlashuvi oqibatida so'nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi.[3]. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari etishtirishning keskin kamayishiga olib keldi.Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta'sir ko'rsatdi, Iqlim yanada kontinentallashib, qishqi harorat o'rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko'tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi. Orol bo'yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Aholi o'rtasida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'paydi. Hududda kam-qonlik kasalligi 60 yillarga nisbatan deyarlik 20-marta oshganligi kuzatilgan.[4]. Ekologik tanglik Orol bo'yi tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosiga ham katta ziyon etkazdi. Suv zahiralarning kamayishi va sho'rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo'ladigan o'simliklar turi va sifati kamayib, o'tloqlar maydoni deyarlik uch martaga qisqardi.Muayyan geografik hududning o'ziga xos iqlimi, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar xarakterini belgilab beradi.Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz,yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda.[5]. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi,chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatinitashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo global

iqlim o'zgarishi yuzaga keldi. Shuningdek, ozon qatlamining yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlamining yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuksuv manbalari va bioxilmaxillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi.[6].

Xulosa

O'zbekistonda bo'layotgan ekologik muammolarni yaralishiga har bir inson o'z hissasini qoshmay qolmaydi. Kundalik hayotimizda ham suvni behuda isrof qilishimiz suv tanqisligiga olib kelmoqda. Shu sababli daryo, ko'llarimizdagi suvlarining qurib qolishiga sabab bo'lmoqda. Atmosfera havosini o'zgarib borishi ham dolzarb muammolardan biridir. Masalan: Sanoat korxonalarini rivojlanishi va maishiy chiqindilarning ko'payishi, zararli gazlarning chiqishi ham ozon qatlamining yemirilishi va uyniklarni hosil bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avazov Sh., Saydamatov F. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.
2. Haydarova H, Bahodirova Z, Yakubjonova Sh. Ekologiya o'qitish metodikasi. T. Iqtisod-moliya, 2009.
3. To'xtayev A. Ekologiya. – T.: O'qituvchi, 1998.
4. Xo'janazarov O'.E, Yakubjonova Sh.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. 2018.
5. Yakubjonova Sh.T va boshqalar. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish .2016-yil
6. Yakubjonova Sh.T, Rajabov F.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish (amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma). 2016-yil.

EKOLOGIYA VA IQLIM O'ZGARISHLARI MUAMMOSINING DOLZARBLASHUVI SHAROITIDA “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Shodiyeva Aziza Zokir qizi,
NavDPI, Tarix fakulteti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 3-.,D”guruh talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globalashuv davrida O'zbekiston Respublikasidagi iqlimning keskin o'zgarishi, uning oldini olish chora tadbirlari va oqibatlarini haqida, “yashil iqtisodiyot”ning naqadar muhim va dolzarb ekanligi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga oid masalalar haqida aytiladi.

Kalit so'zlar : Ekologiya, iqlim, “yashil iqtisodiyot”.

Abstract: This article talks about the sudden change of climate in the Republic of Uzbekistan in today's globalization era, its prevention measures and consequences, how important and urgent the "green economy" is, and about the issues related to the development of the “green economy”.

Key words: ecology, climate, “green economy”.

Аннотация: В данной статье говорится о внезапном изменении климата в Республике Узбекистан в современный период глобализации, мерах по его предотвращению и его последствиях, о том, насколько важна и актуальна “зеленая экономика”, а также о вопросах, связанных с развитием “зеленая экономика”.

Ключевые слова: экология, климат, “зеленая экономика”.

“Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq

xo‘jaligi turgan bo‘lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo‘lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi”

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishlari, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va biologik xilmaxillikning yo‘qolib borayotganidan katta zarar ko‘rayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Hukumat tomonidan yangi qabul qilingan “Ekologik siyosat 2030- yilgacha atrof–muhitni muhofaza qilish” konsepsiyasini va 2019-2030 yillarda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish Strategiyasini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yildagi PQ-171-son Qarori “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qonuniga muvofiq quyidagilar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va iqlim o‘zgarishi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

b) tabiatni muhofaza qilish, jumladan, atmosfera havosi, er, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda davlat ekologik nazoratini yuritish;

v) o‘rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanilishini ta‘minlash;

g) gidrometeorologiya xizmatini tashkil etish, iqlim o‘zgarishi va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini yuritish;

d) tabiatni muhofaza qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish, ekologik tarbiya, targ‘ibot, ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli tashkil etish;

e) “yashil” o‘sish tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitga zararli tashlanmalarni qisqartirish hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta‘sirini kamaytirish;

j) tabiatni muhofaza qilishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

z) ekoturizm, ov va safari turizm sohasini yanada rivojlantirish, o‘rmon xo‘jaliklari va milliy tabiat bog‘larining (qo‘riqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno) imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tegishli infratuzilma obyektlarini yaratish, xorijiy va ichki sayyohlarga munosib shart-sharoit yaratish va ularga xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash;

i) tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish uchun ta‘sirchan choralarni qo‘llash;

k) atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash;

l) amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning tabiatni muhofaza qilish standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish va qonuniy choralar ko‘rish;

m) yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash;

n) o‘rmonlardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni o‘rnatish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, o‘rmonlarning yer ustida va aviatsiya yordamida qo‘riqlanishini tashkil etishni nazorat qilish

o) turizm sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohada qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

p) turizm sohasiga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish, turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish hamda turizm sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash;²

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta’kidlanishicha, „yashil bo‘lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi.“³

Yashil iqtisodiyot kun tartibida yangi barqaror texnologiyalar va yashil tarmoqlarni rivojlanishning yangi yo‘liga olib borish imkoniyati mavjud. Qayta tiklanadigan manbaga asoslanib, o‘rmon sektori turli xil tovarlar va xizmatlarni taqdim etadi. Barqaror boshqariladigan o‘rmonlar, yog‘och va yog‘och bo‘lmagan mahsulotlarni etkazib berish, shuningdek iqlim o‘zgarishini yumshatish kabi iqtisodiy qadriyatlar; biologik xilma-xillikni saqlash; eroziyadan himoya qilish; suv havzalarini saqlash va qishloqlarda ish bilan ta’minlash.⁴

Jahon banki O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi muammolar va imkoniyatlarini tahlil qildi. O‘zbekiston o‘zining umumiy iqtisodiy rejalashtirishiga barqaror amaliyotni kiritish borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Mamlakat 2016-yilda rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishni boshladi. U o‘zining iqtisodiy transformatsiyasini yashil yondashuv bilan kuchaytirish zarurligini tan oldi. Hukumat yanada barqaror iqtisodiy modelni yaratish majburiyatini oldi.

Xususan, 2022-yil dekabr oyida imzolangan prezident qarorida bu borada hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muayyan islohotlar belgilab berilgan. U 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlash bo‘yicha Harakatlar rejasini qabul qildi, u yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.⁵ O‘zbekiston resurslarni boshqarishni yaxshilashiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatning resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa yuqori o‘rta daromadli mamlakatlarnikidan ancha past.

O‘zbekistonda suvdan foydalanish, ayniqsa, samarasiz, mamlakatning yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb uch baravar va qo‘shni Qozog‘istonnikidan ikki baravar yuqori. Shu bilan birga, shahar va sanoat manbalaridan havoning zarrachalari bilan ifloslanishi shamol tomonidan urilgan qum va buzilgan yerlarning changlari bilan kuchayadi. Aholining katta qismi muntazam ravishda zararli deb hisoblangan havodan nafas olishmoqda.

Yerdan barqaror foydalanish O‘zbekistonda kengayishi kerak bo‘lgan muhim amaliyotdir. Iqlimga asoslangan qishloq xo‘jaligi amaliyotlari yerdan foydalanish barqarorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, huddi shunday yashil salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarning kengroq ro‘yxati qo‘shimcha tahlilga loyiqdir. Yashil iqtisodiyotga o‘tishni ta’minlash uchun davlat sektori va yashil moliyani jalb qilish juda muhim hisoblanadi.

Siyosiy chora-tadbirlar yashil sektorda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga moliyalashtirishdagi bo‘shliqni bartaraf etishi kerak. Bundan tashqari, siyosat eng ko‘p zarar ko‘rganlarni qayta tayyorlash, qayta joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkonini berishi kerak. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston hukumati tomonidan

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yildagi PQ-171-son Qarori Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori,

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot

⁴ <https://www.forestprotection.com/uz/avantajlar/yesil-ekonomiye-katki/>

⁵ 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son2019 — 2030-YILLAR DAVRIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

Jahon banki ko‘magida ishlab chiqilayotgan uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasining bir qismi bo‘lishi mumkin.

Dunyo yanada barqaror kelajak sari intilayotgan bir paytda O‘zbekiston global energetika ko‘rsatkichlariga, xususan, yuqori energiya va uglerod intensivligi nuqtai nazaridan javob berishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu shartlar mamlakatni tashqi savdo siyosat oldida zaif holga keltiradi. Biroq O‘zbekiston global yashil o‘tish jarayonini o‘zlashtirib, atrof-muhit va iqlim siyosatini kuchaytirish orqali bu muammoni imkoniyatga aylantirishi mumkin. Aksariyat mamlakatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun past uglerodli siyosatni qo‘llayotgani sababli, uglerodni ko‘p iste‘mol qiladigan mahsulotlarga global talab o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda kamayadi. Bu O‘zbekistonning ko‘p uglerodli eksportiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti va farovonligiga ta‘sir qilishi mumkin. Keyinchalik ugleroddan voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiya va tizimlarga yopishib qolmaslik uchun O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini darhol boshlashi kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o‘tishda davom etayotgan sa‘y-harakatlarning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa yashil choralar ham O‘zbekistonga yaqin muddatli foyda keltirishi mumkin. Biroq mamlakat yashil o‘tishning jamiyatga ta‘sirini ham hisobga olishi kerak. Yashil sektorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda uglerodni ko‘p talab qiladigan faoliyatdan voz kechish investitsiyalar va ish o‘rinlari yaratish sxemasini o‘zgartirib, g‘oliblar va yutqazuvchilarni yaratadi. Eng ko‘p zarar ko‘rgan kompaniyalarga yordam ko‘rsatish juda muhimdir.

Jahon banki O‘zbekistonning yashil va inklyuziv o‘shishni amalga oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga sodiqdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati va islohotlarning to‘g‘ri aralashmasini qabul qilish orqali mamlakat yashil, bardoshli va inklyuziv kelajakning mukofotlarini olishi mumkin. Iqtisodiy o‘shish va rivojlanish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etayotgan global yashil o‘tish davrida O‘zbekiston o‘z kelajagini ta‘minlash uchun barqaror siyosatni qabul qilishi kerak.

Iqlim o‘zgarishiga moslashish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish, turli sohalarda suv va energiya resurslarini tejash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yildagi PQ-171-son Qarori Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
2. 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida . 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son Qarori
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI TASAVVURINI BOYITISHDA TABIIY FANLARNING AHAMIYATI

**Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi
Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar dunyoqarashi va uning shakllanishida tabiiy fanlarning ahamiyati, uning o‘quvchi onggiga ta‘sir darajasi ,boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqliligi va bu jarayonning o‘quvchi bilish faoliyatiga ta‘siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Tabiiy fanlar ,dunyoqarash, globallashuv,ijtimoiy jarayon, integratsiya, ko‘rgazmali qurollar ,yangiliklar, investitsiya va boshqalar.

Bugungi taraqqiy etgan,rivojlangan va kelajakning buyukligini har nedan oldin ta'lim orqali rivojlantirmoqchi bo'lgan va ravnaq toptirayotgan yurtimizda yoshlarning ta'lim olishi va

ularning kelajagi har tomonlama kafolatlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim tizimi doimo izchillikni va uzviylikni talab etadi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya jarayonini boshlang'ich sinfdanoq puxta rejalar asosida olib borish talab etiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilimi va ularning yoshiga mos holda shakllanayotgan dunyoqarashi ,saviyasi barcha-barchasi yaratilgan darsliklar asosida ,berilayotgan bilimlar negizida, olib borilayotgan talimiy islohotlar evaziga hosil bo'lmoqda. Aynan o'quvchilarning dunyoqarashini shaklla tirishda tabiiy fanlar darsligining xissasi ham benihoya.Negaki, endigina maktabga qadam qo'ygan bola tasavvurida faqatgina tabiat ,o'z uyi ,ota-onasi ,o'yinga mo'ljallangan maydonchalar,doimo yuradigan yo'llari va hokozolar bo'ladi. Maktabda bola maaktabgacha ta'lim muassasasida olgan bilimini va hosil qilgan o'z dunyosini tarkib topdiradi.Tabiiy fanlar darsligi yangi tahriri o'quvchining yoshiga mos va keng ko'lamliligi bilan farqlanadi.

Tabiiy fanlar maktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda turli qiziqarli o'yinlar asosida va samarali o'qitish metodlaridan foydalanib dars berish muhim sanaladi. Tabiat boyliklari va ularning inson uchun ahamiyati. Inson o'zining kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat boyliklaridan foydalanishga majbur. Tabiat boyliklarini beshta asosiy guruhga ajratish mumkin: mineral, iqlimiy, suv, yer va biologik boyliklar. Aholining yashashi uchun rudali va noruda mineral bioliklar zarur. Ularsiz jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Rudali foydali qazilmalarga temir, mis, olmos, oltin, uran va boshqalar, noruda mineral boyliklarga oltingugurt, neft, gaz, fosforit va boshqalar kiradi. Insoniyatning rekreatsion resurslarga va, ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun iqlimiy boyliklarning ahamiyati beqiyos. Shuning uchun odamlar qadimdan tabiiy-iqlimiy sharoiti qulay bo'lgan hududlarga joylashganlar. Aynan dars jarayonlarida turli ko'rgazmalardan foydalanish bolalarning unga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi va rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar tabiat haqidagi bilimlarini har tomonlama oylab ,turli tahlillar asosida, haqiqiy va hayoliy detallar bilan taqqoslaydi va tasavvurlarini borgan sari ortishiga zamin hozirlaydi. Tasavvur tushunchasini rivojlantirishda nega aynan tabiat bilan bog'langanini shunday yoritish mumkin : bolalarda mexanik xotira kuchli bo'lib ,eshitgan narsalarini shu zahoti ,qisqa vaqt ichida unutib qo'yadi va eslashga qiynaladi.Ammo ko'rgan va o'zlari u kabi boshqa manzaralar bilan taqqoslab tahlil qilganida juda katta ta'surot iygotadi va dunyoqarashini kengaytiradi.

Tabiiy fanlar bugungi globallashgan zamonimizda eng yuqori saviyali va boshqa fanlar bilan ham integratsiya qilinganda bemaolol foydali hisoblana oladigan fan hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek tasavvurni boyitishda va boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda olib borilgan talimiy jarayonda juda yuqori natija bor. Masalan,biror faslni olib uni tasvirlashimiz mumkin ,albatta, so'zlar bilan tasvirlaganimizda ularni ko'rganimiz uchungina ko'z ongimizda gavdalanadi.Bolalar ham xuddi shunday o'qituvchi yangidan-yangi ma'lumot berganda ham u faqatgina o'z tasavvuridan kelib chiqibgina uni idrok eta oladi xolos. Masalan, Bahor fasliga tavsifnoma. Bahor mavsumi kalendar hisobi bo'yicha birinchi martdan boshlanadi. Lekin bahorning kelishi har yili turlicha bo'ladi. Mart oyida qattiq yog'ingarchilik bo'ladi. Harorat +25+29 darajagacha ko'tariladi. Lekin sovuq ham bo'lib turadi. Aprel oyida harorat ko'tarildi. May oyida dalalar ``ko'klam libosini kiyadi``. Boychechak chuchmoma sovrinjon gunafshalar ochila boshlaydi. Yovvoyi ildizli o'simliklar lolalarning ko'pgina turlari giatsintlar har xil turli narsislar barg chiqara boshlaydi. Daraxtalar shira chiqara boshlaydi. Qor erishi bilan daraxt ildizlari yerdagi namlikni o'ziga tortadi. Mart oyida qushlar uchib kela boshlaydi. Qushlarda ko'payish davri boshlanishi sababli ularda uyalariga qaytib kelish zarurati tug'iladi. Qushlar qo'sha – qo'sha bo'lib urchiy boshlaydi.Bolalar bilan mevali bog'larga ekskursiyaga chiqilganda asalarilarning o'rik shaftoli va boshqa o'simlik gullarining biridan ikkinchisiga qo'nib yurganlarini kuzatish mumkin. Mart oyida qurbqalar cho'l baqalari va quruqlikda yashovchi hayvonlar o'z ``konsertlarini,, boshlaydilar. Mart oyida baliqlar ikra yig'ishga va urchishga kirishadilar. Aprel oyida havo yaxshi isiganida tipratikanlar uyqudan uyg'onadilar. Toshkent atrofida va Toshkent viloyatida ``quloqli tipratikan,,lar uchraydi. Bu tipratikan Yevropa tipratikanlaridan kichikroq bo'lib ignalari ham kaltaroqdir. Uning quloqlari katta (boshining

yarmidan ham uzunroqdir) , shuning uchun ham u quloqli tipratikan deb ataladi. Tipratikanlar havzalarda tog`li o`lkalarda va bog`larda yashaydi. Mevali bog`larda qishloq xo`jalik zararkunandalariga qarshi kurash olib boriladi. Bu yerda bahor faslining barcha holati akd etgan kichik matn berildi. Agar o`qituvchi o`quvchilarga kim ishbu matn orqali nimadir qilib beradi deya savol berganida ular o`zlarining bog`ini, maktab hovlisini, k`ocha-k`oydagi kivhik daraxtlarni rasavvur qiladi. Bu jarayonda yaxshi natija olish uchun bolalarni ekskursiyalarga olib chiqish, tabiatning eng chiroyli va manzarali ,xush havo hududlariga olib borishni talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi zamonaviy jarayonda dunyoqarash, tasavvur, idrok, aql juda muhim holat hisoblanadi. Shuning uchun ham nafaqat tabiiy fanlar darsligidan balki, boshqa fanlarda ham rasmi va k`orgazmali materiallar k`oproq joy olganining sababi shu deya oylashimiz joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Sharipova, D. P. Xodiyeva, M. K. Sharipov. Tabiatshunoslik va uni o`qitish metodikasi. darslik. T. "Barkamol fayz media" nashriyoti. 2018. - 456 b.

2. M. Nuritdinova. Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi. T.: O`qituvchi. - 2005 y. - 240 b.

3. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik/ K. Suyarov [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2021. - 120 b.

4. Tabiiy fanlar [Matn]: 3-sinf uchun darslik/ Z. Sangirova [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2022. - 136 b.

“YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI

Sharapova Gulnoza Valentinovna
Navoiy davlat pedagogika instituti o`qituvchisi
Tilloeva Nilufar Iskandarovna
Biologiya ta`lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi yashil iqtisodiyot siyosati, O`zbekiston aholisi farovonligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va mamlakatimizni dunyoning eng rivojlangan 50 ta davlati qatoriga kiritish bo`yicha chuqur tizimli islohotlarga asos bo`lishi va O`zbekistonning faol iqtisodiy siyosat olib borish orqali iqtisodiyotini "yashil"ga aylantirish borasidagi sa`y-harakatlari hamda uning afzaliklarini yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: yashil iqtisodiyot, hayot sifati, aholi, mamlakatlar, resurslar, iqtisodiy o`sish, barqaror rivojlanish, yashil rivojlanish

ABSTRACT

In this article, the policy of the new green economy is the basis for deep systemic reforms to improve the welfare of the population of Uzbekistan, improve the quality of life and include our country among the 50 most developed countries in the world, and the effort to turn Uzbekistan's economy into a "green" one by conducting an active economic policy. actions and its advantages are explained.

Keywords: green economy, quality of life, population, countries, resources, economic growth, sustainable development, green development

АННОТАЦИЯ

В данной статье политика новой зеленой экономики является основой глубоких системных реформ, направленных на повышение благосостояния населения Узбекистана, улучшение качества жизни и включение нашей страны в число 50 наиболее развитых стран мира, а также усилия превратить экономику Узбекистана в «зеленую» путем проведения активной экономической политики, объясняются действия и ее преимущества.

Ключевые слова: зеленая экономика, качество жизни, население, страны, ресурсы, экономический рост, устойчивое развитие, зеленое развитие

Bugungi kunda dunyo mamalakatlari orasida iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi yuzaga kelayotgan ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarga muqobil yechim sifatida barqarorlikka ustuvor ahamiyat kasb etadigan, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan va adolatli rivojlanishga zamin yaratuvchi "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni jadal rivojlantirishida va innovatsion texnologiyalar asosida "yashil" iqtisodiyot sohasini keng tatbiq qilishi zamon talabiga aylanmoqda[1].

Yashil iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki bunda bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishni kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyatga, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda innovatsion taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun jahon hamjamiyati oldida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan sanaladi.

Inson hayoti davomidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi resurslarning yetishmasligi resurslar tanqisligi keltirib chiqaradi. Resurslar tanqisligi insoniyatning azaliy va hali yechimini topmagan muammosi bo'lib, inson ehtiyojlarining cheksizligi bilan resurslarining cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning bosh muammosi hisoblanadi. Suv tanqisligi, yer osti va yer usti boyliklarining kamayib borayotganligi, oziq ovqat tanqisligi, mehnatga yaroqli aholi sonining cheklangan bo'lishi, energiya resurslarining yetishmasligi va boshqalarni bunga misol qilib keltirishim mumkin. Ba'zi resurslarni qayta tiklash mumkin. Masalan kesilgan daraxtlar o'rniga qayta daraxt ekib yangi bog' yaratish mumkin. Garchi bunga yillar ketsa ham. Lekin foydali qazilmalar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Keyingi 200 yil ichida Yer kurrasida iste'molchilar soni 5 marta ko'paydi, ammo yer sathi, tabiiy boyliklar ko'paygani yo'q. Iqlim o'zgarishlari ham kuchayib bormoqda. Yer kurrasining 72% okeanlardan iborat, quruqlikning esa bir qancha qismida yashashga imkoniyat yo'q. U kabi muammolarga barham berish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategiyalar bilan birga olib borilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish o'rinlari yaratish kabi turli ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, shu bilan birga atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish va Iqlim o'zgarishlarini o'rganish zarurligi yashil iqtisodiyotning strategik maqsadiga aylandi[2].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 2008 yilda Yashil Iqtisodiyot Tashabbusini boshladi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi " barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish, barqaror rivojlanishga erishish" deya e'tirof etildi. BMT mutaxassislarining ta'kidlashicha, yashil iqtisodiyotga o'tishdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga "yashil investitsiyalar"ni yo'naltirishni rag'batlantirish hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotni mamlakatda keng tatbiq qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish samarali hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar miqyosida tahlil qilinadigan bo'lsa, "yashil" iqtisodiyotga bo'lgan ehtiyoj hajmi Janubiy Afrika 15%, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) yevropa mamlakatlarida talab 28%, Yaponiya 2,5%, Meksikaning energiya talabi 112% ortishi kutilmoqda. Ushbu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi ro'y berganda boshqa muqobil resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. Misol uchun, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga "yashil" tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg'or va yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakat hukumati iqtisodiyot-ning barcha sohalarida "yashil" tamoyillarni joriy etish bo'yicha faol siyosat olib bormoqda. Bunda kichik biznes subyektlarining "yashil" iqtisodiyot sohasiga bo'lgan ehtiyojini muvofiqlashtirish bilan bir qatorda energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosiy va ustuvor yo'nalishlar bo'lib, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi siyosat darajasiga chiqarilgan [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'limi yashil iqtisodiyotning amaliy ta'rifini ishlab chiqdi, bu esa inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga

ekologik xavf va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradi. Yashil iqtisodiyot bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, ekologiyadagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishga va atrof – muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohaga investitsiyalar jalb qiladi va samarali foydalanishga yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini sharoitida «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirishga ob'yektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.

2. Abdurahmonova G.K., G'oiptazarov S.B. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari va ustuvorlik xususiyatlari// 2024-yil. –10-16 bet. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/955/970>

3. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik –T. “Universitet” 2020y. 31 bet.

UZBEKISTAN AND UN: INTERACTION ON ISSUES OF ECOLOGY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION

Toshturov Shukhrat Eshonkulovich

Associate Professor, Department of History, Navoiy state Pedagogical Institute, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the work carried out by the Republic of Uzbekistan in cooperation with the United Nations on Ecology, Environmental Protection and mitigation of the negative consequences of climate change.

Key words: United Nations (UN), Sustainable Development Goals (BRM), Paris Agreement, Kyoto Protocol, multi-disciplinary Trust Fund for Human Security, Global Green Growth Institute.

O'ZBEKISTON VA BMT: EKOLOGIK VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI BO'YICHA O'ZARO HAMKORLIK

Toshturov Shuxrat Eshonqulovich,

NavDPI Tarix kafedrasini dotsenti v.b., O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida BMT bilan hamkorlikda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), Parij kelishuvi, Kioto protokoli, Inson xavfsizligining ko'p ustunli trast fondi, Global yashil rivojlanish instituti.

УЗБЕКИСТАН И ООН: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ПО ВОПРОСАМ ЭКОЛОГИИ И ЗАЩИТЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Тоштуров Шухрат Эшонкулович

доцент кафедры Истории НавГПИ, Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируется работа, проводимая Республикой Узбекистан в сотрудничестве с ООН по экологии, охране окружающей среды и смягчению негативных последствий изменения климата.

Ключевые слова: Организация Объединенных Наций (ООН), Цели устойчивого развития (ЦУР), Парижское соглашение, Киотский протокол, многопрофильный целевой фонд по человеческой безопасности, Глобальный институт зеленого роста.

In the 21st century, climate change has become one of the global challenges. Globally, climate change phenomena such as global warming, ozone layer depletion, north polar ice melting, ocean level rise, seasonal precipitation fluctuations, water resource deficits, desertification are occurring. Realizing the essence of these global problems faced by mankind, May 15 is annually celebrated by the UN as international climate day. Realizing the global risks of climate change, the "Paris agreement" on climate change was signed on 12 December 2015. The Republic of Uzbekistan ratified the UN Convention on climate change on June 20, 1993, and the Kyoto Protocol in 1999. On April 19, 2017, Uzbekistan signed the Paris Agreement at the UN headquarters in New York. To sign the agreement, a document was presented to the UN Secretariat of the convention on climate change to reduce its national-scale contribution to greenhouse gas emissions. The deal was ratified on 3 October 2018. In the long term until 2030, the Republic of Uzbekistan intends to strengthen efforts to combat climate change – by 2030, the reduction of greenhouse gas comparison emissions by 35 percent per unit of gross domestic product compared to the level in 2010 (GDP)[1]. In the Republic of Uzbekistan, attention is paid to ecology and Environmental Protection, expansion of green spaces at the level of Public Policy. In particular, during 2019-2028, in the strategy for preserving biodiversity in the Republic of Uzbekistan, it was envisaged to bring the areas of protected natural areas from 7 to 12 percent today, while in the concept of development of the forestry system of Uzbekistan until 2030, the task of bringing the area of forest fund lands from today's 11.2 million hectares to 14 million hectares was aimed to be undertaken [2]. Climate changes and its consequences in Uzbekistan and adjacent territories can be attributed primarily to changes in agro-climatic and water resources. Changes in them are reflected in the deterioration of the properties of soils in the Republic, the slowdown in the growth and development of cultivated agricultural crops, and the ecological situation of the Aral Sea in particular, in the negative manifestations that occur in the Aral Sea. Regional changes in climate in the Republic are the impetus for an increase in extreme weather phenomena, namely periods of drought and an increase in summer highs, an example of these are the regime of formation of Water Resources, cases of land degradation [3]. The 76% latitude of the country's territories penetrates the desert region in the soil-climate zone system, increasing the risk of droughts, desertification and salinization in these areas, followed by severe heat, drought and water shortages, resulting in a decrease in crop productivity. One of the biggest problems in climate change conditions is soil salinity. As of 2012, 49 % of irrigated land in Uzbekistan corresponds to saline land areas, with the largest areas in the Republic of Karakalpakstan, Bukhara, Kashkadarya, Khorezm, Syrdarya, Jizzakh and Fergana regions [4]. 23.4 percent of the country's territory is high-altitude regions, and climate changes in these zones are associated with a high risk of frost strikes for fruit crops, a high risk of drought, the speed of snowfalls and an increase in the period of change leading to cases of erosion or flooding. Therefore, the fight against soil erosion in this region, increasing soil fertility is considered an important task. Uzbekistan has stood up from the UN General Assembly to promote international initiatives against climate change. In Particular, The President Of The Republic Of Uzbekistan Sh. Mirziyoev addressed the issues of ensuring security and stability in Central Asia, rational use of the region's total water reserves, elimination of the consequences associated with the drying up of the island sea in his speech at the 72nd session of the UN General Assembly in 2017 [5]. President Of Uzbekistan Sh.Mirziyoev called on the world community, including the countries of the Central Asia, to actively unite efforts on environmental issues, including international in eliminating the consequences associated with the drying up of the island sea. It should be noted that under the auspices of the UN, the 2015 multi-site Trust Fund for Human Security[6] was established. The foundation was supported by UN Secretary-General A. Guterrish who called for active funding of donors. Looking back on history, the water level of the Aral Sea peaked in 1911-1962 making up 53.4 meters, the volume of water -1064 cubic meters, water surface– 66,000 square kilometers and the mineralization rate was 10-11 grams in 1 meter of cubic Water [7]. The authoritarian principles of the planned economy in the former Soviet state were the main reason for the origin of the environmental recession in most regions of Central Asia. As a result, the available

layer of salt on the surface of the 3.5 million hectares of land is estimated around 1.5 billion tons . Every year, 100 million tons of sand and salt rise into the air and pose a serious threat to the ecology of the region, but also the world. Salt sand migration to the zone of economic activity is manifested due to desertification, along with the filling of the seabed with migratory sands [8]. In order to prevent these negative situations, 1.2 million hectares of forested land and green cover were created in the regions of Aral sea. The drier part of the island is 6 million hectares, of which 3.2 million hectares lie within Uzbekistan. During President Of Uzbekistan Sh. Mirziyoev's visit to the Republic of Karakalpakstan in November 2018, the task of planting saksovul in the dry area of the island was set out in the Moynok district. In the same year, saxaul, sugar cane, and other salt-resistant plants were planted on an area of 411 thousand hectares in the autumn-winter season[9]. An additional 1.7 million hectares of protected natural areas were created, and under the green Aral Sea program, "green belts" were erected on 742,000 hectares of land, consisting of green-covered forest, forests around the cities of Nukus, Urganch and Khiva. In the end of 2021, on 458 thousand hectares in the drier regions of the Aral Sea, in the regions of Khwarezm, Bukhara, Navoi, 148 thousand hectares of saksovul and other desert plants, seed and seedlings were planted, creating protective forests[10].

In order to mitigate the negative consequences of climate change, systematic work is being organized in Uzbekistan. In particular, on October 4, 2019, the decision of the president of Uzbekistan "on approval of the strategy of transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy for the period 2019-2030 "was adopted. In addition, in October 2020, the Committee on development of the Aral Sea region was established in the Senate of the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan. At the initiative of the Republic of Uzbekistan, at the 75th session of the UN General Assembly on May 18, 2021, a special resolution "on the declaration of the Aral sea region as a territory of environmental innovations and technologies" was adopted. After that, an interdepartmental Commission on the implementation of the tasks on the basis of the decision of the president of the Republic of Uzbekistan "on measures to implement a special resolution " was established at the 75th session of the General Assembly of the United Nations on July 29, 2021 [11].

In addition, on September 21, 2021, the president of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoev commented at the 76th session of the UN General Assembly on the Prevention of a number of global and regional problems and their consequences. In addition, in order to receive one of the meetings of the future Biodiversity Convention in Uzbekistan, to discuss in detail the priorities of global environmental policy under the auspices of the UN, he proposed to hold the 2023 UN High-Level 6th Assembly in Uzbekistan, and promoted the initiative to develop a World Environmental Charter aimed at tackle these issues. The opening of the Office of the Institute of Global green growth in Uzbekistan (GGGI) also provides he introduction of modern scientific achievements in this regard. It is estimated that more than 100 million tons of hydrocarbons are released into the atmosphere each year. Scientists believe that the negative effects of forest fires are equal to 50% of the industrial emissions of carbonic acid entering the atmosphere, causing a "steamhouse phenomenon" on the ground. The global commitment to reducing methane emissions initiative was promoted at the 26th session of the UN's main climate change convention in Glasgow (Scotland) on 9 November 2021. Those who join the initiative express their agreement to make voluntary efforts to contribute to collective efforts to reduce global methane emissions by at least 30 percent from the 2020 level by 2030. Methane is the second most abundant substance in the atmosphere after carbon dioxide, and has a large effect on temperature rise. Methane retains 80 times more heat in the atmosphere than carbon dioxide. Today, about 120 countries have joined the initiative, which account for 70% of the world economy and half of methane emissions. Uzbekistan in turn contributes to international efforts to combat global warming by joining the initiative. On may 26, 2022, an event was held within the framework of the Uzbekistan international forum on poverty reduction to join Uzbekistan's global commitment to reduce methane emissions initiative[13]. Experts believe that by 2040, 33 countries around the world are faced with the problem of extreme water scarcity. Among these 33 countries, there are all Central Asian countries.

Uzbekistan is among them, of course. In Uzbekistan, the bulk of water, 84.2 percent, was spent on the irrigation system. Taking into account the fact that half of the population of Uzbekistan lives in villages, it is necessary to effectively use land and water resources in the process of deepening agricultural reforms, to introduce advanced technologies into the industry [14]. But, in the following years, the development of industries as well as small business and private entrepreneurship in this area also leads to excessive usage of water resources. Also, the development of urbanization inevitably assumes an increase in demand for clean drinking water from year to year. This made it a priority to introduce widespread use of water-saving irrigation technologies into the industry.

Therefore, Uzbekistan pays serious importance to ensuring the implementation of the national tasks set by the UN in the BRM on this issue. Foreign investments were attracted due to the strategic importance of the industry. Currently, large projects are being carried out with the participation of the investments of donors such as the World Bank, Asian Development Bank, Islamic Development Bank, Saudi Development Fund, OPEC Fund, Kuwait Fund, Eksimbank of the people's Republic of China, Japan, Switzerland, Germany and other countries, partner organizations and agencies. The total cost of the industry is about 1.5 billion. Investment funds equivalent to the US dollar were raised. According to the assessment of the World Bank, Asian Development Bank and other funds, Uzbekistan is a recognized leader in this regard in the region [15]. Looking at the numbers, Uzbekistan reached the 16th place in the world and the 1st place among the countries of Central Asia in terms of the scale of the introduction of water-saving technologies in relation to irrigated areas. Water-saving technologies have been introduced to 643 thousand hectares in the last five years [16].

In addition as part of this goal, measures to combat desertification, restore the eroded lands, including lands affected by desertification, drought and flooding, and achieve a neutral balance of soil erosions, 101.8 thousand hectares of land were re-used in 2020 alone. In the Republic, 640 km of irrigation networks were built, 114 km of collector networks were repaired, 884 irrigation wells were drilled, 90 pumping units were installed, and 1532 km of power transmission networks were pulled. In order to ensure the preservation, restoration and rational use of terrestrial and inland freshwater ecosystems, including forests, wetlands, mountains and arid lands, over the past three years, 1,742,000 hectares of forested land have been established. Cultural plantations of medicinal and food plants were established on 4,300 hectares in 2020 and 3,174 hectares in 2021. In 2020, a total of 5,800 tons of medicinal and food plant raw materials were prepared. New ixota groves were also established on 2,000 hectares in 2020 and 1.2,000 hectares in the first quarter of 2021, under contract by forest farms against wind erosion and sandblasting of water-based facilities on irrigated land under agriculture. During the years of independence, 1,220,000 hectares of forests were created in Uzbekistan, of which more than 400,000 hectares were built in the territory of the Aral sea [17]. 5 protected natural areas have been established in the country ("south Ustyurt" National Natural Park, Khorezm National Natural Park, "Sudoche-Akpetki" State Reserve, "Saigachiy" complex (landscape) Reserve and Ugom-Chotqol state biosphere reserve) with a total area of 2,420,586.3 hectares during 2016-2021. Climate change manifests several negative consequences in a number of all countries of the world as well as in Uzbekistan. Since the last few years, there has been a decrease in available water resources in different regions of the Republic as a result of an increase in the volume of water evaporation due to an increase in air temperature, during the rainy season, a decrease in soil moisture as a result of very low precipitation, drought, a decrease in productivity. To overcome these problems, it is advisable to carry out a wide study of international experience, increase the use of renewable energy sources in relation to fossil fuels, accelerate greening work, in particular,

Increasing the planting of trees resistant to waterlessness in desert areas, establishing forest farms around large cities, moving to environmentally friendly vehicles, promoting the cultivation of natural agricultural products are also necessary.

Bibliography

1. ГаффоровХ. Иқлим ўзгаришининг олдини олишучун нималар қилиш керак? // <https://xs.uz/uzkr/post/iqlim-ozgarishining-oldini-olish-uchun-nimalar-qilish-kerak> (15.05.2020)
2. Хўжаева М. Сохта рақамлардан холи реал натижаларга эришиш керак // Халқ сўзи, 2022 йил 18 май. №102 (8164) –Б.4.
3. Иқлим ўзгаришлари тўғрисидаги БМТнинг Ҳадли Конвенцияси бўйича Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Миллий ахбороти, 1999.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 75-сессиясида сўзлаган нутқини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб қилиш бўйича ўқув қўлланма [Матн] –Т.: “Маънавият”, 2021. –Б.196-201.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. 2017 йил, 20 сентябрь.
6. UN Multi-Partner Human Security Trust fund for the Aral Sea region in Uzbekistan Terms of Reference. Tashkent. United Nations Office in Uzbekistan. 2019. P. 56
7. Орифхўжаев С. Ўзбекистон табиати: муаммо ва ечимлар // Жамият ва бошқарув, - Тошкент, 2000. №2. -Б. 71.
8. Гафурова Л.А., Абдурахманов Т.А., ЖабборовЗ.А., Саидова М.Э. Тупроқлар деградацияси. –Т.: 2012. –Б.218.
9. Улуғмуродов Д. Оролбўйи худуди: армонга айланган тўлқинлар // Халқ сўзи, 2022 йил 21 январь. №14 (8076) –Б.2.
10. Қоржовов А. Оролбўйи: инновация ва технологиялар худудининг янги даври // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 18 февраль. № 36 (558) -Б.1-4.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 июлдаги “Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2021 йил 18 майдаги 75-сессиясида «Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар худуди деб эълон қилиш тўғрисида»ги махсус резолюциясини амалга ошириш чоралари тўғрисида”ги Қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.07.2021 й., 07/21/5202/0726-сон.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 76-сессиясидаги нутқи // Янги Ўзбекистон. 2021 йил 22-сентябрь. № 189 (445), -Б.1.
13. Ўзбекистон Метан эмиссиясини камайтириш бўйича глобал мажбурият тўғрисидаги ташаббусга қўшилди // <https://telegra.ph/Ozbekiston-metan-chiqindilarini-kamaytirish-boyicha-global-majburiyatga-qoshildi-05-26> (26.05.2022)
14. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -Б. 21.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола [Матн]. – Т.: “Маънавият”, 2017, -Б.98.
16. Бозоров Ф. Сув ресурслари келажак учун // Халқ сўзи, 2022 йил 19 май. №103 (8165) –Б.1-3.
17. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. –Б.54

YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH DAVR TALABI

**Usmonova Bahora Komiljon qizi,
E va AMM kafedrasi assistenti, JizPI, Jizzax
Mizomov Jahongir Ikromjon o‘g‘li, talaba, JizPI, Jizzax**

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni yoritilib o'tilgan. Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimini maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy ta'lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida ham davom ettirish zarurligi, tabiatni asrash va ekologiya masalasi davlat siyosati darajasigacha olib chiqilganligi, ta'lim muassasalarida yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berib borilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. ekologik madaniyat, ekologik mas'uliyat, ekologik irodaviylik.

Аннотация. В данной статье освещается роль экологического образования в формировании экологической культуры у молодежи. Необходимо продолжить систему экологического образования и обучения в дошкольных образовательных учреждениях, общеобразовательных школах, а на следующих этапах образования вопрос охраны природы и экологии выведен на уровень государственной политики, экологического образования. для молодежи в образовательных учреждениях упоминается образование.

Ключевые слова. экологическая культура, экологическая ответственность, экологическая добровольность.

Annotation. This article highlights the role of ecologist education in the formation of ecologist culture among young people. It was mentioned that the ecology education and training system should be continued in pre-school educational institutions, general education schools, and at the next educational levels, that the issue of nature and ecology has been brought to the level of state policy, and ecologist education is given to young people in educational institutions.

Key words. ecologist culture, ecologist responsibility, ecologist willpower.

Bugun butun dunyoda ekologik muammolar avj olib, insoniyat hayotiga, salomatligiga katta zarar yetkazmoqda. Dunyo davlatlari ekologik muammolarni bartaraf etish borasida qator sa'yi-harakatlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ekologiya sohasidagi qator muammolarning oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi.

Inson faoliyatining natijasida atrof-muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfsizlik klassifikatsiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi. Bu xavflardan ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi, iqlimning o'zgarishi, cho'llanish, toza ichimlik suvi tanqisligi, Orol dengizi muammosi, hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining qisharib borishi, o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi, yer degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir. Ekologik fojialarning bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rin tutadi.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini:

1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;

2) ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq.

Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlari, oliygo'hlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishda quyidagi usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ✓ yoshlar ishtirokida ekologiyaga oid mavzularda seminar treninglar tashkil etish;
- ✓ eko bog'lar barpo etish, ekologik hasharlar va aksiyalar o'tkazishga yoshlarni keng jalb qilish;
- ✓ ekologik mavzularda tanlovlari tashkil etish;
- ✓ ekologik adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish;
- ✓ talabalarning ilmiy konferensiyalarini tashkil etish va ijtimoiy reklamalarni ko'paytirish;
- ✓ ekomarafon va boshqa turli sport o'yinlarini o'tkazish;
- ✓ bog'cha va maktablarda ekologik to'garaklar tashkil etish;
- ✓ ekologik sayohatlar uyushtirish;

Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodning ekologik madaniyati, dunyoqarashi, bilim va mas'uliyatini oshirib borish bilan bog'liq ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etish, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va maxsus dasturlarni muntazam ravishda efirga uzatish.

Xulosa o'rnida shuni ayto'lamanki, ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksizligini ta'minlash yosh avlodning ekologik madaniyatli bo'lib tarbiya topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- tabiat uchun shaxsiy javobgarlik xususiyatlari va shaxsdagi yaratuvchanlik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi;
- inson qalbidagi ezgulik, saxovat, mehr-muruvvat fazilatlarini rivojlantiradi;
- yoshlarda ekologik muammolar yechimini izlab topish ko'nikma va malakalarini oshiradi;
- yoshlarda ona tabiatni sevish, ardoqlash, undan g'ururlanish ruhi paydo bo'ladi;
- yoshlarda suvdan oqilona foydalansih va uni isrof qilmaslik tushunchalari rivojlanadi;
- yoshlarda ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan burch, vijdon, odamiylik xususiyatlarini mustahkamlaydi;
- yoshlarni kuzatuvchanlik, atrof-muhit go'zalligini anglash bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi;
- o'simliklar, hayvonlar tabiatning bir qismi, inson tabiat go'zalligi bilan bog'liq ekanligi, uni asrab-avaylash zarurligini tushunib yetadi;
- yoshlar XXI asr sivilizatsiyasi darajasiga va tabiatga xavf tug'diruvchi kuchli antropogen ta'sirlarga bardosh beruvchi, yangicha odob va axloqqa asoslangan ekologik dunyoqarashga ega bo'ladi;
- O'zbekistonning tabiiy boyliklari: o'simliklari, hayvonot olami, qo'riqxonalar va nodir landshaftlar, tabiat yodgorliklarini, yer, suv, havosini muhofaza qilish bo'yicha qonunlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi qaror topadi;
- energiya va resurs tejoychi texnologiyalar hamda muqobil energiya manbalari xususida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmatqulov I.X. Ekologik madaniyat – salomatlik garovi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. February 2022
2. To‘xtayev A. Ekologiya-Toshkent: O‘qituvchi, 1988
3. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish-Toshkent: O‘qituvchi-1996
4. www.oriens.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.uznature.net

IQLIM O‘ZGARISHIGA MOSLASHISH VA MAMLAKATNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONINI TEZLASHTIRISH

**Usmonova Bahora Komiljon qizi,
E va AMM kafedrasi assistenti, JizPI, Jizzax
Safarova Sarvara Azim qizi, talaba, JizPI, Jizzax**

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishi butun odamzod oldida turgan eng katta muammo ekanligi, hamda insonlar hayotiga salbiy ta’sir etayotganligi yoritilgan. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash imkonini berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. iqlim, globalashuv, yashil iqtisodiyot, qashshoqlik, global inqiroz

Аннотация. В этой статье объясняется, что изменение климата является самой большой проблемой, стоящей перед всем человечеством, и оказывает негативное влияние на жизнь людей. Сообщается, что переход к «зеленой экономике» позволяет эффективно использовать ресурсы, обеспечить экологический баланс, создать новые рабочие места и обеспечить устойчивый экономический рост.

Ключевые слова. климат, глобализация, зеленая экономика, бедность, глобальный кризис.

Annotation. In this article, it is explained that climate change is the biggest problem facing all mankind, and it has a negative impact on people's lives. It is reported that the transition to the "green economy" allows for effective use of resources, ensuring ecological balance, creating new jobs, and ensuring sustainable economic growth.

Key words. climate, globalization, green economy, poverty, global crisis

Bugungi kunda sayyoramizda iqlim o‘zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda. Nima sababga ko‘ra iqlim bunchalik injiq bo‘lib qoldi? Bu holatni o‘zgartirish uchun biz nima qilishimiz lozim? Bizni kelajakda nimalar kutmoqda? Ushbu maqolada barchani qiynayotgan savollarga javob beramiz.

Global isish bilan bir qatorda, iqlim o‘zgarishi muammosi qatoriga yog‘ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida quruqchilik bo‘lishi, gohida esa birdan yog‘ingarchiliklar ko‘payib hududlarni suv bosishi ham kiradi.

So‘nggi yillarda ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapitalning tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik

kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Global inqirozlarning barchasi ish o'rinlari qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik kabi, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Dunyoning bugungi qiyofasi, tiklab bo'lmaz ekologik falokatlar va atrof-muhitga yetkazilayotgan ulkan zararlar "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurligini taqozo etadi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, jahondagi yetakchi mamlakatlar allaqachon yashil iqtisodiyotga o'tish ishlarini boshlab yuborganligini ko'rishimiz mumkin. Ular yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni o'rnini bosa olmasligini balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi yo'l ekanligini allaqachon anglab yetishgan.

Atmosferadagi karbonat angidrid konsentratsiyasining oshayotgani uchun aynan inson javobgar deya ta'kidlash mumkinmi? Albatta, sanoat issiqxona gazlari tarqalishining ulushini aniqlash uchun radioaktiv nurlanishdan foydalanilgan tadqiqotlar kabi ishonchli dalillar mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ortiqcha gaz inson faoliyatining natijasidir. Karbonat angidrid darajasi har doim tabiiy ravishda ko'tarilgan va tushib ketgan, ammo bu o'zgarishlar minglab yillar davom etgan. Geologlarning ta'kidlashicha, odamlar iqtisodiy faoliyat davomida karbonat angidridni atmosferaga tabiatdan ko'ra ko'proq intensiv ravishda chiqaradi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi.

Insoniyat kelgusi o'n yillikda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi.

Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o'zaro bog'liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo'lmazligi, shuningdek, an'anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta'minlay olmasligi ta'kidlanadi.

Prezidentning 2019-yil 4-oktabrdagi qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida esa Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi belgilangan .

Ushbu strategiyada yuqorida ko'rsatilgan "yashil" o'sish indeksi bo'yicha mamlakatimizning past ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish belgilangan:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur strategiya doirasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, "Yashil" o'sish indeksidagi mamlakatning o'rni sezilarli yaxshilanishi hamda global "yashil" ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida "Yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Barqaror

rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o'z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo'lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo'lishlari lozimligida namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda inson farovonligini oshirish, resurslarni saqlash va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga duchor qilmaslikni ta'minlaydigan iqtisodiy modelga o'tish zarurati dolzarbdir. Biz iqtisodiy farovonlikka va kelajak avlodni iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, ekologik xavflarga qo'ymaslikka faqatgina birdamlikda erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Environment Programme (UNEP) 2016-yil 27-martda asl nusxadan [arxivlangan](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
3. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. 1 ST/ESA/333.
4. www.ziyonet.uz

EKOLOGIYA VA IQLIM O'ZGARISHLARI MUAMMOSINI YECHISHDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYANING AHAMIYATI

Meliqulova Guldasta Sobirjon qizi
Jizzax politexnika instituti talabasi
Soliyeva Mashxura Ixtiyor qizi Jizzax politexnika instituti talabasi
Xalquziyeva Moxira Asatullayevna b.f.f.d.(PhD),
Jizzax politexnika instituti talabasi dotsenti.

Annotasiya. Ushbu maqolada Ekologiya va iqlim o'zgarishlari muammosini yechishda qayta tiklanadigan energiyalardan hozirgi kunda foydalanish qayta tiklanadigan energiya global elektr ta'minoti tizimida foydalanish darajasi oshishi, ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: elektr, issiqlik, gidrotexnika, yoqilg'i, quyosh, shamol, daraja, global, bioenergiya.

Аннотация. В данной статье представлена информация о важности увеличения использования возобновляемых источников энергии в глобальной системе электроснабжения и использования возобновляемых источников энергии в решении проблем экологии и изменения климата.

Ключевые слова: электроэнергия, тепло, гидротехника, топливо, солнечная, ветровая, уровень, глобальная, биоэнергетика.

Annotation. This article provides information on the importance of increasing the use of renewable energy in the global electricity supply system and the use of renewable energy in solving the problems of ecology and climate change.

Key words: electricity, heat, hydraulic engineering, fuel, solar, wind, level, global, bioenergy.

Qayta tiklanadigan energiya shamol, to'lqin yoki quyosh nuri kabi qayta tiklanadigan manbalardan olinganligi sababli elektr energiya atrof-muhitni ifloslantiradigan va tugaydigan qazilma yoqilg'ilarga muqobildir.

Toza energiya manbalari keng tarqalgan bo'lib, dunyoga ta'siri aniq bo'ladi. Qayta tiklanadigan energiya issiqxona gazlarini kamaytiradi va iqlimni himoya qiladi, biologik xilmaxlilikka ijobiy ta'sir qiladi. Shunga qaramay, u atrof-muhitga foyda keltirsa-da, tabiat muvozanatiga zarar etkazadi.

Qayta tiklanadigan energiyalar cheksiz ta'minotni ta'minlaydi. Cheklangan va atrof-muhitning buzilishiga hissa qo'shadigan qazib olinadigan yoqilg'idan farqli o'laroq, qayta tiklanadigan energiya tabiatda mavjud bo'lgan resurslardan foydalanadi. Bularga quyosh, shamol, gidroenergetika, geotermal va bioenergiya kirib, barqaror alternativlardan foydalanish issiqxona

gazlari chiqindilarini kamaytirish, iqlim o'zgarishini yumshatish va kelajak avlodlar uchun toza va sog'lom sayyora yaratishi mumkinligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda qurilayotgan zamonaviy uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali Respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilinmoqda, Issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish hamda energiyani tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish lozimligini, mavjud resurslardan oqilona foydalana olishimizga bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Butun dunyo noan'anaviy energiya turlaridan foydalanishga kata e'tibor qaratmoqda. Quyosh energetikasidan binolarni issiqlik ta'minoti tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo'la olishi va energetika infratuzilmasiga jalb qilinadigan investisiyalarni qoplashdagi sifat va ishonchli muammolarni hal qilishi mumkin. Uzoqda joylashgan va kam energiya talab qiladigan ob'ektlarni energiya bilan ta'minlashda quyosh energetikasi juda qulay.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish barqaror hayot va tabiiy muvozanatni saqlash uchun keng tarqalgan. Umuman, elektr va issiqlik energiyasi olinadi. Olingan barcha energiya turlari bir-biriga aylanadi. Bu elektron qurilmalarni va har qanday mashinalarni ishlatishga imkon beradi. To'g'ri metodlarni qo'llash bilan optimallashtirish oson va atrof-muhitga salbiy ta'sir kamaytiriladi. Bu mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng katta omillaridan biri. Qazilma yoqilg'idan foydalanilganda atrof-muhitga zarar yetkaziladi. Bu ichki resurslarni rivojlantirish va tashqi qaramlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro shartnomalar va yangi ish joylariga rioya qilishni ta'minlaydi. Biroq har bir hudud uchun mavjud bo'lgan energiya resurslari cheklangan. Go'yoki energiyasida shamol energetikasida kuchli shamol va gidrotermal energiya uchun issiq suv zahiralari bo'lgan joylar mavjud bo'lgan hududlardan ichki dengizlar emas, okeanlardan yuqori hosil olinadi.

Dunyo miqyosida qayta tiklangan tahlil energiya manbalari hisobiga qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash tendentsiyalarini yaratish. Qator mamlakatlarda qayta tiklangan hisob energiya manbalaridan foydalanilishiga sohadagi erishilgan ishlab chiqildi.

2011-yildan 2021-yilgacha qayta tiklanadigan energiya global elektr ta'minoti tizimida 20 % dan 28 % gacha o'sdi. Qazilma energiya 68 % dan 62 % gacha, yadroviy energiya esa 12 % dan 10 % gacha qisqardi. Hidroenergetikaning ulushi 16 % dan 15 % gacha kamaydi, quyosh va shamol energiyasi esa 2 % dan 10 % gacha oshdi. Biomassa va geotermal energiya 2 % dan 3 % gacha o'sdi. 135 ta davlatda 3146 gigawattlar o'rnatilgan bo'lsa, 156 ta davlat qayta tiklanadigan energiya sohasini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqqan.

Energiyani tanlash issiqxona gazlari chiqindilariga, suv resurslarini taqsimlashga ta'sir qiluvchi global ta'sirga ega, uskunalarni ishlab chiqarish va tashish. Bu yangilanadigan energiya texnologiyalari ko'plab hozirgi energiya manbalariga qaraganda ancha barqaror. Tekshirish uchun bir ehtiyoj bor qayta tiklanadigan energiyaning barqarorligi, uni resurslardan foydalanishni optimallashtirish, texno-iqtisodiy osonlik bilan amalga oshirish mumkin texnik-iqtisodiy va xarajatlarni tahlil qilish, hayot aylanishini baholash, atrof-muhit tashqi ta'sirini tahlil qilish, iqtisodiy foyda tahlili, ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish, tadqiqot va ishlab chiqish maqsadlari va to'siqlarni aniqlash va suvga bo'lgan talablar va tarqatish tahlil qilishini kerak. Umuman olganda, qayta tiklanadigan energiya har bir jamoaga moslasha olmaydi.

2011-yilda Xalqaro energetika agentligi quyosh energiyasidan foydalanish uchun arzon, bitmas-tuganmas va toza texnologiyalarni ishlab chiqish uzoq muddatli katta foyda keltiradi. Bu mahalliy, bitmas-tuganmas va asosan importdan mustaqil resursga tayanish orqali mamlakatlarning energiya xavfsizligini oshiradi. barqarorlikni oshirish, ifloslanishni kamaytirish, iqlim o'zgarishini yumshatish xarajatlarini kamaytirish va qazib olinadigan yoqilg'i narxlarini boshqasidan pastroq saqlash. Bu afzalliklar globaldir. Shuning uchun erta foydalanish uchun rag'batlantirishning qo'shimcha xarajatlari o'rganish sarmoyalari sifatida ko'rib chiqilishi kerak; ularni oqilona sarflash va keng tarqatish kerak".

Quyosh energiyasi yiliga 505 GVt ni tashkil qiladi, bu dunyodagi elektr energiyasining taxminan 2% ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasidan quyosh nuri tushadigan har qanday joyda foydalanish mumkin; Biroq, elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan quyosh energiyasi miqdori ob-havo sharoiti, geografik joylashuv va kun vaqtiga ta'sir qiladi.

Qayta tiklanadigan energiya sayyoramizning barqaror va farovon kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular iqlim o'zgarishi, energiya xavfsizligi va iqtisodiy o'sish kabi ko'plab imtiyozlarni taklif qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining keng qo'llanilishi innovatsiyalarni, ish o'rinlarini va rivojlanayotgan yashil sektorlarda iqtisodiy o'sishni ra'batlantiradi. Biz ushbu yangi energiya manbasini qabul qilish orqali ekologik xavflarni yumshata olamiz va barcha uchun yanada barqaror, bardoshli va adolatli dunyoni ta'minlay olamiz.

Qayta tiklanadigan energiya tugamaydi, kamroq texnik talablarga ega, qayta tiklanadigan manbalar pulni tejaydi, ko'plab ekologik afzalliklarga ega manbalar xorijiy energiya manbalariga bog'liqlikni kamaytiradi, toza suv va havoga olib keladi. Qayta tiklanadigan energiya ish o'rinlarini yaratadi, chiqindilarni kamaytirishi mumkin. Ammo qayta tiklanadigan energiya yuqori dastlabki xarajatlarga ega. Qayta tiklanadigan energiya vaqti-vaqti bilan. Qayta tiklanadigan manbalar cheklangan saqlash imkoniyatlariga ega, energiya manbalari geografik cheklovlarga ega bo'lib, u har doim ham 100% uglerodsiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2022 yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturi to'g'risidagi»gi qaror Toshkent shahri, 2017 yil 20 aprel.

2. Boboqulov J., Xayrullayev O., Ramazanov B. Qayta tiklanadigan energiya manbalari //Golden brain ISSN: 2181-4120 Volume 1 | ISSUE 17| 2023

3. Matniyazov B.I., Aliyev M. R. Davurbayev D. B. //O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning mavjud imkoniyatlari. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2023 / Volume 4 Issue 6

4. Usmonov SH. A., Omonqulov O. X., Taniberdiyev Sh.X. Issiqlik bilan ta'minlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish //Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnaliissn: 2181-3469 Jild:02Nashr:042023yil.

5. Philibert, Sedrik (2011).Quyosh energiyasi istiqbollari. Xalqaro energetika agentligi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Parij: OECD/IEA.ISBN 978-92-64-12458-5. OCLC 778434303

6. Qodirov Alibek Hamroyevich, Ahmedov Munisbek Muhammad o'g'li, & Xudoyberganova Sevinch Mahmudovna. (2023). QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA ULARNING KELAJAK UCHUN AHAMIYATI. *Universal Science Research jurnali* , 1 (6), 287–292. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/1186> dan olindi yil.

7. "Qayta tiklanadigan energiya" . Iqlim va energiya yechimlari markazi . 27 oktyabr 2021 yil. Asl nusxadan arxivlangan 2021 yil 18 noyabr . 2021-yil 22-noyabrda olindi

8. REN21. „Renewables 2022 - Global Status Report“. № renewable energies. 44-bet. Qaraldi: 5 September 2022.↑ [REN21 Renewables Global Status Report 2021](https://www.ren21.net/global-status-report-2022/)

9.<https://byjus.com/physics/renewable-energy/>

10.<https://www.ekoloji.com/uz/ekoloji/yenilenebilir-enerji-ve-ekoloji/>

EKOLOGIYANI O'RGANISH

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti
“Biologiya” kafedrası o'qituvchi
Xamroyeva Madina Dadajonovna
xamroyeva@gmail.ru

Annotasiya. Ekologiyani o'rganishdan maqsad yurtimizdagi, balki butun dunyodagi iqlimni ekologik xilma xillikni va ekologik sharoitlarni o'rganishdir.

Аннотация: Целью изучения экологии является изучение климата, экологического разнообразия и экологических условий нашей страны, но и всего мира.

Abstract: The purpose of studying ecology is to study the climate, ecological diversity and ecological conditions of our country, but also of the whole world.

Kalit so'zlar: Bioekologiya, Biologik ekologiyaning bo'limlari, Umumiy ekologiya, O'simliklar ekologiyasini o'rganish metodlari, O'simliklar ekologiyasi va atrof-muhitni muhofaza qilish.

Ключевые слова: Биоэкология, Кафедры биологической экологии, Общая экология, Методы изучения экологии растений, Экология растений и охрана окружающей среды.

Key words: Bioecology, Departments of biological ecology, General ecology, Methods of studying plant ecology, Plant ecology and environmental protection.

Bioekologiya atamasi 1927-yilda Uolter Teylor tomonidan ikkita kichik sohaning integratsiyasini ta'kidlash uchun kiritilgan: o'simliklar ekologiyasi va hayvonlar ekologiyasi. Atrof-muhit g'oyalarini rivojlantirishga amerikalik olimlar Viktor Shelford va Frederik Klementsning 1939-yilda nashr etilgan "Bioekologiya" kitobi katta hissa qo'shgan. Xuddi shu kitobda katta geografik hududni tavsiflovchi hayvonlar aholisi bo'lgan ustun o'simliklar uchun biom tushunchasi taklif qilingan.

Bioekologiya bo'limlari:

Ekologik tizimlarning tashkil etilganlik darajasiga va o'rganilayotgan tizimli guruhlariga ko'ra, biologik ekologiyaga bo'linadi :

- Ayrim sistematik guruhlarning ekologiyasi
- O'simliklar ekologiyasi
- Hayvonlar ekologiyasi
- Qo'ziqorinlarning ekologiyasi
-
- Mikroorganizmlar ekologiyasi
- Inson ekologiyasi
- Turli darajadagi biotizimlar ekologiyasi
- Autekologiya atrof-muhit sharoitlari bilan individual tirik organizmlarni o'rganadi.

Asosiy vazifa organizmlarning mavjud muhit sharoitlariga moslashish yo'llarini o'rganishdir.

▪ Populyatsiya ekologiyasi populyatsiyalarni bitta yashash muhitida yashovchi bir xil turdagi shaxslarning bir xil guruhi sifatida o'rganadi .

▪ Sinekologiya ko'p turli organizmlar jamoalarini biotsenozning bir qismi sifatida o'rganadi .

▪ Biogeotsenologiya ekologik tizimlarni o'rganadi .

Ushbu sohalarining har birini batafsilroq bo'lish mumkin. Masalan, bioekologiyaning bo'limlarini sistematik guruhlariga ajratish doirasida suvo'tlar ekologiyasi, hasharotlar ekologiyasi va qushlar ekologiyasi ajratiladi . Bioekologiya va geokimyo kesishmasida biosfera (biosfera ekologiyasi) haqidagi ta'limot paydo bo'ldi, u bioekologiya doirasida yoki alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi . Ba'zi mualliflar inson ekologiyasini bioekologiya doirasidan tashqariga qo'yadi. Bioekologiyaning mustaqil sohasi evolyutsiya ekologiyasi hisoblanadi, u evolyutsiyada ekologik omillarning rolini o'rganadi.

O'simliklar ekologiyasi ekologiyaning o'simlik organizmlari o'rtasidagi, shuningdek o'simliklar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limidir .

❖ Namlik

Ruxsat etilgan substratga biriktirilgan yuqori yer usti o'simliklari hayvonlarga qaraganda ko'proq atrof-muhit namligi darajasiga bog'liq . Namlik va suv rejimiga moslashish usullari bilan

bog'liq holda, tashqi ko'rinishida ham, ichki tuzilishida ham sezilarli darajada farq qiluvchi o'simliklarning quyidagi asosiy guruhlari ajralib turadi:

- gidrofitlar ,
 - gigrofitlar ,
 - mezofitlar ,
 - kserofitlar ,
 - kriyofitlar ,
 - psixofitlar .
- ❖ Yoritish

Hayotining asosi fotosintez bo'lgan o'simliklar uchun yorug'lik darajasi rivojlanishning muhim omilidir. To'liq rivojlanish uchun zarur bo'lgan yorug'lik miqdori bo'yicha o'simlik organizmlarining quyidagi ekologik guruhlari ajratiladi:

- geliofitlar (yorug'likni yaxshi ko'radiganlar),
 - siyafitlar (soyani yaxshi ko'radiganlar),
 - ssioheliofitlar (soyaga chidamli).
Dars davomida pedagog ingliz tili mashg'ulotlariga o'quvchilarni qiziqtirish olishi, bu fanga nisbatan muhabbat uyg'ota bilishi lozim, ya'ni ta'limni o'quvchilar psixologiyasidan kelib chiqqan holda olib borishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin faoliyati bu yosh davrida bir qancha yuqori bo'ladi, shuni inobatga olgan holda pedagog darsni o'yin orqali o'quvchilar ongiga singdirishi, qalbiga yo'l topishi shart. O'qituvchi bolaning idealiga aylana olsagina, u o'z maqsadini amalga oshirishi mumkin. Bolani ta'limga qiziqtirish ham o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qiladi.

Kichik yoshli o'quvchilarga ingliz tili darslarini o'tishda o'quv vositalarining turlicha ranglar bilan bezatilganligi, sinfxona jihozlarining o'quvchilar diqqatini jalb qila olishi, bolalarni qiziqtirishiga ham alohida e'tibor beriladi. Dars topshiriqlarini qo'shiqlar, harakatli o'yinlar shaklida olib borish o'rganilgan bilimlarning samaradorligini oshiradi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin. Har bir o'qituvchi ingliz tili alifbosini o'rgatayotganda bevosita uning qo'shiq tarzda tayyorlangan variantini o'rgatsa, bu ham o'quvchilarni qiziqtiradi, ham jamoaviy bo'lib

ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli qiyinchiliklarning oldini oladi. Ingliz alifbosini oddiy usulda aytgandan ko'ra qo'shiq tarzda o'rgatish bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.



Har bir darsda kichik audio materiallardan foydalanish mumkin. Masalan, o'qituvchi "Of the year seasons" (Yil fasllari) mavzusini o'tganda o'quvchilar bilan speaking (gapirish) usulini qo'llasa bo'ladi. Buning uchun oddiy savollar berib, o'quvchilarni darsga jalb qiladi. Misol uchun, "Do you like seasons?" (Siz fasllarni yoqtirasizmi?), "Can you tell me four seasons?" (Siz menga to'rtta faslni ayta olasizmi?), "Which season do you like best?" (Eng yoqtirgan faslingiz qaysi?). Mavzuni o'tish davomida o'qituvchi fasllar haqidagi ushbu qo'shiqni bolalar bilan birgalikda kuylaydi.



Dars davomida o'qituvchi barcha bolalar bilan samimiy va adolatli muomalada bo'lish ularning fikrlarini hurmat qilishi munosabatlarning yanada mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Harakatlar orqali bajariladigan mashqlarga esa, tana a'zolari haqidagi qo'shiqni o'rgatishimiz mumkin.



Bu kabi o'yinlar o'quvchilarni qo'shiqni kuylab, harakatlarni bajarishga undaydi. Kichik yoshli bolalarning barchasini o'ziga jalb qiladi. Pedagog ushbu o'yinni dars o'rtasida, dam olish daqiqasi sifatida qo'llaydi. Ingliz tiliga o'rgatishda xuddi shunday usullardan foydalanish juda ham samarali hisoblanadi.

Yurtimizdagi har bir islohot yoshlarimizning ertasini o'ylab, Vatanimiz tinchligini ko'zlab amalga oshiriladi. Yurtboshimiz yaratib berayotgan sharoitlardan foydalanib, sifatli ta'lim olish, ona diyorimizning har tomonlama o'sishiga hissamizni qo'shish – bizning bosh maqsadimiz. Farzandlarimizni zamon talablariga mos ravishda ma'nan boy, jismonan sog'lom, shijoatli qilib tarbiyalay olsak, yaqin yillarda ko'zlangan maqsadlarga birgalikda erishamiz. Uchinchi Renessansni, aynan, siz-u biz birgalikda yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning videoselektrda so'zlagan nutqi "Kun.uz" saytidan olindi.
 2. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" "Akademnashr" Toshkent-2019 (7-bet)
- Ў. I. A. Karimov "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ- 1875-son.

THE INCREASING ROLE OF THE TURKIC WORLD IN THE FIGHT AGAINST GLOBAL CLIMATE CHANGE

İsmaylzada Nihat İsa

International relations department of Baku Slavic University, Azerbaijan

Yaşıl dünya, Yaşıl enerji, Ətraf Mühit, İqlim Dəyişikliyi, Türk dövlətləri

Green world, Green energy, Environment, Climate Change, Turkic states

Зеленый мир, Зеленая энергетика, Окружающая среда, Изменение климата,

Тюркские государства

Nowadays, environmental problems have covered the whole world and become a global issue. In last decades, especially as a result of anthropogenic effects, our world has faced to global warming and climate change. As a consequence of the global effects of climate change, the Turkic states have reacted to this issue and have made joint efforts to solve the problem. Today, Turkic states are fighting against climate change, like many global problems, both at the national stage and within the framework of organizations.

Our planet is experiencing significant and accelerated climate change that began over a century ago [4]. In Today's World the causes of this climate change are increasingly well understood. Since the end of the last century, the countries of the world began to take joint measures to prevent global climate changes. As a result of the efforts carried out under the leadership of the United Nations in order to reduce the negative impact of humans on the climate system, the United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC) was signed in 1992. Also the Kyoto Protocol (KP) (1997), and the Paris Agreement (2015) are among the main directions in the fight against climate change. The Turkic states have expressed their position in the fight against climate change by supporting agreements within the framework of this global issue. As a result of this struggle, it can be considered as a logical continuation that the 29th session of the Conference of the Parties to the UN Framework Convention on Climate Change - COP29 will be held in Azerbaijan, a Turkic country, for the first time.

Azerbaijan is one of the countries with a leading role in the process of deepening cooperation between the Turkic states. Declaring 2024 as the "Year of Solidarity for the Green World" in the country by the Decree of the President of Azerbaijan and also declaring Karabakh, East Zangezur and Nakhchivan regions as "green energy zone" shows the importance of combating Climate Change in Azerbaijan [1]. Also, one of the five priorities to be realized in "Azerbaijan 2030: National Priorities for socio-economic development" approved by the Decree of the President of the Republic of Azerbaijan Ilham Aliyev dated February 2, 2021 is called "a clean environment and country of "green growth" " [6]. At the same time, Azerbaijan also contributes to the fight against global climate change within the framework of the Organization of Turkic States. The holding of the II Meeting of OTS Agriculture Ministers in Baku on September 16, 2023, and the declaration of the city of Guba as the agricultural capital of the institution at this event also show Azerbaijan's close connection with the organization. The participants of the meeting noted that the countries of the world are facing climate change, water and land resources reduction, high-level urbanization and other problems, the Turkic states should also be ready for these challenges, and by exchanging experience in the direction of applying new technologies and solutions, they should achieve increased productivity and sustainable development [3].

Organization of Turkic States has become a powerful globally recognized organization covering a large geography of nearly 170 million people. In addition to promoting dialogue and cooperation among its members, the Organization of Turkic States continuously increases its role at the international level by putting forward strategic concepts on a global scale in order to solve global challenges. In this direction, the organization forms joint projects and cooperation criteria that can help solve regional and global environmental problems.

The 8th Summit meeting of the heads of state of the member countries of the Cooperation Council of Turkic-Speaking States held in Istanbul on the theme "Green technologies and smart cities in the digital age" was remembered by the establishment of the "Turkic World Vision 2040 document" road map, along with the transformation of the Council into the Organization of Turkic States. This vision document outlines the organization's road map in the coming decades and also responds to global challenges. The special emphasis in this document on renewable energy sources, green energy and the fight against climate change shows the important role of the organization in the combating global climate change.

The Meetings of the Ministers in charge of Energy of the OTS have a special importance in terms of its commitment to the energy security architecture of the region covering the vast area from Central Asia to Europe. The OTS endeavors to focus on target-oriented multilateral energy projects involving all the Parties within the OTS, which can deliver concrete results. Moreover, the Turkic World Vision 2040 highlights the need to build strategic partnerships among the Member States through coordination of policies, collaboration for energy diversification and clean/green energy, particularly in the field of renewable energy [2]. The vision document takes a unique place in the global struggle by prioritizing environmental protection in the national and joint policies of

the member states, taking the necessary measures to increase societal awareness of this global challenge [7].

The Turkic World Meteorological Forum, the first of which was held in Ankara in 2021, aims to promote high-level cooperation among the members of the Organization of Turkic States in all areas, including environmental protection, especially in the last decade, taking into account the increases in the number of air-borne natural disasters that cause significant losses and damage all over the world. All countries participating in the Second Turkic World Meteorological Forum held in Baku in 2023 signed a joint declaration at the end of the Forum. The Joint Declaration included items such as strengthening efforts to establish the Meteorological Union of the Turkic World (MUTW) within the framework of the Organization of Turkic States, and establishing a working group for the preparation of future collaborations and strategic road map plan on meteorology, hydrology and other related issues [5].

The struggle of the Turkish states regarding global climate change is aimed at ensuring global security in the region and the world. The joint steps taken in this direction once again show the importance of the Turkic states and the Organization of Turkic States in the fight against global problems and emphasize that the OTS will play an important role in the world security system.

Xülasə

Son dövrlərdə dünyamızı təhdid edən qlobal problemlər sürətlə artmışdır. Bununla yanaşı, qlobal təhdidlərə qarşı mübarizə tədbirləri də görülür ki, son dövrlərdə Türk dünyası dünyada baş verən proseslərə reaksiya verərək qlobal problemlərin həlli istiqamətində fəal iştirak edir. İqlim Dəyişikliyi üzrə Çərçivə Konvensiyasının Tərəflər Konfransının 29-cu sessiyasının - COP29-un OTS-nın üzvü olan Azərbaycanda keçirilməsi qlobal iqlim dəyişikliyi ilə bağlı mübarizədə Türk dünyasının birgə səylərini daha da gücləndirəcəyi və dünya təhlükəsizlik sistemində rolunun artacağını göstərir.

Summary

Global problems threatening our world have increased rapidly recently. At the same time, measures are being taken to combat global threats, and in recent times, the Turkic world has been actively participating in the solution of global problems by reacting to the processes in the world. The holding of the 29th session of the Conference of the Parties to the Framework Convention on Climate Change - COP29 in Azerbaijan, which is a member of the OTS, shows that the joint efforts of the Turkic world in the fight against global climate change will be strengthened and its role in the world security system will increase.

Резюме

Глобальные проблемы, угрожающие нашему миру, в последнее время сильно обострились. В то же время принимаются меры по борьбе с глобальными угрозами, и в последнее время Тюркский мир активно участвует в решении глобальных проблем, реагируют на происходящие в мире процессы. Проведение 29-й сессии Конференции сторон Рамочной конвенции об изменении климата – COP29 в Азербайджане, являющемся членом OTS, показывает, что совместные усилия Тюркского мира в борьбе с глобальным изменением климата будут усилиться, а его роль в системе мировой безопасности укрепятся.

Literature:

1. Azərbaycanın uğurlu “yaşıl enerji” siyasəti 30.11.2023
https://azertag.az/xeber/azerbaycanin_ugurlu_yasil_enerji_siyaseti-2837513
2. Areas of Cooperation of Organization of Turkic States
<https://www.turkicstates.org/en/isbirligi-alanlari#11-energy-cooperation>
3. Bakıda Türk Dövlətləri Təşkilatının Kənd Təsərrüfatı Nazirlərinin II Toplantısı keçirilib 15.09.2023 <https://agro.gov.az/az/news/2609234>
4. Fighting climate change together. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018
5. İkinci Türk Dünyası Meteoroloji Forumu Gerçekleştirildi
<https://www.mgm.gov.tr/FILES/Haberler/2023/ikinci-turk-dunyasi.pdf>

6. Order of the President of the Republic of Azerbaijan on approval of “Azerbaijan 2030: National Priorities for Socio-Economic Development”. 02 February 2021

<https://president.az/en/articles/view/50474>

7. Turkic World Vision – 2040 <https://turkicstates.org/en>

THE RELEVANCE AND IMPORTANCE OF THE STEAM EDUCATION SYSTEM

**Ergasheva Mukhlisa Abdulla girl,
student of the 3rd stage of primary education
at Termiz State Pedagogical Institute**

Abstract: This article talks about the educational system, which is very important for today and is considered the main brain of tomorrow, its importance and the place of STEAM education, its benefits, and its impact on students.

Аннотация: В данной статье рассказывается об образовательной системе, которая очень важна сегодня и считается главным мозгом завтрашнего дня, ее важности и месте STEAM-образования, ее преимуществах и влиянии на учащихся.

Keywords: STEAM, education, innovation, integration, future, outlook, educational process, technology, etc.

Ключевые слова: STEAM, образование, инновации, интеграция, будущее, мировоззрение, образовательный процесс, технологии и т.д.

The STEAM education system is a part of the educational system that is developing day by day and is the only force that can cover the face of the world. provides. In STEAM education, attention is paid to the main idea of the goal set forward. They are looked at and thought about from all sides, social and political, the benefits and harms of inventions, experiments, and all the disasters that may be caused in the future. are approached differently. The main idea of STEAM education is to conduct education in an integrated way, to teach the ability to discuss and think critically, taking into account the connection of all areas of education, science and technology, development, and business areas.

- Taking risks thoughtfully
- Becoming a resilient, problem solver
- Engaging in meaningful educational activities
- Value cooperation
- Honoring and collaborating with the creative process

The role of the STEAM education system in the education of primary school students is also incomparable. to love and motivate him to do it sincerely. This new approach to education is the logical result of combining theory and practice. STEAM was developed in America. Some schools took into account the careers of their graduates and decided to integrate subjects such as science, technology, engineering and mathematics, and this is how the STEM system was formed. (Science, Technology, Engineering and Mathematics). Later, Art was added here, and now STEAM was finally formed. Teachers believe that knowledge of these subjects, or more precisely, these subjects, will help students become highly qualified specialists in the future. After all, children want to get good knowledge and immediately put it into practice.

STEAM technology is a different approach to education, it ensures that knowledge is carried out in a mutually proportional way, not separately, and creates a criterion for it. , STEAM included the following subjects:

- S-science (natural science)
- T-technology (technology)
- E-engineering (engineering work)
- A-art (art)

-
- M-mathematics (mathematics)

The following statements were made at the STEAM forward international conference held in Jerusalem in 2014:

- Engaging children in STEAM. This education should begin at preschool age, so programs should be included in kindergartens
- . The language of science is English. If you want to study science and become a scientist, you need to know this language.
- Steam educational programs for girls are needed. Girls in science can do things that boys can't because of their discipline.
- Science is fun! Science should be fun, it should be interesting and attractive for students.

In today's 21st century, there is no possibility of lagging behind, of not thinking, and of being limited. The young people being educated should be educated in all aspects. Zero, tomorrow is today, the young generations. It is the introduction of this educational system in Uzbekistan, which is intended from it. the goal is very big. Basically, as our president said, we need to direct young people to free thinking and independent life. In this regard, STEAM technology comes in handy.

In it, great attention is paid to the harmony of theoretical and practical knowledge. In the environment of STEAM education, children acquire knowledge, and they think about the need to apply the knowledge they have received in any situation, all the things they have learned do not just remain, they polish their skills, develops and matures. STEAM educational system training is organized in a very interesting and non-boring way. Children who are busy with activities do not get bored during the lesson and do not wait for time. Because they work in an active team and in an environment they love. The lesson or training will be more firmly established in the child's memory. In the process of working as a team, the place and time of the exchange of opinions and positive and negative opinions are also of particular importance.

In conclusion, we would like to emphasize that, compared to traditional teaching methods, the STEAM approach in high school allows children to conduct experiments, build models, independently create music and films, and turn their ideas into reality. and drives the creation of the final product. This educational approach allows children to effectively combine theory and practical skills and facilitates university entrance and further studies.

REFERENCES:

1. English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn"
<https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom>
2. A. Musurmonova, Kh. Ibragimova, "General pedagogy"
Tashkent.: Youth Publishing House, 2020.

TARBIYA FANINI O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR

NDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi Burhonova Shahrizoda
Ilmiy rahbar: Sharipova N.

Annotatsiya. Bu maqolada tarbiya fanini o'qitishda yangicha yondashuvlar to'g'risidagi masalalar yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, tarbiya fanini o'qitish jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir.

1. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yo

amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi. Xususiyatlari – ideal va tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, aniq qoida va bahslashuvning ahamiyatga egaligi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, “bolalarcha o'zboshimchalik”ni bartaraf qilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ma'noda bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarining shaxsiy ahamiyatli ma'nosini bilish, ularni motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o'zlashtirish sifatida qaraladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchining ma'lum javobi (so'z, xatti-harakat, amal)ni ko'zda tutadi.

2. Aksiologik yondashuv. Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi. Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa ijobiy tarzdagi ob'ektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaga ega: genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy; ijtimoiy-kosmik. tabiiy; sotsiumga doir.

Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarining barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror-mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Absolut umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: diniy-ma'naviy; barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi; ichki-axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongni tarkib toptirishga yordam beruvchi; vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi; intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi; dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi. Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: mafkuraviy va siyosiy qarashlar; huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi; fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi; hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli; moda, etiketga yo'nalganlik; kasbiy yo'nalishlar.

Barqaror mental-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi: yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o'ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari; an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati namunalari, obidalar, yodgorliklar; ta'limiy an'analar (ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari); oilaviy an'analar va munosabatlardagi o'ziga xosliklar; xalq hunarmandchiligi; milliy badiiy tasviriy san'at, musiqa, teatr, kinematografiya, she'riy ijod; diniy qarash va e'tiqoddagi o'ziga xoslik.

Absolut ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa quyidagilar kiradi: iroda erkinligi; mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik; qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik; adolatparvarlik; ziyraklik; g'amxo'rlik; go'zallik va ezgulikka ishonch; intizomlilik, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish; o'zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig'ini anglash.

3. Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirishi bilan bog'liq nazariyasi asosida kelib chiqqan. “Sinergetika” atamasini fanga German Xaken kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar,

komponentlardan tarkib topuvchi tizimlarni o'rganuvchi fan sifatida belgilagan. Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, axborot alg'ov-dalg'ovligi borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani tashxis qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion-qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining ma'naviy izlanishlari o'zini o'zi o'zgartirishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas. ***Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini nochiziqli harakat sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi.*** Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati – shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir. Tarbiyaga sinergetik qarash “portlash effekti”ning fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o'zaro ta'sir bifurkatsiya (tarmoq, “tanlov”) nuqtasidan uzoqda bo'lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyatida sof tashqi, miqdoriy o'zgarishlar yuz beradi. Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo'lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o'zaro ta'sir ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli-motivatsion sohasini keskin tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli tarbiya o'quvchi uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim. Sinergetik yondashuv pozitsiyasi bola shaxsi faolligi ichki potensialining alohida ahamiyatiga urg'u beradi. Pedagogik ta'sir bolalardagi tartibsiz ichki o'z-o'zini anglash jarayonlarini ziyraklik bilan e'tiborga olishi va hatto ularning tabiiy harakatlari va faolliklarining impulsiv portlashlari bilan ham moslasha olishi shart. Tarbiyaning har qanday haqiqiy vaziyati bola uchun yechimi o'rganilgan xulq-atvor qoidalari va xotirada saqlanilgan hayotiy ssenariylari yetarli bo'lmaydigan tanlov muammosi bilan aloqador bo'ladi. Shaxs o'zgarishining asosiy tendensiyalarini belgilab beruvchi bifurkatsiya nuqtasi bolashaxsining qadriyatlar sohi va uning axloqiy yo'l-yo'riqlaridapaydo bo'ladi.

4. Germenevtik yondashuv. Ushbu yondashuv asosida falsafiy germenevtika g'oyalari asosida qurilgan gumanitar hodisalarni tushunish va talqin qilish (interpretatsiya) nazariyasi yotadi. Germenevtika nuqtayi nazaridan, tarbiya – bu subyektning kechinmalari sifatida namoyon bo'luvchi psixik tajribalariga, uning “hayotiy olamiga” murojaat etish hisoblanadi. Bu fenomen, ya'ni psixik kechinma faqatgina refleksiya (o'zini o'zi tahlil qilish) orqali o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalarning asl holatini faqat o'zi boshidan kechirganlari va tushunganlari orqaligina anglaydi. Bu tarbiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham bir xil darajada taalluqlidir. Shu sababli bola kechinmalari – tarbiyachi faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi. Aynan kechinmalar (xulq-atvor reaksiyalari yoki aytilgan fikrlar emas) doimo katta inson va bola dialogi sifatida tashkil etiluvchi pedagogik o'zaro ta'sir vaziyatida paydo bo'lishi shart. Germenevtik tarbiyaviy amaliyot bolalar kechinmalari, ularning xotiralarini, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiladi. Bolalar yozgan she'rlar, esselari, avtobiografik qaydlari, kundalıkları, xatlari, ular tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar, chalingan kuylar, yaratilgan dasturiy vositalar tarbiyaviy jarayonning muhim vositalariga aylanadi. Bolalar verbal ijodiyotining ushbu mahsullari tarbiyachi tomonidan ijobiy qabul qilinishi lozim: ular tahlil qilinmasligi va baholanmasligi, balki o'z-o'zicha mavjud bo'lishga ruxsat etiluvchi, ulg'ayib borayotgan insonningshaxsiy qadriyati sifatida tan olinishi zarur. Bolani germenevtik qabul qilish tarbiyachining o'zining shaxsiy bolaliktajribalarini, o'z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralarini “yashab o'tishi”siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o'rtog'idek hamkorlik qiladi. Germenevtik ruhda tarbiyalashda bolani atrofdagi odamlar va o'zini o'zi tushunishga o'rgatishi lozim. Germenevtikada tushunish jarayoniga insoniy madaniyatning har qanday ko'rinishlarining ma'nosini fahmlay olish sifatida qaraladi. Germenevtikada “tarbiyalovchi tushunish”ning asosiy yo'nalishi tarbiyalanuvchining hayot ma'nosini anglash imkoniyatiga yo'naltirilgan. Bolaning har

qanday kechinmasi o'zida uning "ma'naviy haqiqatlarini" – hayot qadriyatlariga munosabatini aks ettiradi. Germenevtik yondashuv pozitsiyasida faoliyat olib boruvchi tarbiyachi har qanday yoshdagi bolalarning o'ziga xos hayotiy qadriyatlarini tan oladi. Ularni qaysidir yuksak idealga "moslashtirish" kerak emas. Bolalik hayoti tabiatining o'zi uning har bir lahzasini to'laqonli qadriyatlar bilan boyitadi, shu sababli tarbiya obektiv, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga ega bo'lishi mumkin emas. Tarbiya maqsadi tarbiyachining hayotda konkret bola individualligining namoyon bo'lishini tushunishi hodisasidapaydo bo'ladi.

5. Psixoterapevtik yondashuv. Zamonaviy pedagogikada ko'pincha tarbiyaga muammoli vaziyatga tushgan bolalarga yordam berish, ularni ma'nan sog'lomlashishga yo'llash sifatida qarashadi. Buning uchun bolaga tarbiyaviy ta'sirni ta'minlovchi va unga hissiy kechinmalarini tuzatishga yordam beruvchi, jismoniy va psixik zo'riqishni bartaraf qiluvchi va qo'rquv hamda tortinchoqlikdan xalos qiluvchi turli xil san'at turlari va badiiy faoliyat vositalaridan foydalaniladi. Pedagogika sohasida art-terapiya va uning turlari – musiqaterapiya, raqs terapiyasi; hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan guruhviy shakli – psixodrama (sotsiodrama), shaxsiy rivojlanish, muloqot treninglari va h.k.lar qo'llanila boshlandi va odat tusiga kirdi. Bunda psixoterapiya yutuqlari pedagogik amaliyotga ko'chirilayotgandek taassurot hosil bo'ladi. Ammo aslida hammasi o'zgacha: yetarlicha uzoq muddat davomida amaliy tibbiy psixologiya yuzlab yillar davomida sinovdan o'tgan tarbiya texnologiyalariga qaram bo'lgan bo'lsa, ana endi ularning pedagogikaga qaytishi sodir bo'lmoqda va yangilangan usullar jamlanmasi hamda psixologik terminologiya yangilikdek taassurot uyg'otmoqda.

6. Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi innovatsion tavsifga ega bo'lib, yangi avlod kishilarini shakllantirishda tarbiyaning rolini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyati ta'limni modernizatsiyalashda (ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi), uning sifat jihatidan o'zgarishi, tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida yangi ijtimoiy qadriyatlar tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuvning yangiligi quyidagilar bilan asoslanadi: zamonaviy tarbiyaning o'ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida qoliplardan voz kechish; dars, darsdan tashqari, ijtimoiy faoliyat jarayonida tizimli tarbiyaning xilma-xil obekt va sub'ektlarini yaratish; tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion texnologiyalarini uyg'unlashtirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuyini ishlab chiqish va ularni har bir o'quvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish. Kompetensiyaviy yondashuv deganda xilma-xil faoliyat turlarini rivojlantirish uchun universal hisoblangan, shuningdek, vaziyatga mos keladigan vositalardan foydalanish malakasini talab qiluvchi asosiy qobiliyatlar asosida o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlash tushuniladi. Kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos jihati – kompetensiyalarni ularning o'zaro aloqalari, bog'liqliklari, o'zaro bir-birini to'ldirishi – boyitishi bilan bog'liqlikda qarab chiqilishi va aniqlanishi bo'lib, bu uning amalga oshirilishi natijasini o'quvchi egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar tizimi sifatida tasavvur etish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimida tarbiya mazmuni va o'quvchining ijtimoiy hayotga tayyorgarligining sifatini aniqlash uchun qo'llaniladi hamda ta'limning natijaviyligi va shaxsning o'zaro uzviy aloqador fazilatlarini sifatida bitiruvchi tayyorligi sifatining integratsiyalashgan tavsifini ochib beradi.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da tarbiya nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni "fazilatlar" sifatida talqin qilinganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qachonki fazilatlar qadriyatlar interiorizatsiyasi (ichki anglanganlik) darajasida namoyon bo'lsa, u holda mazkur jarayonga nisbatan "kompetensiya" tushunchasini qo'llash mumkin. Aniqrog'i, fazilatlarining motivatsion va kognitiv darajada namoyon bo'lishini kompetensiyaning shakllanganligi sifatida e'tirof etish mushkul. Kundalik faoliyat va kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalar – hayot sohibi bo'lmish inson – mamlakat fuqarosini tarbiyalashga umumdavlat-ijtimoiy buyurtmasi bilan; davlat va jamiyatdagi iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar dinamikasi, inson salohiyati (intellektual, jismoniy, ma'naviy) bilan belgilanadi va kompetensiyalar

ana shu qarashlardoirasida shakllanadi. **Texnologiya** – bu qo'yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarining amaliyotda o'z aksini topishini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisidir. Pedagogik texnologiya – bu ilmiy asosda tashkil etiladigan, aniq vaqt va makon doirasida dasturlashtiriladigan va kutiladigan natijalarga olib keladigan pedagogik jarayonning barcha komponentlarini harakatga keltirish tizimi. Pedagogik texnologiya doirasida yuzaga kelgan atamalarni to'g'ri qo'llash maqsadida quyida ularning aniq ta'rifini berib o'tishga harakat qilinadi: **Pedagogik texnologiya** – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir. O'qitish texnologiyasi – o'quv darsining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, harbosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik. cega jadval chiziladi:

2-jadval

Nuqtayi nazarlarni aniqlash ko'rsatkichlari	Mehnat-kash	Yalqov	Qobiliyat-siz
<i>Sinf tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlar:</i> – faollik; – maqsadga intiluvchanlik; – bilimdonlik;– uquvlilik va h.k.	++++	0+++	++00
<i>Trenering ko'rsatkichlari:</i> – aniq faoliyatni yaxshi bajarish istagi; – berilgan ishni to'liq bajara olish qobiliyati; – baxtga erishish istagi.	+++	0+0	+00

Izoh: + belgisi – mavjud nuqtayi nazarga muvofiq keladi, 0 belgisi – muvofiqkelmaydi. Jadvalni to'ldirishda o'quvchilar u yoki bu sifatlarni mezon sifatida tanlashadi. O'z navbatida, o'qituvchi muayyan faoliyatni bajarishga xos ikki holatni jadvalda qayd etadi. Shundan so'ng, o'quvchilar birgalikda bu mezonlarningqaysi biri uchta qahramonning har biriga tegishli ekanini birgalikda aniqlaydilar. Bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, tarbiya fanini o'qitish jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir.

MAKTABGACHA YOSHDAGI IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Sirojiddinova Shodiya Xasanovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar keltirilgan. Shuningdek, iqtidorli bolalar uchun maxsus dasturlarning qo'llanilishi, nazariyasi va tajribalari bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы организации и совершенствования образовательного процесса с одаренными детьми, воспитывающимися в дошкольных образовательных организациях. Представлены мероприятия, проводимые с одаренными детьми, а также описано применение, теория и опыт специальных программ для одаренных детей.

Abstract. The article describes the issues of organization and improvement of educational processes with gifted children being brought up in pre-school educational organizations. Activities

conducted with gifted children are presented. Also, the application, theory and experiences of special programs for gifted children are described.

Kalit soʻzlar: iqtidor, qobiliyat, isteʼdod, qiziquvchanlik, yuqori imkoniyat, bilish jarayonlari, taʼlim, tarbiya, jadallashtirilgan taʼlim, maxsus dastur, shaxs xususiyatlari.

Ключевые слова: талант, способности, талант, любознательность, высокий потенциал, познавательные процессы, образование, обучение, ускоренное обучение, специальная программа, личностные качества.

Key words: talent, ability, talent, curiosity, high potential, cognitive processes, education, training, accelerated education, special program, personality traits.

Prezident Shavkat Mirziyoev Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida Oʻzbekistonni dunyodagi eng raqobatbardosh mamlakat qatoriga qoʻshish uchun yuqori sifatli maʼlumotga ega, sogʻligʻi yaxshi va mamlakatimiz farovonligi uchun mehnat qilayotgan yoshlarga katta ishonch bildirdi. Hammamizga maʼlumki, taʼlim va tarbiya masalasi doimo kun tartibida boʻlgan. Hozir zamon oʻzgardi, talablar oʻzgardi. Bugungi bola ertangi mamlakat kelajagidir. Shunday ekan, biz oʻqituvchilarning asosiy vazifasi yuqori darajadagi bilim va ijodkor talabalarni tarbiyalash ekanligini unutmasligimiz kerak. Mamlakatimizda taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yuksak tafakkurli, dunyoqarashi keng, yetuk va raqobatdosh shaxsni shakllantirishdir.¹

Iqtidor – bu insonning hayotga moslashish uchun genetik va eksperimental ravishda oldindan belgilangan qobiliyatlarining oʻziga xos oʻlchovidir. Iqtidorlilik – bu insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydigan psixikaning tizimli sifati. Iqtidorli bola – bu u yoki bu faoliyat turidagi yorqin, ravshan, baʼzan ajoyib yutuqlari bilan ajralib turadigan bola. Iqtidorning asosiy funksiyalari – bu dunyoga, atrof-muhitga maksimal darajada moslashish, ijodiy yondashuvni talab qiladigan yangi, kutilmagan muammolar paydo boʻlganda, barcha holatlarda yechim topish. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtidor bolalarning asosiy psixologik xususiyati, ularning haddan tashqari aqliy faolligi, ruhiy stressga beixtiyor, tinimsiz jalb etilishidir.

Psixologik tadqiqot va maxsus kuzatishlarning koʻrsatishicha, yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bolalar, aksariyat hollarda, oddiy bolalarga nisbatan birmuncha muvaffaqiyatli boʻlishadi. Taʼlim-

tarbiyani oʻzlashtirish jarayonida muammolar kuzatilmaydi, tengdoshlari bilan yaxshi muloqotda boʻlishadi, yangi muhitga tezda mostlashishadi. Bunda yoshligidan singib ketgan qiziquvchanlik va mayllari bolaning kasb tanlashi va muvaffaqiyatlarga erishishida puxta zamin boʻlib xizmat qiladi. Bunday bolalarning taʼlimni oson oʻzlashtirishidagi yuqori imkoniyatlari inobatga olinganligi va ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmaganligi sababli ayrim muammolar tugʻilishi mumkin. Shu sababli iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayonida avvalo bola yashaydigan muhit, yaʼni uning oilasi haqida maʼlumotga ega boʻlish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli qobiliyatlarni shakllantirish uchun sezgi organlari va shu asosda amalga oshiriladigan hissiy jarayonlarning rivojlanishi ham zarur. Ushbu qoida hissiyot, idrok, diqqat, fikrlash, tasavvur, xotira kabi psixologik jarayonlarning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Barcha psixik jarayonlar bola shaxsining ijodiy salohiyatini shakllantirish uchun asosdir. Rivojlangan bolalar oʻz-oʻzini oʻrganish qobiliyatining yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ular erta nutq va katta soʻz boyligi, murakkab soʻzlardan foydalanish, shuningdek, hisoblash yoki oʻqishning erta rivojlanishi bilan ajralib turishadi. T.S.Komarovanning fikricha, “maktabgacha yoshdagi bolalarning har qanday qobiliyatlarini rivojlantirish narsa va hodisalarni bevosita bilish tajribasiga asoslanadi. Idrokning barcha turlarini rivojlantirish, ob’ektlarning shakli va hajmini, ularning qismlarini, qoʻllarining harakatlarini navbat bilan oʻzlashtirish jarayoniga kiritish kerak, shunda qoʻl harakati tasviri shakllanadi. Sobit va uning asosida bola tasvirni yaratishi mumkin” – deya taʼkidlaydi. Bolalarda iqtidorning asosi bilish jarayoni hisoblanadi. Eng avvalo tevarakatrofdagi hodisalarni, mavjud jismlarni idrok etishga boʻlgan qiziqish bolalarni tinimsiz harakatga chorlaydi. Shu sababli ular koʻproq narsani oʻrganishga intilishadi. Vaqt oʻtishi bilan bolalardagi bu

qiziquvchanlik ularda qobiliyatni shakllantiradi. Atrof-muhitni o'rganish jarayonida bolalarda so'z boyligi ham kengayib boradi. Iqtidorli bolalarda nutq ham boshqa bolalarga nisbatan yaxshiroq rivojlangan va taraqqiy etgan bo'ladi.

O'z iqtidorini kashf etadigan va ularni yashirin saqlaydigan, ya'ni ularni namoyon etmaydigan bolalar bo'ladi. Aka-uka, opa-singillar va tengdoshlar bilan doimiy aloqada bo'lgan ba'zi iqtidorli bolalar uchun o'zlarining farqlarini tushunish erda paydo bo'lishi mumkin. Boshqalar uchun o'zlarining maxsus qobiliyatlarini anglash birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zlarini boshqa bolalar bilan muqarrar ravishda taqqoslashda paydo bo'ladi. Bolaning o'zlarini sog'lom idrok etishi va boshqa bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlari o'zidan farqli darajada yoki bir xil sohada bo'lishi mumkinligini tushunishi muhimdir. Bolalarda iqtidor turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda iqtidor yashirin holda bo'lishi mumkin. Bu bolalar bilan ishlashda tarbiyachi o'ta tajribali bo'lishi talab etiladi. Boladagi yashirin iqtidorni tarbiyachi vaqtida anglab uni yuzaga chiqarish uchun kerakli usullardan foydalansa o'rinli bo'ladi. Deyarli har jihatdan iqtidorli bola boshqa barcha bolalar bilan bir xil bo'lib, faqat ulardagi qiziquvchanlik, o'zini va atrof-muhitni anglashga bo'lgan intilishi bilan ajralib turadi. Bu borada ota-onalar va tarbiyachi oldida turgan vazifa, bunday bolalarning erda rivojlanishini hisobga olgan holda, o'z vaqtida to'g'ri mashg'ulotlarni, to'g'ri so'zlarni va bolaga qiziqarli barcha narsalarni bilishdir. Bunday muloqot nafaqat og'zaki muloqot orqali amalga oshiriladi, balki ota-onalar, tarbiyachilar va bolaning atrof-dagilarning muloqoti va munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab iqtidorli maktabgacha yoshdagi bolalarning ajoyib nutq qobiliyatlari ota-onalar va tarbiyachilarni og'zaki muloqotga juda ko'p e'tibor berishga majbur qiladi. Bunday bolalar eshitgan har bir narsasini o'zlashtirib olishga moyil bo'ladi. Bu esa ota-ona va tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi.

Iqtidorli bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishning asosiy vazifasi iste'dod xususiyatlarini anglash va aniqlashdir. Bolaning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga qancha vaqt e'tibor berilsa, shunchalik uni to'liq kashf etish mumkin bo'ladi. Agar bolaning o'ziga xos fazilatlarini unga yaqin kattalar munosib baholamasa, u boshqalar kabi bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda o'qituvchi va maktab psixologining yordamiga murojaat qilish kerak. Iqtidorli bola bilan ishlash samaradorligi o'qituvchining bilimiga bog'liq. Iste'dodli o'qituvchi bo'lgan joyda iqtidorli bola ham bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'qituvchi yoshlarga to'plagan bilimlarini o'rgatishi mumkin bo'lgan har tomonlama, yaxshi tayyorlangan mutaxassis bo'lishi kerak.ⁱ

Iqtidor va iqtidorli bolalarni barvaqt aniqlash, o'qitish va tarbiyalash ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy muammolaridan biridir. Iqtidorli bolalar kattalarning yordamiga muhtoj emas, degan fikr bor, lekin alohida e'tibor va yetakchilik juda muhim. Biroq o'zlarining shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bunday bolalar o'zlarining faoliyati, xatti-harakati va fikrlashlarini baholashga eng sezgir bo'lib, ular hissiy stimullarni qabul qiladilar va munosabatlar va aloqalarni yaxshiroq tushunadilar. Bugungi kunda ko'pchilik psixologlar iqtidorning rivojlanish darajasi, sifat jihatidan o'ziga xosligi va tabiati har doim irsiyat (tabiiy moyillik) va bolaning faoliyati (o'yin, o'qish, ish) bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muhitning murakkab o'zaro ta'siri natijasi ekanligini tan olishadi. Shu bilan birga, shaxsiy iste'dodni shakllantirish va amalga oshirish asosida shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishning psixologik mexanizmlarining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Iqtidorni yuzaga chiqishida irsiyat bilan bir qatorda ijtimoiy muhitning ham o'rni beqiyos hisoblanadi. Aksariyat psixologlar shaxsning ijodkorligini (ijodiy salohiyatini) iqtidorning eng muhim va ma'lum darajada mustaqil omillaridan biri deb bilishadi. Amerikalik psixolog P.Torrance ijodkorlikni insonning noaniqlik va axborot yetishmasligi sharoitida yuzaga keladigan keskinlikni bartaraf etishga bo'lgan kuchli ehtiyoji tufayli yuzaga keladigan jarayon deb ta'riflagan. Bu jarayon muammoni izlash va aniqlash, uni hal qilish yo'llari haqidagi farazlarni ilgari surish va sinab ko'rish, yechimlarni izlash va asoslashni o'z ichiga oladi.

N.Ojegovning lug'atida iste'dod "tabiat tomonidan berilgan maxsus qobiliyat" deb ta'riflangan. Ota-onalar, psixologlar va tarbiyachilar bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish

darajasiga e'tibor berishlari kerak. Bolaning qobiliyatini rivojlantirish uchun ko'proq tirishqoq, tinimsiz, irodali, qat'iyatli, diqqatli va o'ziga talabchan bo'lish kerak. Rus psixologlari iste'dodga quyidagicha ta'rif berishadi: Iste'dod – bu ruhiyatning sistematik, umrbod xossasi. Bu odamlarning boshqa odamlar bilan taqqoslaganda bir yoki bir nechta faoliyatda eng yuqori natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydi. Iste'dod – bu ma'lum bir harakat asosida maxsus muvaffaqiyatga olib keladigan insoniyat rivojlanishining yuqori darajasi. Iqtidorli bolalarni aniqlash – bu bola rivojlanishini tanlash bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayondir. Bolalardagi iqtidorni o'z vaqtida aniqlash uchun pedagog olimlar tomonidan bir qator metodikalar ishlab chiqilgan. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

-Iqtidorli bolalarni aniqlash (ekspert baholash) uchun so'rovnoma A.A. Loseva. Ushbu anketa o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtidorini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Anketa maktabgacha yoshdagi bolaning qobiliyatlarini namoyon qilishi mumkin bo'lgan 10 ta sohaning xususiyatlarini o'z ichiga oladi: intellektual, akademik yutuqlar, ijodiy, adabiy, badiiy, musiqiy, texnik, motorli, badiiy, ijtimoiy.

-A.I. Savenkov tomonidan ishlab chiqilgan "Iqtidorli karta" texnikasi. Ota-onalar uchun mo'ljallangan, lekin o'qituvchilar tomonidan ham foydalanish mumkin. Bu sizga 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolada quyidagi iqtidor turlarining rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi: intellektual, ijodiy, akademik, badiiy, vizual, musiqiy, adabiy, badiiy, texnik, yetakchilik, sport.

-A.I. Savenkov tomonidan ishlab chiqilgan umumiy iste'dodni baholash metodikasi. Ota-onalarga qaratilgan (o'qituvchilar tomonidan ham foydalanish mumkin). Uning vazifasi bolaning umumiy iste'dodini ota-onasi tomonidan baholashdir.

-G.Renzulli tomonidan ijodkorlik so'rovi (5 yoshdan oshgan bolalar uchun) Bu so'rov ijodiy fikrlash va xulq-atvor xususiyatlarining ro'yxatidan iborat bo'lib, tashqi kuzatish uchun ochiq bo'lgan ijodkorlik namoyonlarini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan.¹

Virtual laboratoriyalar - virtual laboratoriyalar o'qituvchilarga talabalarni amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari orqali o'rganish imkoniyatini beradi. Bu laboratoriyalar katta o'quv markazlarida mavjud bo'lishi mumkin yoki internet orqali erkinlik bilan foydalanilishi mumkin. Talabalar virtual laboratoriyalar orqali o'rganish jarayonida muammolarni yechish, amaliy tajribalar o'tkazish va axborot texnologiyalari bilimlarini o'zlashtirishlari mumkin.

Onlayn kurslar - internet orqali o'rganishning ko'p yillik tarixi mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda onlayn kurslar o'qituvchilar va talabalar uchun informatika va axborot texnologiyalari bilimlarini o'rganishning keng qo'llaniladigan usullaridan biridir. Onlayn kurslar orqali talabalar o'zlarining o'rganmoqchi bo'lgan mavzulari bo'yicha ustozlar tomonidan tuzilgan darslar va mashg'ulotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Proyektlar va jamoatchilik - o'qituvchilar talabalarni informatika va axborot texnologiyalari bilimlarini amaliyotga o'tkazish uchun jamoatchilik va projektlar bilan bog'lashga harakat qilishlari kerak. Talabalar bir-biriga ko'maklashish, guruh ichida ishlash va boshqa ishbilarmonlik va hamkorlikni o'rganish orqali axborot texnologiyalari bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro ko'p to'plamlar va tadbirlar - o'qituvchilar talabalarni xalqaro ko'p to'plamlar va tadbirlarga qatnashishga ko'maklashishi kerak. Bu tarzda tadbirlar talabalar uchun yangi texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va boshqa sohalarda so'nggi yangiliklar bilan tanishish, o'zlarini o'zaro hamkorlik, o'zlashtirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mahalliy hamkorlik va sohalarda amaliy mashg'ulotlar - o'qituvchilar talabalarni mahalliy hamkorlik va sohalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazishga yordamlashishi kerak. Bu usul talabalarga axborot texnologiyalari bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi va ularga texnologiyalar sohasida tajriba va tajribalar yaratish imkoniyatini beradi.

Bu usullar o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari sohasini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi.

Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarning shakllantirilishi talabalarga teorik bilimlarni amaliyotga aylantirish orqali amaliyotga asoslangan tajribani yaratishga imkoniyat beradi. Bu bilimlar talabalarni soha bo'yicha mutaxassislar sifatida tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Oliy talim muassasalarida talabalarining informatika va axborot texnologiyalari bilimlarini shakllantirishga oid kurslar va darslar keng tarqalgan mavzulardan biridir. Bu bilimlar, bugunning global dunyoda katta ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan birini tashkil etadi. Axborot texnologiyalari va informatika tushunchalariga asoslangan bilimlar talabalar uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi va ularni ko'p yo'nalishli mutaxassislar sifatida tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madadjon O'ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
2. Uktamov, M. "MODELING THE PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS THROUGH COMPUTER TRAINING." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
3. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 369-373.
4. Абдувалиева, Зебинисо Абдулхамидовна, and Луиза Комиловна Турсунова. "МАТЕМАТИЧЕСКИЙ АППАРАТ МЕТОДОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ ДОКУМЕНТООБОРОТА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 296-299.
5. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). MECHANISMS FOR OPTIMIZATION OF DETECTION AND CORRECTION OF ERRORS IN COMPUTER TEXT PROCESSING SYSTEMS. Journal of Engineering And Technology Research, 10(1), 1-7.

**YAQIN KELAJAKDA UMUMINSONIYATNI O'ZGARTIRADIGAN ENG MUHIM
AXBOROT TEXNOLOGIK TENDENSIYALAR**

O'ktamov Madadjon-ShDPI "Informatika va uni
o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi
Toshpo'lotova Jasmina-Shahrisabz davlat
pedagogika instituti talabasi

Аннотация. Ushbu maqolada axborot texnologik tendensiyaning inson hayotidagi ahamiyati, uning turlari, vazifalari haqida so'z boradi.

Аннотация. В данной статье говорится о значении направления информационных технологий в жизни человека, их видах и задачах.

Annotation. This article talks about the importance of the direction of information technology in human life, its types and tasks.

Kalit soʻzlar. Sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, biometrik identifikatsiya, robototexnika, blokchain texnologiyasi, kommunikatsiya.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, кибербезопасность, биометрическая идентификация, робототехника, технология блокчейн, связь.

Key words. Artificial intelligence, cyber security, biometric identification, robotics, blockchain technology, communication.

Koʻp yillardan buyon insonlar tomonidan texnikalar rivojlantirib kelinmoqda. Buning yaqqol misoli hozirgi kunda ishlab chiqilayotgan elektromobil deb nomlangan avtomobillarni olish mumkin. Bu avtomobillar hech qanday yoqilgʻilarsiz energiya orqali harakatlanadi. Bunday loyihalarni ishlab chiqishda esa axborot texnologiyalari insonga yordam beradi. Axborot texnologiyalarning insonning hayotida katta oʻrni bor. Bu soha oʻzgarishlarni oʻz ichiga olgan va insonlarga bir nechta imkoniyatlarni yaratgan.

Tendensiya loyihasi ma'lumotlar toʻplamining oʻzgarishini oʻrganish, trendlarni aniqlash va kelajakdagi oʻzgarishlarni bashorat qilishga yordam beradigan analitik usuldir. Bu loyihalardan ma'lumotlarni tahlil qilish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish jarayonlarini yoʻlga qoʻyishda foydalaniladi. Loyihalar matematik formulalar, statistik usullar, ma'lumotlar analizining asosiy tamoyillari va boshqa analitik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu loyihalar asosida ma'lumotlarni tahlil qilishning bir qator usullarini ishlatib, kelajakdagi oʻzgarishlarni bashorat qilish mumkin. Tendensiya loyihalari moliya sohasida moliya darajalarini, kapital bozorlarini va investitsiya tendensiyalarini oʻrganishda foydalaniladi. Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish, narxlar, ish joylari va boshqa iqtisodiy koʻrsatkichlarni oʻrganishga yordam beradi. Sotsiologiya sohasida aholining oʻzgarishlari, mavsumlik oʻzgarishlar, ijtimoiy tendensiyalar va boshqalar analiz qilinadi. Marketing sohasida mijozlar tomonidan qidiruv soʻrovlari, xaridorlarning talablari va boshqalarni tahlil qilishda foydalaniladi. Tendensiya loyihasi sifatli ma'lumotlarni aniqlashga va strategik qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu loyihalar ma'lumotlar toʻplamining oʻzgarishlarini tahlil qilish orqali kelajakdagi oʻzgarishlarni bashorat qilishda qoʻllaniladigan vositalarni taklif qiladi.

Tendensiyaning ishlatilishi, ma'lumotlar toʻplamining yoʻnalishi, oʻzgarishlari va oʻzgarimchanliklari haqida tafakkur qilish, prognostik va analitik maqsadlar uchun ma'lumotlar olish, trendlarni aniqlash va boshqa analiz usullaridan foydalanishni oʻz ichiga oladi. Bu maqsadda, statistik analiz metodlari, grafiklar, tartiblanishlar, regressiya analizi va boshqa ma'lumotlar analizlari qoʻllaniladi. Bu usullar yordamida ma'lumotlarning oʻzgarishlarini tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash, yordam berish va qaror qabul qilishda foydalanish mumkin.

Tendensiyaning vazifalari quyidagilardan iborat.

O'sish yoki kamayishni aniqlash: Tendensiya bir holatning o'sish yoki kamayishiga doir o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu bir holat haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Prognoz berish: Tendensiya avvalgi o'zgarishlarni ko'rib, kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilishga yordam beradi. Bu asosan, tarixiy ma'lumotlarni o'rganish va o'zgarishlarni tasavvur qilish bilan bog'liqdir.

Sabab va ta'sir munozarasi: Tendensiya bir holatning sabab va ta'sir munozarasini tahlil qilishga imkon beradi. O'zgarishlarni o'rganish orqali ularning qanday sabablarga bog'liqligini va ularning qanday oqibatlarga olib kelishini tushunish mumkin bo'ladi.

Ma'lumotlarni ta'riflash: Tendensiya ma'lumotlarni bir umumiy xususiyat yoki o'sish yo'nalishi bo'yicha ta'riflashga imkon beradi. Bu esa ma'lumotlarni murakkab bo'lmagan o'zgaruvchanliklarga keltirib chiqishga yordam beradi.

Tahlil qilish: Tendensiya ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni tushuntirishga yordam beradi. Uning yordamida, ma'lumotlardagi tartib va munosabatlar aniqlanadi.

Tendensiyadan istalgan sohada foydalanilishi mumkin. Sotsiologiya, iqtisodiyot, statistika, kasb-hunar sohasi va boshqa sohalarda tendensiya tahlili amalga oshiriladi.

Tendensiyaning berilgan ma'lumotlariga qarab loyiha mavzulari berilishi mumkin. Masalan moliya, iqtisodiyot, statistika, rivojlanish, sotsiologiya, marketing va boshqalar.

Kommunikatsiya - axborot texnologiyalari elektron pochta, sotsial tarmoqlar, mobil ilovalar, videokonferensiyalar va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali insonlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Kommunikatsiya dunyoning uzoq joylaridagi insonlar bilan bog'lanish, yangi do'stlar topish va o'z fikrlaringizni ulashish imkonini beradi.

Ish jarayonlarini avtomatlashtirish - axborot texnologiyalari avtomatlashtirishning keng qo'llaniladigan sohalaridan biridir. Kompyuter dasturlar va robotlar yordamida, avtomatik jarayonlar ishlab chiqarilishi, maishiy texnikani boshqarish, tashqi ma'lumotlar to'plamini analiz qilish va boshqalarni yaratishi mumkin.

Tadbirkorlik va biznes - axborot texnologiyalari tadbirkorlik sohasidagi imkoniyatlar bilan ham hamkorlik qiladi. Elektron savdo platformalari, onlayn to'lov sistemalari, tadbirkorlik analitikasi va boshqa vositalar biznesning samaradorligini oshiradi. Axborot texnologiyalarning biznes tadbirkorlikni yanada soddalashtirishi, ish jarayonlarini optimallashtirishi va yangi bozorlar yaratishi mumkin. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan onlayn magazinlar ham uning yaqqol misolidir.

Ilova va tizimlar - mobil ilovalar va kompyuter tizimlari insonlar hayotini yanada osongina qilishga yordam beradi. Bu ilovalar orqali, soatlar, ovozli assistentlar, xaritalar, musiqa va video

striming xizmatlari, sotilgan mahsulotlarning yetkazib berish xizmatlari va boshqa ko'plab imkoniyatlari ishlatiladi.

Axborot texnologiyalari insonning o'zgarishida o'rni juda katta bo'lib, bu soha hayotning har bir aspektiga ta'sir qiladi.

Moyil yoki **tendensiya** ma'lum bir vaqt ichida biror narsaning yo'nalishi yoki o'zgarishini anglatadi. Bu xususiyat, hodisa yoki holatning ko'payishi, kamayishi yoki davom etishini ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiyot, siyosat, sog'liqni saqlash, texnologiya va boshqa turli sohalarda tendensiyalarni tahlil qilish muhimdir.

Ma'lumotlarni o'rganish va naqshlarni kuzatish orqali tendensiyalarni aniqlash mumkin. Statistika ma'lumotlarning tendensiyalarini ko'rsatish uchun grafik va modellardan foydalanish mumkin. Misol uchun agar ma'lumotlar to'plami bir necha yil davomida investitsiya qiymatining doimiy o'sishini ko'rsatsa, bu investitsiyalarda ijobiy tendensiya mavjudligini aytish mumkin. Voqealarni yaxshiroq tushunish, kelajakda bashorat qilish va qarorlar qabul qilish, ulardan foydalanish uchun tendensiyalarni o'rganish muhimdir. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, barcha tendensiyalar doimiy emas va kelajakda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Tendensiyalarga iqtisodiyot, texnologiya, ijtimoiy o'zgarishlar va boshqalar kabi turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Texnologiyalar asrida umuminsoniyatni o'zgartiradigan axborot texnologik tendensiyalar quyidagilardan iborat:

Sun'iy Intellekt - sun'iy intellektning rivojlanishi hayotimizning har bir jabhalariga juda katta o'zgarishlar olib kirmoqda. Ma'lumotlar tahlili, ma'lumotlarni zarur ma'lumotlarga aylantirish, ma'lumotlardan foydalanishda aniqlikni oshirish imkonini beradi.

Bulutli texnologiya - ma'lumotlarni internet orqali uzoqlashtirilgan serverlarda saqlash va ishlatish imkonini beradi. Bulut texnologiya ma'lumotlarga doimiy va oddiy erkin kirishni ta'minlash, ma'lumotlar almashishini yaxshilash va ma'lumotlarni muvaffaqiyatli tarzda taqsimlashga imkon beradi.

Kiberxavfsizlik - internetda xavfsizlik muammolari katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, kiberxavfsizlik sohasidagi rivojlanishning davomiyligi kutilmoqda. Kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish, kiberhujumlar va xavfli dasturlar bilan kurashish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va tarmoqlar orqali yuradigan xavfli faoliyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Blokchain texnologiyasi - ma'lumotlarni shifrlash va tasdiqlash uchun ishlatiladigan so'nggi texnologiyalardan biridir. Bu, ommaviy tasdiqlash moduli sifatida ishlaydigan, ta'qiqlangan o'tkazmalarni avtomatik ravishda tasdiqlaydigan va ma'lumotlar to'plamining himoyasini ta'minlaydigan boshqa muassasalardan farq qiladi.

Kiberfizikaviy tizimlar - kiberfizikaviy tizimlar, virtual va haqiqiy dunyolarni birlashtiradigan texnologiyalardir. Bu tizimlar virtual va haqiqiy ob'ektlarni birlashtirish orqali yangi imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, kiberfizikaviy tizimlar, telekonferensiyalar, virtual reallik, simulyatsiyalar va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Biometrik identifikatsiya - shaxslar va ularning shakli, tana xususiyatlari yoki boshqa biometrik ma'lumotlaridan foydalanib, ularni aniqlash va tasdiqlashni ta'minlaydigan texnologiyalardan biridir. Biometrik identifikatsiya parollar, PIN-kodlar va boshqa identifikatsiya usullarining o'rniga tashlanadi. Biometrik identifikatsiya sistemlari nufuzli tizimlarda, mobil qurilmalarda, bank hisobotlarida va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Avtomatlashtirish - ish jarayonlarini avtomatlashtirish va avtomatik boshqarishni ta'minlaydigan texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Avtomatlashtirish avtomatik muhandislik, robototexnika, avtomatik tizimlar va boshqalar kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Avtomatlashtirish ish jarayonlarini tezlashtirishi, hatto miqdorini pastlatishi va ishlab chiqarishning effektivligini oshirishi mumkin.

Bu tendensiyalar, XXI asrning boshida umuminsoniyatning ma'lumotlardan foydalanish va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini o'zgartirishi kutilgan. Bu tendensiyalar hayotimizni katta o'zgarishlarga olib kelishga va yangi imkoniyatlarni ochishga olib kelishi mumkin.

Umuminsoniyatni o'zgartiradigan asosiy texnologik tendensiyalardan tashqari qo'shimcha tendensiyalari ham mavjud:

Yagona ma'lumot tizimlari xizmati - ushbu tendensiyada ma'lumotlar yagona platformalarda o'tkaziladi va ularga ommaviy ravishda kirish mumkin bo'ladi. Bu ma'lumotlar ustida ko'plab sohalardagi yutuqlarni yaratish mumkin va ma'lumotlarni sifatli, samarali tarzda birlashtiradi.

Mexanik omillar va robototexnika - avtomatlashtirilgan tizimlarni ishga solish, boshqarish va boshqalar kabi vazifalarni bajarishda o'zgaruvchanlik yaratish imkonini beradi. Bu sohalarning avtomatizatsiyasi va ish faoliyati samaradorligini oshiradi.

Kiberfizik tizimlar - fizikaviy va kiberfizik tizimlarning integratsiyasini ta'minlaydigan texnologiyalardir. Kiberfizik tizimlar kiberfizik omillar va tizimlarni bir-biriga ulash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va ommaviy tizimlarni samarali o'zgartiradi.

Bu tendensiyalar, umuminsoniyatning ma'lumotlar bilan ishlash, kommunikatsiya qilish va mavjud resurslardan foydalanish shaklini o'zgartirishga yordam beradi. Kelajakda bu tendensiyalar bilan bog'liq holda kengayish va rivojlanishi kutilmoqda.

Bundan ko'rish mumkinki, tendensiya bu statistikadagi o'zgarishlarga yo'l qo'yish, ma'lum bir yo'nalishda harakat qilish, odatdagi yoki o'zgaruvchanlikning o'ziga xos xususiyatlarini

ifodalaydi. Umuminsoniyatni o'zgartirish mobaynida axborot texnologik tendensiyalardan foydalanish odamlar hayotini o'zgartiradi, ish samaradorligini oshiradi va yangi imkoniyatlarni olib keladi. Tendensiyalardan foydalanish sohalarda samarali ishlash imkoniyatini yaratadi, yangi fikrlash va innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Madadjon O'ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.

7. Uktamov, M. "MODELING THE PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS THROUGH COMPUTER TRAINING." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.

8. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 369-373.

9. Абдувалиева, Зебинисо Абдулхамидовна, and Луиза Комиловна Турсунова. "МАТЕМАТИЧЕСКИЙ АППАРАТ МЕТОДОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ ДОКУМЕНТООБОРОТА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 296-299.

10. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). MECHANISMS FOR OPTIMIZATION OF DETECTION AND CORRECTION OF ERRORS IN COMPUTER TEXT PROCESSING SYSTEMS. Journal of Engineering And Technology Research, 10(1), 1-7.

SHAYX XUDOYDOD VALINING MA'NAVIY MEROSIDA IJTIMOYILASHUV MASALLARI.

Quvonov Sardor Zokirovich.

Navoiy davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti. Navoiy viloyat.

quvonov2017@mail.ru

Kalit so'z: Islom, Tasavvuf, Ijtimoiy va ma'naviy tarbiya, Shayx Xudoydod Valiy, Karmana.

Ключевые слова: Ислам, Суфизм, Социальное и духовное образование, Шейх Худоидад Вали, Кармана.

Key words: Islam, Sufism, Social and spiritual education, Sheikh Khudoidad Vali, Karmana.

Annotatsiya: Maqolada Karmana farzandi Shayx Xudoydod Vali hazratlari hayotidagi bugungi yoshlar hayot va insoniyatga ibratli tomonlari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Bugungi yoshlar hayotidagi ijtimoiylashuv va ma‘naviy tarbiya masalasida Shayx Xudoydod Vali qarshlari ibrat maktabi sifatida tanishtirib o‘tiladi.

Аннотация: В статье представлена информация о жизненных уроках современной молодежи и человечества в жизни шейха Худоидада Вали, сына Кармана. В деле социализации и духовного воспитания в жизни современной молодежи село Шейха Худоидада Вали представлено как образцовая школа.

Abstract: The article provides information about the life lessons of today's young people and mankind in the life of Sheikh Khudoidad Vali, the son of Karmana. In the matter of socialization and spiritual education in the life of today's youth, the villages of Sheikh Khudoidad Vali are introduced as an exemplary school.

Bugungi axborot asri, texnologiya zamonida yoshlar ongida Haq yo‘lida bilishi lozim bo‘lgan ilmlardan uzoqlashib borayotgandek, bir paytlar kitobxon bo‘lgan bu xalqimizning avlodlari nazarida haqiqiy irfoniy ilmlarni guyoki jozibasi yo‘qolib borayotgandek guyo. Bular esa yetishib kelayotgan avlodni xayoliy sarob, virtual olam, ichra yutib yuborayotgandek. Bu virtual olamda, turli ijtimoiy tarmoqlardan oladigan uzuq-yuluq, poyintar-soyintar, mantiqsiz sarlavhalar ta‘sirida yoshlarimizning ma‘naviy tarbiyasi, axloqi, azaliy qadriyat hisoblangan insoniy hislari o‘rnini, shaytoniy hirslar, xudbinlik, o‘zini o‘ylash, inson nafsini semirtirib haq yo‘lidan ozdiradigan avlod ko‘paymoqda. Virtual olamda el-yurt koriga yarashi mumkin bo‘lgan avloddan ko‘ra ma‘suliyatsiz “ma’sul”larni, irodasiz avlodni salmog‘ini ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Zamonamizning bunday virtual olam tarbiyalanuvchilari real hayotdan begonalashib ijtimoiylashishi qiyin kechmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlarimizning ta‘lim va tarbiyasi borasida maktab, maktabdan tashqari ta‘limi borasida ham ko‘pgina pedagogik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bunday avlodni tarbiyalashda haqiqiy axloq va go‘zal xulqlar bilan xulqlantirishda boy tariximizning ma‘naviy tarbiya darg‘alarini ibrat sifatida targ‘ib qilish va ularning ortidan ergashtirish zarurati har qachongidan ham ko‘proq zarurati paydo bo‘lmoqda. Haqni tanish sifati bilan ziynatladi. Moddiy olam go‘zalliklarini ko‘rish uchun ko‘z berdi, ochiq ko‘z bilan ko‘rib

bo‘lmas jihatlarni tushunish uchun qalb ato qildi. Yana shunda ham bandayi ojiz Haq yo‘lidan toymasligi uchun o‘z elchisi Muhammad sollallohu alayhi va sallam (s.a.v.) orqali so‘z (Qur‘oni karim) nozil qildi va bu so‘z mutolaasida ham inson noqis qolmasligi uchun bir guruh sahobayi ikrom va valiyalar yubordiki, ular Haqni tanish barobarida bani odamga inoyat etsin, ko‘mak bersinlar. Zero, «So‘zga quloq tutib, uning eng go‘zaliga (ya‘ni najotga eltuvchi Haq so‘zga) ergashadigan zotlarga xabar bering! Ana o‘shalar Olloh hidoyat qilgan zotlardir!”^[1] Xuddi Olloh hidoyat qilgan zotlardan biri Karmana farzandi Shayx Xudoydod Vali hazratlaridir.

Ma‘naviy tarbiya darg‘alaridan hisoblangan Shayx Xudoydod Vali o‘z davrining yirik islom tasavvufiy ta‘limotidagi yassaviya tariqatining taniqli namoyandasi bo‘lib, u milodiy 1461 yil Karmanada tavallud topadi. Shayx Xudoydod Vali ilk savodini ham shu yerda chiqaradi. Asl ismi Xudoyberdi, to‘liq ismi Hazrat Azizon Shayx Xudoydod Vali ibn Xazret Azizon Ortiq Shayx bo‘lgan. Shayx Xudoydod dastlab G‘ijduvonda sung Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olib, tasavvuf ta‘limotining mashhur piri darajasiga ko‘tarilib, fano maqomiga erishadi. Hazrat Shayx Xudoydod Vali din targ‘ibotchisi, musulmon olamidagi sufiy, shoir, kurashchi, sufiylik maktabi asoschilaridan hisoblangan ma‘naviy tarbiya borasidagi zamonasing taniqli shayxlardan hisoblangan.

Hazrat Shayx Xudoydod umrining sungi yillarini Samarqand atroflarida o‘tkazadi hamda 1532 yil 8-avgustda hozirgi Jomboy tumaniga qarashli G‘azira degan joyda vafot etib, shu yerga dafn etiladi. Bugungi kunda bu joy obod ziyoratgohga aylantirilgan.

Shuningdek, Shayx Xudoydod Valiyning faoliyatida an‘anaviy yassaviya g‘oyalari, xususan, tarki dunyochilikdan farqli ravishda jamiyat hayotiga faol aralashish kuzatiladi. Jumladan, Shayx Xudoydod Valiy oddiy xalq ahvolini yaxshilash, ularni halol mehnat qilishga va shu orqali moddiy ahvolini yaxshilashga chorlash borasida tashabbuslar ko‘rsatib, atrofiga odamlarni to‘playdi va ular bilan birgalikda bo‘sh yotgan yerlarni o‘zlashtirishga, ulardan foydalanish yo‘llarini topishga harakat qiladi. Masalan, “...va aytur edilarki, ziroat uchun biror cho‘lni ixtiyor qilsak va oxirida u sahroni ishlab chiqsak. U yerda yetilgan hamma qovunlarni vaqf qilamiz, har kim undan tatib ko‘rishni va yeyishni xohlaydi. ...bas, janobi hazrat Xudovandga tavakkal qilgandan keyin, dehqonchilik qilishni o‘zimiz lozim topdik. Va dehqonchilik bilan panoh topdik”^[1]. Ushbu keltirilgan ma‘lumotlarda Shayx Xudoydod Valiy jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotini imkon qadar yaxshilash borasidagi qilgan sa‘yi harakatlarini ko‘rsatib beradi. Xususan, Shayx Xudoydod Valiy faoliyatida quyidagi masalalarni yechish maqsad qilingan: birinchidan, bo‘sh yotgan yerlar o‘zlashtirish; ikkinchidan, insonni mehnat orqali ham ma‘nan ham jismonan tarbiyalanash; uchinchidan, jamiyat va inson uchun moddiy manfaat keltirish.

Naql qilishlaricha, bir kuni Shayx Xudoydod Vali Qarnab dashtiga boradi. Qarnab begining xalqqa adolatsizligini ko‘rib, juda g‘azablanadi, qishloq oqsoqollari bilan kengashib, hokimga arz qilish maqsadida Buxoroi SHarifga boradi. Hukmdor uyushtirgan saylga qatnashib, mamlakat polvonlari bilan kurashib, barchasini yengadi va hokimning e‘tiborini qozonadi. Shunda hokim Shayx Xudoydod Azizonni qabul qilib, orzu- tilagini so‘raydi. Hazrat Qarnab begining adolatsizligini aytib, xalqni undan xalos qilishini so‘raydi. Iltimosni qondirgan hokim Qarnab begini jazolaydi va u yerda adolat o‘rnatadi.[¹]

Shunga o‘xshash voqea yana bir manbada keltiriladi: Azizon Shayx Xudoydod Vali 1490 yillar atrofida Buxoro shaxrida Gulisurh musobaqasida Movarounnuhrning maydonga da‘vogar jami ellik olti polvonini yiqitadi. Shunda temuriy hukmdor Muhammad Boqiy Mirzo Shayx Xudoydoddan tilak so‘raganlarida hozirgi Nurobod tumani o‘rnidagi Ulus elatining adolatsiz begini vazifasidan ozod etishni so‘ragan ekan.[¹]

Shayx Xudoydod Valiy xalq farovonligi va mamlakat obodligi uchun ham jon kuydirib, o‘zi va shogirdlarini yig‘ib atrof dalalarni tozalash, ariq qazish kabi amallarni ham bajarib, xalqimiz ongida ming yillar davomida shakllangan ekologik tarbiya masalalarini odamlar o‘rtasida targ‘ib qilishga harakat qilgan. Bunga misol qilib quyidagi ma‘lumotlarni keltirish mumkin: “Aytur edilarki, u zamonda Hazrat Azizon Shayx Xudoydod rahmatulloh mulozamatida edim. Bir kuni Hazrat Eshon yoronlarga buyurdilarki, paxta dalasini begona o‘tlar va befoyda xashaklardan tozalanglar va ular yoqilmasin, issiqlik sababli tuproq va toshlarni uyub, sohil tomonga ariq qazinglar va yana buyurdilarki, ko‘chalar xashaklardan va najosatdan pok(toza) qilinsin”, degan fikrlari tahlil qilinganda ikkita muhim ijtimoiy jarayonni anglab olish mumkin.

Birinchidan, mehnatkash xalqimizning XVI asrlarda ham paxta yetishtirish borasida katta tajribaga ega ekanligi va unda tasavvuf vakillarining ham faol ishtrok etganligini;

Ikkinchidan, bugungi kunda ham butun insoniyat uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lgan ekologiyani va atrof-muhitni tozalash ishlari Shayx Xudoydod tomonidan aytib o‘tiladi. Asarda bu kabi misollarni yana ham ko‘plab keltirish mumkin.

Bundan tashqari, muhtojlarga yordam berish, ya‘ni zamonaviy tilda aytilganda, kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoyalashni Shayx Xudoydod Azizon o‘zining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan. U quyidagi voqeani bayon qiladi: “bir zamonlar Karmana viloyatida bo‘lganimizda, do‘stlarimizdan biri qarzdor bo‘lib qoldi va uning qarzi ming tangadan oshib ketdi va u qarzidan qutulishdan ojiz edi. Va men uni bu kulfatdan xalos etadigan do‘stni ko‘rmadim. Unga qarz berganlarni izlab topdim va men uchun dunyo tashvishlaridan nima bo‘lsa, o‘z qozon va oftoba va kiyimlarimni va ayolim va bolalarim kiyimlarini baholadim va tushgan pullarning barchasini qarzdorlarga berdim va u qarzidan xalos bo‘ldi”. “Va yana aytur edilarki, bir kuni jami

do'stlar bilan sayr qilardik, havo issiq va biz piyoda edik. Va har kishining kiyimi kirona edi. To'satdan ot-aravada bir kishi chiqib qoldi. Aravada ikki-uch yalang'och bola ko'rinardi. Bu holni ko'rib, ularga rahmim keldi va o'z kiyimimni unga berdim. Va barcha do'stlarimga o'z kiyimlarini u kishiga berishlarini buyurdim. Uning aravasi to'ldi va shuningdek, ishq-muhabbat madadi bilan birovga yordam berdik va bu bilan o'zimiz ham yo'lda shitob bilan yurdik”.

Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Shayx Xudoydod Valiy har qanday holat bo'lmasin muhtojlarga yordam berishni o'zining burchi deb bilgan va bu esa oddiy xalq oldida uning mavqeini yanada oshishiga sabab bo'lgan. Zamona hukmdorlari esa uning bu mavqeidan o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga harakat qilgan.

Shayx Xudoydod Valiy yashagan joylarida nafaqalar va oziq-ovqatni qat'iy hisob bilan birinchi navbatda och qolgan, nochor ayollar va bolalarga, mayib-majruhlarga berishni joriy qilgan. Keltirilgan ushbu jumlar Shayx Xudoydod Valiyni kambag'alparvar shaxs bo'lib, har doim o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yganligini ko'rsatib va bugungi mustaqil davlatimiz ijtimoiy siyosatining asosiy mohiyatini tashkil etadigan “aholini kuchli ijtimoiy himoyalash” tamoili bilan mantiqan bog'lanadi.

Shayx Xudoydod Valiy tariqatda shogirdlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratgan va ma'rifat bosqichini asosiy bosqichlardan biri sifatida e'tirof etgan. Ushbu bosqichda shogirdlariga sahih hadislar, Qur'on oyatlaridan saboq bergan. Bunda mushohada qilish uslubi muhim o'rin tutgan. “Manoqib”da Shayx Xudoydod Valiy yashagan muhit, Dashti qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi aholining o'troqlashish jarayoni, savodlilik darajasi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, muallif Shayx Xudoydod Valiy tilidan quyidagi jumalarni keltiradi: “Biz hozir bandalarga xos bo'lgan ta'lim talabini pasaytirib yuborganmiz, nima uchun o'troq bo'layotgan xalqlar orasida donishmandlar yo'q”,-deb kuyunadi.

Shayx Xudoydod o'z muridlariga “Olimlik bu amaliyot bilan ilimning birlashmasi” deb tushuntiradi. Shu bois o'zi o'qitayotgan talabalar bilan ham amaliy, ham nazariy mashg'ulotlar olib borar, ularni bilim darajasini tekshirib turardi. Xususan, manbada ustoz va shogird o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javob quyidagicha keltiriladi: “Mantiq nimani o'rgatadi? . Mantiq bu qurol, vosita, zehnni xato fikrlardan qo'riqlaydi”,- degan javobni oldi. Shuningdek, Shayx Xudoydod talabalarga har doim odamlar, do'stlar orasida bo'lishni ta'kidlardi. Zeroki, kishi odamlardan xoli bo'lsa, uning holi zaif va ishlari nomaqbuldir. Undan xalqqa kam foyda tegadi va anjumanda ham xilvatda bo'ladi. Aytur edilarki, xaloyiq oldida bu kishi jamiyatsizdir va u bundan huzur qiladi. Agar bundan zahmat cheksa, u kamolotga erishmaydi va irshodlikka loyiq emas. Kimki ilm bo'lsa-yu, unga amal qilmasa ablahlar sirasiga kiradi. Agar amaling ilming bilan payvast bo'lmas ekan, sening turqu tarovating donishmandligingni bildirmaydi,-deydi.

Shayx Xudoydod Valiy yassaviya tariqati silsilasining XV asr oxiri XVI asrdagi davomchisi sifatida o‘z davrining mashhur piri darajasiga yetib, o‘zidan keyin 50 ga yaqin muridga rahbarlik qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Shayx Xudoydod Valiy hayot yo‘li bugungi yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir. U zotning ham ibodat, ham xilvat ichra el bilan birga bo‘ldi. Uning davati el-yurtning mehnatga va uning ortidan saodatga eltuvchi yo‘l bo‘lib xizmat qildi. Bu boradagi ishlaridagi ibrat bugungi yoshlarni ijtimoiylashuvi borasida ular uchun ibrat namunasi. Shayx Xudoydod Valiy ta‘limotlarida real hayotga mos ijtimoiy odob, ekologik qarashlar, ijtimoiy himoya, oila, el-yurt oldidagi ma‘ullikni oshirib, borasidagi qarashlari bugungi kunning yoshlarida ijtimoiylashuvida yordamchi fikrlar namunasi bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Ayni damda Shayx Xudoydod Vali o‘z ta‘limotlarining maqsadi tasavvuf g‘oyalaridagi haqning haqiqatini el-yurt, insonlar orasidan izladi.

Adabyotlar.

1. Валихўжаев Б., Ўринбоев Б. Худойдоди Вали. Самарқанд, 1995.
2. Бўлдиева С. Нурота. Эссе. Т.: “Шарқ” 2003.
3. Иноятов С., Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгусида. Т. “Шарқ”. 2006.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовароуннахр, 2009.
5. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Т.: Истиклол, 1999.
6. Ҳамидхон Исломи, Маҳмудхон Насани Мавлоно Ориф Деггарони Фалсафа ва ҳуқуқ нашрийоти Тошкент-2007.
7. Ҳамидулла Болтабоев, Ислому тасаввуфи манбалари (тасаввуф назарияси ва тарихи) “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи Т-2005.
8. Ҳусайин ас-Сарахсий. Маноқиб Саъдийа. Хўжа Ислому мақомотлари / Форсчадан Х. Тўраев таржимаси. – Бухоро, 2002.
9. Ҳайдархўжа Й. Баҳоуддин Нақшбанд Тошкент “Sano-standart” 2019.
10. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi Tomm.Т.: “Ma’naviyat”, 1998.

ОҚЫТУДЫҢ ЗАМАНАУИ ӘДІСТЕРІ

Қазақстан Республикасы, Ө.Жәнібеков ат. Оңтүстік Қазақстан педагогикалық университеті
Битурсын Сауле Сериковна PhD, аға оқытушы
Шертаева Нейля Турдығалиевна, х.ғ.к. доцент
Арзимат Аль-Тарази - 4 курс студенті

Аңдатпа: Мақалада соңғы жылдары оқытудың инновациялық тәсілдерімен қатар әртүрлі заманауи әдістерімен оқытудың технологияларын енгізу қарастырылған.

Кілтті сөздер: оқыту, инновация, білімгер, стандарт, бірлескен оқыту, төңкерілген сынып, өз бетінше оқып-үйрену.

Annotation: the article discusses the introduction of teaching technologies in recent years with various modern methods, as well as innovative approaches to teaching.

Key words: learning, innovation, learner, standard, collaborative learning, inverted class, self-study.

1. Кіріспе

Басқа салалардағы сияқты, осы кезеңде білімнің бет-әлпеті де күрт өзгерді. Бұрын мұғалімдер білім беру мен студенттер арасында көпір құрудың жалғыз құралы болған. Олар тақырыпты түсіндіру немесе жазбалар жасау үшін әдеттегі педагогикалық әдістерді қолданды. Алайда, қазіргі білім студенттерді терең оқуға және қызығушылықтарын қанағаттандыру үшін оқуға итермелейтін үлкен сценарийді көреді. Соңғы жылдары біз оқытудың әртүрлі заманауи әдістерімен танысамыз және оқытудың инновациялық тәсілдерімен қатар технологияларды енгізу білім беру саласындағы төңкеріске әкелді [1].

2. Әдебиеттерге шолу

Заманауи технология мынадай 3 бағыттан тұрады:



1-сурет. Заманауи технология

Төменде оқытудың заманауи әдістері келтірілген:

Бірлескен оқыту

Бұрын студенттерден емтихан кезінде немесе әдеттегі күндерде тақырыпты немесе бағдарламаны қайта қарауды сұрағанда, олар әдетте бағдарламаны жеке отырып немесе үйде қайта қарады. Бұл тәжірибе дәстүрлі оқыту әдістерінде кең таралған. Бұл мәселені шешу немесе студенттерге пайдалы алаң ұсыну үшін мектептер бірлескен оқытуды ұсынады. Оқытудың осы заманауи әдісінде мұғалімдер студенттер тобын құрады, онда олар өз мәселелерін шеше алады, тақырыптарды талқылайды және сұрақтарын нақтылайды. Бұл әлеуметтік дағдыларды дамытуға көмектеседі және студенттерге тақырыпты тезірек түсінуге мүмкіндік береді.

Оқытудың осы заманауи әдісінде әр оқушы топтың жетістігінің бөлігі болып табылады, өйткені олар бір-біріне қажетті нәтижеге жетуге көмектеседі, сонымен қатар бір-бірімен сөйлесуді үйренеді. Оқушылар басқаларға төзуге үйренеді, басқаларды тыңдау және командада жұмыс істеу дағдыларын дамытады. Олар әр түрлі адамдармен танысып, өз жұмыстары туралы шынайы пікір ала алады.

Студенттер өз идеяларын ұсынады және олар оқу тобында болған кезде жауап күтеді. Бұл оларға өз шығармашылығымен бөлісуге және көбірек білім алуға мүмкіндік береді. Өз кезегінде, бұл оларға салауатты сынға және айқас сұрақтарға қарсы тұруды үйренуге көмектеседі. Осылайша, мектеп басшылығы өз оқушыларын оқыту үшін бірлескен оқыту әдісін таңдауы керек [2].

Төңкерілген сынып

Төңкерілген сынып-бұл педагогикалық әдістегі белгілі термин. Бұл қазіргі уақытта қолданылатын өте маңызды заманауи оқыту әдістерінің бірі. Оқытудың бұл әдісінде оқыту процедурасы инверттелген түрде жүреді.

Дәстүрлі тәсілдерден айырмашылығы, студенттер үйде жаңа материалды өз бетінше үйренеді және мектепте де солай істейді. Бұл әдіс мектепте мазмұнды ұсынудың кері жағы болып табылады және студенттерден оны қайта өңдеуді немесе үйде жаттығуды сұрайды. Студенттер бұл әдісті үйде видео оқулықты қарау, Интернетте іздеу немесе мұғалім бөлісетін мазмұнмен жұмыс жасау арқылы қолданады. Оларға үйде үй тапсырмасын орындаудың қажеті жоқ. Оның орнына олар оны мектепте аяқтайды [3].

Өз бетінше оқып-үйрену

Қызығушылық студентті әрдайым жаңа және көбірек білуге итермелейді. Бұл студенттерді бірден ұмытып кететін мәтіннің үлкен кеңістігін оқып, есте сақтауға шақырады. Студенттер өздерінің қызығушылықтарының арқасында өздерін қызықтыратын пәндерді зерттеуге ынталы болады. Студенттерді интернетте жұмыс істеуге және өз нәтижелерін іздеуге үйрету олардың тәуелсіз болуына көмектеседі және мазмұнды терең түсінуге мүмкіндік береді.

Ойын технологиясы

Интернеттегі ойындар немесе алаңдағы ойындар болсын, балалар ойындарды жақсы көретіні белгілі. Ойындар арқылы оқыту-қазіргі заманғы оқыту әдістерінде қолданылатын ең маңызды заманауи оқыту әдістерінің бірі.

Оқытудағы ойын әдісін қолданудың мәні негізінен бастауыш және мектепке дейінгі жүйеде көрінеді. Ойындар арқылы оқытуды студенттер тіпті жүзеге асырмайды. Ол сонымен қатар студенттерді ынталандырды және мектеп жасына дейінгі балалар үшін ғана емес, кез-келген жастағы балалар үшін де тиімді болды.

Ойын арқылы оқу жауапкершілігі мұғалімдерге жүктеледі, өйткені олар тиісті жастағы студенттерге сәйкес келетін жобаларды жоспарлауы немесе жобалауы керек. Олар студенттерді ұзақ уақытқа байлап, олардың қызығушылығын сақтау үшін қызықты шараларды қамтуы керек. Мұғалімдер ойын технологиясы аясында онлайн-платформаның көмегін де пайдалана алады. Мұғалімдер онлайн викториналар, жұмбақтар немесе ми ойындарын ұйымдастыра алады. Бұл заманауи оқыту әдісі қызықты оқыту әдісі болып табылады [4].

Кросс-оқыту

Қазіргі заманғы оқытудың кең таралған әдісі-бұл ресми және бейресми оқыту мен оқыту ортасын қолданатын кросс-оқыту. Бұл студенттерге жақсы білім берудің ең жақсы тәсілдерінің бірі. Кросс-оқыту студенттерді тиімді тартады және шынайы, бірақ инновациялық нәтижелерге қол жеткізеді.

3. Талдау мен нәтиже

Заманауи оқытудың артықшылықтары

Студенттердің білім беру жүйесін модернизациялаумен қатар, оқытудың бет-бейнесі де осы 21 ғасырдағы өзгерістің куәсі болып табылады. Оқытудың заманауи әдістерін қолданбас бұрын, олардың сіздің жүйеңізге тигізетін пайдасы мен артықшылықтары туралы көбірек білу керек. Осылайша, бұл қызметтерді ең аз шығынмен максималды пайдалануға мүмкіндік береді. Қазіргі оқытудың кейбір маңызды артықшылықтарын қарастыруға болады.

Қазіргі оқыту жүйесі бұрын әдеттегі оқыту жүйесінің бөлігі болған қасықпен тамақтандырғандай дайын әдістерге толық сенбейді. Қазіргі заманғы әдістер стандартты

оқыту жүйесі тұрғысынан балалардың танымдық ойлау дағдыларын дамытуға бағытталған [5-6].

Дәстүрлі және заманауи оқыту әдістерінің айырмашылықтары

Ғасырлар бойы практикада оқытудың бір ғана әдісі болды, онда мұғалім сабақты түсіндіреді, ал оқушылар оны жаттап, оны оқыту ретінде қайталайды. Дәстүрлі оқыту әдістері біздің еліміздің көптеген аудандарында әлі де басым. Оқу орындарында мұғалімдер ақпарат алудың жалғыз көзі болып табылады. Мұғалімдер студенттерге бұл тұжырымдаманы тақтай мен бордың көмегімен түсіндіреді. Олар барлық мазмұнды тақтаға жазып, оқушылардан дәптерлеріне жазуды, жазбаларды есте сақтауды және қайталауды сұрайды. Бұл оқу орындарында оқудың барлық бағыты семестрді тапсыру болып табылады.

Бұл дәстүрлі оқыту әдісі деп аталады, бұл студенттер мен олардың инновациялық ойлауына кедергі болды. Сонда олар әлі де шешім қабылдау және проблемаларды шешу дағдыларына ие емес. Екінші жағынан, оқытудың заманауи әдістері студенттерге бағытталған және практикалық тәсілдерге бағытталған.

Қоғам оқыту әдістеріне негізделген үш топқа бөлінеді. Дәстүрлі оқыту әдістерін қолдайтын адам. Екінші топ-оқытудың заманауи әдістерін жақтаушылар. Сонымен қатар, үшінші тәсіл дәстүрлі және заманауи оқыту әдістерін артық көреді. Үшінші топ оқытудың екі әдісінің үйлесіміне сенеді.

Ұлттың өсуі жақсы білім мен күшейтілген жүйелерге байланысты. Білім беруді қамтамасыз етудің көптеген құралдары бар қазіргі уақытта да біз дәстүрлі оқыту әдісіне көбірек мән беретін кезеңде тұрмыз. Бірақ жақсы нәтижеге қол жеткізу үшін дәстүрлі оқыту әдістерін де, заманауи оқыту әдістерін де біріктіру қажет [7].

Дәстүрлі оқыту әдістерінің артықшылықтары

Оқытудың дәстүрлі әдістерінің көптеген артықшылықтары бар. Алайда, бұл артықшылықтар қазіргі оқыту әдістерінің кемшіліктері болып табылады.

-Оқытудың дәстүрлі әдістері, яғни сыныпта оқу қазіргі әдістер сияқты қымбат емес. Осылайша, ауылдық жерлер оны қаржылық күйзеліссіз қолдана алады.

-Дәстүрлі оқыту әдістерінде студенттер мен оқытушылар берік байланыс орнатады және олар қазіргі оқыту әдістерінен гөрі өзара әрекеттеседі.

-Тәртіпті қазіргі заманға қарағанда дәстүрлі оқыту жағдайында жақсы сақтауға болады.

-Химия және басқа да жаратылыстану пәндері бар, олар тақтада түсіндіруді қажет етеді және тақтада түсіндіруді жақсы түсінуге болады.

-Техникалық білім дәстүрлі оқыту әдістерінде қажет емес, өйткені қазіргі оқыту әдістері мамандандырылған тәсілді қажет етеді.

Дәстүрлі оқыту жүйесінде барлық мұғалімдер оқыту мен оқу ортасына жауап береді. Олар шешім қабылдауда және студенттерді оқытуда жалғыз өздері рөл атқарады. Сонымен қатар, студенттер өз сыныптарындағы көптеген студенттермен қарым-қатынас жасай алмайды, өйткені әлі де отыратын қатарлар қолданылады.

Заманауи оқыту әдістері

Осы кезеңде жоғары технологиялармен жабдықталған заманауи оқыту мен білім беру әдістерінің маңыздылығы сезіледі, сондықтан білімге жаңа әдістерді енгізу басталды. Сыныптарда жаңа әдістер мен жаңа технологиялық гаджеттер пайда болды:

-Wi-Fi байланысы бар компьютерлер немесе ноутбуктер;

-Интерактивті тақталар.

Интернет компьютерлері-бұл білім беру жүйесіндегі революция. Жоғары оқу орындары компьютерлері мұғалімдердің компьютерлерімен байланысты студенттерге мазмұнды түсіндіру үшін компьютерлерді орта ретінде пайдаланады.

Оқытудың заманауи әдістерінің артықшылықтары

Қазіргі оқыту әдістерінің көптеген артықшылықтары бар. Алайда, бұл артықшылықтар дәстүрлі оқыту әдістерінің кемшіліктері болып табылады.

-Оқытудың дәстүрлі әдістерінен айырмашылығы, қазіргі оқыту әдістері интерактивті және ол анимация мен бейнелер арқылы студенттердің қызығушылығын арттырады.

-Көрнекі медиа кез-келген басқа медиаға қарағанда әлдеқайда жақсы, нұсқаулық береді. Бұл тұжырымдаманы тез және ұзақ уақыт оқуға қарағанда есте сақтауға көмектеседі.

-Қазіргі заманғы оқыту әдістерінде мұғалімдер оқу бағдарламасын үйренуге аз уақыт жұмсайды. Тақтаға жазу қажет емес.

-Тақтадағы мазмұнды түсіндіру қазіргі оқыту әдістерінде қолданылатын бейнелер мен анимацияларды ұсынудан гөрі аз түсіндіріледі.

Дәстүрлі сабақ үрдісінде - мұғалім әрекеті.

- 1.Тақырыпты түсіндіреді.
2. Есеп шығаруды меңгертеді және талдайды.
3. Үй тапсырмасын орындап келуді тапсырады.

Оқушының әрекеті :

1. Кітаптың мазмұнын айтып береді.
- 2.Тақырып бойынша мұғалімнің түсіндіргенімен байланыстырып айтады.
4. Көрсетілген есеп бойынша қарап,есеп шығарып келеді.

Жаңа оқыту технологиясы негізінде өткізілген сабақ үрдісінде мұғалім әрекеті.

- 1.Топқа бөліп, ой қозғайлы.
2. Тақырыпқа қызықтырып бағыттайды.
- 3.Шынайы өмірмен байланыстыру арқылы баға беруге бағыттайды.
- 4.Қызықты ойындар беру арқылы тың мәліметтермен таныстыралы.

Оқушы белсенділігі:

- 1.Топтарда жұмыс жасайды.
2. Тақырыппен өздері танысалы.
3. Ой қорытып, оны қағаз бетіне түсіреді.
4. Өзара пікір алмасып, зерттеу жұмыстарын жүргізу арқылы белсенділік көрсетеді.

4.Қорытынды

Педагогиканың даму үдерісінде осы қазіргі кезеңге дейін мұғалім үйретуші, оқушы үйренуші, мұғалім білім үйлестіруші және орындатушы, оқушы қабылдаушы және орындаушы рольдерінде жұмыстанатын болып келді. Таңдау бұл үдерісте ешқайсысының күзиретінде болған емес. Сол арқылы, берілген материалдардың қабылдау деңгейін анықтау үшін диалог кеңінен пайланып келген тәсілдердің бірі деуге болады. Себебі мұғалім мен оқушы арасындағы қарым-қатынасты қалыптастыру және өзара түсіністікті арттыру үшін диалогтың маңызы зор. Мұғалім оқушыға немесе керісінше оқушы мұғалімге сұрақтар қоюының және оның жауабының берілуінің формасына қарай жұмыстың әрі қарай өрбу барысын бағыттауға болады деп есептеймін.

Сұрақтың жуан-жіңішкелілігі осы жерден үлкен көрініс табады, себебі қай-қайсысының тарапынан болса да дұрыс, орынды қойылған сұрақтар оқушыны да, мұғалімді де ойландырып қоятыны сөзсіз. Тек тақырыптан ауытқымай нағыз, дінгегін ұстауға мүмкіндік беретіндей, мазмұнын ашуға итермелейтін проблема қоя білу қажет. Әрбір сабақ мұғалімнің шығармашылық жұмысы.

Сондықтан да әр сабақты оқушылардың есінде қалатындай етіп түрлендіріп отырған жөн. Қазіргі ғылым мен техниканың дамыған заманында оқушылардың білім деңгейін тереңдету, ғылыми тұрғыда дамыту, өз бетімен жұмыс істеуге дағдыландыру, ойлау қабілетін дамыту, сөйлеу шеберліктерін арттыру, өз беттерімен ізденушіліктерін, ақпараттық құралдарды іздестіру және оны пайдалана білу мақсатында жаңа технология әдістерін тиімді пайдалану ұстаз шеберлігінің белгісі. Қазіргі уақыт бүкіл адамзат қоғамының ғылыми – техникалық үрдіс пен өркениеттің даму кезеңіне бет бұрған уақыт деп есептеймін.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ:

-
- 1.Тўрғынбаева Б.А Мұғалімнің шығармашылық әлеуметін біліктілікті арттыру жағдайында дамыту.: теория және тәжірибе // Алматы. 2005, 174-бет
 2. Мыңбаева А.К, Садвақасова З.М.“Оқытудың инновациялық әдістері немесе сабақты қалай қызықты өткізуге болады”.Оқу құралы-Алматы,2010
 3. Ушинский К. Д. «О пользе педагогической литературы» /Статья в журнале «Для воспитания» на сайте НПБ им. К. Д. Ушинского РАО
 - 4.Инновационные педагогические технологии. Активное обучение /Панфилова, А.П. - 2011
 5. Қабдықайыров Қ., Инновациялық технологияларды диагностикалау. – А, 2015
 - 6.«Электрондық оқыту ортасында педагогтардың құзырлығын қалыптастыру» Ахметова Г.К., Мұхамбетжанова С.Т. Алматы, 2012
 - 7.Лаханова Ф.Е., Бакирова К.Ш. //Биология пәнін ақпараттық-коммуникациялық технологияны пайдаланып оқытудың ерекшеліктері. // Хабаршы, Қазақ ҰПУ, Алматы. 2019. №4 (80). Б. 21-26.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO`LAJAK O`QITUVCHILARNING TANQIDIY
FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING
OMILI SIFATIDA**

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Samarqand, Samarqand shahar

E-mail: aoynisaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish haqida so`z boradi. Bundan tashqari talabalarining tanqidiy fikrlashini shakllantirishning muhim jihatlari va pedagogik shartlari yoritilib beriladi. Shu bilan birgalikda, tanqidiy fikrlashni shakllantirishning texnologik yondashuvi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so`zlar: Tanqidiy fikrlash, asosiy jihatlari, pedagogik shartlar, texnologik yondashuv.

Abstract. This article talks about the development of pedagogical activity through the formation of critical thinking skills of students of higher education institutions. In addition, important aspects and pedagogical conditions for the formation of students' critical thinking are highlighted. Along with this, information is provided about the technological approach to the formation of critical thinking.

Key words: Critical thinking, main aspects, pedagogical conditions, technological approach.

Kirish.

Bugungi kunda, dunyoda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda va ta'limni rivojlantiruvchi yangicha yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, bu esa o'z o'zidan dunyoning barcha qita'larida ta'lim sohasining keskin rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu jumladan, bu o'zgarishlarga 4K(kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolloboratsiya) modeli ham yaqqol misol bo'la oladi. Ko'rinib turibdiki,

bu modelning birinchisida kritik tafakkur ya'ni tanqidiy tafakkurni o`stirish nazarda tutilgan. Bu model ko`plab rivojlangan davlat ta'lim sohasida sinovdan o`tzildi va o`zining ijobiy samarasini berdi. 4K modelining barcha ko`nikmalari bir biri bilan uzviy bog`liq va ular ta'lim sohasida bo`lajak o`qituvchilarning har tomonlama yetuk bo`lishi uchun xizmat qiladi[1].

Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijasida, O`zbekistonda Oliy pedagogik ta'lim sohasida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoni tushunish, optimal yechim tanlay olish, kreativ va tanqidiy tafakkur farqlarini bilishni shakllantirishning pedagogik zarurati mavjud ekanligi anqlandi. Shu sababli, bu natijalarga erishish maqsadida, 4K modelini milliy ta'lim tizimiga olib kirish va bu 4 yo`nalishni rivojlantirish bo`yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Metadologiya.

Oliy ta'lim muassasalarida bo`lajak o`qituvchilar yangi axborotlarga duch kelar ekan, avvalo uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o`z ehtiyoj va maqsadlari yo`lida foydalana olish imkoniyati to`g`risida xulosa qila olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo`lib yetishish uchun talabalar ijodiy fikrlab, o`zini sinab ko`rishi va bunga oid malakalarni egallashlari zarur.

Tanqidiy fikrlash muloqot madaniyatini o`stiradi va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi. Talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish natijasida har bir rejali o`quv jarayonining didaktik ta'minoti e'tiborga olinadi, tahsil oluvchi o`quv materialini qanday o`zlashtirayotganing doimiy monitoringi ishlab chiqiladi, ta'lim jarayonidagi muammolarning yechimini topishga harakat qilinadi[2].

Mohir pedagog o`qituvch o`quv jarayonida tug`iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko`ra yaxshiroq tushunadi. Pedagogning vazifasi tanqidiy fikrlashni rag`batlantirib turuvchi muhitni yaratishdangina iborat bo`ladi va u tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:




Fig1. Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan holatlar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallanishi va unutilishi mumkin bo`lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo`llar yo`q. Biroq, o`qitish shartlarining muayyan to`plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi pedagogik shartlarga alohida e`tibor berish zarur:

- Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
- Talabalarga fikrlash imkoniyatini berish;
- Turli g`oya va fikrlarni qabul qilish;
- O`quv jarayonida talabalarning faol qatnashishlariga imkon berish;
- Talabalarni tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonitirish.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda texnologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan ta`lim texnologiyalarining o`zga xos jihatlari:

- ❖ o`quv jarayoni ilmiy jihatdan asoslangan qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etiladi.
- ❖ talaba shaxsi bilan taqdim etilgan axborotlar orasida aloqadorlik vujudga keladi.
- ❖ mazkur texnologiyaning yo`nalishlari, qismlari, talabalarni fikrlash va refleksiya undaydi.
- ❖ har bir o`quv vaziyati, o`quv daqiqasida o`qituvchi moslashuvchan va muloqotga undovchi subyekt sifatida namoyon bo`ladi.

❖ talabalarning tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini aniqlash uchun asosan matn ustida ishlash tavsiya qilinadi. Shu maqsadda matn bilan ishlashning turli vizual shakllari va strategiyalari taqdim etiladi.

❖ talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun munozaralar va loyihalash mashg`ulotlari muhim ahamiyatga ega.

❖ talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo`naltirilgan texnologiyalar yalpi ta`lim jarayonini o`zaro hamkorlik, birgalikda rejalashtirish, fikrlash asosida amalga oshirilishini ta`minlaydi.

Texnologiya atamasi tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoniga tadbiqan qaraganda algoritmlashganlik hamda oddiylik ma`nosiga ega emas. U muayyan maqsadga yo`naltirilgan ochiq strategiyalar tizimidir. Bu texnologiyalar yordamida talabalarda mustaqil tanqidiy fikr shakllantiriladi.

Tepada keltirilgan asosiy xususiyatlar, pedagogik shartlar va texnologik yondashuvga amal qilgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirish talabalarga quyidagi afzalliklarni beradi:

- Ma'lumotlarni faol tarzda qabul qilishni;
- Muammolarni hal etishni;
- Turli vaziyatlarda bilimlarini qo`llay olishni;
- Tahlil qilish, xulosa chiqarish, o`zining xisssiyotlari va fikrlarini baholay olishni;
- O`zgacha fikrlarni qabul qilish uchun ochiqlikni;
- Boshqa odamlar bilan hamkorlik qila olishni;
- O`zining xatolarini to`g`rilashga tayyorlik va murosaga kela olishni;

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama bilimli, malakali, o`z pedagogik faoliyatining mohir ustasi, muammoli bo`lgan pedagogik vaziyatlardan optimal yechimlar bilan chiqa oluvchi pedagogni tarbiyalashda tanqidiy tafakkurning qay darajada shakllanganligi juda muhim. Shu sababli, ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchining tanqidiy fikrlashini shakllantiruvchi turli xil foydali, e`tiborli jihatlar, uning pedagogik shartlari, texnologik yondashuvda shakllanishi va talabalar erishishi mumkin bo`lgan barcha xarakteriskalar to`g`risida batafsil aytili. Ishoniladiki, ushbu yozilgan ma'lumotlardan foydalanib o`quv jarayonini tashkil qilish – talabalarning tanqidiy fikrlashini yetarlicha rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Begmatova D.M., Rashidova O.X. (2024) “Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach”, « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal , volume , issue , 2024, 25-31, DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051>

2. R.Tuxtasheva (2022) tuzuvchi, “ O`quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish asoslari” nomli o`quv uslubiy majmua, Samarqand-2022.

3. Sulaymonova D.N. “ Loyihaga asoslangan o`qitish vositasida bo`lajak o`qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish” : Ped. Fan.dok. diss. – Sam. 2023.

4. Xiang Lifl , Zhaoyang Gao, Hong Liao. (2023) “ The Effect of Critical Thinking on Translation Technology Competence Among College Students: The Chain Mediating Role of Academic Self-Efficacy and Cultural Intelligence” Psychology Research and Behavior Management 2023:16

O`QUVCHILARNI AXLOQIY ESTETIK MA`NAVIYAT RUHIDA TARBIYALASH

**Navoiy davlat pedagogika instituti Musiqa ta`limi
yo`nalishi 3V guruh talabasi Voxidjonova Sevinch
Musiqa ta`limi kafedراسi katta o`qituvchisi.
Z.P.Xodjabayeva**

Annatasiya: Ushbu maqola o`quvchi yoshlarni musiqiy fanlarni o`qitish orqali musiqiy estetik ma`naviy ruhda tarbiyalash borasida olib boriladigan tadbirlar va omillar haqida yozilgan.

Tayanch so`zlar: estetik axloqiy, tadbir, tafakkur, musiqiy estetik tarbiya, musiqiy ta`lim, musiqiy tarbiya, emotsiya, san`at va madaniyat, estetika, badiiy did, tarbiyalash

Аннотация: В данной статье говорится о деятельности и факторах, участвующих в воспитании у школьников музыкально-эстетического и духовного духа посредством.

Ключевые слова: эстетическая этика, событие, мышление, музыкально-эстетическое воспитание, музыкальное воспитание, музыкальное воспитание, эмоция, искусство и культура, эстетика, художественный вкус, воспитание.

Abstract: This article talks about the activities and factors involved in educating schoolchildren's musical, aesthetic and spiritual spirit through.

Key words: aesthetic ethics, event, thinking, musical-aesthetic education, musical education, musical education, emotion, art and culture, aesthetics, artistic taste, education.

O`zbekiston Respublikasi o`zining ma`naviy yangilanish yo`lida ijodning barcha turlari rivojlanishiga sharoit yaratib berishga, usib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, o`smirlarni axloqiy, estetik, ruhda tarbiyalash ishiga katta e`tibor berilmoqda.

O`smirlarni estetik tarbiyalashda maktab, sinf va oila muhiti katta ahamiyat kasb etadi. O`smir jamiyatda, atrof-muhitda, hayotda sodir bo`layotgan voqea, hodisalardanta`sirlanib ularga o`zini munosabatlarini bildirib boradi, shu asosida usmirning ma`naviy dunyosiva tafakkuri shakillanib boradi.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyiligini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmunmohiyatini ochib berishga maqsadga muvofiqdir.

Musiqarahbari musiqa mashg'ulotida o'quvchi yoshlarda quyidagi fazilatlarni shakllantirishi lozim: do'stlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-shavqat, mehnatsevarlik, tashabbuskorlikvahokazo. O'quvchi-yoshlarda yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarni shakllantirish uchun musiqiy rahbar birqator vazifalarni bajarishi kerak:

- 1) Musiqani sevish va tushunishga o'rgatish;
- 2) Badiiy va estetik didlarni shakllantirish;
- 3) Musiqiy qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) Musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, qo'shiq kuylash kabi musiqiy bilimlarini hamda tushunchalarni kengaytirish [5,41].

An'analarga sodiqlik tushunchalari tufayli usmirlarda ma'naviy burchshakillanib boradi. Ularda insonparvarlik mehr oqibat iymon, etiqod, Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarni e'zozlash, ota-ona o'z yaqinlariga insonlarga muruvvati sahovali bo'lish kabima'naviy estetik tarbiya belgilari tarkib topadi. O'smirlarni ma'naviy estetik tarbiyalash muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchi ijodkorligigaham bog'liq. Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, estetik didi yuqori darajada pivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda milliy an'analarning ahamiyati beqiyosdir. Bunda o'qituvchi va pedagog va ixtisoslik bo'yicha chuqur bilimi, kasb mahorati, o'mirlar bilan dustona muloqot madaniyati, ma'naviy estetik darajasi, bayram tadbirlarini samarali shakl va usullaritanlay bilishi, an'ahalarni o'rganishga, o'z ustida ishlashga intilish darajasi va boshqalar shakllangan bolishi kerak.

O'smirlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash asosan to'rtta yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

- Ona vatanga muhabbat
- O'smirlarning mehnatga bo'gan munosabatni shakllantirish
- O'smirlarning shaxs sifatida insonlarga bolgan munosabati
- O'smirlarning o'z oziga bo'lgan munosabati

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri, yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirgan tajribalarini singdirish, Vatan va millat oldidagi burch va ma'suliyatni his etishga o'rgatishdan iboratdir.

Osmirlarni milliy an'analarda vositasida ma'naviy estetik tarbiyalash maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar bir qator omillarga e'tibor berishni talab etadi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- tadbirlarga xos shakl, usul va vositalarning milliy xarakteri:

-
- tadbir jarayonida erkinlikka erishish, insonparvarlashtirish va mahoratga etibor berish:
 - o'smir yashayotgan o'lka an'analarining mazmun qamrovi, boyligi, tarixiy o'rni va ahamiyati:
 - to'garak faoliyatining mazmunan rang-barangligi:

Bu omillarning pedagogik ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari va holatlarini hisobga olish ma'naviy qadriyatlar va an'analar tizimini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy estetik tarbiyalash maqsadi va vazifalarni ijobiy hal etishda mashg'ulotlarning xarakteriga mos ma'naviy muhit yaratish, barcha omillarga tayahish zarur bo'ladi. O'qituvchi bilim saviyasining o'mirlar talabiga mosligi, o'qituvchi uslubiyatidagi rang barahglik, maktabning moddiy va ma'naviy bazasi, ko'rgazmali qurollar, o'smir oilasining ma'naviy muhiti boshqa sinfdan va maktabdan tashqari bayramlar o'smirni ma'naviy estetik tarbiyalash uchun zarur muhitni yaratishga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G. SHaripova Musiqa va uni o'qitish metodikasi T.2006
2. R.G.Qodirov Boshlang'ich sinflarda ko'p ovoqli kuylash T.,11997 O'qituvchi.
3. A. Zimina Osnova muzыkalnogo vospitaniya i razvitiya dite mladshego vozrosta. M., 2000
4. Shafoat Rahmatullo Termiziy Boshlang'ich musiqa ta'limi Tetmiz-2001
5. Ualiev G.I., Rejametova N.I. Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi. –Toshkent, 2018. –B. 41

TALABA ALMASHUV DASTURI AMALDA

Bozorova Dilfuza Yo'ldoshovna - Navoiy davlat pedagogika instituti, magistr
Ubaydullayeva Sabina Shavkat qizi - Navoiy davlat pedagogika instituti, talaba
Ashurova Dilfuza Nabiyevena - Navoiy davlat pedagogika instituti Matematika kafedrası
dotsenti, tel: +99890-731-85-06

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim tizimidagi xalqaro va mintaqaviy akademik mobillik va uni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi bir necha jihatlar to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Mobillik, mintaqaviy mobillik, xalqaro mobillik, tajriba almashish, talaba almashuv dasturi, Erasmus dasturi.

Аннотация. В статье раскрыта информация о международной и региональной академической мобильности в системе высшего образования и некоторых аспектах, влияющих на ее развитие.

Ключевые слова. Мобильность, региональная мобильность, международная мобильность, обмен опытом, программа обмена студентами, программа Erasmus.

Annotation. The article discloses information about international and regional academic mobility in the higher education system and some aspects influencing its development.

Keywords. Mobility, regional mobility, international mobility, experience exchange, student exchange program, program Erasmus.

Globalashuv jarayonlari oliy ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda xalqaro miqyosda oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengayib borishi, bilim olish istagida bo'lgan yoshlarni rivojlangan davlatlardagi TOP-universitetlarga nisbatan qiziqish va ularda tahsil olish istagi oshib bormoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimidagi xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikni yanada rivojlantirish uchun katta istiqbol va imkoniyatlar mavjud.

Akademik mobillik — oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga kelishuv asosida o'qish maqsadida borishini anglatadi.

Akademik mobillik oliy ta'lim tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omillaridandir. Bu ta'lim muassasalarini bir-biri bilan solishtirish imkoniyati, muhim jihatlarni o'zlashtirish, joriy etish orqali oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarini, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi tegishli qaroriga ko'ra, mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida “Akademik mobillik va kreditlarni tan olish” jarayoni amaliyotga keng joriy etilmoqda[1].

Xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikni yanada rivojlantirish istiqbollari nazar tashlasak, unga ta'sir qiluvchi bir necha jihatlar mavjud.

1. *Bilim va tajriba almashish* - talabalar va o'qituvchilarning mobilligi turli universitetlar va mamlakatlar o'rtasida bilim, ko'nikma va tajriba almashish imkonini berib, oliy ta'limni rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. *Xalqaro tajribani kengaytirish:* xalqaro akademik mobillik talabalar va o'qituvchilarga boshqa mamlakatning madaniyati, tili va turmush tarzini o'rganish imkoniyatini beradi.

3. *Ta'lim sifatini oshirish*: Xalqaro va mintaqaviy mobillik ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Talaba va o'qituvchilarning boshqa universitetlarda tahsil olishi, ularni tadqiqot qilish va izlanishlar olib borishda yangicha yondashuv va usullarni o'rganadilar.

4. *Iilmiy aloqalarni mustahkamlash*: Xalqaro va mintaqaviy mobillik nufuzli universitetlar va mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, hamkorlikda ilmiy tadqiqot va loyihalarni amalga oshirish, nashrlar almashinuvi va xalqaro konferensiyalar tashkil etish imkonini beradi.

5. *Raqobatbardoshlikni oshirish*: Xalqaro yoki mintaqaviy akademik mobillik bo'yicha tahsil olgan va bu borada tajribaga ega talabalar va professor-o'qituvchilar global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'ladilar. Bu esa ularga yaxshi maoshli ish yoki daraja olish, yuqori martabalarga erishish imkoniyatini beradi.

Mobil talabalar, asosan, 2 guruhga bo'linadi:

- **erkin mobillik**, ya'ni bunda talabalar o'z xohish va istaklari bilan ta'lim olish uchun boshqa hududlarga borishadi;

- **dastur doirasidagi talabalar** – bunda oliy ta'lim muassasasining o'zi yoki uning biror fakulteti boshqa oliy ta'lim muassasasi bilan kelishgan holda talabalar uchun o'zaro almashinuv dasturlarini amalga oshiradi. Dasturlar milliy va xalqaro darajada ham bo'lishi mumkin. Jumladan, xalqaro darajadagi Erasmus dasturi ana shunday talaba almashinuvi imkonini beradigan mashhur dasturlardan biri hisoblanadi.

Aslida, ta'lim olish uchun bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tish juda uzoq tarixga ega jarayon hisoblanadi. Bilim olish istagi bilan odamlar qishloqdan shaharga, shahardan markaziy shaharlarga, markaziy shahardan ta'limi va iqtisodi ancha rivojlangan davlatlarga ilm olish uchun borishadi.

Mintaqaviy mobillik esa talabalar ma'lum muddat boshqa bir oliy ta'lim muassasasida tahsil olishi uchun juda katta imkoniyat – talaba almashinuv dasturlari hisoblanadi. Bu jarayonda talaba o'zi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan boshqa bir hududdagi oliy ta'lim muassasalaridan birida ma'lum muddat o'qib qaytishi mumkin. Bunday ta'lim muassasalari xoh xorijda, xoh o'z davlatida bo'lsin talabaga yangi muhitda o'qish, bilim olish imkonini beradi.

Almashinuv dasturlari qisqa muddatli – 1 haftadan 3 oygacha va uzoq muddatli – 6 oydan bir yilgacha bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda PQ-824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida”gi Nizomi, Navoiy davlat pedagogika instituti va Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'rtasida akademik mobillik dasturi bo'yicha tuzilgan shartnoma hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13-noyabrdagi 3/10-4/1-7590-sonli xatiga asosan Matematika-informatika fakulteti, Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi 3 kursida davlat granti asosida tahsil olayotgan besh nafar talaba 2023-2024 o'quv yilida (5-6 semestr) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining aynan shu ta'lim yo'nalishida o'qishini davom ettirmoqdalar. "Mirzo Ulug'bek vorislari" tayyorlov o'quv kurslariga qabul qilingan ushbu iqtidorli talabalar joriy o'quv yilning oxiriga qadar akademik mobillik dasturi asosida tahsil oladilar[2].

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimidagi xalqaro va mintaqaviy akademik mobillik oliy ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, bu istiqbollarga erishish uchun almashinuv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, dastur almashinuvida ishtirok etayotgan talabalar va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qao'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 824-son Qarori

AKADEMIK MOBILLIKNING QULAYLIKLARI VA MUAMMOLARI

Dildora Ibragimova - Matematika (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahri
Dilnoza Xo'jamova – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi 4-kurs, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahri

Annotasiya. Ushbu maqolada akademik mobillik haqida tushunchalar, uning afzalliklari va ba'zi hollarda talabalarda uchraydigan qiyinchiliklar, O'zbekistonda akademik mobillikni joriy qilinishi va uni amalga oshirish uchun qo'yiladigan talablar yoritilgan.

Kalit so'zlar: akademik mobillik, masofaviy ta'lim, modul-kredit tizimi, ichki mobillik, xalqaro mobillik

Аннотация. В данной статье описаны понятия академической мобильности, ее преимущества и в ряде случаев трудности, с которыми сталкиваются студенты, введение академической мобильности в Узбекистане и требования к ее реализации.

Ключевые слова: академическая мобильность, дистанционное обучение, модульно-кредитная система, внутренняя мобильность, международная мобильность

Annotation. This article describes concepts of academic mobility, its advantages and difficulties faced by students in some cases, the introduction of academic mobility in Uzbekistan and the requirements for its implementation.

Keywords: academic mobility, distance learning, modular credit system, internal mobility, international mobility.

O'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish mamlakatning porloq kelajagi poydevori hisoblanadi. Zero, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar insonning jamiyatdagi munosib o'rinni egalashidagi eng kuchli quroldir. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ta'lim va tarbiya jarayoni hamda pedagoglarning jamiyatdagi nufuzini oshirish muhim o'rinlardan biri ekanligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga ta'limning har bir bosqichidagi o'quv jarayonini tashkil etilishi zarur bo'lgan bilimlarni bera olishi hamda ushbu bosqichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashi talab etiladi. Olib borilgan chuqur islohotlar va izlanishlar natijasida maktab dasturlari o'quvchilarni vaqtini ortiqcha fanlar va mashg'ulotlardan holi qilindi va jarayon tahlil qilinmoqda [1].

Oliy ta'limda ta'lim sifatini va uzluksizligini ta'minlash maqsadida o'quv rejalar maktabda o'tiladigan fanlar mazmunidan kelib chiqib tayyorlanishi taklifi kiritildi. Oliy ta'lim kafedralari yuqoridagi taklif asosida ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv rejalar va fan dasturlarini qayta tahlil qilib 2024-2025 o'quv yilida keng joriy etilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim olish talaba ehtiyojidan kelib chiqqan holda turli shaklarda tashkil etish rag'batlantirilgan. Zamon talablaridan kelib chiqib talabaning mustaqil fikrlashi, ma'lumotlarni erkin baholay olishiga qaratilgan zamonaviy o'qitish shakli – masofaviy ta'lim tizimi hamda hozirgi kunda ommalashib borayotgan, boshqa davlatda (hududda) o'qishni istovchilar yoki ma'lum bir sabablar bilan bir joydan boshqa joyga ko'chishiga to'g'ri keladigan talabalar uchun – akademik mobillikning joriy etilishi shular jumlasidandir. Biz ushbu maqolada ta'limdagi akademik mobillik deb ataluvchi jarayon haqida fikr yuritimiz.

Ta'lim olish uchun bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tish juda uzoq tarixga ega jarayon hisoblanadi. Odamlar qishloqdan shaharga, shahardan poytaxtga, poytaxtdan ta'limi va iqtisodi rivojlangan davlatlarga ilm olish uchun migratsiya qilishadi. O'qish uchun boshqa davlatlarga borayotgan talabalar soni ham yildan yilga oshib bormoqda. 2017 yilda dunyo bo'yicha xalqaro talabalar soni 5,7 millionga yetgan. Bu ko'rsatkich 2000 yilda 2 mln. atrofida bo'lgan. Statistika ko'ra, ko'proq xorijiy talabalar soni AQSH, Kanada, Xitoy va Britaniyada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda esa 5,1 ming xorijlik talaba tahsil oladi. Dunyo miqyosida talabalar asosan ta'lim tizimi yaxshi bo'lgan davlatlarda ta'lim olishga harakat qilishadi.

Akademik mobillik – talabalar va o‘qituvchilarning mamlakatidagi yoki xorijdagi OTMLarda o‘zaro kelishuv asosida ma’lum bir muddat o‘qishi yoki dars berishini anglatadi. Bu tizim Yevropaning Erasmus dasturi doirasida 1988 yilda tashkil etilgan edi. Britaniya Kengashi bugungi kunga kelib oliy ma’lumotni xalqarolashtirishga jalb qilingan mamlakatlar soni tobora ortib borayotganligini ta’kidlaydi. Xozirda 23 mamlakatda talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishning samarali usullari mavjud. Ular orasida Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni alohida aytib o‘tish mumkin.

Mobil talabalar asosan 2 turga ajratiladi: erkin harakatlanuvchilar va dastur doirasidagi talabalar.

Erkin harakatlanuvchilar – talabalarning o‘z xohish va istaklari bilan ta’lim olish uchun boshqa hududlarga borishi va ta’limni davom ettirishi.

Dastur doirasidagi talabalarga esa OTMLarning boshqa OTMLar bilan o‘zaro kelishgan holda tuzilgan maxsus dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar milliy yoki xalqaro darajada bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda aytish joizki, talaba almashinuv dasturlari talabalarning ma’lum muddat boshqa bir OTMda o‘qishi uchun imkoniyat beradi. Bunda talaba o‘zi o‘qiyotgan OTM bilan hamkor bo‘lgan xorij OTMLaridan birida ma’lum muddat ta’lim olishi va yangi muhit bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Almashinuv dasturlari kamida 1 haftadan 3 oygacha, uzog‘i bilan 6 oydan bir yilgacha bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida Yevropa talabalar almashinuv dasturlaridan biri – Erasmus loyihasi 3 oydan bir yilgacha davom etadi. Ushbu dastur bakalavr, magistratura va amaliyot uchun mo‘ljallangan [3], [4].

Har bir dasturning ijobiy imkoniyatlari bilan birga o‘ziga xos cheklovchi omillari ham mavjud. Akademik mobillikning afzalligi va kamchiliklari haqida aytib o‘tamiz.

Afzalligi shundaki, akademik mobillik – talabalarning boshqa davlatlar madaniyati, turmush tarzi bilan tanishishi, til bilish darajasini yaxshilashi va muloqot qilish ko‘nikmalarini berishi mumkin. Talaba bilmagan narsalarini ko‘proq o‘rganishga, o‘z ustida ishlashga va yangi muhitga moslashib, mustaqil bo‘lishga intiladi. Bundan tashqari ta’lim muassasalarini bir-biri bilan solishtirish imkoniyati, muhim jihatlarini o‘zlashtirish, joriy etish orqali oliy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muammolar va kamchiliklar sifatida ko‘p yillar davomida olib borilgan tadqiqotchilar ma’lumotlarini keltirib o‘taylik:

- Boloniya kelishuvi dasturida qatnashgan talabalarning til bilmasligi maxsus dasturlarni yaxshi o‘zlashtirilmasligiga sabab bo‘lishi;
- OTM larning “kreditlar” tizimining nomuvofiqlik;
- dasturlarda qatnashishni rejalashtirayotgan talabalardagi moliyaviy qiyinchiliklar;

-
- ilgari o‘qigan OTM bilan hozirgi OTM o‘quv soatlarida to‘la muvofiqlik bo‘lmasligi;
 - o‘zini moddiy jihatdan ta‘minlaydigan talabalar 6 oylik o‘qish davomida ish joyidan ajratib qo‘yishi mumkin.

Ichki mobillik – muayyan mamlakat ichidagi bir hududdan ikkinchi hududga, OTMlardagi kelishuv asosida o‘qishni ko‘chirish shakli hisoblanadi. Ushbu jarayon talaba va uning ota-onasiga qulaylik yaratadi [5].

O‘zbekistonda akademik mobillik Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabr 824-sonli qarori “Oliy ta‘lim muassalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizom orqali qonunlahtirilgan. Ushbu nizomning 5-bobi “Akademik mobillik va kreditlarni tan olish “deb nomlangan bo‘lib, unda akademik mobillik tizimi bo‘yicha ta‘lim olish jarayoni to‘la ochib berilgan. Unga ko‘ra, Akademik mobillikni ta‘minlash va talabaning kreditlari oliy ta‘lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- fanlar katalogi;
- belgilangan shakldagi ta‘lim to‘g‘risidagi kelishuv;
- ma‘lumotnoma va sertifikat.

Talabaning o‘qish joyidagi to‘plagan kreditlari miqdori boshqa OTMda to‘plagan kreditlar miqoriga teng bo‘lishi kerak. Shu bilan birga talaba OTMga qaytib kelgach, mobillik davrida to‘plagan kreditlar miqdoriga qarab uni keyingi kursga o‘tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi [2].

Mamlakatimiz OTMlarida ham akademik mobillikni ta‘minlash va qo‘llab quvvatlash keng ko‘lamda olib borilmoqda. OTM ta‘lim yo‘nalishlarida fanlar farqini kamaytirish maqsadida o‘quv rejalarni o‘zaro hamkorlikda ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatimizda akademik mobillikning ichki va xalqaro ko‘rinishi keng targ‘ib qilinishi yaqin kelajakda o‘z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining 2023-yil 15-may “Umumiy o‘rta ta‘lim maktabkari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” 125-son buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlagan “Oliy ta‘lim muassalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.
3. Р.Р. Агишев Программы академической мобильности: особенности и возможности //Распространение Болонского процесса: от деклараций к внедрению на практике: В 3 ч.

-
4. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения. – Казань: КГТУ им. А.Н. Туполева, 2008. – С. 103 -110.
 5. N.K. Suleymanova AKADEMIK MOBILLIK BORASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Pedagog, Respublika ilmiy jurnali. 6-tom /6-son/ 2023-yil/15-iyun.

ОБЩАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ АСТРОНОМИИ

Менглиева Анора Нарзулло кизи

Магистрантка кафедры «Физики и астрономии»

Научный руководитель: проф. Д.И.Камалова

Навоийский государственный педагогический институт

Аннотация. Необходимость всеобщего астрономического образования обусловлена важностью вклада астрономии в создание научной картины мира и формирование научного мировоззрения современных людей.

Ключевые слова: методика, педагогика, дидактика, методы, обучения, знания, умения, навыки, теория, практика, педагог, классификация, форма обучения, методы обучения, индивидуальность, группа.

Астрономия – наука о Вселенной, изучающая основные физические характеристики, состав, строение, происхождение и эволюцию космических объектов и их систем, космические явления и космические процессы.

Во всех исторически сложившихся моделях Вселенной, включающих в себя в самом общем виде все основные теоретические идеи определенного периода развития науки, – механической, электродинамической, квантово-полевой, квантово-релятивистской и современной квантово-космологической, астрономические знания имели особо важное, если не основополагающее, значение.

Уровень развития астрономии определяет основы мировоззрения широких масс населения в данную эпоху, формирует базовые идеи науки и особенности мировоззрения ученых.

Современная астрономия является всеволновой и все корпускулярной, экспериментальной и эволюционной наукой. Космические объекты наблюдаются во всех диапазонах их излучения и исследуются на протяжении всей эволюции и во взаимосвязи между собой. Средства космонавтики позволяют проводить прямое изучение космических тел, явлений и процессов.

Основными достижениями современной астрономии стало:

-
- ✓ объяснение эволюции звезд, основанное на создании их моделей и подтверждающееся данными наблюдений;
 - ✓ исследование общей динамики галактик, объяснение структуры спиральных галактик, открытие активности галактических ядер и квазаров;
 - ✓ установление структуры Метагалактики, достаточно полные представления о процессах во Вселенной в интервале до 10 миллиардов лет от настоящего времени;
 - ✓ подтверждение теории формирования звезд и планетных систем из газопылевых комплексов и теории нестационарной Вселенной;
 - ✓ значительное расширение сведений о природе и физических характеристиках планетных тел Солнечной системы и Солнца, полученные в результате космических исследований.

В результате продолжающейся научно-технической революции объем, и роль астрономических знаний продолжают возрастать; возникают новые разделы астрономии, разрабатываются новые методы и инструменты науки, повышающие широту, точность и результативность астрономических наблюдений.

Значительно возросла практическая значимость астрономических исследований, способствующих развитию физики, химии и других естественных наук, техники и энергетики. Связь астрономии с другими науками, технологией и культурой сложна, многообразна и неоднозначна.

Превращение научно-производственной деятельности технологической цивилизации Земли в крупнейшую силу планетарного масштаба, оказывающей радикальное, по большей части негативное, воздействие на биосферу, атмосферу, гидросферу и геологические процессы родной планеты, ставит невиданные ранее глобальные проблемы перехода человечества на качественно иной путь «концепции устойчивого развития» (УР), принятый конференцией ООН.

С учетом растущей уязвимости современной цивилизации к действию космических факторов задачи земной экологии требуют астрономических наблюдений и наблюдений из космоса не только за Землей, но и за ближним космосом.

Одним из средств выживания человечества в XXI веке станет дальнейшее совершенствование астрономических знаний и космонавтики для привлечения ресурсов и возможностей космического пространства для выхода из энергетического и экологического кризиса (создание систем орбитальных рефлекторов и солнечных электростанций, добыча и доставка с Луны топлива для «экологически чистых» термоядерных установок, удаление с

Земли высокоактивных и высокотоксичных отходов производства, добыча полезных ископаемых на превращенных в спутники Земли астероидах и т.д.).

Вселенская уникальность человечества приобретает в условиях развития технической цивилизации и острых социальных преобразований особое значение. В каждом космическом явлении и процессе видны проявления основных, фундаментальных законов природы. На основе астрономических исследований формируются принципы познания материи и Вселенной, важнейшие философские обобщения. Астрономия продолжает оказывать влияние на развитие всех философских учений.

Все это обуславливает постоянную заинтересованность широких масс населения и особенно подрастающего поколения к астрономии и исследованиям космического пространства, делая знакомство с основными идеями астрономии нужным для каждого современного образованного человека. Астрономическое образование является существенным компонентом общего образования широких масс населения.

Дидактика астрономии (методика обучения астрономии) – раздел дидактики; часть педагогической науки, включающая в себя теорию и практику обучения астрономии. Дидактика астрономии изучает закономерности, пути и средства обучения, воспитания и развития учащихся в процессе обучения астрономии, определяет объем и структуру содержания образования и совершенствует методы и организационные формы обучения астрономии.

Возникновение, становление и развитие дидактики астрономии обусловлено общим прогрессом естественнонаучных знаний с их возрастающим влиянием на жизнь общества и тесно связано с развитием физики, математики и других естественных наук, педагогики и психологии.

Предмет изучения дидактики астрономии – процесс формирования системы астрономических знаний при преподавании астрономии в дошкольных, начальных, средних и высших учебных заведениях, на занятиях вне школы и в результате самообразования, включает в себя следующие педагогические функции:

Общеобразовательную: получение знаний основ астрономии - системы начальных, общих основных и специальных астрономических знаний, включающий в себя формирование астрономических понятий: об астрономии как науке, основных ее разделах, методах и инструментах познания, основных теориях и законах и о физической природе космических процессов, космических объектов и космических явлений; приобретении умений и навыков применения астрономических знаний на практике.

Воспитательную: формирование научного мировоззрения подрастающего поколения в ходе формирования обобщенного научного представления о Вселенной, общих принципах мироздания и системе методов научного познания природы (при раскрытии аспектов выяснения роли и места человека и человечества во Вселенной и отношения «человек-Вселенная»), воспитание нравственности и гуманитарно-эстетических начал.

Развивающую: формирование устойчивых познавательных интересов и развития познавательных возможностей учащихся (овладение разнообразными логическими операциями, подведение к более сложным уровням обобщения, переход от формально-логических форм мышления к качественно более высоким, диалектическим и творческим формам и т.д.).

Методы обучения астрономии основаны на общей теории обучения, на раскрытии закономерностей обучения астрономии, определении содержания, форм и способов организации изучения предмета с учетом психологических особенностей учащихся данного возраста и задач их воспитания и развития.

Процесс обучения астрономии в средних учебных заведениях аналогичен процессам обучения другим естественным наукам и представляет собой совокупность последовательных взаимосвязанных действий преподавателя и учащихся, направленных на сознательное и прочное усвоение основ системы астрономических знаний и формирование научного мировоззрения учащихся, их идейно-нравственное воспитание и приобретение практических навыков применения полученных знаний.

Процесс обучения обуславливается целью астрономического образования подрастающего поколения и характеризуется взаимодействием содержания обучения – основ системы астрономических знаний; преподавания – деятельности преподавателя по созданию мотивов учения у учеников и изложения учебного материала при помощи объяснительно-иллюстративного, проблемного, эвристического и исследовательского методов обучения; школьных астрономических наблюдений и ТСО, руководства самостоятельной работой школьников, проверке их знаний и умений; учения – разносторонней учебной деятельности учащихся, направленной на приобретение астрономических знаний и включающей в себя умственные и физические действия.

Основными закономерностями и категориями дидактики астрономии являются закон соответствия содержания всех элементов и уровней системы школьного астрономического образования достигнутому уровню развития науки астрономии и принцип структурного единства содержания системы астрономического образования на разных уровнях ее формирования с учетом уровней развития и индивидуальных особенностей учащихся.

Список использованных литератур

1. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. "Nutzung pädagogischer kompetenzen beim entwicklung technischen wissens von studierenden im e-learning-umfeld". "Berlin Studies" transnational journal of science and humanities. Germany. Volume 1. Issue 1.5. November. 2021. pp. 405-411.
2. D.I.Kamalova, I.R.Kamolov, M.E.Omonboyeva. "Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education". "International Journal of Early Childhood Special Education". (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Volume. 14. Issue. 06. 2022. pp. 2144-2146. Web of Science.
3. Д.И.Камалова, О.Д.Ўринова, С.О.Хамидова. Особенности изучения основных разделов астрономии. "Научный импульс" Международный научный журнал №6(100). Часть 1. Январь. 2023. 1-3 стр.
4. Д.И.Камалова, С.О.Хамидова. Астрономическое образование в общеобразовательных школах. "Экономика и социум" Международный научный журнал. №1(104). Россия. 2023. 476-479 стр.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARASI

Abdisalomova Sanobar

"Fizika va astronomiya, qo'shimcha matematika" ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna

"Fizika va astronomiya" kafedrasi professori, t.f.d. (DSc), NavDPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning samarasi haqida fikrlar bayon etilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga, pedagogik jarayonning mazmuni takomillashishiga, o'qitishning innovatsion modellari joriy etilishiga imkon berilishi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, fan, innovatsiya, pedagogika, islohot, axborot, laboratoriya.

Hozirgi kunda jamiyatimiz ijtimoiy-ma'rifiy, fan va ta'lim, iqtisodiy, madaniy sohalarda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shunday rivojlanib borayotgan mamlakatimizda har bir soha uchun yetuk malakaga ega bo'lgan sifatli kadrlarni tayyorlab berish bizning asosiy maqsadimizga aylanmoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasida ham zamon bilan ham nafas mutaxassislar yetishtirishimiz zarur. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish, ta'limni kompyuterlashtirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfoiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatdan ham fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi butun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo'lmaydi" deya ta'kidlab 2021-yilda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri fizikani o'qitishni ustivor yo'nalish etib belgilanishini taklif qildilar.

Ta'lim tizimining rivojlanishini hozirgi holatini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Bunda pedagogik jarayonning mazmuni takomillashadi, o'qitishning innovatsion modellari joriy etiladi, shuningdek, o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi. Har qanday ta'lim muassasida o'quv jarayonini axborotlashtirishning zaruriy sharti sifatida zamonaviy axborot texnologiyalarini ham boshqaruvda, ham ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish bo'yicha yagona siyosat va strategiyani ishlab chiqish hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv tarbiya jarayonini yuqori sifatlar o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash dolzarb vazifalar qatorida belgilanadi. Ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish ilm fanning so'nggi yutuqlarini amalga joriyetish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, har tomonlama bilimdon, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi qator vazifalar amalga oshirilishi lozim.

O'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, an'anaviy tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, o'quvchida ilmga qiziqishni oshiradi, ularning ijodiy faoliyatini o'stiradi, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, o'quvchini o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2020-yil 23-sentabrdagi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim jarayonidagi bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o'zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'quvchi va talabalarni o'qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu vazifalarni bajarish mavjud pedagogik jarayonlarni takomillashtirishni, uni hozirgi zamon o'quvchi va talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy pedagogik ta'lim paradigmasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishga, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi.

Vazirlar mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorini hayotga tadbiiq etish, respublika o'quv muassasalaridagi kompyuter texnikasidan samarali foydalanish, o'quv metodik adabiyotlarni va pedagogik dastur vositalarining o'quv jarayonida qo'llash, ijodkor o'qituvchi hamda o'quvchi talabalarni aniqlash va ularning ishlarini ommaviylashtirish, o'qitishni takomillashtirish, mazmunan boyitishga qaratilgan elektron o'quv qo'llanmalarni yaratish va targ'ibot qilishga olimlar, mutaxassislarni jalb etish ayni vaqtda dolzarb masaladir.

Ilm-fan taraqqiy etayotgan zamonaviy jamiyatda rivojlangan axborot-kommunikatsiya tizimlari vositasida turli fan sohalarida yaratilgan yutuqlarning tez yangilanib borishi ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayoniga kompyuterli o'qitish va nazorat qilish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash vazifasini qo'yadi.

Mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlardan foydalanish, elektron darsliklar yaratish, dars jarayonlarini virtuallashtirish, o'qitishda virtual va multivositallardan foydalanish, ta'limning virtual bazasini yaratish kabi vazifalar qo'yilmoqda. Kompyuterlarning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyosdir. Darslarda kompyuter vositalari: multimediyalar, virtual laboratoriyalar va virtual ko'rgazmalarning qo'llanilishi dars samaradorligini oshirishning yana bir omili bo'lib xizmat qiladi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga mosligiga tayanadi. O'qitish jarayonini optimal darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o'qitishning turining universal muloqoti ko'rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, o'qitishning cheklanmaganligi bilan ajralib turadi.

“Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” da ta’kidlab o’tilganidek, milliy istiqlol g’oyasiga yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushoxada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash asosida o’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab etadi. O’quv adabiyotlarining yangi avlodi orasida elektron o’quv adabiyotlari alohida o’rin egallaydi.

